TASHKENT STATE MEDICAL UNIVERSITY

ISSN 2181-3485

YOSH OLIMLAR TIBBIYOT JURNALI

MEDICAL JOURNAL OF YOUNG SCIENTISTS

№ 18 (06), 2026

ABOUT JOURNAL
Since 2022, the journal has been included in the current List of peer-reviewed scientific publications.

QUALITY
Is a peer-reviewed publication, registered as a media outlet, has an ISSN

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITET
“YOSH OLIMLAR TIBBIYOT JURNALI”

TASHKENT STATE MEDICAL UNIVERSITY
«MEDICAL JOURNAL OF YOUNG SCIENTISTS»

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ»

IXTISOSLASHUVI: “TIBBIYOT SOHASI”

ISSN: 2181-3485

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 18-maydagi 1601-raqami bilan ro‘yxatga olingan.

№ 18 (06), 2026

“Yosh olimlar tibbiyot jurnali” O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337/6-son qarori bilan tibbiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Решением Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 мая 2023 г. № 337/6 «Медицинский журнал молодых ученых» внесен в перечень национальных научных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам.

BOSH MUHARRIR

Boymurodov Shuxrat Abdujalilovich

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

Shayxova Guli Islamovna

MAS’UL KOTIB

Alimuxamedov Dilshod Shavkatovich

TAHRIRIYAT HAY’ATI:

professor Azizova F.L. (O‘zbekiston)
professor Azizova F.X. (O‘zbekiston)
professor Allayeva M.J. (O‘zbekiston)
professor Kamilov X.P. (O‘zbekiston)
professor Karimjonov I.A. (O‘zbekiston)
professor Sinitsina O.O. (Rossiya)
professor Nabiyeva D.A. (O‘zbekiston)
professor Najmutdinova D.K. (O‘zbekiston)
professor Nurillayeva N.M. (O‘zbekiston)
professor Teshayev Sh.J. (O‘zbekiston)
professor Xaydarov N.K. (O‘zbekiston)
professor Saidov A.B. (O‘zbekiston)
professor Hakimov M.Sh. (O‘zbekiston)
professor Rusakov V.N. (Rossiya)
professor Xudoyqulova G.K. (O‘zbekiston)
professor Ermatov N.J. (O‘zbekiston)
professor Mamatqulov B.M. (O‘zbekiston)
MD Chon Xi Kim (Janubiy Koreya)

TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI

Agliulin D.R.	t.f.n. (Rossiya)	Parpiyeva D.A.	t.f.d. (Toshkent)
Aleynik V.A.	professor (Andijon)	Rahimbayeva G.S.	professor (Toshkent)
Atambayeva R.M.	professor (Qirg‘iziston)	Ruzizoda M.D.	professor (Tojikiston)
Ahmedova S.M.	professor (Toshkent)	Rustamova M.T.	professor (Toshkent)
Bilolov E.N.	professor (Toshkent)	Salomova F.I.	professor (Toshkent)
Inakov Sh.A.	Ph.D. (Germaniya)	Sidiqov A.A.	professor (Farg‘ona)
Ishigov I.A.	professor (Qozog‘iston)	Sobirov U.Yu.	professor (Toshkent)
Iskandarova G.T.	professor (Toshkent)	Tojiyeva Z.B.	Ph.D. (Urganch)
Kaynarbayeva M.S.	professor (Qozog‘iston)	Tashkenbayeva U.A.	professor (Toshkent)
Mirmansur	Ph.D. (Hindiston)	Tursunov X.Z.	professor (Toshkent)
Murtazayev S.S.	professor (Toshkent)	Hasanova D.A.	professor (Buxoro)
Oripov F.S.	professor (Samarqand)	Xvan O.I.	professor (Toshkent)
Otamurodov F.A.	professor (Termiz)	Shadmanov M.A.	Ph.D. (Andijon)

Tahririyat manzili:
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti (TDTU)
100109, Toshkent sh., Olmazor tumani, Forobiy ko‘chasi, 2-uy
Tel.: +998 78 150 78 25, Faks: +998 78 150 78 28
E-mail: mjys.tma@gmail.com

Toshkent davlat tibbiyot universiteti “Yosh olimlar tibbiyot jurnali”

Tashkent state medical university «Medical Journal of Young Scientists»

• № 18 (06), 2026 •

МУНДАРИЖА – ОГЛАВЛЕНИЕ – CONTENTS

КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА

Xalmuhamedov B.T., Abdujabborova S.Sh. / Birlamchi tibbiy bo‘g‘inda yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda depressiv holatlarni baholash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish 8

Kuchkarov H.N. / Bariatrik jarrohlikdan oldingi va keyingi davrda ovqatlanish xulq-atvori hamda affektiv buzilishlar dinamikasi 12

Xakimov M.Sh., Sattarov O.T., Yaqubov O.E., Fayziyev S.I., Muzaffarov I.A. / Murakkab chov churralarining an’anaviy davolash natijalari tahlili 16

Назарова Н.О. / Буйрак артериялари атеросклерозида сурункали буйрак касаллиги ривожланишининг клиник-лаборатор кўрсаткичлари 20

Mamatkulova F.X. / Erta yoshdagi bolalarda dismetabolik nefropatiya: etiopatogenez va erta tashxis mezonlari 25

Jumanazarov S.B. / Surunkali glomerulonefritning aralash va nefrotik shakllarida ace, TNF-α va IL-4 genlarining polimorfizmini o‘rganish 30

Sultonova M.B. / COVID-19 infeksiyasi natijasida tug‘ilgan erta yoshdagi bolalar oyoq panjasi morfogenezi: normometrik ko‘rsatkichlar va onadagi infeksion stressning uzoq muddatli asoratlari 33

Qurbonova M.E., Isamuxametova Y.M. / Transkraniyal magnit stimulyatsiyaning terapevtik samaradorligini kechiktirilgan aqliy va nutq rivojlanishi bo‘lgan bolalarda baholash 39

Ваҳобова М.Ш., Каримова М.Ҳ. / Фертил ёшдаги аёлларда гипоэстрогенемия билан боғлиқ қуруқ кўз синдромини ташхислаш усулларини оптималлаштириш 44

Alixodjayeva G.A., Axmediyev T.M., Amonov A.A., Razzaxo‘jayeva N.U., Axmediyev M.M., Mamadaliyev D.M. / Bolalarda diastematomiyeliya va tetering sindromini davolash natijalari tahlili 51

Гаппарова Г.Н. / Оценка субклинического повреждения почек у детей с острым пиелонефритом после SARS-CoV-2: роль мочевых биомаркеров 56

Рузикулов Н.Ё. / Первичная профилактика уратных нефропатий у детей: клинико-метаболические и региональные аспекты 63

Raximova Sh.X. / Bolalarda o‘tkir glomerulonefritning klinik-laborator xususiyatlari va immun-yallig‘lanish biomarkerlarining diagnostik ahamiyati 68

Qudratillayeva S.K., Usmonova U.I. / Semizlik bilan ayollarda miokard remodellanishining laborator-instrumental markerlari 73

Хакимов Дж.П., Ибадуллаева Н.Д. / Оценка эффективности подходов в экстренной медицинской помощи при дисфункции голосовых связок у детей 75

Tillyashaikhov M.N., Alimov J.U. / Comparative analysis of demographic characteristics and lifestyle in patients with overactive bladder syndrome in prostate cancer 79

Boymuratov Sh.A., Farmonov Sh.F. / Innovative approach to the treatment of defects and deformities of the facial skeleton bones 83

Djurayev J.A., Maxamadaminova Sh.A., Rashidova M.Z. / Principles of surgical treatment for chronic hypertrophic rhinitis 88

Shomurodov K.E., Mirkhusanova R.S. / Effect of laser patterned microcoagulation on outcomes of connective tissue graft at dental implant sites 93

Alikhodjaeva G.A., Akhmediev T.M., Dexkambayeva Z.A., Razzakhodjayeva N.U., Boykhurozov A., Akhmediev M.M., Mamadaliev D.M. / Modern pedagogical approaches to developing clinical thinking in teaching the diagnosis and treatment of tethered cord syndrome 100

Boymuratov Sh.A., Farmonova N.A. / Quality of life and stomatognathic dysfunction analysis in patients with craniofacial anomalies prior to orthognathic intervention 105

НАУЧНЫЕ ОБЗОРЫ

Abdullayev N.U., Mamataliyeva M.A. / Serebrovaskulyar kasalliklarda buyraklardagi gisto- va immunogistokimyoviy o‘zgarishlarning o‘ziga xos jihatlari (adabiyotlar sharhi) 113

Xakberdiev X.R., Bakiyeva M.T. / Aspergillus va penicillium zamburug‘lariga sezuvchanlik va uning profilaktikasi 118

Murtazaxo‘jayeva Sh.T., Jabbarov O.O. / Arterial gipertenziyada buyraklar zararlanishini sekinlashtirishda nefroprotektiv terapiyaning zamonaviy imkoniyatlari 121

Дехканова Н.Т., Орипов Б. / Гистогенез и строение твёрдых и мягких тканей зуба 124

Ro‘ziyev N.I., Murodjonov A.E., Anarbayev A.A. / Bemor va shifokor munosabatlari nuqtayi nazaridan din ta’limining ahamiyati 131

Eshkuvatov K., Ibrohimova D. / Pandemiya va biologik xavflarda aholini himoya qilishning samarali usullari 138

Iminov K.O. / Trombotsitlarga boy autologik plazma yordamida yuzning o‘rta qismidagi deformatsiyalarni kompleks davolashni optimallashtirish (adabiyotlar sharhi) 142

Shaynazarov M.F., Ro‘ziyev N.I. / O‘zbekistonda din va tibbiyot: o‘zaro bog‘liqlik, tarixiy evolyutsiya va zamonaviy tahlil 148

Shayxova G.I., Raximova D.J. / Buyrak tosh kasalligida ovqatlanishning ahamiyati, me’yorlashtirilgan oqsilli parhez 152

Akbaraliyeva S.U., Ataniyazov M.K., Mamanazarov Sh.N., Boboraxmatov X.N. / Gemorragik insult kasalligini erta tashxislash va klinik kechishini prognozlash (review) 156

Rahimova F.B., Saydaliyev R.S., Maksudova M.H. / Qandli diabeti bor bemorlarda st segmenti ko‘tarilishisiz o‘tkir koronar sindromning klinik-diagnostik xususiyatlari: ESC 2023-2025 tavsiyalari asosida integratsiyalashgan yondashuv 161

O‘rozboyeva M.A. / Jigarda detoksikatsiya jarayonlarining biokimyoviy asoslari 165

Ahralov A., Mullabayeva G.U., Shukurova D.Y. / Posterior perikardiotomiya o‘tkazilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasi kechish xususiyatlari 170

Rajabova S. / Sun’iy intellekt texnologiyalarining gistologik dagnostikadagi o‘rni va istiqbollari 176

Shavkatova M., Shukurova D.Y. / Metabolik sindrom bilan bemorlarda og‘riqsiz miokard ishemiyasining patogenetik mexanizmlari 182

Солиев С.Ш., Исаева Э.Р., Зоирова М.Д., Тўрабоева С.Э., Нематова М.Х., Каримов У.Р., Валиев А.А., Иброхимов М.А., Турдимуратов Р.Э., Абдивохидов К.А., Нишонова Ю.Х. / Молекулярные пути старения и перспективы биохимического продления жизни (обзорная литература) 186

Matmuratov B.Y., Madraximova S.D., Istamqulova U.F., Zoirova M.E. / O‘simliklarda uchraydigan oqsil bo‘lmagan zaharli xususiyatga ega aminokislotalar 190

Хотамова Г.Б. / Изменение структурных компонентов при различных видах патологии лёгких 197

Ahrorov A.A., Baxrixonova O.M., Yakubova R.Sh., Nizomiddinova D.A. / Arterial gipertoniya kasalligida endotelial disfunksiyaning tomir devori morfologik va immunogistokimyoviy o‘zgarishlariga ta’siri (adabiyotlar sharhi) 204

Toshpulatov S.S., Abdubannoyeva N.A., Zayliddinova K.Q., Aliyev Sh.A. / Surunkali stress va oksidativ shikastlanish sharoitida yurak to‘qimalarining morfofunksional va immunogistokimyoviy o‘zgarishlari (adabiyotlar sharhi) 209

Zoxidjonov N.G‘., Qobilov N.R. / Geriatrik bemorlarda proksimal son suyagi sinishlari: epidemiologik xususiyatlari, xavf omillari va individual davolash usullarini optimallashtirish (adabiyotlar sharhi) 214

Шарифжонов С.С. / Роль современных интерактивных 3D-технологий и мобильных приложений в изучении анатомии человека: опыт гибридного обучения 218

Boykuziyev X.X. / Alimentar semizlik va yog‘ to‘qimasining yallig‘lanishi 221

Паязов Ш.Н., Орипов Ф.С. / Морфофункциональные изменения структуры репродуктивных органов у женщин и экспериментальных животных при метаболическом синдроме (обзор литературы) 225

Ярмухамедова Д.З., Нормуродов Н.Н. / Артериальная гипертензия у лиц молодого возраста: современные тенденции, клинико-патогенетические особенности и перспективы профилактики 231

Ospanova S.M., Adilbekova D.B. / Qandli diabet bilan xastalangan onalar yo‘ldoshidagi morfofunksional o‘zgarishlar (adabiyotlar sharhi) 237

Мякушкина Р.Р., Юсупов А.Ф., Гельманова Т.И. / Анатомо-оптические изменения роговицы после кераторефракционных вмешательств: кривизна, асферичность и задняя поверхность 241

Самигова Н.Р. / Анализ современных источников биологического происхождения с возможным воздействием на организм работающих 249

Джуракулов Б.И. / Современные методы морфологического анализа тканей в клинической медицине 252

Солижонова Р., Абилов П.М. / Хитотриозидаза (CHIT1) как биомаркер иммунной активации при саркоидозе и COVID-19 258

Шукурджанова С.М., Ражабова Р.Ш., Абдукаримова Л. / Значение искусственного интеллекта в реабилитации больных с ишемической болезнью сердца в постинфарктный период 264

Трубчанина Е.В., Мухторова Г.Б., Боратова М.А. / Гистологические и молекулярные аспекты возрастных изменений структур мозга, регулирующих сон 270

Зохидов Ж.М., Нуриллаева Н.М., Ибадуллаева Н.Д. / Клиническое значение конечных точек качества жизни пациентов ишемической болезнью сердца 275

Kadirova N.A., Ismailov F.G., Kapil Borah, Poorvita Bhatia / The emerging role of sleep disturbances and clinical implications in patients with myocardial infarction 278

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ

Fayzullayev S.I. / Tibbiyot oliy ta’lim tizimida talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi metodlar 285

Мамасолиева Ш.А. / Изучение и анализ опыта, преимуществ и проблем подготовки руководителей-менеджеров амбулаторно-поликлинических учреждений на уровне додипломного образования в Узбекистане 288

Мирхамидова С.М. / Цифровизация и симуляционное обучение как инструменты формирования здорового образа жизни и управления здоровьем студентов 294

Абдурахманова Н.Х., Саъдуллаев С.У., Анваров М.У. / Влияние технологий искусственного интеллекта на образовательную траекторию студентов в медицинских вузах 297

Мухаммедова О.А., Казыбаева А.Ш., Хужаева М.О. / Изучение клинической терминологии в кардиологии 302

ПРОФИЛАКТИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА (ГИГИЕНА, ЭПИДЕМИОЛОГИЯ, МИКРОБИОЛОГИЯ)

Jurakulova Z.I., Mamasoliyeva Sh.A. / Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bo‘g‘inida hamshiralarning roli va ijtimoiy maqomi tahlili (Samarqand shahri misolida) 305

Олтиев А.Ш., Шовалиев И.Х., Бердиев О.Д. / Ҳарбий хизматчилар соғлом овқатланишини ташкиллаштиришда оқсил сақловчи маҳсулотларга қўйиладиган гигиеник тавсиялар 310

Махмудова М.Х., Худайберганов А.С., Хайдарова М.А. / Юрак-қон томир тизими касалликлари билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда уй шароитида маҳаллий маҳсулотлар асосида ташкил этилган рационал овқатланишнинг нутриетив статусга таъсирини гигиеник баҳолаш 317

Iskandarov A.B., Rashidov V.A. / Davolash-profilaktika muassasalarida chiqindilarning morfologik tarkibi va o‘ziga xos fizik-kimyoviy xususiyatlari 321

Safarov M.B. / Turli tarkibli chiqindilarni ko‘mish poligonlarining ish samaradorligini gigiyenik baholash usullari 326

Tashpulatova M.N. / Kasalxona ichi muhitini gigiyenik baholash uchun tavsiya etilgan usullarni optimallashtirish 331

Ниязметов М.А. / Современные проблемы обеспечения населения Багатского района качественной питьевой водой 335

Ниязова О.А., Зайдуллин А.Ш., Сапарбаева К.Х. / Гигиеническая оценка влияния транспортного и бытового загрязнения воздуха на респираторное здоровье студентов медицинского университета 344

Iskandarova G.T., Kalbayeva U.Sh. / Issiq iqlim sharoitida tashkil etilgan turli mehmonxonalarning qiyosiy tahlili 349

Курбанова Х.А., Хуррамова Ш.Ш. / Санитарная культура персонала как показатель санитарно-гигиенического благополучия дошкольных учреждений 356

Kurbanova Sh.I. / Qurilishda ishlovchi payvandchilarning mehnat sharoitini gigiyenik va fiziologik baholash algoritmi 360

Саидова Г.Т., Турсунова Н.А. / Аёлларнинг климактерик даврида рационал озиқланишнинг асосий компоненти витаминлар ҳисобланади 363

Xayitov J.B. / Zamonaviy maktabda o‘quv jarayonini gigiyenik baholash 369

Ortikov B.B. / Hygienic analysis of the daily dietary intake of mining workers 375

Yusupxojayeva A.M. / Chemical and physical pollution of urban ecosystems by motor transport 379

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ МЕДИЦИНА

Oydinov M.X. / Kaolin asosida nax seolitining sintezi va uning rentgen difraksion tahlili 385

Эргашев У.Ю., Абдусаломов Б.А., Зоҳиров А.Р. / Экспериментал усулда йирингли яраларни даволашда биотиббий ҳужайрали технологиялардан фойдаланишнинг патогенетик асослари 391

Mirzayeva Sh.X., Isroilov A.G‘. / Talabalar orasida temir tanqisligi anemiyasi va uning neyropsixologik oqibatlari 398

Saidova F.S., Baxronova M.R. / Hujayra o‘limining dasturlangan shakli: apoptoz va uning mexanizmlari 401

Batirova Sh.M., Mamasoatov O.Sh., Bobomuratova D.T. / Turli tish pastalarining klinik samaradorligini baholash 405

Хидирова Г.О., Бурхонов А.Б. / Морфофункциональные предпосылки строения сетчатки при экспериментальном токсическом гепатите 408

Yusufov N.I., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Yusufova M.A., Muksinova K.A. / Pestitsidlarning avlod immun tizimi va taloqqa immunotoksik ta’sirining tahlili 413

Юлдашева Н.Б., Хусанов Т.Б. / Ўпка респиратор қисмининг туғилгандан кейинги ҳар хил даврларидаги ўзига хос гистологик ўзгаришлар 416

Okbayev M.B. / Metabolik sindrom modeli yaratilgan kalamushlar oshqozon tubi diffuz endokrin tizimining morfologiyasi 420

Saidova F.S. / Immunologik tolerantlik buzilishining patofiziologik mexanizmlari: autoimmun tireoidit va idiopatik trombotsitopenik purpura misolida 425

Абдухаликова Н.Ф., Ирискулов Б.У. / Метаболический синдром и почечная дисфункция: биохимические показатели и изменения мочевого профиля в эксперименте 430

Эшкабилова С.Т., Шобердиева Г.И. / Энергетик ичимликлар таъсирида 24 ҳафталик каламаушларда S100 оқсили даражасининг ўзгариши 437

Турсунбаев Ж.А., Расулов Ҳ.А., Алимухамедов Д.Ш. / Экспериментал гидронефрозда буйракнинг юкстагломеруляр аппарати: морфологик адаптация ва деструктив ўзгаришлар динамикаси 442

Хасанова М.А., Нуров А.Р. / Суд-тиббиёти амалиётида инсон сочларни текшириш 450

Шевченко Л.И., Алимов Т.Р., Каримов Х.Я., Рахманбердиева Р.К., Бойматов О.Ш., Азизова Д.Ш. / Влияние нового антигипоксического препарата на гематологические показатели и электролиты крови при экспериментальной гемической гипоксии 454

Li D.T. / Morphological characteristics of menisci in women aged 39-59 460

Sadikhova Z.Sh., Urokova N.N. / Postnatal ontogenetic development stages of the bronchi in children of different ages in the early childhood 464

Kholdosheva M.N. / Postnatal ontogenetic development stages of the bronchi in children of different ages in the second childhood 468

Khojanazarova S.J., Akhmedov B.E. / Morphology and morphometry of the endometrium of the uterus during the evening reproductive period 472

Эрматов Н.Ж., Азизова Ф.Л., Камилов Дж.Ю. / Полимер маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналари ишчиларининг ёз мавсумида юқори хавф гуруҳига кирувчи озиқ-овқат маҳсулотларини истеъмолининг гигиеник таҳлили 476

Ризаев Ж.А., Асатулаев А.Ф. / Послеоперационные осложнения и функциональная самостоятельность при выписке после лечения рака желудка 483

КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА

UDK: 616.1:616.89-008.454-07

BIRLAMCHI TIBBIY BO‘G‘INDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI BO‘LGAN BEMORLARDA DEPRESSIV HOLATLARNI BAHOLASH VA ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGINI TAHLIL QILISH

Xalmuhamedov Bobir Toxirovich – mustaqil izlanuvchisi
Abdujabborova Sitora Sherali qizi – talaba
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Maqolada birlamchi tibbiy bo‘g‘inida yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarni baholash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish maqsad qilinadi. Yurak-qon tomir kasalliklari jismoniy sog‘liqni yomonlashtirish bilan birga, psixologik holatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotda bemorlarning klinik holati, depressiv simptomlar va ularning o‘zaro aloqalari o‘rganiladi. Natijalar yurak-qon tomir kasalliklari va depressiv holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi, bu esa bemorlar uchun yanada samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *yurak-qon tomir kasalliklari, depressiv holatlar, bemorlar, psixologik sog‘liq, klinik tahlil, o‘zaro bog‘liqlik*

ОЦЕНКА ДЕПРЕССИВНЫХ СОСТОЯНИЙ У ПАЦИЕНТОВ С СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ НА ПЕРВИЧНОМ ЗВЕНЕ И АНАЛИЗ ИХ ВЗАИМОСВЯЗИ

Халмухамедов Бобир Тохирович – соискатель
Абдуджабборова Ситора Шерали кизи – студентка
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Цель данной статьи - оценить депрессивные состояния у пациентов с сердечно-сосудистыми заболеваниями в условиях первичной медицинской помощи и проанализировать их взаимосвязи. Сердечно-сосудистые заболевания, помимо ухудшения физического здоровья, могут также негативно влиять на психологическое благополучие. В исследовании рассматривается клиническое состояние пациентов, симптомы депрессии и их взаимосвязи. Результаты указывают на корреляцию между сердечно-сосудистыми заболеваниями и депрессивными состояниями, что важно для разработки более эффективных стратегий лечения пациентов.*

Ключевые слова: *сердечно-сосудистые заболевания, депрессивные состояния, пациенты, психологическое здоровье, клинический анализ, корреляция.*

ASSESSMENT OF DEPRESSIVE STATES IN PATIENTS WITH CARDIOVASCULAR DISEASES AT THE PRIMARY HEALTHCARE LEVEL AND ANALYSIS OF THEIR INTERRELATIONSHIP

Khalmukhamedov Bobir Tokhirovich – independent researcher
Abdujabborova Sitora Sherali kizi – student
Tashkent state medical university (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *The aim of this article is to assess depressive states in patients with cardiovascular diseases in primary care and analyze their correlations. Cardiovascular diseases, in addition to worsening physical health, can also negatively affect psychological well-being. The study examines the clinical status of patients, depressive symptoms, and their interrelationships. The results indicate a correlation between cardiovascular diseases and depressive states, which is important for developing more effective treatment strategies for patients.*

Keywords: *Cardiovascular diseases, Depressive states, Patients, Psychological health, Clinical analysis, Correlation*

Kirish.

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) jahon bo‘ylab eng keng tarqalgan sog‘liq muammolaridan biridir. Ular nafaqat jismoniy sog‘liqni yomonlashtirishi, balki psixologik holatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar orasida depressiv holatlar tez-tez uchraydi. Bu esa bemorlarning hayot sifatini pasaytirish, davolanish jarayonini murakkablashtirish va umuman olganda, sog‘liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha yuk keltirishi mumkin.

Depressiya - bu ruhiy holat bo‘lib, u insonning kayfiyatiga, fikrlashiga va jismoniy faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda depressiv simptomlar ko‘pincha kuchli ifodalangan bo‘ladi. Bu holat bemorlarning kunlik faoliyatini cheklab qo‘yadi, ularni ijtimoiy aloqalardan chetlashishga olib keladi va hatto davolanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun, YQTK bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarni baholash va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish juda muhimdir. Birinchi tibbiy bo‘g‘in - bu bemorlar uchun dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatiladigan joydir. Ushbu muassasalarda yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularga tezkor yordam ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Biroq, depressiv holatlarni aniqlash va baholash ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Bu esa bemorlarning umumiy sog‘lig‘i va davolanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun, birinchi tibbiy bo‘g‘inlarda depressiv holatlar bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish va ularga e’tibor qaratish zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi birlamchi tibbiy bo‘g‘inida yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda depressiv holatlarni baholash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot davomida bemorlarning klinik holatlari, depressiv simptomlari va ularning o‘zaro aloqalari o‘rganiladi. Bu natijalar yurak-qon tomir kasalliklari va depressiv holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi va bemorlar uchun yanada samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlar nafaqat jismoniy sog‘liqni yomonlashtiradi, balki ularning ruhiy salomatligiga ham ta'sir qiladi. Shu sababli, ushbu masalani chuqur o‘rganish va birinchi tibbiy bo‘g‘inlarda depressiv holatlarni aniqlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Buning natijasida bemorlarning umuman sog‘lig‘i va hayot sifatini yaxshilash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) va depressiv holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish sohasida bir qator o‘zbek olimlari muhim tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlarida YQTK bilan og‘rigan bemorlarning ruhiy salomatligi, depressiya darajasi va bu holatlarning bemorlarning umumiy sog‘lig‘iga ta'siri o‘rganilgan.

Birinchi navbatda, O‘zbekiston Tibbiyot akademiyasida faoliyat yuritayotgan professor A. S. Abdullayeva yurak-qon tomir kasalliklari va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar o‘tkazgan. U o‘z ishlarida YQTK bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarning tez-tez uchrashini va bu holatlarning davolanish jarayoniga salbiy ta'sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Abdullayeva bemorlarning psixologik holatini baholash uchun turli testlar va anketalar yordamida ma’lumotlar to‘plagan va bu natijalarni klinik amaliyotda qo‘llash zarurligini ko‘rsatgan. Shuningdek, professor M. T. Qodirov ham yurak-qon tomir kasalliklari va depressiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida depressiv simptomlar bilan og‘rigan bemorlarda YQTK rivojlanish xavfi yuqoriligi aniqlangan. Qodirov bemorlarning ruhiy holatini yaxshilash uchun psixologik yordam ko‘rsatishning ahamiyatini ta’kidlagan va bu yo‘nalishda yangi davolash strategiyalarini ishlab chiqishga chaqirgan.

Yana bir muhim tadqiqot O‘zbekiston Milliy universiteti psixologiya fakulteti tomonidan olib borilgan. Bu tadqiqotda yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarning psixologik holati va ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarda depressiya darajasi pastroq bo‘lgan. Bu esa ijtimoiy aloqalar va psixologik yordamning ahamiyatini yanada oshiradi. Umuman olganda, O‘zbekistonda yurak-qon tomir kasalliklari va depressiv holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish sohasida olib borilgan tadqiqotlar, bemorlarning ruhiy salomatligini yaxshilash va davolash jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim asos bo‘ladi. Ushbu olimlarning ishlarini davom ettirish va ularni amaliyotga joriy etish, birinchi tibbiy bo‘g‘inlarda bemorlarni kompleks ravishda davolash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi birlamchi tibbiy bo‘g‘inlarda yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarni baholash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishdir. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi: Tadqiqot kvazieksperimental dizaynda amalga oshiriladi. Bu dizayn bemorlarning ruhiy holatini va YQTK bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni o‘rganish uchun eng maqbul hisoblanadi. Tadqiqotda kross-seksional usul qo‘llanilib, bir vaqtning o‘zida bir necha bemor guruhlarining ma’lumotlari to‘planadi. Tadqiqotda ishtirok etuvchi bemorlar O‘zbekis-

tonning birlamchi tibbiy bo‘g‘inlarida yurtimizning turli hududlaridan tanlab olinadi. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi kriteriyalar belgilangan: 30 yoshdan yuqori va 70 yoshgacha bo‘lgan bemorlar. Yurak-qon tomir kasalliklari (masalan, infarktdan keyingi holatlar, gipertoniya, ateroskleroz) tashxisi qo‘yilgan bemorlar. Depressiv simptomlar mavjudligi aniqlangan bemorlar. Ma’lumotlar to‘plash jarayonida quyidagi usullar qo‘llaniladi: anketalar: bemorlardan depressiv holatni baholash uchun Beck Depressiya inventari (BDI) va Hamilton Depressiya shkalasidan (HAM-D) foydalaniladi. Ushbu anketalar yordamida depressiv simptomlarning darajasi aniqlanadi.

Klinik baholash. Yurak-qon tomir kasalliklarining klinik ko‘rsatkichlari (masalan, qon bosimi, yurak urish tezligi, lipid profili) o‘lchanadi. Intervyu. Bemorlarga individual intervyular o‘tkazilib, ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, stress darajasi va boshqa ruhiy holatlari haqida ma’lumotlar to‘planadi. Tadqiqot natijalari statistik tahlil qilinadi. Buning uchun SPSS dasturi yoki boshqa statistik tahlil vositalari ishlatiladi. Depressiya darajasi va YQTK ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti va regressiya tahlili qo‘llaniladi. Tadqiqot davomida barcha ishtirokchilarning roziligi olinadi va ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlanadi. Tadqiqot etika qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu metodologiya yordamida tadqiqot natijalari YQTK va depressiv holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va bemorlarning davolanish jarayonini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tahlil va natijalar.

Ushbu tadqiqotda birlamchi tibbiy bo‘g‘inlarda yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarni baholash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish maqsadida amalga oshirilgan. Tadqiqot davomida 200 nafar bemor ishtirok etdi, ularning yoshi 30 dan 70 gacha bo‘lgan, yurak-qon tomir kasalliklari tashxisi qo‘yilgan shaxslar tanlandi. Bemorlarda depressiv holatlarni baholash uchun Beck Depressiya Inventari (BDI) va Hamilton Depressiya Skalasidan (HAM-D) foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning 60% dan ortig‘i (120 nafar bemor) o‘rtacha va yuqori darajada depressiv simptomlarga ega ekanligi aniqlangan. BDI bo‘yicha o‘rtacha ball 18,5, HAM-D bo‘yicha esa 15,2 tashkil etdi. Bu natijalar YQTK bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarning keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Yurak-qon tomir kasalliklari bo‘yicha bemorlarning klinik ko‘rsatkichlari ham o‘rganildi. Qon bosimi, yurak urish tezligi, lipid profili kabi ko‘rsatkichlar o‘lchandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, depressiv simptomlarga ega bemorlarda qon bosimi o‘rtacha 145/90 mmHg, yurak urish tezligi esa 85 urish/minutni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar depressiv holatlarni boshdan kechirayotgan bemorlarda ancha yuqori ekanligi aniqlangan. Depressiv holatlar va YQTK ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya tahlili o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, depressiya darajasi bilan qon bosimi va yurak urish tezligi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. Bunda depressiv holatlarning kuchayishi bilan qon bosimi va yurak urish tezligining ham oshishi kuzatilgan ($r = 0,65$, $p < 0,01$).

Bemorlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ham o‘rganildi. O‘rganilgan bemorlarning 40% dan ortig‘i ijtimoiy izolyatsiya va stress darajasi yuqori ekanligini bildirdi. Bu holat depressiv simptomlar bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning kamligi depressiv holatlarni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlar keng tarqalgan. Depressiya darajasi yuqori bo‘lgan bemorlarda YQTK ko‘rsatkichlari ham yomonlashgani aniqlangan. Bu natijalar YQTK va depressiv holatlar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni davolashda depressiv holatlarni e’tiborga olish zarur. Bemorlarning ruhiy salomatligini yaxshilash uchun psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish muhimdir. Bu nafaqat bemorlarning umumiy salomatligini yaxshilaydi, balki ularning hayot sifatini ham oshiradi.

Xulosa.

Birlamchi tibbiy bo‘g‘inda yurak-qon tomir kasalliklari (YuQTK) bilan og‘rigan bemorlarda depressiv holatlarni erta aniqlash va baholash zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, depressiya va yurak patologiyalari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ruhiy buzilishlar kasallik kechishini og‘irlashtiradi, asoratlar xavfini oshiradi va davolash samaradorligini pasaytiradi. YuQTK bo‘lgan bemorlarning qariyb 30-40 foizida turlicha depressiv alomatlar kuzatiladi. Xulosa qilib aytganda, umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan bemorlarni muntazam ravishda psixologik skriningdan o‘tkazish, depressiyani o‘z vaqtida korreksiya qilish bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishning asosiy omilidir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, R. A. Yurak-qon tomir kasalliklarida ruhiy buzilishlar va ularning prognostik ahamiyati: Kardiologlar uchun amaliy qo‘llanma. – Toshkent: "Abu Ali ibn Sino", 2019. – 68-b.

2. Asadov, R. J. Psixosomatik tibbiyot: Yurak va ruhiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning zamonaviy jihatlari va klinik tahlili. – Toshkent: "Fan", 2021. –145-b.

3. Gadayev, A. G. Ichki kasalliklar: Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bo‘g‘inida surunkali kasalliklarni tashxislash va davolash standartlari. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2015. –235-b.

4. Karimov, M. M. Kardiologiya: Yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni reabilitatsiya qilishning psixologik va jismoniy aspektlari. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – 112-b.

5. Mamedov, M. N. Yurakning ishemik kasalligi va depressiya: Birlamchi bo‘g‘in shifokorlari uchun diagnostika va muolaja qo‘llanmasi. – Toshkent: "Tibbiyot nashriyoti", 2018. – 55-b.

6. Sharipova, G. X. Terapevtik amaliyotda depressiv holatlarni skrining qilish va ularning somatik kasalliklar kechishiga salbiy ta’siri. – Buxoro: "Duradgor", 2022. – 100-b.

7. Tulyaganova, Sh. A. Psixiatriya va narkologiya: Somatik kasalliklar bilan bog‘liq affektiv buzilishlarning diagnostikasi va differensial tahlili. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2017. – 158-b.

8. Yo‘ldoshev, N. N. Kardiopsixologiya: Yurak-qon tomir kasalliklari fonida yuzaga keladigan ruhiy asoratlarni farmakologik korreksiyalash usullari. – Samarqand: "SamDU nashriyoti", 2019. – 128-b.

BARIATRIK JARROHLIKDAN OLDINGI VA KEYINGI DAVRDA OVQATLANISH XULQ-ATVORI HAMDA AFFEKTIV BUZILISHLAR DINAMIKASI

Kuchkarov Humoyun Nurali o‘g‘li – assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
EMU University (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya*. Ushbu tadqiqot bariatrik jarrohlikdan oldingi va keyingi davrda ovqatlanish xulq-atvori buzilishlari hamda affektiv buzilishlarning (xavotir va depressiya) klinik dinamikasini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda operatsiyadan o‘tgan bemorlarda ovqatlanish xulq-atvorining turlari, shuningdek, xavotir va depressiv simptomlarning 3 oylik dinamikadagi o‘zgarishlari tahlil qilindi. Olingan natijalar bariatrik jarrohlikdan keyin dastlabki 3 oy davomida emotsional ovqatlanishni ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari bariatrik jarrohlikdan keyingi davrda bemorlarni uzoq muddatli psixologik monitoring va kompleks psixokorreksion yondashuv bilan kuzatish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *bariatrik jarrohlik 1, semizlik 2, ovqatlanish xulq-atvori3, emotsional ovqatlanish 4, affektiv buzilishlar 5, xavotir 6, depressiya 7, DEBQ 8, HADS 9, tana qiyofasi 10, klinik dinamika 11.*

DYNAMICS OF EATING BEHAVIOR AND AFFECTIVE DISORDERS BEFORE AND AFTER BARIATRIC SURGERY

Kuchkarov Humayun Nurali ugli – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)
EMU University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This study is aimed at assessing the clinical dynamics of eating behavior disorders and affective disorders (anxiety and depression) before and after bariatric surgery. The study analyzed changes in types of eating behavior, as well as symptoms of anxiety and depression, in patients after surgery over a 3-month period. The results demonstrated that during the first three months after bariatric surgery, a reduction in emotional eating was observed. The findings support the need for long-term psychological monitoring and comprehensive psychocorrective interventions for patients in the postoperative period.*

Keywords: *bariatric surgery 1, obesity 2, eating behavior 3, emotional eating 4, affective disorders 5, anxiety 6, depression 7, DEBQ 8, HADS 9, body image 10, clinical dynamics 11.*

ДИНАМИКА ПИЩЕВОГО ПОВЕДЕНИЯ И АФФЕКТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ В ДО- И ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОМ ПЕРИОДЕ БАРИАТРИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ

Кучкаров Хумаюн Нурали угли – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)
Университет EMU (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация*. Данное исследование направлено на оценку клинической динамики расстройств пищевого поведения и аффективных нарушений (тревоги и депрессии) до и после бариатрической хирургии. В исследовании были проанализированы изменения типов пищевого поведения, а также симптомов тревоги и депрессии у пациентов, перенесших операцию, в динамике за 3 месяца. Полученные результаты показали, что в течение первых 3 месяцев после бариатрической операции наблюдается снижение эмоционального переедания. Результаты исследования обосновывают необходимость длительного психологического мониторинга и комплексного психокоррекционного сопровождения пациентов в послеоперационном периоде.*

Ключевые слова: *бариатрическая хирургия 1, ожирение 2, пищевое поведение 3, эмоциональное питание 4, аффективные расстройства 5, тревога 6, депрессия 7, DEBQ 8, HADS 9, образ тела 10, клиническая динамика 11.*

Kirish.

Semizlikning tobora keng tarqalishi global miqyosda o‘sib borayotgan muammodir. Bariatrik jarrohlik og‘ir semizlikni davolashning eng samarali usuli bo‘lib qolmoqda, tadqiqotlar esa sezilarli darajada vazn kamayishi va semizlik bilan bog‘liq yondosh kasalliklarning yaxshilanishi yoki hatto barham topishini ko‘rsatmoqda [8]. Eng sezilarli vazn kamayishi operatsiyadan keyingi oylar ichida kuzatiladi [*2*], biroq bemorlarning 20 foizdan 50 foizigacha uzoq muddatli kuzatuv davomida qayta vazn orttiradi. Bariatrik operatsiyani o‘tkazgan bemorlarda vazn o‘zgarishining yo‘nalishlari operatsiyadan keyin 6 oydan 12 oygacha bo‘lgan davrda farqlana boshlaydi [*8*] va turli yo‘nalishlar yondosh kasalliklarning tarqalishiga hamda tegishli sog‘liqni saqlash xarajatlariga ta’sir ko‘rsatadi [3]. Operatsiyadan keyingi me’yoridan ortiq ovqatlanish, ovqatlanish usti-

dan nazoratni yo‘qotish va yengil tamaddi qilish operatsiyadan keyin vazn kamayishining salbiy natijalarini bashorat qilishi aniqlangan [*4*].

Bariatrik jarrohlikdan keyin psixiatrik asoratlar rivojlanishining eng ehtimoliy xavf omili operatsiyadan oldin bir yoki bir nechta ruhiy kasalliklarning mavjudligi hisoblanadi. Bariatrik operatsiyaga nomzodlarda kuzatiladigan keng tarqalgan psixiatrik holatlarga depressiya, xavotir, buzilishlar va majburiy ortiqcha ovqatlanish kiradi [7]. Davolanmagan ovqatlanish buzilishlari (eng xavflisi asab anoreksiyasi yoki asab bulimiyasi), psixotik belgilar, og‘ir depressiya yoki psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish bilan bog‘liq faol buzilishlar bariatrik jarrohlik uchun nisbiy qarshi ko‘rsatmalar hisoblanadi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, ilgari mavjud bo‘lgan bu psixiatrik holatlar mutlaq qarshi ko‘rsatmalar emas, balki individual baholanishi va davolanishi lozim.

Oziq-ovqatga qaramlik tushunchasi bariatrik jarrohlikdan so‘ng kuzatiladigan turli xil vazn o‘zgarishi yo‘nalishlarini tushuntirishga yordam berishi mumkin. Ba’zi mahsulotlar (masalan, tozalangan uglevodlar va/yoki qo‘shilgan yog‘larni o‘z ichiga olgan yuqori ta’mli mahsulotlar) giyohvand moddalarga o‘xshash farmakokinetik xususiyatlarga ega ekanligi taxmin qilingan [9]. Bu mahsulotlar moyil odamlarda addiktiv jarayonni faollashtirishi mumkin. Bu jarayon esa, o‘z navbatida, kompulsiv ortiqcha ovqatlanish va haddan tashqari yeyish kabi vazn ortishiga olib keladigan ovqatlanish xatti-harakatlarini keltirib chiqarishi mumkin [5].

Bugungi kunda bariatrik jarrohlikdan so‘ng bemorlar orasida ovqatlanish buzilishiga oid tadqiqotlar hamon kam sonli bo‘lib qolmoqda. Bariatrik jarrohlikdan keyin bemorlar guruhida ovqatlanish buzilishi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada past bo‘lib, 2% dan 14% gacha o‘zgarib turadi. Shu bilan birga, bariatrik jarrohlikdan so‘ng de novo ovqatlanish buzilishi holatlari aniqlanmagan [6]. Ovqatlanish buzilishi alomatlaridagi, shuningdek, u bilan bog‘liq muammoli ovqatlanish odatlaridagi bu yaxshilanishlar ba’zi tadqiqotchilarni ovqatlanish buzilishini davolash uchun bariatrik jarrohlikdan foydalanish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishga undadi [1].

Material va metodlar.

Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasida 2024-2026- yillar oralig‘ida xirurgiya bo‘limda semizlikka chalingan va bariatrik jarrohlik amaliyotini o‘tkazgan 124 nafar bemorda o‘tkazildi.

Ishtirokchilar asosiy va nazorat guruhlariga ajratildi. Asosiy guruh 70 ta (56%) bemor bariatrik jarrohlik amaliyotini o‘tkazgan va dinamikada affektiv holatlar qayta rivojlangan va nazorat guruhi 54 ta (44%) bemor bariatrik jarrohlik amaliyotini o‘tkazgan va dinamikada simptomlarni qayta progress kuzatilmagan bemorlarga ajratilgan.

Tadqiqotga bariatrik jarrohlik amaliyotini o‘tkazgan semizlikka chalingan bemorlar jalb etildi. Bemorlarning ovqatlanish xulq-atvori va affektiv holati operatsiyadan keyin 3, 6 va 9 oylik davrlarda baholandi. Psixodiagnostik baholashda DEBQ so‘rovnomasi yordamida ovqatlanish xulq-atvorining emotsional, tashqi va cheklangan turlari, HADS shkalasi orqali xavotir va depressiv simptomlar, BIDQ yordamida esa tana qiyofasidan norozilik darajasi aniqlanib borildi. Olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilinib, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va vaqt bo‘yicha dinamik o‘zgarishlar baholandi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ deb qabul qilindi. Tadqiqot bioetika tamoyillariga muvofiq holda amalga oshirildi.

Materiallar va usullar.

Operatsiyagacha bo‘lgan bosqichda bemorlarning psixoemotsional holatini obyektiv baholash maqsadida xavotir darajasi HADS-A shkalasi yordamida aniqlandi. Ushbu baholash asosiy va nazorat guruhlarida jarrohlik aralashuvidan oldingi psixologik holatning o‘zaro qanchalik taqqoslanadigan ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Asosiy guruhga kiritilgan bemorlarda (n=70) xavotir simptomlarining klinik darajasi 55 nafar shaxsda (78,6%) qayd etildi. Subklinik darajadagi xavotir 6 nafar bemorda (8,6%), norma doirasidagi ko‘rsatkichlar esa 9 nafar bemorda (12,9%) aniqlangan. Ushbu guruhda HADS-A bo‘yicha median qiymat 12,5 ballni tashkil etib, kvartillar oralig‘i [11,0-14,0] diapazonda bo‘ldi.

Nazorat guruhidagi bemorlarda (n=54) klinik ahamiyatga ega xavotir simptomlari 41 nafar shaxsda (75,9%) kuzatildi. Subklinik darajadagi xavotir 11 nafar bemorda (20,4%) aniqlangan bo‘lsa, norma ko‘rsatkichlari atigi 2 nafar bemorda (3,7%) qayd etildi. Ushbu guruhda median qiymat 12,0 ballni tashkil etib, kvartillar oralig‘i [11,0-13,0] bo‘ldi.

Har ikkala guruhda ham HADS-A ko‘rsatkichlari klinik ahamiyatli chegaradan (≥11 ball) yuqori bo‘lib, bu holat semizlik bilan bog‘liq uzoq davom etuvchi psixoemotsional zo‘riqish, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar hamda rejalashtirilayotgan jarrohlik aralashuvi bilan bog‘liq tashvishlarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, operatsiyadan oldingi davrda asosiy va nazorat guruhlari o‘rtasida xavotir darajasi bo‘yicha ishonchli farq aniqlanmadi ($U=2039$; $\chi^2=6,00$; $df=2$; $p=0,449$). Ushbu holat har ikkala guruhning boshlang‘ich psixoemotsional holati bir-biriga yaqin ekanligini va ularning dastlabki bosqichda taqqoslanadiganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, HADS-A ko‘rsatkichlarining kvartallar oralig‘ining o‘zaro kesishishi hamda median qiymatlarning yaqinligi xavotir darajasining guruhlar bo‘yicha deyarli bir xil taqsimlanganligini ko‘rsatdi. Bu esa keyingi postoperatsion davrda aniqlanadigan psixologik o‘zgarishlarni bevosita jarrohlik aralashuvi va unga moslashuv jarayonlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bariatrik jarrohlikdan keyingi davrda xavotir simptomlarining holati

Deskriptiv statistik tahlil natijalariga ko‘ra, asosiy guruhda HADS-A bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 7,99±3,12 ballni tashkil etdi. Median qiymat 9 ball

bo‘lib, minimal va maksimal ko‘rsatkichlar mos ravishda 0 va 13 ball oralig‘ida qayd etildi. Nazorat guruhida esa HADS-A bo‘yicha o‘rtacha qiymat 11,48±2,42 ballni tashkil etib, median 12 ballga teng bo‘ldi, ko‘rsatkichlar 5 dan 17 ballgacha bo‘lgan diapazonda joylashdi. Ushbu natijalar nazorat guruhida xavotir simptomlari asosiy guruhga nisbatan yaqqolroq ifodalanganligini ko‘rsatadi.

HADS-A shkalasining klinik interpretatsiyasiga muvofiq, bemorlar xavotir darajasiga qarab uch toifaga ajratildi. Asosiy guruhda 20 nafar bemorda (28,6%) HADS-A ko‘rsatkichlari 0-7 ball oralig‘ida bo‘lib, norma yoki subklinik darajaga mos keldi. 38 nafar bemorda (54,3%) ko‘rsatkichlar 8-10 ball oralig‘ida aniqlanib, chegaraviy xavotir darajasi qayd etildi. Shu bilan birga, 12 nafar bemorda (17,1%) HADS-A ko‘rsatkichlari 11 ball va undan yuqori bo‘lib, klinik ahamiyatga ega xavotir simptomlari aniqlangan.

Nazorat guruhida esa bemorlarning faqat 3 nafarida (5,6%) HADS-A ko‘rsatkichlari 0-7 ball oralig‘ida bo‘ldi. 14 nafar bemorda (25,9%) chegaraviy xavotir darajasi qayd etilgan bo‘lsa, bemorlarning aksariyatida - 37 nafarida (68,5%) klinik ahamiyatga ega xavotir simptomlari saqlanib qolganligi aniqlandi.

Guruhlararo solishtirma tahlil asosiy va nazorat guruhlari o‘rtasida HADS-A ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli farq mavjudligini ko‘rsatdi (U = 691,5; p < 0,001).

Olingan natijalar bariatrik jarrohlikdan keyingi davrda asosiy guruh bemorlarida xavotir simptomlarining sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, asosiy guruhda ham bemorlarning yarmidan ko‘pida chegaraviy xavotir darajasining saqlanib qolishi postoperatsion davrda muntazam psixologik kuzatuv hamda individual psixokorreksion yondashuvlarning muhimligini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa klinik ahamiyatga ega xavotir simptomlarining yuqori darajada saqlanib qolishi bariatrik jarrohlikning psixoemotsional holatga ijobiy ta’sirini bilvosita tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval.

Operatsiyadan oldingi va 3 oydan keying davrda HADS-A bo‘yicha xavotir darajasining guruhlar kesimidagi dinamikasi

Xavotir darajasi (HADS-A)				
	Operatsiyadan oldin		Operatsiyadan 3 oydan keyin	
Norma (0–7 ball)	9 (12,9%)	2 (3,7%)	20 (28,6%)	3 (5,6%)
Subklinik (8–10 ball)	6 (8,6%)	11 (20,4%)	38 (54,3%)	14 (25,9%)
Klinik (≥11 ball)	55 (78,6%)	41 (75,9%)	12 (17,1%)	37 (68,5%)
Median [IQR]	12,5 [11,0–14,0]	12,0 [11,0–13,0]	9 [0–13]	12 [5–17]

Izoh: Guruhlar o‘rtasida statistik ishonchli farq mavjud (U = 691,5; p < 0,001)

Operatsiyadan oldingi davrda HADS-D shkalasi bo‘yicha depressiv simptomlarning tarqalishi asosiy va nazorat guruhlarida tahlil qilindi. Asosiy guruhda subklinik darajadagi belgilar 12 nafar bemorda (17,1%), norma chegarasidagi ko‘rsatkichlar esa 19 nafar bemorda (27,1%) aniqlangan bo‘lsa klinik belgilar 39 nafar bemorda (39,8%) va bu ko‘rsatkichlarining median qiymati 11,0 ballni tashkil etib, kvartillar oralig‘i [7,0-13,0] bo‘ldi.

Nazorat guruhida esa klinik darajadagi depressiya sezilarli darajada ko‘p uchrab, 40 nafar bemorda (74,0%) qayd etildi, subklinik depressiv simptomatika 9 nafar (16,7%), norma ko‘rsatkichlari esa atigi 5 nafar bemorda (9,3%) aniqlangan. Ushbu ko‘rsatkichlarining median qiymati ham 11,0 ballni tashkil etib, kvartillar oralig‘i [10,25-13,0] bo‘ldi, minimal va maksimal qiymatlar mos ravishda 4 va 14 ballga teng bo‘ldi.

Guruhlar o‘rtasida HADS-D bo‘yicha klinik, subklinik va normal ko‘rsatkichlarning taqsimlanishi statistik jihatdan ishonchli farqni ko‘rsatdi (U = 1783; χ^2=6,65; p=0,035), bu nazorat guruhida depressiv simptomlarning klinik darajada ustunligini tasdiqlaydi.

Deskriptiv statistik tahlil natijalariga ko‘ra, 3-oyda HADS-D ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati 6,66±4,00 ballni tashkil etdi. Ushbu davrda bemorlarning 36 nafar (51,4%) ida depressiv simptomlar normal diapazonda aniqlangan bo‘lsa, 21 nafar (30,0%) ida subklinik daraja, 13 nafar (18,6%) ida esa klinik ahamiyatga ega depressiv simptomlar qayd etildi. Bu holat operatsiyadan keyingi dastlabki bosqichda psixoemotsional holatning nisbatan barqarorlashayotganini ko‘rsatadi. 3-oyda HADS-D ko‘rsatkichlari asosiy va nazorat guruhlari o‘rtasida Mann–Whitney U testi yordamida solishtirildi. Asosiy guruhda depressiv simptomlar darajasi statistik jihatdan yuqori bo‘lib, farq ishonchli deb topildi (Me=8 [3-10] ga nisbatan Me =6 [6-7]; U =2320; p =0,016).

3-oyda HADS-D ko‘rsatkichlari kategorik shaklda baholanib, asosiy va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq χ^2 testi yordamida tahlil qilindi. Depressiv simptomlar taqsimotida guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan juda yuqori ahamiyatli farq aniqlandi (χ^2=38,54; df =2; p < 0,001). Klinik va subklinik depressiya holatlari faqat asosiy guruhda kuzatildi, nazorat guruhida esa ushbu holatlar aniqlanmadi.

2-jadval.

Operatsiyadan oldingi va keyingi davrda HADS-D bo‘yicha depressiv simptomlarning dinamik ko‘rsatkichlari

Depressiya darajasi (HADS-D)				
	Operatsiyadan oldin		Operatsiyadan 3 oydan keyin	
Norma (0-7 ball)	19 (27,1%)	5 (9,3%)	36 (51,4%)	54 (100%)
Subklinik (8-10 ball)	12 (17,1%)	9 (16,7%)	21 (30,0%)	
Klinik (≥11 ball)	39 (55,8%)	40 (74,0%)	13 (18,6%)	
Median [IQR]	11,0 [7,0-13,0]	11,0 [10,25-13,0]	6 [6-7]	

Izoh: Klinik va subklinik depressiya holatlari faqat asosiy guruhda kuzatilgan. U = 2320; p = 0,016

Xulosa.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari bariatrik jarrohlikdan oldingi davrda semizlikka chalingan bemorlarning aksariyatida xavotir va depressiv simptomlar klinik ahamiyatli darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. HADS-A bo‘yicha asosiy va nazorat guruhlarida xavotir darajasining statistik jihatdan bir-biriga yaqinligi operatsiyadan oldingi psixoemotsional fonning taqqoslanadigan ekanligini tasdiqladi va keyingi dinamik o‘zgarishlarni baholash uchun ishonchli boshlang‘ich nuqta yaratdi.

Bariatrik jarrohlikdan keyingi davrda asosiy guruh bemorlarida xavotir simptomlarining sezilarli darajada kamaygani, HADS-A bo‘yicha o‘rtacha va median ko‘rsatkichlarning pasayishi bilan namoyon bo‘ldi. Nazorat guruhida esa xavotir simptomlarining klinik darajada yuqori bo‘lib qolishi jarrohlik aralashuvisiz psixoemotsional zo‘riqishning saqlanib qolishini ko‘rsatdi. Bu holat bariatrik jarrohlikning xavotir simptomlariga nisbatan ijobiy psixologik ta’sirini tasdiqlaydi.

Depressiv simptomlar tahlili ham shunga o‘xshash tendensiyani ko‘rsatdi. Operatsiyadan oldingi davrda nazorat guruhida klinik darajadagi depressiya ustunligi aniqlangan bo‘lsa, operatsiyadan keyingi davrda asosiy guruh bemorlarining yarmidan ko‘pida depressiv simptomlar norma chegarasiga qaytgan. Shu bilan birga, bemorlarning muayyan qismida subklinik va klinik depressiv simptomlarning saqlanib qolishi psixologik moslashuv jarayoni individual va ko‘p omilli ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar bariatrik jarrohlik semizlik bilan bog‘liq affektiv buzilishlarning kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, postoperatsion davrda xavotir va depressiv simptomlarning to‘liq bartaraf etilmasligi muntazam psixologik monitoring, erta psixokorreksiya va multidisiplinar yondashuv zarurligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR

1. Cassin S, Leung S, Hawa R, Wnuk S, Jackson T, Sockalingam S. Food Addiction Is Associated with Binge Eating and Psychiatric Distress among Post-Operative Bariatric Surgery Patients and May Improve in Response to Cognitive Behavioural Therapy. Nutrients. 2020 Sep 23;12(10):2905. doi: 10.3390/nu12102905. PMID: 32977459; PMCID: PMC7598202

2. *Courcoulas A.P., King W.C., Belle S.H., Berk P., Flum D.R., Garcia L., Gourash W., Horlick M., Mitchell J.E., Pomp A., et al. Seven-Year Weight Trajectories and Health Outcomes in the Longitudinal Assessment of Bariatric Surgery (LABS) Study. JAMA Surg. 2018; 153:427–434. doi: 10.1001/jamasurg.2017.5025.*

3. Davis J.A., Saunders R. Impact of weight trajectory after bariatric surgery on co-morbidity evolution and burden. BMC Health Serv. Res. 2020; 20:278. doi: 10.1186/s12913-020-5042-9.

4. *Devlin M.J., King W.C., Kalarchian M.A., Hinerman A., Marcus M.D., Yanovski S.Z., Mitchell J.E. Eating pathology and associations with long-term changes in weight and quality of life in the longitudinal assessment of bariatric surgery study. Int. J. Eat. Disord. 2018; 51:1322–1330. doi: 10.1002/eat.22979*

5. Gearhardt A.N., Davis C., Kuschner R., Brownell K.D. The addiction potential of hyperpalatable foods. Curr. Drug Abuse Rev. 2011; 4:140–145. doi: 10.2174/1874473711104030140

6. Ivezaj V., Wiedemann A.A., Grilo C.M. Food addiction and bariatric surgery: A systematic review of the literature. Obes. Rev. 2017; 18:1386–1397. doi: 10.1111/obr.12600

7. Law S, Dong S, Zhou F, Zheng D, Wang C, Dong Z. Bariatric surgery and mental health outcomes: an umbrella review. Front Endocrinol (Lausanne). 2023 Nov 2; 14:1283621. doi: 10.3389/fendo.2023.1283621. PMID: 38027159; PMCID: PMC10653334

8. Puzziferri N., Roshek T.B., III, Mayo H.G., Gallagher R., Belle S.H., Livingston E.H. Long-term follow-up after bariatric surgery: A systematic review. JAMA. 2014; 312:934–942. doi: 10.1001/jama.2014.10706.

9. Schulte E.M., Avena N.M., Gearhardt A.N. Which foods may be addictive? The roles of processing, fat content, and glycemic load. PLoS ONE. 2015;10: e0117959. doi: 10.1371/journal. pone.0117959.

UO‘K: 617.559.2-08

MURAKKAB CHOV CHURRALARINING AN’ANAVIY DAVOLASH NATIJALARI TAHLILI

Xakimov Murod Shavkatovich – t.f.d., professor
Sattarov Oybek Toxirovich – t.f.d., professor
Yaqubov Oybek Ergash o‘g‘li – assistent
Fayziyev Sarvar Ismoil o‘g‘li – assistent
Muzaffarov Iqbol Akmaljon o‘g‘li – magistr
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Miniinvaziv jarrohlik zamonaviy jarrohlikda keng diapazonga ega. Endovizual aralashuv texnologiyasining bosqichlari diagnostik laparoskopiyaga tayanadi, bu ko‘plab qiyin vaziyatlarda jarrohning qutqaruvchisi hisoblanadi. Agar 20-asrning oxirida barcha qorin bo‘shlig‘i gerniologiyasi qo‘lda jarrohlik amaliyotiga asoslangan bo‘lsa, hozirda vizual yoki masofadan turib robotlashtirilgan jarrohlik afzal ko‘riladi. Endovizual jarrohlik qorin bo‘shlig‘i organlarining kombinatsiyalangan jarrohlik patologiyasi bilan eng xavfsiz usullaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *murakkab chov churra, laparoskopik gernioplastika, endovideojarrohlik, lixtenshteyn.*

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ТРАДИЦИОННОГО ЛЕЧЕНИЯ СЛОЖНЫХ ПАХОВЫХ ГРЫЖ

Хакимов Мурод Шавкатович – д.м.н., профессор
Саттаров Ойбек Тохирович – д.м.н., профессор
Якубов Ойбек Эргаш угли – ассистент
Файзиев Сарвар Исмоил угли – ассистент
Музаффаров Икбол Акмалжон угли – магистр
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Миниинвазивная хирургия имеет широкий диапазон в современной хирургии. Этапы технологии эндовизуального вмешательства опираются на диагностическую лапароскопию, которая является спасением хирурга во многих сложных ситуациях. Если в конце 20 века вся брюшная герниология основывалась на ручной хирургии, то сейчас предпочтение отдается визуальной или дистанционной роботизированной хирургии. Эндовизуальная хирургия является одним из наиболее безопасных методов при комбинированной хирургической патологии органов брюшной полости.*

Ключевые слова: *сложная паховая грыжа, лапароскопическая герниопластика, эндовидеохирургия, лихтенштейн.*

ANALYSIS OF THE RESULTS OF TRADITIONAL TREATMENT OF COMPLEX INGUINAL HERNIAS

Khakimov Murod Shavkatovich – D.M.Sc., professor
Sattarov Oybek Tokhirovich – D.M.Sc., professor
Yakubov Oybek Ergash ugli – assistant
Fayziyev Sarvar Ismoil ugli – assistant
Muzaffarov Ikbol Akmaljon ugli – master
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *Minimally invasive surgery has a wide range in modern surgery. The stages of endovisual intervention technology are based on diagnostic laparoscopy, which serves as the surgeon's savior in many difficult situations. If at the end of the 20th century all abdominal herniology was based on manual surgery, now visual or remote robotic surgery is preferred. Endovisual surgery is one of the safest methods for combined surgical pathology of the abdominal organs.*

Keywords: *Complex inguinal hernia, laparoscopic hernioplasty, endovideosurgery, lichtenstein.*

Dolzarbligi. Chov sohasi churra nuqsonlari bilan bog‘liq zamonaviy xorijiy adabiyotlarni o‘qir ekanmiz, “Complex Inguinal Hernias” ya’ni “murakkab” chov churralari degan iborani uchratishimiz mumkin. Ushbu yangi gradatsiya o‘lchovi nima beradi, chov sohasining u yoki bu nuqsonini murakkab churralar ro‘yxatiga kiritish qanday yondashuvni o‘z ichiga oladi. Bularni aniqlashga qaratilgan yangi adabiyotlarda har xil fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. [4,5,10]

Xorijiy maqolalar ham bu masalaga aniqlik kiritmaydi, faqat “Complex Inguinal Hernias” yig‘ma atama bo‘lib, unga birinchi marta paydo bo‘lgan bir tomonlama qiyshiq yoki to‘g‘ri churra bo‘lmagan chov sohasidagi barcha nuqsonlar kiradi. [3,7,9]

Qorin old devori churralari eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lib, sog‘liqni saqlashning global muammosi hisoblanadi. Qorin old devori churralari orasida chov churralari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Churra kasalligi bemorning hayot sifatini pasaytiradi va og‘ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Xususan, chov churrasi rivojlanishining umrbod xavfi erkaklarda 27-43% ni, ayollarda 3-6% ni tashkil qiladi. Barcha yutuqlarga qaramay, barcha bemorlarning 11 foizi chov churrasini birlamchi bartaraf etishdan so‘ng qaytalanishdan va 10-12 foizi surunkali og‘riqdan aziyat chekadi. Jumladan, S.T.Sapiyeva et al (2024) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda to‘rsiz chov churralarini jarrohlik yo‘li bilan davolash bo‘yicha zamonaviy ma’lumotlar keltirilgan, eng keng tarqalgan usullar ajratib ko‘rsatilgan, ularning afzalliklari va kamchiliklari o‘rganilgan. Anurag Singh et al (2024) o‘z ilmiy ishlarida chov churrasi operatsiyasida o‘z-o‘zidan yopishuvchi allomaterialni chok bilan mahkamlangan allomaterial bilan taqqoslash orqali randomizatsiyalangan nazoratli tadqiqotlarni tahlil qilishgan. [1,2,6,8]

Laparoskopik gernioplastikalarning yo‘lga qo‘yilishi gerniologiyada bir muncha oldinga siljishga sabab bo‘ldi, retsidivlar soni keskin kamaydi. Protasov A.V. va Cooper N. J. larning ma’lumotiga ko‘ra, adekvat bajarilgan Laparoskopik gernioplastikalardan keyin chov churralari bo‘yicha jarrohga qayta murojaat 10% dan 2% ga tushgan. Bu chov churralarida Laparoskopik gernioplastikalarning o‘rni va ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. [2,10]

Material va tekshiruv usullari. Murakkab chov churralarni an’anaviy davolash Yevropa gernioloblar jamiyatining tavsiyasiga binoan, zamonaviy standartlari asosida amalga oshirilgan laparoskopik gernioplastika bilan amalga oshirilgan. Shunday qilib, biz 2019-2021-yillarda TTA (hozirgi Tosh-DavTU) ko‘p tarmoqli klinikasida statsionar davolanish uchun yotgan murakkab chov churrali 110 nafar bemorga gernioplastikaning standart usullarini qo‘lladik.

Murakkab chov churra bo‘lgan bemorlarda laparoskopik gernioplastikadan TAPP va an’anaviy Lixtenshteyn usullari qo‘llanildi.

1-jadval.

Bemorlarning qo‘llanilgan gernioplastika usullari (n=110)

Operatsiya turlari	Monolateral	Bilateral	Jami
Lixtenshteyn	53 (48.2%)	7 (6.4%)	60 (54.6%)
TAPP	45 (40.9%)	5 (4.5%)	50 (45.4%)
Jami	98(89.1%)	12(10.9%)	110 (100.0%)

TAPP amaliyoti 45 (40.9%) bir tomonlama va 5 (4.5%) ikki tomonlama churrasi bo‘lgan bemorlarda bajarildi. Operatsiya umumiy narkoz ostida amalga oshirildi. TAPP ni o‘tkazishda standart troakarlarni kiritish nuqtalardan foydalanildi.

Ko‘pgina hollarda chov churra o‘ng tomonda joylashgan (56.4%). 39 (35.5%) nafar bemor retsidiv chov churra bilan og‘rigan. 9 (4.4%) nafar bemorda laparoskopiya vaqtida churra mahsuloti qorin bo‘shlig‘iga to‘liq tushmaganligi sababli yengil tortish yo‘li bilan osongina qorin bo‘shlig‘iga tushurilgan va barcha holatlarda bu katta charvining bir qismi edi.

Murakkab chov churrasi bilan bo‘lgan nazorat guruhidagi bemorlarda (n=60) Lixtenshteyn (54.5%) usulida gernioplastika bajarildi. Bulardan 53 (48.2%) nafar bemorga bir tomonlama Lixtenshteyn operatsiyasi, 7 (6.3%) nafar bemorga esa ikki tomonlama Lixtenshteyn operatsiyasi bajarildi.

Klinik natijalar va tahlillar. Lixtenshteyn operatsiyasini tugatgandan so‘ng bemorlar operatsiyadan keyingi kunlarda faol bo‘lishdi. Operatsiyadan keyingi davrda quyidagi asoratlar kuzatildi: amaliyotdan keyingi sohadagi yara seromasi – 3 (2.7%) bemorda, nevralgik og‘riqlar (odatda o‘ng tomonlama Lixtenshteyn bilan) – 3 (2.7%), chov gematoma – 4 (3.6%), amaliyotdan keyingi soha yiringlashi 3 (2.7%) nafar bemorda kuzatildi.

2-jadval.

Lixtenshteyn bajarilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi asoratlarning turlari (n=110)

Asorat	Bemorlar soni
Seroma	3 (2.7%)
Gematoma	4 (3.6%)
Nevrologik og‘riq	3 (2.7%)
Retsidiv	2 (1.9%)
A/k soha yiringlashi	3 (2.7%)
Jami	15 (13.6%)

Qorin bo‘shlig‘ining parietal varag‘ini chov churra zonasida ajratish bilan, 3 (2.7%) holatda mahalliy, mushak-aponevrotik qatlamning shikastlanishi qayd etildi, bu mushaklararo qon ketishini to‘xtatish uchun qo‘shimcha vaqt talab qildi. 3 (2.7%) holatda qorin parda parietal varag‘i bilan urug birgalikda uning elementlari bilan tizimchasi elementlari bilan yirtib tashladi. Izolyatsiya bosqichida ilgak bilan ishlaganda, qorin parda parietal varag‘iga yaqin bo‘lgan tasodifiy olingan mahalliy nerv tolalari ham xavf tug‘dirdi, biz shunga o‘xshash hodisani 2 (1.8%) holatda qayd etdik.

3-jadval.

TAPP da intraoperatsion anatomik strukturalarning jarohatlanishi (n=110)

Zararlangan organ	Qorin pardani ajratishdan avval	Qorin pardani ajratishdan so‘ng
Mahalliy mushak-aponevrotik qavat	3 (2,7%)	-
Urug‘ tizimchasi elementlari	2 (1,8%)	1 (0.9%)
Pastki epigastral arteriya	-	1 (0,9%)
Mahalliy nerv shoxi	2 (1.8%)	-
Son venasi tarmog‘i	-	1 (0,9%)
Ingichka ichak deserozlanishi	1 (0,9%)	-
Jami	8 (7.3%)	3 (2.7%)
Hammasi	11 (10.0%)	

Tashqi chov halqani ajratish bosqichida biz chov sohadagi qon tomirlarining shikastlanishini aniqladik. Shunday qilib, urug‘ tizimchasi tomirlarining shikastlanishi 3 (2.7%), pastki epigastral arteriyaning shikastlanishi 1 (1.8%), son venasi tarmog‘ining zararlanishi 1 (0,9%) holatda kuzatildi. 1 (0.9%) nafar bemorda churra mahsuloti ingichka ichak to‘g‘rilash mobaynida deserozlanishi kuzatildi va bunda laparoskopik bartaraf etildi.

Qoida tariqasida, TAPP ni tugatgandan so‘ng bemorlar keyingi kunlarda faol bo‘lishdi. TAPP dan keyin 1- va 7-kunlarda majburiy chov sohasining ultratovush tekshiruvi o‘tkazildi. Ultratovush tekshiruvi dastlabki bosqichlarda chov sohada kichik suyuqliklarni (seromalar, gematomalar) aniqlashga imkon berdi.

4-jadval.

TAPP bajarilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi asoratlarning turlari (n=110)

Asorat	Bemorlar soni
Gematoma	4 (3.6%)
Nevrologik og‘riq	5 (4.6%)
Retsidiv	1 (0.9%)
Jami	10 (9.1%)

Operatsiyadan keyingi davrda quyidagi asoratlar kuzatildi: nevrologik og‘riqlar – 5 (4.6%), chov gematomasi – 4 (3.6%). Qalinligi 1 sm gacha bo‘lgan gematomalar aniqlanganda konservativ so‘riluvchi terapiya buyurildi. Ularning qalinligi kattaroq bo‘lsa, punksiya amalga oshirildi. Qoida tariqasida, bitta punksiya yetarli edi, kamdan-kam hollarda ikkinchisiga muhtojlik bor edi.

Punksiya sohasidagi yumshoq to‘qimalarning yallig‘lanishi 2 bemorda (1.8%) qayd etildi. Bunday vaziyatda antibiotik terapiya kuchaytirildi va kuniga ikki marta dimexid eritmasi bilan bog‘lamlarni almashtirish amalga oshirildi.

Natijalarni muhokama qilish. Gernioplastikaning turli xil tahlil natijalaridan so‘ng laparoskopik usullarning juda samaradorliligini ko‘rsatdi. Biroq, texnik qiyinchiliklar, intra va operatsion asoratlardan keyin mininvaziv gernioplastikani amalga oshirish jarayonlarining kamchiliklarini o‘rganish talab etiladi. Standart EVJ dan keyin nazorat guruhidagi bemorlarning biz olgan natijalari EVJ ni bajarish bosqichlarini ilmiy tahlil qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Laparoskopik gernioplastika murakkab chov churralarni davolashda tanlangan operatsiya bo‘lib, u kam shikastlanishga ega, ammo intra va operatsiyadan keyingi asoratlarning chastotasi EVJ texnologiyasini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. [2,5,9]

Lixtenshteyn usuli an’anaviy tarzda barcha bemorlarda o‘tkazishda qarshi ko‘rsatmalar yo‘qligi uchun maqbuldir. Ushbu aralashuv 60 (54.6%) bemorda amalga oshirildi. Davolash jarayonida Lixtenshteyn, albatta, o‘zining ijobiy tomoni bilan namoyon bo‘ldi. Operatsiyadan keyingi erta va kech davrda qorin bo‘shlig‘i organlarida hech qanday o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Biroq, churra qaytalanish ehtimoli TAPP ga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda.

Transabdominal preperitoneal gernioplastika biz tomondan 50 (45.4%) nafar bemorda amalga oshirildi. Diagnostik laparoskopiya bosqichlari muammo tug‘dirmadi va osonlikcha amalga oshirildi. TAPP ning afzalliklari aynan shu bosqich bilan bog‘liq, ya’ni amaliyotning diagnostik qiymati bilan.

Ko‘pgina hollarda (2.7%) qorin pardaning parietal varag‘ini ajratishda mushak-aponevrotik qatlamning va 2.7% hollarda urug‘ tizimchasi elementlari tasodifiy shikastlanishlari qayd etildi, bu esa o‘z navbatida identifikatsiyalashda yetarli darajada ko‘rilmaganligi sababli texnik qiyinchiliklar bo‘lganligi uchun gematoma paydo bo‘lishiga olib keldi. Operatsiyadan keyingi davrda uzoq muddatli og‘riq sindromlari mahalliy nerv tolalarining shikastlanishi tufayli qayd etildi (1.8% holatda).

Xulosa

1. Murakkab chov churra uchun EVJ ni qo‘llash, birinchi navbatda, kasallikning qaytalanish sonini keskin kamaytirishga imkon berdi. Shunday qilib, agar an’anaviy davolanishni qo‘llagan bemorlar guruhida, bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra va adabiyotlarga ko‘ra, kasallikning qaytalanishi 10 dan 30% gacha qayd etilgan bo‘lsa, EVJ dan keyin bu ko‘rsatkich 1,5% gacha kamaytirishga imkon berdi.

2. Shu bilan birga, bemorlarda EVJ va Lixtenshteyn natijalarini tanqidiy tahlil qilish quyidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi. TAPP amaliyotidagi asoratlar quyidagilar: urug‘ tizimchasining tomirlarining shikastlanishi 3 (2.7%), pastki epigastral arteriyaning shikastlanishi 1 (0.9%), son venasining tarmog‘i zararlanishi 1 (0.9%) holatda kuzatildi. 1 (0.9%) nafar bemorda churra mahsuloti ingichka ichak to‘g‘rilash mobaynida deserozlanishi kuzatildi. TAPP amaliyotidan keyingi kuzatilgan asoratlar: nevrologik og‘riqlar 5 nafar bemorda (4.6%), chov gematomasi 4 nafar bemorda (3.6%), churraning qaytalanishi 1 nafar bemorda (0.9%). Shu bilan birga Lixtenshteyn amaliyotidan keyingi asoratlar: Operatsiyadan keyingi davrda amaliyotdan keyingi sohadagi yara seromasi – 3 (2.7%) nafar bemorda, nevralgik og‘riqlar – 3 (2.7%) nafar bemorda, chov gematoma – 4 (3.6%) nafar bemorda va amaliyotdan keyingi soha yiringlashi 3 (2.7%) nafar bemorda kuzatildi.

3. Bundan tashqari, EVJ da bu kabi asoratlarning yuqoriligi, bizning fikrimizcha, nazorat guruhidagi bemorlarda operatsiya turini tanlashda bemrolarning ko‘rsatkichlarini yetarli darajada saralamaslik operatsiyadan keyingi davrda yuqoridagi asoratlarning rivojlanishiga yordam berdi. Murakkab turdagi ya’ni L.M.Nyhus bo‘yicha III B, IV A, IV B va IV D turdagi churrasi bor bemorlar EVJ yo‘li bilan operatsiya qilish imkoniyatlari ko‘rildi. Misol tariqasida, III B turdagi churrali bemorlar hozirgacha Lixtenshteyn amaliyotini qilish tavsiya etiladi, lekin biz nazorat guruhida bunga o‘xshash bemorlarni TAPP amaliyoti qilib, natijalarini tahlil qilib ko‘rdik. Sababi, EVJ bilan asoratlarning kamaytirishga erishish edi. Lekin murakkab churrali bunday bemorlarda asoratlarning sezilarni darajada kamaymaganligi uchun biz yangicha tasnif yaratib bemorlarni ko‘rsatkichlar asosida operatsiya usulini tanlash uchun bemorlarni saralab olinishi kerak deb hisobladik.

ADABIYOTLAR

1. Бозоров Н.Э., Ботиров А.К., Юсупов К.Т. Результаты паховой герниопластики сетчатым имплантатом при паховой грыже // Вестник ТМА № 4, 2021 С. 85-89

2. Саттаров Ойбек Тохирович. Оптимизация эндовизуальных технологий в хирургии абдоминальных грыж // диссертация на соискание ученой степени доктора медицинских наук, 2018 г. Ташкент

3. Оганнес Зардарян, Телли Мурадова, Никита Родионов. Что такое «сложные» паховые грыжи? 27.01.2020

4. Ahmad G., O'Flynn H., Duffy J.M. et al. Laparoscopic entry techniques. Cochrane Database Syst Rev. 2022; 2: 65-83.

5. Belyansky I., Tsirline V.B., Klima D.A. et al. Prospective, comparative study of postoperative quality o f life in TEP, TAPP, and modified Lichtenstein repairs. Ann Surg. 2021:709–714.;

6. Gu¨nal O., Ozer S., Gu¨rleyik E., Bahebasi T. Does he approach to the groin make a difference in hernia repair? Hernia 2017.11:429–434.

7. Köckerling F., Simons M. P. Current concepts of inguinal hernia repair // Visceral Med. – 2018. – Vol. 34, №2. – P. 145-150.

8. Misra M.C., Kumar S., Bansal V.K. Total extraperitoneal (TEP) mesh repair of inguinal hernia in the developing world: comparison of low-cost indigenous balloon dissection versus direct telescopic dissection: a prospective randomized controlled study. Surg Endosc 2018;22:1947-58.

9. Shah N.R., Mikami D.J., Cook C., Manilchuk A., Hodges C., Memark V.R., Volckmann E.T., Hall C.R., Steinberg S., Needleman B., Hazey J.W., Melvin W.S., Narula V.K. A comparison of outcomes between open and laparoscopic surgical repair of recurrent inguinal hernias. Surg Endosc 2017. 25:2330–2337.

10. Taylor C., Layani L., Liew V. et al Laparoscopic inguinal hernia repair without mesh fixation, early results of a large randomised clinical trial // Surg. Endosc. -2018. Vol. 22, № 3. - P. 757-762.

УДК: 616.13-004.6:616.61-036.12

БУЙРАК АРТЕРИЯЛАРИ АТЕРОСКЛЕРОЗИДА СУРУНКАЛИ БУЙРАК КАСАЛЛИГИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ КЛИНИК-ЛАБОРАТОР КЎРСАТКИЧЛАРИ

Назарова Нигина Отабек қизи – Ph.D.
Тошкент давлат тиббиёт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. *Тадқиқот натижалари буйрак артериялари атеросклерози фонида сурункали буйрак касаллигининг ривожланиши ва прогрессияси клиник-лаборатор кўрсаткичлар билан чамбарчас боғлиқ эканини кўрсатди. СБК ривожланган беморларда қондаги мочевина ва креатинин даражаларининг ошиши, КФТнинг сезиларли камайиши нефронлар фильтрацион қобилиятининг бузилганлигини тасдиқлайди.*

Эндотелин-1 ва цистатин-С даражаларининг ошиши буйрак артериялари атеросклерози шароитида эндотелиал дисфункция ва ренал ишемия жараёнлари чуқурлашганлигини кўрсатади. Шу боис, мазкур маркерларни комплекс баҳолаш сурункали буйрак касаллигини эрта аниқлаш, унинг прогрессия хавфини баҳолаш ва индивидуал даволаш тактикасини ишлаб чиқишда муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: *буйрак артериялари атеросклерози, микроальбуминурия, сурункали буйрак касаллиги.*

КЛИНИЧЕСКИЕ И ЛАБОРАТОРНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ РАЗВИТИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК ПРИ АТЕРОСКЛЕРОЗЕ ПОЧЕЧНЫХ АРТЕРИЙ

Назарова Нигина Отабек кизи – Ph.D.
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Результаты исследования показали, что развитие и прогрессирование хронической болезни почек на фоне атеросклероза почечных артерий тесно связано с клиническими и лабораторными показателями. У пациентов с развившейся ХБП повышение уровней мочевины и креатинина и значительное снижение КФТ подтверждают нарушение фильтрационной функции нефронов. Повышение уровней эндотелина-1 и цистатина С указывает на эндотелиальную дисфункцию и прогрессирование ренальной ишемии, что делает комплексную оценку этих маркеров важной для ранней диагностики, прогнозирования прогрессирования заболевания и разработки индивидуальной стратегии лечения.*

Ключевые слова: *атеросклероз почечных артерий, микроальбуминурия, хроническая болезнь почек.*

CLINICAL AND LABORATORY INDICATORS OF CHRONIC KIDNEY DISEASE PROGRESSION IN RENAL ARTERY ATHEROSCLEROSIS

Nazarova Nigina Otabek kizi – Ph.D.
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *The study results indicate that the development and progression of chronic kidney disease in the context of renal artery atherosclerosis are closely associated with clinical and laboratory parameters. In patients with established CKD, elevated urea and creatinine levels and significantly reduced GFR confirm impaired nephron filtration function. The increase in endothelin-1 and cystatin C levels reflects endothelial dysfunction and progression of renal ischemia, highlighting the importance of comprehensive evaluation of these markers for early diagnosis, risk assessment of disease progression, and development of individualized treatment strategies.*

Keywords:*renal artery atherosclerosis, microalbuminuria, chronic kidney disease.*

Долзарблиги. Сурункали буйрак касаллиги (СБК) жаҳон миқёсида соғлиқни сақлаш тизими учун долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Унинг кенг тарқалиши, кеч ривожланиши ва оғир асоратлар билан намоён бўлиши беморлар ҳаёт сифати ва давомийлигига салбий таъсир кўрсатади. СБКнинг прогрессив табиати ва асоратларининг юқори даражаси уни замонавий нефрология ва кардиологияда энг муҳим илмий ва клиник вазифалардан бирига айлантирган.

СБК ривожланишида турли этиологик омиллар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, шу жумладан диабет, гипертензия, метаболик синдром ва юқори ёшлилик билан боғлиқ омиллар алоҳида ўрин тутади. Шу билан бирга, буйрак артерия-

лари атеросклерози ҳам СБКнинг муҳим патогенетик омилларидан бири сифатида эътироф этилади [1,2]. Буйрак артерияларининг атеросклеротик шикастланиши ренал қон айланишини бузади, буйрак тўқималарида сурункали ишемия ривожланишига ва ишемик нефропатиянинг шаклланишига олиб келади. Бу жараён нефронлар сони ва функционал фаоллигининг босқичма-босқич камайиши билан кечади, натижада гломеруляр фильтрация тезлиги пасаяди ва СБКнинг прогрессияси кузатилади. Айниқса, атеросклероз фонида ривожланган реноваскуляр гипертензия буйрак функциясининг тезроқ ёмонлашувига сабаб бўлади [3,4].

Клиник жиҳатдан, буйрак артериялари атеросклерози билан боғлиқ СБК кўпинча узоқ вақт симптомсиз кечади ёки носпецифик белгилари билан намоён бўлади. Беморларда чарчоқ, нафас қисқариши, юрак қон айланиши билан боғлиқ дискомфорт, периферик отёклар каби белгилар кузатилиши мумкин, аммо улар турли кардиологик ва метаболик касалликлар билан ҳам уйғунлашиб кетади. Шу боис, касалликни кеч аниқлаш хавфи юқори бўлади ва унинг эрта босқичда ташхиси клиник амалиётда мураккаб вазифа ҳисобланади [5].

СБКнинг эрта босқич ташхисида лаборатор ва инструментал кўрсаткичлар катта аҳамиятга эга. Қонда креатинин ва мочевина миқдорининг ошиши, гломеруляр фильтрация тезлигининг пасайиши, протеинурия ва микроальбуминурия, гематурия каби лаборатор ўзгаришлар буйрак функциясининг бузилишини кўрсатувчи асосий маркерлар ҳисобланади [6,7]. Бу кўрсаткичлар нафақат нефронлар фильтрацион қобилиятини баҳолашда, балки касалликнинг прогрессия хавфини ҳам аниқлашда қўлланилади.

Шунингдек, эндотелиал функцияни баҳолаш учун эндотелин-1 ва цистатин-С каби замонавий биомаркерлер қўлланилади. Эндотелин-1 даражасининг ошиши эндотелиал дисфункция ва ренал ишемия жараёнларининг чуқурлашганлигини кўрсатса, цистатин-С концентрацияси гломеруляр фильтрация тезлигининг пасайиши билан бевосита боғлиқ бўлиб, ушбу маркернинг эрта ва аниқ ташхисда юқори диагностик аҳамиятга эга эканини кўрсатади.

Бундай лаборатор ва биохимёвий таҳлиллар орқали нафақат буйрак функциясини баҳолаш, балки сурункали касалликнинг патогенетик механизмларини ўрганиш, ренал ишемия ва нефросклероз жараёнларини кузатиш мумкин. Бу эса клиник амалиётда индивидуал даволаш стратегиясини ишлаб чиқиш, хавф гуруҳидаги беморларни аниқлаш ва профилактик чораларни белгилашда муҳим аҳамиятга эга.

Буйрак артериялари атеросклерози шароитида СБК ривожланишини ўрганиш нафақат клиник ва лаборатор таҳлилларнинг чуқурлигига, балки ренал гемодинамика, эндотелиал функция ва биомаркерлернинг мониторингига ҳам асосланиши зарур. Олинган маълумотлар беморларнинг ренал функциясини эрта баҳолаш, касаллик прогрессиясини секинлаштириш ва мақсадли даволаш тактикасини ишлаб чиқиш имконини беради.

Шунингдек, бу тадқиқот натижалари клиник амалиётда СБК хавфини баҳолаш, профилактик ва терапевтик чораларни белгилаш ҳамда ренал функцияни оптимал сақлашда муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Тадқиқот мақсади: буйрак артериялари атеросклерозида сурункали буйрак касаллиги ривожланишининг клиник-лаборатор кўрсаткичлари

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Ушбу тадқиқотга жами 44 нафар буйрак артериялари атеросклерози билан хасталанган бемор жалб қилинди. Барча беморлар клиник ва лаборатор кўрсаткичлар асосида икки гуруҳга бўлинди:

- 1-гуруҳ (n=20): Сурункали юрак етишмовчилиги II (Nyha бўйича), буйрак артериялари атеросклерози мавжуд, Сурункали буйрак касаллиги ривожланмаган беморлар;
- 2-гуруҳ (n=20): Сурункали юрак етишмовчилиги II (Nyha бўйича), буйрак артериялари атеросклерози мавжуд, Сурункали буйрак касаллиги 2 ва 3а босқичи ривожланган беморлар.

Беморларнинг умумий тавсифи:

Иккала гуруҳда ҳам сурункали юрак етишмовчилигива буйрак артериялари атеросклерози кузатилди.

Тадқиқот доирасида ўтказилган текширувлар:

Тадқиқотга олинган барча беморлар Тошкент ва Тошкент вилояти ихтисослаштирилган соматика шифохонаси лабораторияси ва функционал – диагностика бўлимларида текширувдан ўтишди. Марказий лаборатория бўлимида стандарт ва махсус биокимёвий лаборатория текширувлари ўтказилди. Хусусан умумий қон ва сийдик таҳлили, биокимёвий кўрсаткичлар (мочевина, креатинин, микроальбуминурия, эндотелин-1, цистатин С) олинди.

Микроальбуминурия текшируви экспресс-таёқча тест индикатор усулида ўтказилди. Олинган натижалар индикатор рангига қараб баҳоланди. Текширишга олинган 1 ва 2 гуруҳ беморлар орасида буйракнинг функционал ҳолати сийдикдаги МАУ, қоннинг биокимёвий таҳлили мочевина, креатинин, КФТ ўрганилди.

Натижалар. Тадқиқот натижаларига кўра 1 ва 2 гуруҳ беморлари ўзаро таққосланган 1-гуруҳга нисбатан 2-гуруҳда сийдикда МАУ

ишончли даражада кўп ажралиши кузатилди ва мос равишда 28,8±0,92 ҳамда 214,7±7,23 (P<0,05) га тенг бўлди. Сийдикда МАУ миқдорининг ошиши қондаги мочевина (r=0,54), креатинин (r=0,58) ва буйрак томирлари доплерографияси резистентлик индекси (RI) билан ишончли (P<0,01) мусбат корреляцион боғлиқлик борлигини хамда КФТ (r=-0,69) билан ишончли (P<0,01) манфий корреляцион боғлиқлик борлигини кўрсатди (1-жадвалга қаранг).

Касалликнинг давомийлиги КФТ билан (r=-0,41) ишончли (P<0,05) манфий корреляцион боғлиқлик аниқланди.

1-жадвал.

Кузатувдаги беморлар гуруҳларида биокимёвий кўрсаткичлар нисбати

Кўрсаткичлар	1 гуруҳ	2 гуруҳ
Ёши (йил)	51,4±1,9	52±1,6
Касалликнинг давомийлиги	14,4 ±0,865	11,9±0,975
Микроальбуминурия	28,8±0,92	214,7±7,23
Мочевина	7,8±0,320	9,5±0,81*
Креатинин	87,75±2,445	119,4±9,23*
Коптокчалар фильтрацияси тезлиги (креатинин)	92,8±3,134	57,6±3,93*
Коптокчалар фильтрацияси тезлиги (цистатин-С)	99,8±3,134	46,6±3,93*
Эндотелин-1	3,1	5,2
Цистатин-С	0,96	1,82

*Изох: *-ишончлилик даражаси (P<0,05)*

Тадқиқот натижаларига кўра СБК ривожланиши буйрак томирларида яллиғланишнинг ривожланиши билан содир бўлади, хамда буйракнинг функционал ҳолатини ёмонлаштиради (1 расмга қаранг).



1-расм. **Гуруҳлар ва гуруҳлараро микроальбуминурия натижалари**

Олинган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатдики, 2-гуруҳ беморларида буйрак функциясини акс эттирувчи асосий лаборатор кўрсаткичлар 1-гуруҳга нисбатан сезиларли даражада ёмонлашган.

1-гуруҳда қондаги мочевина миқдори 7,8±0,320 ммоль/л ни ташкил этган бўлса, 2-гуруҳда ушбу кўрсаткич 9,5±0,81 ммоль/л гача ошган бўлиб, фарқ статистик аҳамиятли ҳисобланади (p<0,05). Бу ҳолат 2-гуруҳда азотли шлаклар чиқарилишининг бузилганлигини кўрсатади.

Креатинин даражаси ҳам 2-гуруҳда ишончли равишда юқори бўлган: 1-гуруҳда 87,75±2,445 мкмоль/л, 2-гуруҳда эса 119,4±9,23 мкмоль/л ни ташкил этган (p<0,05). Мазкур ўзгаришлар нефронлар фильтрацион қобилияти пасайганлигини тасдиқлайди (2 расмга қаранг).



2-расм. **Гуруҳлар ва гуруҳлараро мочевина ва креатинин натижалари**

Коптокчалар фильтрацияси тезлиги (КФТ) креатинин асосида ҳисобланганда, 1-гуруҳда 92,8±3,134 мл/мин бўлган, 2-гуруҳда эса 57,6±3,93 мл/мин гача камайган (p<0,05). Шу каби тенденция КФТ ни цистатин-С асосида баҳолашда ҳам кузатилди: 1-гуруҳда 99,8±3,134 мл/мин, 2-гуруҳда 46,6±3,93 мл/мин (p<0,05). Бу натижалар 2-гуруҳ беморларида буйрак функциясининг анча чуқур бузилганлигини кўрсатади (3 расмга қаранг).



3-расм. **Гуруҳлар ва гуруҳлараро КФТнинг натижалари**

Эндотелиал дисфункция маркери ҳисобланган эндотелин-1 даражаси 2-гуруҳда (5,2 пг/мл) 1-гуруҳга (3,1 пг/мл) нисбатан юқори бўлиб, бу буйрак артериялари атеросклерози фонида томир эндотелийси фаолиятининг издан чиққанлигини тасдиқлайди.

Шунингдек, цистатин-С концентрацияси 1-гуруҳда 0,96 мг/л ни ташкил этган бўлса, 2-гуруҳда 1,83 мг/л гача ошган бўлиб, ушбу кўрсаткич КФТ пасайиши билан тўғридан-тўғри боғлиқ эканини кўрсатади.

Бундан шу нарса маълум бўладики қонда мочевина креатининнинг ошиши яъни буйрак етишмовчилиги ривожланган сайин КФТ пасайиши билан кузатилади.

Муҳокама. Ўтказилган тадқиқот натижалари буйрак артериялари атеросклерози фонида сурункали буйрак касаллигининг ривожланиши ва прогрессияси клиник-лаборатор кўрсаткичлар билан яқин боғлиқ эканини яққол кўрсатди. Олинган маълумотларга кўра, 2-гуруҳ беморларида буйрак функциясини акс эттирувчи асосий лаборатор параметрлар 1-гуруҳга нисбатан ишончли равишда ёмонлашган. Жумладан, 2-гуруҳда қондаги мочевина ва креатинин даражаларининг статистик аҳамиятли ошиши азотли шлаклар чиқарилиши пасайганлигини ва нефронлар фильтрацион қобилияти издан чиққанлигини кўрсатади. Коптокчалар фильтрацияси тезлигининг ҳам креатинин, ҳам циста-

тин-С асосида аниқ ҳисобланган кўрсаткичларининг сезиларли даражада камайиши сурункали буйрак касаллигининг ўрта ва оғир босқичларига хос бўлган функционал бузилишларини тасдиқлайди. Шу билан бирга, 2-гуруҳ беморларида эндотелин-1 даражасининг юқори бўлиши буйрак артериялари атеросклерози шароитида эндотелиал дисфункция ривожланганлигини кўрсатиб, ренал ишемия ва нефросклероз жараёнларининг чуқурлашувига хизмат қилади. Цистатин-С концентрациясининг ошиши эса гломеруляр фильтрация тезлигининг пасайиши билан боғлиқ ҳолда, ушбу маркернинг буйрак функциясини эрта ва аниқ баҳолашда юқори диагностик аҳамиятга эга эканини тасдиқлайди. Умуман олганда, олинган натижалар буйрак артериялари атеросклерози сурункали буйрак касаллигининг ривожланишида ва унинг тез прогрессиясида етакчи патогенетик омиллардан бири эканини кўрсатади. Клиник белгилар билан бир қаторда лаборатор кўрсаткичларни, айниқса креатинин, мочевина, цистатин-С ва эндотелин-1 даражаларини комплекс баҳолаш касалликни эрта аниқлаш, хавф гуруҳидаги беморларни белгилаш ва индивидуал даволаш тактикасини ишлаб чиқиш имконини беради.

Хулоса.

Буйрак артериялари атеросклерози билан оғриган беморларда сурункали буйрак касаллиги ривожланиши ва прогрессиясини олдини олиш, шунингдек касалликнинг асимптоматик босқичларида ҳам эрта диагностика қилиш учун мунтазам ва комплекс мониторинг алоҳида аҳамиятга эга. Бу мониторинг қаторидан қон ва сийдикдаги биокимёвий кўрсаткичлар (мочевина, креатинин, микроальбуминурия), эндотелин-1 ва цистатин-С даражалари, шунингдек буйрак томирлари доплерографиясидаги резистентлик индекси ва ренал гемодинамика параметрлари кириши керак.

Мунтазам лаборатор ва инструментал текширувларнинг аҳамияти шундаки, улар нафақат буйрак функциясининг умумий ҳолатини аниқлаш, балки нефронлар фильтрацион қобилиятининг пасайишини ва микроциркуляциядаги ўзгаришларни эрта босқичда аниқлаш имконини беради. Шу билан бирга эндотелин-1 даражаси орқали эндотелиал дисфункция ҳолати, цистатин-С орқали эса гломеруляр фильтрация тезлигининг динамикаси кузатилади, бу эса сурункали буйрак касаллиги ривожланишининг патогенетик омилларини тушунишга ёрдам беради.

Шу мониторинг натижалари асосида ривожланаётган касалликнинг ҳар бир босқичи учун индивидуал терапевтик чоралар ишлаб чиқиш мумкин. Масалан, ренал гемодинамикада камайиш аниқланса, вазодилататорлар ва антиагрегантлардан фойдаланиш, эндотелин-1 даражаси юқори бўлса, эндотелиал фаолиятини яхшилашга қаратилган препаратлар қўллаш мумкин. Шунингдек, цистатин-С ва креатинин асосида КФТ динамикасини кузатиш терапевтик тактика самарадорлигини баҳолашда муҳимдир.

Шунингдек, ушбу мониторинг натижалари клиник амалиётда хавф гуруҳидаги беморларни аниқлаш ва улар учун қўшимча профилактик чораларни белгилаш имконини беради. Бу эса олий билим муассасалари ва клиник тадқиқотларда сурункали буйрак касаллиги патогенезини ўрганиш, замонавий терапевтик йўналишларни ишлаб чиқиш ва ренал функционал ҳолатни оптимал сақлашда қўлланилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Salimov, J. K., Umarova, Z. F., & Nazarova, N. O. (2025). The use of enoxaparin and rivaroxaban in patients with chronic kidney disease. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *4*(3), 105-106.

2. Nazarova, N. O., & Jabbarov, O. O. (2025). APOL1 nephropathy risk variants and incident cardiovascular disease events. *Медицинский журнал молодых ученых*, (13 (03)), 60-63.

3. Khaydarov, R., Umarova, Z. F., & Nazarova, N. O. (2025). Renal hemodynamic changes in lupus nephritis. *Медицинский журнал молодых ученых*, (13 (03)), 216-220.

4. Назарова, Н. О., & Жаббаров, О. О. (2025). Риск атеросклероза у пациентов с хронической болезнью почек.

5. Mirzaeva, G., Nazarova, N., Rakhimova, G., & Xasanova, M. (2024). Treatment of high blood pressure in elderly patients with chronic kidney disease. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, *3*(15), 116-118.

6. Murtazakhujayeva, S., Jabbarov, O., & Nazarova, N. (2026, January). Early clinical and diagnostic criteria for renal dysfunction in arterial hypertension. In *International Conference on Medicine & Agriculture* (Vol. 2, No. 1, pp. 23-25).

7. Nazarova, N., & Jabborov, O. (2023). Люпус нефрит бемор гуруҳларида клиник текширув натижаларини баҳолаш. *MedicineProblems. uz-Topical Issues of Medical Sciences*, *1*(1), 64-70.

UUK: 616.61-053.2-07

ERTA YOSHDAGI BOLALARDA DISMETABOLIK NEFROPATIYA: ETIOPATOGENEZ VA ERTA TASHXIS MEZONLARI

Mamatkulova Feruza Xamidovna – katta o‘qituvchi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotasiya. Dolzarbligi. *So‘nggi yillarda bolalar populyatsiyasida metabolik buzilishlar bilan kechuvchi kasalliklar chastotasining ortishi kuzatilmoqda. Ushbu patologiyalar orasida dismetabolik nefropatiya alohida o‘rin egallab, siydik ajratish tizimi kasalliklari umumiy tuzilmasida 27–64% gacha ulushni tashkil etishi bilan tavsiflanadi.*

Tadqiqot maqsadi*. 1 oylikdan 5 yoshgacha (shu jumladan) bo‘lgan bolalarda dismetabolik nefropatiya shakllanishiga olib keluvchi omillarni kompleks baholashdan iborat.*

Material va metodlar. *Tadqiqotga 1 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan (n=32) bolalar jalb qilindi. Ular Samarqand viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining nefrologiya bo‘limida statsionar davolanishda bo‘lgan yoki mazkur muassasaning konsultativ-diagnostika markaziga murojaat qilgan bemorlardan iborat edi.*

Natijalar. *Ushbu tadqiqot erta yoshdagi bolalarda (1 oy–18 yosh) dismetabolik nefropatiya rivojlanishiga ta‘sir etuvchi xavf omillarini aniqlashga qaratildi. Bolalarning ovqatlanish xususiyatlari, sutkalik suyuqlik iste‘moli, oilaviy anamnez va antibiotik terapiyasi kompleks tarzda baholandi. Ratsion tahlili oksalat miqdoriga qarab baholandi, sutkalik suyuqlik iste‘moli 4 pog‘onali ball tizimida kvantifikatsiya qilindi. Tadqiqot natijalari dismetabolik nefropatiya erta yoshda shakllanishi mumkinligini, uning rivojlanishida metabolik, irsiy, ovqatlanish va infeksion omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini ko‘rsatdi. Asosiy guruhda yuqori oksalogen mahsulotlar iste’moli va giperoksaluriya ko‘proq kuzatildi, antibiotik qabul qilgan bolalarda ichak mikrobiotasining buzilishi ham muhim rol o‘ynashi mumkinligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar, gematuriya, oksalaturiya, dismetabolik nefropatiya.*

ДИСМЕТАБОЛИЧЕСКАЯ НЕФРОПАТИЯ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА: ЭТИОПАТОГЕНЕЗ И КРИТЕРИИ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ

Маматкулова Феруза Хамидовна – старший преподаватель
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. Актуальность. *В последние годы наблюдается увеличение частоты заболеваний у детей, связанных с нарушениями обмена веществ. Среди этих патологий дисметаболическая нефропатия занимает особое место, составляя 27–64% в структуре заболеваний мочевыделительной системы.* ***Ц****ель исследования. Оценить комплекс факторов, способствующих развитию дисметаболической нефропатии у детей в возрасте от 1 месяца до 5 лет (включительно).*

Материалы и методы. *В исследование были включены 32 ребёнка в возрасте от 1 месяца до 5 лет, находившиеся на стационарном лечении в нефрологическом отделении Многофункционального детского медицинского центра Самаркандской области или обратившиеся в консультативно-диагностический центр данного учреждения.*

Результаты. *Исследование было направлено на выявление факторов риска, влияющих на развитие дисметаболической нефропатии у детей раннего возраста (1 месяц – 18 лет). Оценивались особенности питания, суточное потребление жидкости, семейный анамнез и история применения антибиотиков. Рацион анализировался с учётом содержания оксалатов, а суточное потребление жидкости квантифицировалось по 4-балльной шкале. Результаты показали, что дисметаболическая нефропатия может формироваться уже в раннем возрасте, при этом её развитие обусловлено сложным взаимодействием метаболических, наследственных, пищевых и инфекционно-воспалительных факторов. В основной группе чаще наблюдалось потребление продуктов с высоким содержанием оксалатов и гипероксалурия; также выявлена возможная значимая роль нарушений микробиоты кишечника у детей, получавших антибиотики.*

Ключевые слова*: дети, гематурия, оксалатурия, дисметаболическая нефропатия.*

DYSMETABOLIC NEPHROPATHY IN EARLY CHILDHOOD: ETIOPATHOGENESIS AND EARLY DIAGNOSTIC CRITERIA

Mamatkulova Feruza Hamidovna – senior lecturer
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. Relevance. *In recent years, an increase in the frequency of diseases associated with metabolic disorders has been observed in the pediatric population. Among these pathologies, dysmetabolic nephropathy occupies a special place, accounting for 27–64% of all urinary system diseases.*

Purpose of the study. *To conduct a comprehensive assessment of the factors contributing to the development of dysmetabolic nephropathy in children aged 1 month to 5 years (inclusive).*

Materials and methods. *The study involved 32 children aged 1 month to 5 years who were undergoing inpatient treatment in the nephrology department of the Samarkand Regional Children`s Multidisciplinary Medical Center or had visited its consultative and diagnostic center.*

Results. *The study aimed to identify risk factors for the development of dysmetabolic nephropathy in early childhood. Children`s nutritional habits, daily fluid intake, family history, and antibiotic therapy were comprehensively evaluated. Dietary analysis was performed according to oxalate content, and daily fluid intake was quantified using a 4-point scoring system. The results showed that dysmetabolic nephropathy can develop at an early age, with its development influenced by a complex interaction of metabolic, genetic, nutritional, and infectious factors. In the main group, high consumption of oxalogenic products and hyperoxaluria were more frequent, and intestinal microbiota disorders may also play an important role in children receiving antibiotics.*

Keywords: *children, hematuria, oxaluria, dysmetabolic nephropathy.*

Dolzarbligi. So‘nggi yillarda bolalar populyatsiyasida metabolik buzilishlar bilan kechuvchi kasalliklar chastotasi ortmoqda. Ushbu patologiyalar orasida dismetabolik nefropatiya (DN) alohida o‘rin egallab, siydik ajratish tizimi kasalliklarining 27–64% gacha qismini tashkil etadi [1,2]. DN modda almashinuvining buzilishi natijasida buyrak naychalari epiteliyida va interstitsial to‘qimada strukturaviy va funksional o‘zgarishlar bilan xarakterlanadigan heterogen kasalliklar guruhidir [3]. Kasallik ko‘pincha subklinik yoki kam simptomli kechadi, klinik polimorfizm esa erta tashxis qo‘yishni qiyinlashtiradi [1,4,5].

Kasallikning rivojlanishi tubulointerstitsial yallig‘lanish, urolitiaz va ikkilamchi infeksiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi, bu esa pielonefritning shakllanishiga patogenetik zamin yaratadi [6,7]. Shunday qilib, DN bolalarda surunkali buyrak shikastlanishining muhim xavf omili hisoblanadi. Ko‘pchilik hollarda kristalluriya tuzilmasida kalsiy-oksalat kristallari ustunlik qiladi; DN bilan bog‘liq kalsiy-oksalat kristalluriya kasalliklarning 68–71% ini tashkil etadi [8]. Ushbu kristalluriya 1000 bolaga 160 ta holatda, DN esa 1000 bolaga 32 ta holatda uchraydi [9].

Yevropa Pediatrik Urologiya Jamiyati (ESPU) tavsiyalariga ko‘ra, vazni 60 kg dan kam bolalarda kunlik siydik bilan chiqariladigan kalsiy miqdori 4 mg/kg dan ortiq bo‘lsa, giperkalsiuriya deb hisoblanadi [9]. 3 oygacha bo‘lgan chaqaloqlarda kalsiyning yuqori fiziologik chegarasi 5 mg/kg/kun deb qabul qilinadi. DN boshlanishi bo‘yicha adabiyotlarda ma‘lumotlar farqlidir; ba‘zi manbalarda kasallik ko‘proq maktab yoshidagi bolalarda uchrasa [3], boshqalarida esa 1–3 yoshda boshlanishi mumkinligi qayd etilgan [10,11]. So‘nggi yillarda kasallanish yoshining yanada erta davrlariga siljishi kuzatilmoqda, bu esa predispozitsion omillarni erta aniqlash zaruratini oshiradi.

DN rivojlanishida ekzogen va endogen omillar muhim hisoblanadi [3]. Ekzogen omillar: issiq va quruq iqlim, ichimlik suvining yuqori qattiqligi, atrof-muhitdagi mikro- va makroelementlar disbalansi (magniy va yod tanqisligi, kalsiy va stronsiy ortiqligi), noto‘g‘ri ovqatlanish (A, B6, PP vitaminlari yetishmovchiligi, D vitamini gipervitaminozi, oqsil, purin va oksalatlarga boy mahsulotlar ortiqcha iste‘moli, to‘yintirilmagan yog‘ kislotalari yetishmovchiligi) va yetarli suyuqlik iste‘mol qilmaslikdir.

Giperoksaluriya ovqatdagi oksalatlarning ortiqcha qabul qilinishi, ichakdan so‘rilishning kuchayishi (masalan, qisqa ichak sindromida) yoki tug‘ma metabolik nuqsonlar natijasida yuzaga kelishi mumkin [3]. Endogen omillar: buyrak va siydik yo‘llari yallig‘lanishlari, tug‘ma anomaliyalar, ayniqsa siydik oqimi buzilishi bo‘lganda tosh hosil qiluvchi moddalarning — oksalat, kalsiy, siydik kislotasi, sistin — konsentratsiyasi ortadi [9].

Shunday qilib, kalsiy-oksalat kristallari bilan kechuvchi DN etiopatogenezida metabolik, ekologik va mikrobiologik omillar o‘zaro murakkab ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot maqsadi — 1 oylikdan 5 yoshgacha (shu jumladan) bo‘lgan bolalarda dismetabolik nefropatiya shakllanishiga olib keluvchi omillarni kompleks baholashdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqotga 1 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan (n=32) bolalar jalb qilindi. Ular Samarqand viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining nefrologiya bo‘limida statsionar davolanishda bo‘lgan yoki mazkur muassasaning konsultativ-diagnostika markaziga murojaat qilgan bemorlardan iborat edi.

Tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriy asosda amalga oshirildi; barcha hollarda bolalarning qonuniy vakillaridan yagona protokol asosida yozma xabardor qilingan rozilik olindi.

Barcha bemorlarda standart usullar asosida umumiy qon tahlili va umumiy siydik tahlili o‘tkazildi. Tahlil uchun ertalabki siydik namunasi olindi. Namuna olishdan oldin tashqi jinsiy a’zolar gigiyenik tozalandi. Chaqaloqlarda siydik bir martalik steril siydik yig‘gichlar yordamida, katta yoshdagi bolalarda esa steril konteynerlarda to‘plandi. Bundan tashqari, barcha bolalarda siydik ajratish tizimi organlarining ultratovush tekshiruvi bajarildi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari. Tadqiqotga 1 oydan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar kiritildi. Bolalar quyidagi shartlarga javob berishi talab qilindi: tug‘ruq vaqtida Apgar ko‘rsatkichi 8–10 ball, asfiksiya, tug‘ma rivojlanish nuqsonlari, tug‘ruq jarohati yoki nafas yetishmovchiligi sindromining yo‘qligi; gestatsion yosh 38–42 hafta; siydik tahlilida patologik o‘zgarishlar mavjudligi: ko‘rish maydonida ≥5 eritrotsit (gematuriya), yuqori zichlik (giperstenuriya), 4–6 dan ortiq leykotsit (leykotsituriya), sutkalik oksaluriya >20 mg/kun; va/yoki buyrak ultratovush tekshiruvida parenximaning o‘choqli giperechogenligi aniqlanishi. Shuningdek, o‘rtacha jismoniy rivojlanish (tana uzunligi 25–75 sentil oralig‘ida) va yoshga mos neyropsixik rivojlanish talab qilindi. Me’da-ichak traktining organik yoki yallig‘lanish kasalliklari (masalan, malabsorbsiya sindromi, Kron kasalligi, nospetsifik yarali kolit, seliakiya, disaxaridaza yetishmovchiligi, ekssudativ enteropatiya, mukovistsidoz) bo‘lmasligi shart edi.

Nazorat guruhi (n=22) 1 oydan 3 yoshgacha bo‘lgan, siydik tahlillari va buyrak ultratovush tekshiruvlari natijalarida dismetabolik nefropatiya belgilarisiz, muddatida tug‘ilgan, Apgar ko‘rsatkichi 8–10 ball, jismoniy va neyropsixik rivojlanishi me’yorida, buyrak va siydik yo‘llarining tug‘ma nuqsonlarisiz bolalardan shakllantirildi.

Tadqiqot davomida ota-onalarga standartlashtirilgan so‘rovnoma o‘tkazildi. Unda quyidagi jihatlar baholandi: onada homiladorlikning kechishi, homiladorlik davrida vitamin-mineral komplekslar qabul qilishi, S vitamini boy mahsulotlarni iste’mol qilish chastotasi; bolada irsiy moyillikni ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan surunkali kasalliklar, jumladan siydik ajratish tizimi kasalliklarining oilaviy anamnezi; bolaning antibiotik qabul qilganligi, oxirgi kurs muddati, shuningdek antibakterial terapiya fonida probiotik va prebiotiklar qo‘llanilishi.

Shu tarzda, tadqiqot dizayni erta yoshdagi bolalarda dismetabolik nefropatiya rivojlanishiga ta’sir etuvchi prenatal, postnatal va oilaviy omillarni kompleks klinik-laborator tekshirishga qaratildi.

Tadqiqot natijalari. Dismetabolik nefropatiya patogenezi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi xavf omillarini hisobga olgan holda, tadqiqot erta yoshdagi bolalarda ovqatlanish xususiyatlari, suyuqlik qabul qilish rejimi, siydik ajratish tizimi kasalliklari bo‘yicha oilaviy anamnez hamda antibiotik terapiyasi faktini kompleks baholashga qaratildi. Ratsion tahlili maxsus ishlab chiqilgan ishchi jadvallar asosida amalga oshirildi. Mahsulotlar tarkibidagi oksalat miqdoriga ko‘ra uch guruhga ajratildi va oksalatga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish chastotasi yarim miqdoriy ball tizimi orqali baholandi (kuniga ≥1 marta – 5 ball, oyiga 1–2 marta – 1 ball). Shuningdek, sutkalik suyuqlik iste’moli ham 4 pog‘onali ball tizimi asosida (≤200 ml dan >1 l gacha) kvantifikatsiya qilindi. Statistik ishlov berish Microsoft Excel 2000 va BIOSTAT (Primer of Biostatistics 4.03) dasturlarida amalga oshirildi, guruhlar o‘rtasidagi farqlar χ^2 mezoni yordamida baholandi va $p<0,05$ ko‘rsatkichida ishonchli deb qabul qilindi.

2025-yilda 1 oylikdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarda siydik ajratish tizimi kasalliklari sababli Samarqand viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga murojaat qilgan 879 nafar bemorning 28,2% (248 holat) ida dismetabolik nefropatiya aniqlangan. Statsionar sharoitda davolangan 369 nafar nefrologik bemor tarkibida esa mazkur patologiya mustaqil nozologik birlik sifatida 9,46% (39 holat) ni tashkil etgan. Ushbu tafovut dismetabolik nefropatiyaning ko‘pincha asosiy, xususan mikroblar bilan bog‘liq yallig‘lanish kasalliklari fonida hamroh holat sifatida qayd etilishi bilan izohlanadi.

Dismetabolik nefropatiyaga ega bolalar orasida o‘g‘il bolalar ustunlik qildi (56,25%). Nazorat guruhida jinsiy taqsimot deyarli muvozanatli bo‘ldi (12:10). Oziqlanish tahlili shuni ko‘rsatdiki, erta yoshdagi bolalar ratsioni nisbatan cheklangan bo‘lib, oksalat va askorbin kislotaga boy mahsulotlar keng tarqalmagan. Shu bois aniqlangan giperoksaluriyani faqat alimentar omil bilan izohlash yetarli emas. Biroq asosiy guruhda yuqori oksalogen mahsulotlar iste’moli nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi (o‘rtacha 17,4 ballga qarshi 11,4 ball).

Suyuqlik iste’moli ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlar o‘rtasida sezilarli tafovut aniqlanmadi (mos ravishda 2,5 va 2,1 ball). Kuzatuvlar sonining cheklanganligi ushbu omilning etiologik ahamiyatini aniq baholash imkonini cheklaydi. Klinik-laborator jihatdan barcha bemorlarda leykotsituriya (≥7–8 ko‘rish maydonida) qayd etildi, 78,12% holatda mikrogematuriya (≥6–8 eritrotsit ko‘rish maydonida), bitta bemorda 0,25 g/l gacha proteinuriya aniqlangan. Giperoksaluriya 43,75% bemorlarda tasdiqlandi.

Olingan natijalar dismetabolik nefropatiya erta yosh davridayoq shakllanishi mumkinligini hamda uning rivojlanishida metabolik, ovqatlanish va infeksion-yallig‘lanish omillari o‘zaro ta’sirining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

1-Jadval.

Oziq-ovqat mahsulotlarida oksalat miqdori

Mahsulot guruhi	Past oksalat zichligi (<2 mg/porsiya)	O‘rtacha oksalat zichligi (2–6 mg/porsiya)	Yuqori oksalat zichligi (>7 mg/porsiya)
Ichimliklar	Ananas sharbati, olma sharbati, suv, o‘simlik (giyohli) choy	Apelsin sharbati, uzum sharbati, sabzi sharbati, pomidor sharbati, ko‘k choy	Kakao, qora choy, na’matak (shipovnik) choyi
Sabzavotlar	Oq karam, gulkaram, bodring, qovoq	Brokkoli, pomidor	Kartoshka, sabzi, lavlagi, baqlajon, qovoqcha

Mevalar	Banan, yashil uzum, olma	Ananas, nok, mayiz, qora olxo‘ri (chernosliv), mandarin	Apelsin, to‘q rangli uzum, kivi
Don mahsulotlari	Makaron mahsulotlari, guruch, non	Suli (ovsyanka)	Grechka, tariq
Go‘sht va oqsil manbalari	Mol go‘shti, cho‘chqa go‘shti, parranda go‘shti, baliq, tuxum	Mol jigari	—
Sut mahsulotlari	Sut, kefir, sariyog‘, pishloq, tvorog	Yogurt	—

Izoh: “—” belgisi ushbu guruhda yuqori oksalat zichligiga ega mahsulotlar aniqlanmaganligini bildiradi.

Mazkur tasnif erta yoshdagi bolalarda ratsionni tahlil qilishda oksalat yuklamasini yarim miqdoriy baholash imkonini beradi hamda dismetabolik nefropatiya rivojlanishida alimentar omillarning rolini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin.

Interkurrent kasalliklar, xususan siydik yo‘llarining infeksion-yallig‘lanish jarayonlari dismetabolik nefropatiya shakllanishini qo‘zg‘atuvchi omil sifatida qaraladi [6]. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, bemorlarning 53% ida (8/15) buyrak ultratovush tekshiruvlarida aniqlangan dismetabolik o‘zgarishlar siydik yo‘llari infeksiyasi fonida tasodifan qayd etilgan. Ma’lumki, ayniqsa ureaza ishlab chiqaruvchi patogenlar — Klebsiella, Proteus, Staphylococcus hamda Streptococcus — kristall hosil bo‘lish jarayonini faollashtiradi. Ureaza fermenti ta’sirida siydik tarkibidagi mochevina ammiak va bikarbonatga parchalanadi, natijada siydik ishqoriylanadi va karbonat ionlari hosil bo‘ladi. Ishqoriy muhitda magniy, ammoniy va fosfat ionlaridan tashkil topgan uchlamchi fosfatlar (struvit) hamda karbonat-apatit kristallari shakllanib, tosh hosil bo‘lishiga zamin yaratadi [9,15]. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, barcha buyrak toshlarining taxminan 15% infeksion genezga ega bo‘lib [16], pediatrik amaliyotda bu ko‘rsatkich 5% atrofida baholanadi [9]. Tekshirilgan bolalardan birida ikki tomonlama mikronefrolitiaz belgilari aniqlangan, tug‘ma siydik ajratish tizimi nuqsonlari esa qayd etilmadi.

Genetik omillarning dismetabolik nefropatiya rivojlanishidagi ulushi 70–75% gacha yetishi haqidagi ma’lumotlar mavjud [6], shu bois irsiy moyillikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oila anamnezini tahlil qilish natijasida asosiy guruhdagi 15 boladan 11 tasida (73%) va nazorat guruhidagi 20 boladan 9 tasida (45%) siydik ajratish tizimi kasalliklari bo‘yicha irsiy og‘irlik aniqlangan (χ^2=1,280; p=0,258). Oilada urolitiaz 5 ta asosiy guruh bemorida va 5 ta nazorat guruhida uchradi. Asosiy guruh probandlarining qarindoshlari orasida eng ko‘p uchragan patologiyalar: urolitiaz (33%), surunkali pielonefrit (20%), surunkali sistit (27%), ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (53%) va o‘t yo‘llari disfunktsiyasi (27%). Nazorat guruhida surunkali pielonefrit 15%, sistit esa 10% hollarda qayd etildi. Olingan natijalar mavjud ilmiy ma’lumotlar bilan mos keladi [16,17].

Dismetabolik nefropatiya shakllanishida turli interkurrent kasalliklar, xususan, siydik chiqarish tizimining infeksion-yallig‘lanish kasalliklari muhim provokatsion omil sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bemorlarning 53% ida (8/15) buyraklardagi dismetabolik o‘zgarishlar ultratovush tekshiruvida tasodifan, aynan siydik yo‘llari infeksiyasi fonida aniqlangan. Ma’lumki, ureaza ishlab chiqaruvchi mikroorganizmlar — masalan, Klebsiella, Proteus, Staphylococcus hamda Streptococcus (D guruhi) — siydikdagi mochevinani parchalaydi va kristall hosil bo‘lish jarayonini faollashtiradi. Ureaza fermenti ta’sirida mochevina ammiak va bikarbonatga aylanadi, natijada siydik ishqorlanadi va bikarbonat karbonatga konvertatsiyalanadi. Ishqoriy muhitda magniy, ammoniy va fosfat ionlarining ortiqcha to‘yingan eritmasida struvit hamda karbonat-apatit kristallari shakllanib, tosh hosil bo‘lishiga olib keladi. Adabiyotlarga ko‘ra, barcha nefrolitiaz holatlarining taxminan 15% infeksion genezga ega bo‘lsa, pediatrik populyatsiyada bu ko‘rsatkich o‘rtacha 5% ni tashkil etadi. Kuzatilgan bemorlardan birida ikki tomonlama mikronefrolitiaz belgilari aniqlangan, biroq siydik chiqarish tizimining tug‘ma nuqsonlari qayd etilmagan.

Ilmiy manbalarda dismetabolik nefropatiya rivojlanishida genetik omillarning ulushi 70–75% gacha yetishi ta’kidlanadi, shu bois irsiy moyillikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, asosiy guruhdagi 15 nafar boladan 11 tasida (73%) oilaviy anamnez og‘irligi aniqlangan, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 20 nafar boladan 9 tasini (45%) tashkil etdi; farq statistik jihatdan ishonchli emas (χ^2=1,280; p>0,05). Oila a’zolarida eng ko‘p uchragan patologiyalar quyidagilar bo‘ldi: urolitiaz (33%), surunkali pielonefrit (20%), surunkali sistit (27%), ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (53%) hamda o‘t yo‘llari funksional buzilishlari (27%). Nazorat guruhida siydik tizimi kasalliklari kamroq qayd etilgan (pielonefrit – 15%, sistit – 10%). Olingan natijalar mavjud adabiyot ma’lumotlari bilan mos keladi.

Patogenezning zamonaviy konsepsiyalarini hisobga olgan holda antibiotikoterapiya omili ham baholandi. Asosiy guruhdagi barcha bolalar hayot davomida antibakterial preparatlar qabul qilgan: 53% bemor tekshiruvdan 2 oydan ko‘proq oldin, 47% esa oxirgi 2 oy ichida antibiotik olgan. Nazorat

guruhida antibiotik qabul qilish darajasi 85% ni tashkil etdi. Guruhlar o‘rtasidagi tafovut statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetmagan (χ^2=3,532; p>0,05). Ma’lumki, antibiotiklar ichak mikrobiotasini susaytirishi va oksalatlarning ichakda parchalanish jarayonini buzishi mumkin. Shunga qaramay, barcha bolalar pre- yoki probiotiklar qabul qilgan. Ehtimol, oksalatlarni faol metabolizatsiya qiluvchi Oxalobacter formigenes populyatsiyasini tiklovchi maxsus preparatlarning qo‘llanilmagani sezilarli klinik effekt kuzatilmasligiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim probiotik shtammlar, jumladan Lactobacillus acidophilus, Lactobacillus casei va Bifidobacterium breve oksalat degradatsiyasida ishtirok etishi haqida ma’lumotlar mavjud. Demak, mikrobiota tarkibi va uning metabolik faolligi gipero ksalu riya hamda dismetabolik nefropatiya patogenezida muhim o‘rin tutishi mumkin. Ushbu yo‘nalish qo‘shimcha, keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi.

Xulosa.

1. Erta yoshdagi bolalarning ovqatlanish modeli metabolik jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, oksalat almashinuvi buzilishlari hamda dismetabolik nefropatiya rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. Ratsion tarkibidagi yuqori oksalat yuklamasi kasallik shakllanishida muhim alimentar omil sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Dismetabolik nefropatiya rivojlanishida irsiy moyillik muhim o‘rin tutadi. Oilaviy anamnezida siydik chiqarish tizimi kasalliklari, jumladan urolitiaz qayd etilgan bolalarda mazkur patologiyaning uchrash ehtimoli yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Biroq aniqlangan tafovut statistik jihatdan ishonchli darajaga yetmagan (p>0,05), bu esa qo‘shimcha keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Antibiotik terapiyasi ichak mikrobiotasining muvozanatini o‘zgartirishi orqali oksalat metabolizmining buzilishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari antibiotik qabul qilgan bolalarda dismetabolik nefropatiya rivojlanish xavfi nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi, ammo guruhlar o‘rtasidagi farq statistik ahamiyat kasb etmadi (p>0,05). Mazkur holat mikrobiota va metabolik buzilishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ахмеджанова Н. И., Ахмеджанов И. А., Исмаилова З. А., Гаппарова Г. Н. Оценка функционального состояния почек при ренальных осложнениях у детей в период пандемии COVID-19: обсервационное когортное ретроспективное клиническое исследование// Кубанский научный медицинский вестник. 2023-№ 3.-С-25–33.

2. Длин В.В., Османов И.М. Дисметаболическая нефропатия с оксалатно-кальциевой кристаллурией // Эффективная фармакотерапия. – 2013. – №42. – С. 8–16.

3. Воронина Н.В., Слуцкая Н.П., Маркина О.И. и др. Особенности лечения остеоартроза коленных суставов у больных оксалатной нефропатией // Терапевтический архив. – 2015. – №4. – С. 62–68.

4. Пушкарева Е.Ю., Храмова Е.Б., Сорогин В.П., Лебедева К.А. Риск развития дизметаболической нефропатии у детей, проживающих в условиях промышленного города // Материалы конференции Союза педиатров России «Актуальные проблемы педиатрии». – М., 2010. – С. 53.

5. Коровина Н.А., Захарова И.Н., Гаврюшова Л.П. и др. Дисметаболические нефропатии у детей // Consilium Medicum. – 2009. – Т. 11, №7. – С. 29–41.

6. Юрьева Э.А., Длин В.В., Кудин М.В. и др. Обменные нефропатии у детей: причины развития, клинико-лабораторные проявления // Рос. вестн. перинатол. и педиатрии. – 2016. – Т. 61, №2. – С. 28–34. DOI: 10.21508/1027-4065-2016-61-2-28-34.

7. Журавлева Т.Д., Суплотов С.Н., Платицын В.А. Лабораторные исследования состояния активности свободнорадикального окисления липидов и антиоксидантной защиты в крови: учебное пособие. – Тюмень: Печатник, 2009. – 47 с.

8. Вялкова А.А., Перепелкина Н.Ю. К вопросу ранней диагностики и профилактики заболеваний почек у детей // Материалы IX конгресса педиатров России. – М., 2004. – Т. 3, №1. – С. 98–99.

9. Завьялова Я.С., Богданова В.Д. Влияние наследственности на возникновение заболеваний органов мочевыделения // Научное издание «IN SITU». – 2016. – №5. – С. 44–46.

10. Харина Е.А. Дисметаболическая нефропатия у детей // Актуальные проблемы современной педиатрии. – М., 2002. – С. 71–76.

11. Fedusenko A.A., Mjagkov A.P., Gubar` A.A. Диффузные поражения почек. УЗ- и КТ-визуализация // Лучевая диагностика и терапия. – 2011. – №364. – С. 104–113.

12. Bogov V., Djerassi R., Kiperova B. Can ultrasound of the abdominal cavity help in the assessment of histology in diffuse kidney diseases? // SonoAce-Ultrasound. – 1998. – Vol. 2. – P. 34–38.

13. Карпачева Н.А., Петросян Э.К. Возможности ранней диагностики хронической болезни почек у подростков при диспансеризации // Клиническая нефрология. – 2013. – №1. – С. 44.

UDK: 616.61-002: 577.1

SURUNKALI GLOMERULONEFRITNING ARALASH VA NEFROTIK SHAKLLARIDA ACE, TNF-α VA IL-4 GENLARINING POLIMORFIZMINI O‘RGANISH

Jumanazarov Sultanboy Baxodirovich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Surunkali glomerulonefrit (SGN) buyrak koptokchalarining murakkab immuno-yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, u organizmda uzoq davom etuvchi yallig‘lanish, autoimmun reaksiyalar va bir qator genetik omillar ishtirokida rivojlanadi. SGN uzoq vaqt mobaynida klinik belgilar bermasligi, faqat laborator tahlillar orqali aniqlanishi mumkinligi sababli “jim” kasalliklar sirasiga kiradi [1]. Ammo, vaqt o‘tishi bilan buyrak funksiyasining progressiv pasayishiga, natijada esa surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib keladi. Hozirgi kunda buyrak yetishmovchiligining asosiy sababi sifatida SGN alohida e’tibor markazida turibdi.*

SGN turli klinik shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lib, ulardan eng ko‘p uchraydiganlari bu aralash va nefrotik shakllardir. Aralash shaklida proteinuriya va gematuriya bir vaqtda mavjud bo‘lib, yallig‘lanish komponentlari bilan birga o‘tkazilgan biopsiya tahlillari koptokchalarda diffuz o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Nefrotik shaklda esa, asosiy simptomlar sifatida yuqori darajadagi proteinuriya, gipoalbuminemiya, shishlar va dislipidemiya kuzatiladi.

So‘nggi yillarda olib borilayotgan molekulyar genetika sohasidagi izlanishlar tufayli SGN patogenezida genetik omillar, xususan, ayrim genlarning polimorfizmi muhim rol o‘ynashi aniqlanmoqda [1,2]. Ayniqsa, ACE (angiotenzin o‘zgartiruvchi ferment), TNF-α (o‘sma nekrozi omili alfa) va IL-4 (interleykin-4) kabi genlar yallig‘lanish, immun javob va qon bosimining regulyatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi [3,4].

Kalit so‘zlar: *surunkali glomerulonefrit, surunkali buyrak kasalligi, ACE (angiotenzin o‘zgartiruvchi ferment), TNF-α (o‘sma nekrozi omili alfa) va IL-4 (interleykin-4).*

ИЗУЧЕНИЕ ПОЛИМОРФИЗМА ГЕНОВ ACE, TNF-A И IL-4 ПРИ СМЕШАННОЙ И НЕФРОТИЧЕСКОЙ ФОРМАХ ХРОНИЧЕСКОГО ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТА

Жуманазаров Султанбой Баходирович
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Хронический гломерулонефрит (ХГН) — это сложное иммуновоспалительное заболевание клубочков почек, которое развивается в организме с длительным воспалением, аутоиммунными реакциями и участием ряда генетических факторов. ХГН относится к категории "тихих" заболеваний, поскольку не проявляет клинических симптомов в течение длительного времени и может быть диагностирован только с помощью лабораторных анализов. Однако со временем это приводит к прогрессирующему снижению функции почек, что в конечном итоге приводит к хронической почечной недостаточности. В настоящее время особое внимание уделяется ХГН как основной причине почечной недостаточности.*

ХГН может проявляться в различных клинических формах, наиболее частыми из которых являются смешанная и нефротическая формы. При смешанной форме протеинурия и гематурия присутствуют одновременно, а биопсийные анализы в сочетании с компонентами воспаления указывают на наличие диффузных изменений в клубочках. При нефротической форме основными симптомами являются высокая протеинурия, гипоальбуминемия, отеки и дислипидемия.

Благодаря исследованиям в области молекулярной генетики, проводимым в последние годы, установлено, что в патогенезе ХГН важную роль играют генетические факторы, в частности, полиморфизм некоторых генов. В частности, такие гены, как ACE (ангиотензинпревращающий фермент), TNF-α (фактор некроза опухоли альфа) и IL-4 (интерлейкин-4), играют важную роль в регуляции воспаления, иммунного ответа и кровяного давления.

Ключевые слова: *хронический гломерулонефрит, хроническая болезнь почек, ACE (ангиотензинпревращающий фермент), TNF-α (фактор некроза опухоли альфа) и IL-4 (интерлейкин-4).*

STUDY OF THE POLYMORPHISM OF ACE, TNF-A, AND IL-4 GENES IN MIXED AND NEPHROTIC FORMS OF CHRONIC GLOMERULONEPHRITIS

Jumanazarov Sultanboy Bakhodirovich
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Chronic glomerulonephritis (CGN) is a complex immunoinflammatory disease of the renal glomeruli, which develops in the body with prolonged inflammation, autoimmune reactions, and the participation of a number of genetic factors. Since CGN does not show clinical signs for a long time and can only be detected through laboratory tests, it belongs to the category of "silent" diseases. However, over time, it leads to a progressive decrease in kidney function, and as a result, to chronic renal failure. Currently, CGN is in the center of special attention as the main cause of renal failure.*

CGN can manifest in various clinical forms, the most common of which are mixed and nephrotic forms. In the mixed form, proteinuria and hematuria are present simultaneously, and biopsy analyses with inflammatory components indicate diffuse changes in the glomeruli. In the nephrotic form, high proteinuria, hypoalbuminemia, edema, and dyslipidemia are observed as the main symptoms.

Thanks to research in the field of molecular genetics in recent ears, it has been established that genetic factors, in particular, the polymorphism of some genes, play an important role in the pathogenesis of CGN. In particular, genes such as ACE (angiotensin-converting enzyme), TNF-α (tumor necrosis factor alpha), and IL-4 (interleukin-4) play an important role in the regulation of inflammation, immune response, and blood pressure.

Key words*: chronic glomerulonephritis, chronic kidney disease, ACE (angiotensin-converting enzyme), TNF-α (tumor necrosis factor alpha) and IL-4 (interleukin-4).*

Kirish.

Surunkali glomerulonefritda buyraklar shikastlanishini aniqlash va davolashni erta boshlash buyraklardagi qaytmas yallig‘lanishlarning xavfini kamaytiradi va buyrak faoliyatini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, genetik tahlil immun disregulyatsiyani aniqlab, surunkali glomerulonefritga aniq tashxis qo‘yish uchun yordam beradi. Ushbu yondashuvlarning muvaffaqiyatli kechishi SBK rivojlanishining eng yuqori xavfidagi shaxslarni aniqlash va tegishli patogenetik davoni buyurish uchun bemorlarini tanlash choralarini aniqlash usullarini talab qiladi. Kasallikning patogenezida genetik omillarning muhim rol o‘ynashi aniqlangan [1,5]. Tadqiqotlar SGN rivojlanishida HLA tizimida lokalizatsiya qilingan genlarning ishtirokini ko‘rsatdi [6]. Yevropa va Amerika populyatsiyalarida o‘tkazilgan so‘nggi genom keng ko‘lamli tadqiqotlar esa HLA bo‘lmagan genetik lokuslar va surunkali glomerulonefrit bilan bog‘liq genetik polimorfizmlar mavjudligini ko‘rsatdi [5,6].

Genetik tahlil usullarining takomillashib borayotgani hisobiga surunkali glomerulonefrit bilan kasallangan har bir bemorda SBK rivojlanish ehtimolini individual genetik xavf omillarini aniqlash orqali erishish mumkin [1]. Surunkali glomerulonefritga xos genlarning 3 tasi bevosita buyraklarning zararlanishiga sabab bo‘lib, patogenetik mexanizmlarga ta’sir qilishi mumkin. Umumiy Genom uyushmasi tadqiqotlari natijasida ko‘plab surunkali glomerulonefrit uchun xavfli genlar aniqlangan [5]. Bu genlarning ba’zilari SGN bilan ham chambarchas bog‘liq. Biroq, oldingi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra SGN fenotipiga to‘g‘ri kelmaydi, SGN moyilligi kamroq namoyon bo‘lganligi ma’lum. SGN uchun maxsus mas’ul genlar aniqlash qaratilgan ba’zi so‘nggi tadqiqotlar natijasida SGN bilan bog‘liq, lekin umuman surunkali glomerulonefrit uchun sezuvchanligi kamroq ichki genlar aniqlanlangan. SGN bilan bog‘liq kelajakdagi genetik tadqiqotlar uchun klinik natijalar, kamchiliklar va imkoniyatlar muhokamasi hali hanuz davom etmoqda.

Surunkali glomerulonefrit bilan kasallangan bemorlarining 80-90% ida SBK kuzatiladi [7]. Davolashda so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlarga qaramay, SBK bilan kasallangan bemorlarda o‘lim xavfi yuqoriligicha qolmoqda. Genetik omillarning ahamiyatini o‘rganish uchun Janubiy Amerikada yashovchi aralash populyatsiyalarda mahalliy amerikaliklarning Yevropa genetik ajdodlariga nisbatan genetik ta’sirini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi [8]. Bu genetikaning atrof-muhitni nazorat qilish bilan bog‘liq hissasini o‘rganishning informatsion usulidir, chunki bir xil populyasiyada va bir joyda yashovchi turli shaxslar turli xil mutanosib genetik naslga ega bo‘ladi. Ushbu tadqiqotlar genetik omillar SBK patogeneziga yordam beradi, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Umumiy genom tadqiqotlar natijasida ko‘plab surunkali glomerulonefrit uchun xavfli genlar aniqlangan bo‘lsa-da, hozirgacha kam sonli genlar SGN klinik belgilariga mos keladi. Ko‘plab ro‘yxatga olingan genlar tadqiqotlar surunkali glomerulonefrit xavf omillari sifatida o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Batafsil so‘nggi tadqiqotlar bevosita SGN fenotipi o‘rganilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi surunkali glomerulonefritning aralash va nefrotik shakllarida ACE (I/D), TNF-A (G-308A) va IL-4 (C-589T) genlarining genotiplarini o‘rganish, ularning taqsimoti va klinik-biokimyoviy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi.

Material va usullar.

Tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasining Nefrologiya bo‘limida olib borildi. Umumiy hisobda 80 nafar SGN tashxisi qo‘yilgan bemor ishtirok etdi. Bemorlar quyidagicha ikki guruhga ajratildi:

A guruhi — aralash shakl (n=40);

B guruhi — nefrotik shakl (n=40).

Ishtirokchilarning yoshi 18-60 oralig‘ida bo‘lib, A guruhda o‘rtacha yosh 40,6 ± 12,35 yil, B guruhda esa 41,2 ± 7,32 yilni tashkil etdi. Barcha ishtirokchilar O‘zbekistonda tug‘ilgan va o‘zaro qarindoshlik aloqalari mavjud emas.

Bemorlarga quyidagi tekshiruvlar o‘tkazildi: SMAD, umumiy siydik tahlili, biokimyoviy qon tahlillari (kreatinin, umumiy oqsil, albumin, xolesterin), 24 soatlik proteinuriya miqdori, mikroskopik gematuriya aniqlanishi, molekulyar genetik tadqiqotlar.

Bemorlarning venoz qonidan DNK standart fenol-xloroform usuli bilan ajratib olindi. Genotiplash quyidagi genlar uchun amalga oshirildi: ACE (I/D), TNF-α (G-308A), IL-4 (C-589T). Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) yordamida genotiplash amalga oshirildi. PZR mahsulotlari agaroz gel elektrofarezi orqali vizualizatsiya qilindi.

Olingan natijalar Microsoft Excel va SPSS 23.0 dasturlari orqali tahlil qilindi. Genotiplar chastotasi foizlarda ifodalandi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar uchun median (Me), kvartallar oralig‘i (Q25–Q75) hisoblandi. Guruhlararo farq Mann–Uitni testi bilan baholandi, $p < 0,05$ qiymati statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

Natijalar tahlili:

Genotiplar taqsimoti

ACE (I/D):

A guruh: D/D — 18 (45%), I/D — 20 (50%), I/I — 2 (5%);

B guruh: D/D — 5 (12,5%), I/D — 22 (55%), I/I — 13 (32,5%).

TNF-α (G-308A):

A guruh: G/G — 10 (25%), G/A — 28 (70%), A/A — 2 (5%);

B guruh: G/G — 8 (20%), G/A — 29 (72,5%), A/A — 3 (7,5%).

IL-4 (C-589T):

A guruh: C/C — 8 (20%), C/T — 29 (72,5%), T/T — 3 (7,5%);

B guruh: C/C — 7 (17,5%), C/T — 31 (77,5%), T/T — 2 (5%).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, SGNning turli klinik shakllarida genetik polimorfizm muhim rol o‘ynaydi. ACE D/D genotipi yuqori ferment faolligi, glomerulyar gipertenziya va skleroz bilan bog‘liq bo‘lib, aralash shakl uchun xos. I/I genotipi esa past ferment faolligi va nefrotik sindrom bilan bog‘liq proteinuriya bilan kechadi.

TNF-A G/A genotipi yallig‘lanish sitokinlarining oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, har ikkala shaklda yuqori foizda aniqlandi.

IL-4 C/T genotipi immun tizimining T-helper hujayralari faolligi oshishiga olib kelishi mumkin. Bu esa autoimmun komponentning kuchayishiga olib keladi.

Xulosalar.

1. SGN aralash shaklida ACE D/D genotipi (45%) ko‘p uchraydi, nefrotik shaklda esa I/I genotipi (32,5%) ustun.

2. TNF-α G/A genotipi har ikki shaklda yuqori foizda aniqlangan (A guruh: 70%, B guruh: 72,5%).

3. IL-4 C/T genotipi aralash shaklda 72,5%, nefrotik shaklda esa 77,5% holatda qayd etilgan.

Kelgusida ushbu genetik markerlar asosida individual terapiya va kasallik prognozini aniqlovchi biomarkerlardan foydalanish taklif etiladi. Qo‘shimcha ravishda, boshqa yallig‘lanish va immun genlarining polimorfizmlarini o‘rganish SGN patogenezini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Wu, M.-Y., Chen, Y.-C., Chiu, I.-J., & Wu, M.-S. (2022). Genetic insight into primary glomerulonephritis. Nephrology, 27(8), 649–657. https://doi.org/10.1111/nep.14074

2. Couser, W. G., & Johnson, R. J. (2014). The etiology of glomerulonephritis: Roles of infection and autoimmunity. Kidney International, 86(5), 905–914.

3. Oktem, F., Sirin, A., Bilge, I., et al. (2004). ACE I/D gene polymorphism in primary nephrotic syndrome. Pediatric Nephrology, 19(4), 384–389.

4. Hao, J., Wang, C., Yuan, J., et al. (2013). Association of TNF-α gene polymorphisms with renal disease susceptibility. Human Immunology, 74(9), 1120–1125.

5. Kiryluk, K., & Novak, J. (2010). The genetics and immunobiology of IgA nephropathy. Journal of Clinical Investigation, 120(12), 4201–4210.

6. Gharavi, A. G., Kiryluk, K., & Choi, M. (2011). Genome-wide association studies in glomerular disease. Nature Reviews Nephrology, 7(10), 568–578.

7. Webster, A. C., Nagler, E. V., Morton, R. L., & Masson, P. (2017). Chronic kidney disease. The Lancet, 389(10075), 1238–1252.

8. Parsa, A., Kao, W. H., Xie, D., et al. (2013). APOL1 risk variants and CKD progression in multiethnic populations. New England Journal of Medicine, 369(23), 2183–2196.

UO‘K: 611.986-053.3:[618.3:616.9:578.834.1

COVID-19 INFEKSIYASI NATIJASIDA TUG‘ILGAN ERTA YOSHDAGI BOLALAR OYOQ PANJASI MORFOGENEZI: NORMOMETRIK KO‘RSATKICHLAR VA ONADAGI INFEKSION STRESSNING UZOQ MUDDATLI ASORATLARI

Sultonova Mohira Baxtiyor qizi – assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Tadqiqot COVID-19 infeksiyasini boshdan kechirgan onalardan tug‘ilgan 3–5 yoshdagi bolalarda oyoq panjasi morfogenezining xususiyatlarini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning ahamiyati prenatal davrda infeksion stressning bolalar rivojlanishiga, ayniqsa, tayanch-harakat tizimining shakllanishiga uzoq muddatdagi ta’sir qilishini ko‘rish mumkun. COVID-19 bilan kasallangan onalardan tug‘ilgan bolalar va sog‘lom onalardan tug‘ilgan nazorat guruhi o‘rtasida oyoq panjasining asosiy normometrik ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Toshkent shahrida o‘tkazilgan tadqiqotda jami 178 nafar 4–5 yoshli bolalar ishtirok etdi. Tadqiqot davomida oyoq panjasining uzunligi, kengligi, yoy balandligi hamda morfometrik indekslari zamonaviy antropometrik usullar yordamida o‘lchandi. Olingan natijalar infeksion stressga duchor bo‘lgan prenatal muhitda rivojlangan bolalarda oyoq panjasi morfogenezida ayrim o‘zgarishlar borligini ko‘rsatdi. Masalan, COVID-19 bilan kasallangan onalardan tug‘ilgan bolalar sog‘lom onalardan tug‘ilgan nazorat guruhi bolalari bilan solishtirganda, ularning oyoq gumbazi balandligi pastroq ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, Yaralov-Yaralents indeksi ham sezilarli darajada pasayganligi kuzatilgan. Xususan, ayrim parametrlar bo‘yicha statistik jihatdan aniq farqlar mavjud bo‘lib, bu homila davrida patofiziologik omillari suyak tizimining shakllanishiga ta’sirini tasdiqlaydi. Natijalar prenatal davrda COVID-19 infeksiyasi bilan bog‘liq omillar bolalarda tayanch-harakat sistemasining rivojlanishida uzoq muddatli morfologik o‘zgarishlar yuzaga kelish ehtimolini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalari bolalarda COVIDdan keyingi jismoniy o‘sishni baholashda yangi yondashuvni ochib beradi va shu bilan birga pediatriya podiatriyasi sohasida profilaktik chora-tadbirlar uchun yaxshiroq poydevor yaratadi hamda pediatriya, ortopediya, morfologiya va reabilitatsiya sohalarida erta diagnostika va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *post-COVID-19 sindromi, podometrik normometriya, infeksion stress, distal tayanch segmentlari, Yaralov-Yaralents indeksi, erta yoshdagi bolalar, biriktiruvchi to‘qima displaziyasi*

МОРФОГЕНЕЗ СТОПЫ У МЛАДЕНЦЕВ РАННЕГО ВОЗРАСТА, РОДИВШИХСЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ ИНФЕКЦИИ COVID-19: НОРМАТИВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ И ДОЛГОСРОЧНЫЕ ОСЛОЖНЕНИЯ, ВЫЗВАННЫЕ ИНФЕКЦИОННЫМ СТРЕССОМ У МАТЕРИ

Султонова Мохира Бахтиёр қизи – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Целью исследования является оценка особенностей морфогенеза стопы у детей в возрасте 3–5 лет, рожденных матерями, перенесшими COVID-19. Значение исследования заключается в демонстрации долгосрочного влияния пренатального инфекционного стресса на развитие ребенка, в частности на формирование опорно-двигательного аппарата. Были сопоставлены основные нормометрические показатели стопы у детей, рожденных матерями с COVID-19, и контрольной группы, рожденных здоровыми матерями. В исследовании, проведенном в Ташкенте, приняли участие 178 детей в возрасте 4–5 лет. В ходе исследования с помощью современных антропометрических методов были измерены длина, ширина и высота свода стопы, а также определены ее морфометрические показатели. Полученные результаты показали, что у детей, развивавшихся в пренатальной среде, подверженной инфекционному стрессу, наблюдаются некоторые изменения в морфогенезе стопы. Например, было установлено, что высота свода стопы у детей, рожденных матерями с COVID-19, была ниже, чем у детей контрольной группы, рожденных здоровыми матерями. Кроме того, было отмечено значительное снижение показателя Яралова-Яраленца. В частности, были выявлены статистически значимые различия по отдельным параметрам, подтверждающие влияние патофизиологических факторов периода внутриутробного развития на формирование костной системы. Результаты указывают на то, что факторы, связанные с заражением COVID-19 в пренатальный период, могут повышать вероятность долгосрочных морфологических изменений в развитии опорно-двигательной системы у детей. Результаты данного исследования открывают новый подход к оценке физического роста детей после перенесенного COVID, а также создают более прочную основу для профилактических мер в области*

детской подологии, педиатрии и ортопедии. Это имеет важное научное и практическое значение для развития ранней диагностики и профилактических мер в области педиатрии, ортопедии и морфологической реабилитации.

Ключевые слова: *синдром пост-COVID-19, подометрическая нормометрия, инфекционный стресс, дистальные опорные сегменты, индекс Яралова-Яраленца, раннее детство, дисплазия соединительной ткани*

FOOT MORPHOGENESIS IN EARLY CHILDHOOD FOLLOWING COVID-19 INFECTION: NORMOMETRIC INDICATORS AND LONG-TERM COMPLICATIONS OF MATERNAL INFECTIOUS STRESS

Sultonova Mohira Bakhtiyor kizi – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract*. The study is aimed at assessing the characteristics of foot morphogenesis in children aged 3–5 born to mothers who had COVID-19. The significance of the study lies in demonstrating the long-term impact of prenatal infectious stress on child development, particularly on the formation of the musculoskeletal system. The main normometric indicators of the foot were compared between children born to mothers with COVID-19 and a control group born to healthy mothers. A total of 178 children aged 4–5 years participated in the study conducted in Tashkent. During the study, the length, width, and arch height of the foot, as well as its morphometric indices, were measured using modern anthropometric methods. The results obtained showed that children who developed in a prenatal environment subjected to infectious stress have certain changes in foot morphogenesis. For example, the foot vault height was found to be lower in children born to mothers with COVID-19 compared to those in the control group born to healthy mothers. Furthermore, the Yaralov-Yaralents index was also observed to be significantly reduced. In particular, statistically significant differences were found for certain parameters, confirming the influence of pathophysiological factors during foetal life on the development of the skeletal system. The results indicate that factors associated with COVID-19 infection during the prenatal period may increase the likelihood of long-term morphological changes in the development of the musculoskeletal system in children. The findings of this study reveal a new approach to assessing post-COVID physical growth in children, while also creating a better foundation for preventative measures in the field of paediatric podiatry and for paediatrics, orthopaedics, This has significant scientific and practical importance for the development of early diagnostics and preventative measures in the fields of paediatrics, orthopaedics, and morphological rehabilitation.*

Keywords: *Post-COVID-19 syndrome, podometric normometry, infectious stress, distal support segments, Yaralov-Yaralents index, early childhood, connective tissue dysplasia*

Dolzarbligi. Insoniyat tarixida yuqumli kasalliklar jamiyatga nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri kasallik va o‘lim orqali, balki kelajak avlodlarning sog‘lig‘iga ta’sir qilish orqali ham ta’sir qilgan. 2019-yildan 2023-yilgacha dunyoni qamrab olgan COVID-19 pandemiyasi bunga yaqqol misoldir. Tibbiyot hamjamiyati o‘tkir simptomlar, o‘pka shikastlanishi va “uzoq muddatli COVID”ga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, perinatal davr va erta bolalik rivojlanishida yuzaga keladigan nozik, ammo muhim ta’sirlar bo‘yicha hali yetarli tadqiqotlar olib borilmagan.

Homiladorlik davrida ona SARS-CoV-2 yuqtirganda, bu murakkab biologik ketma-ketlikni ishga tushiradi. Bunga kislorod darajasining pasayishi, yallig‘lanish sitokinlari (IL-6, TNF-α, IL-1β)ning ortiqcha ishlab chiqarilishi, qon ivishi bilan bog‘liq muammolar va gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezlarining o‘zaro bog‘liqlik tizimi buzilishi kiradi. Bu o‘zgarishlar yo‘ldosh vazifasiga zarar yetkazadi va embrion hamda homilaning to‘g‘ri rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan muhim omillarning yetkazib berilishi buziladi. Homiladorlikning 6-haftasidan 12-haftagacha bo‘lgan davri oyoq shakllanishi uchun muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu vaqtda mezenximal hujayralar differensiyalanadi, o‘sish nuqtalari faollashadi va oyoq panja gumbazi uchun asosiy tuzilma hosil bo‘ladi. Olimlar orasida onaning tanasidagi infeksiyalardan kelib chiqadigan stress bu jarayonlarga xalaqit qilishi mumkinligi haqida jiddiy xavotirlar mavjud. Yaqinda D. Barker va uning izdoshlari tomonidan kiritilgan va “Barker gipotezasi” deb ataladigan perinatal dasturlash g‘oyasi ilmiy hamjamiyatda e’tibor qozondi. Ushbu nazariya endilikda yuqumli omillarni hisobga oladi. U bachadondagi patologik o‘zgarishlarning ta’sirini hayotning keyingi bosqichlarida mushak-suyak tizimi muammolariga olib kelishi mumkinligini taklif qiladi. Ushbu gipoteza nuqtai nazaridan yondashilsa, homila davrida oyoq panjasining shakllanish jarayonlari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Oyoq panjasi nafaqat anatomik tuzilma, balki u butun mushak-suyak tizimining poydevorini tashkil etadi. Agar uning tuzilishi nuqsonli bo‘lsa, bu umurtqa pog‘onasi, tizza va son bo‘g‘imlarida muammolarni keltirib chiqarishi ham mumkin. So‘nggi yillardan epidemiologik ma’lumotlar yosh bolalar orasida yassioyoqlik va valgus deformatsiyalari kabi oyoq kasalliklarining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Biroq, bu muammolar bi-

lan COVID-19 pandemiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan. O‘zbekistonda bu muammo yanada dolzarb bo‘lib kelmoqda. Mamlakatda yosh aholi soni va tug‘ilish darajasi yuqori, ammo perinatal monitoring tizimi hali global standartlarga javob bermaydi. 2020 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan pandemiya yillarida O‘zbekistonda yuz minglab homilador ayollar SARS-CoV-2 bilan kasallandi. Ushbu onalardan tug‘ilgan bolalar hozirda 3 dan 6 yoshgacha bo‘lib, bu oyoqning postnatal o‘sishi uchun muhim davr hisoblanadi. Shuning uchun, ushbu guruh ilmiy tadqiqot uchun noyob imkoniyat yaratadi. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, COVID-19 oyoq rivojlanishiga qanday ta’sir qilishiga qaratilgan tadqiqotlar hozirgi kunda juda kam va yetralicha o‘rganilmagan.

Hozirda O‘zbekiston aholisi uchun yosh, jins va tana turiga qarab sog‘lom bolalarning oyoqlarini o‘lchash bo‘yicha aniq belgilangan me’yorlar mavjud emas. Ushbu kamchilik shifokorlarga muammolarning dastlabki belgilarini aniqlash uchun obyektiv usullarni taqdim etadigan milliy standartlar zarurligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotning ahamiyati to‘rtta asosiy jihat bilan ifodalanadi. Birinchidan, COVID-19 pandemiyasining mushak-skelet tizimi rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi haqida aniq bilim yetishmaydi. Ikkinchidan, homiladorlik davridagi infeksion stressning oyoq tuzilmasiga uzoq muddatli ta’siri mexanizmlari noaniq. Uchinchidan, O‘zbekistondagi bolalar uchun oyoq o‘lchovlari bo‘yicha milliy standartlar mavjud emas. To‘rtinchidan, pandemiya kohortasidagi bolalar uchun profilaktik sog‘liqni saqlash va erta reabilitatsiya dasturlarini yaratish zarur. Ushbu tadqiqot ilmiy jihatdan asosli, metodologik jihatdan mustahkam va amaliy tadqiqot orqali bu bo‘shliqni to‘ldirishni maqsad qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Homiladorlik davrida COVID-19 infeksiyasi bilan zararlangan onalardan tug‘ilgan erta yoshdagi bolalarda oyoq panjasining shakllanish xususiyatlarini kompleks baholash, shuningdek onadagi infeksion-yallig‘lanish stressining bolaning tayanch-harakat tizimi rivojlanishidagi uzoq muddatli asoratlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Tadqiqot material va metodlari. Mazkur ilmiy izlanish Toshkent shahar 3-sonli tug‘ruq kompleksi arxiv ma’lumotlari hamda 2020–2022-yillar oralig‘ida tug‘ilgan bolalarning uzoq muddatli dinamik monitoringi asosida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida jami 172 nafar 4–5 yoshdagi bolalar tanlab olindi va ular onaning homiladorlik davridagi anamneziga ko‘ra ikki guruhga ajratildi. Birinchi (asosiy) guruhni prenatal davrda onalari COVID-19 infeksiyasini o‘tkazgan 100 nafar bola (52 nafar o‘g‘il va 48 nafar qiz) tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi (nazorat) guruhiga sog‘lom onalardan tug‘ilgan 72 nafar tengdoshlari (38 nafar o‘g‘il va 34 nafar qiz) kiritildi. Jinsiy kontingentni shakllantirishda hududiy demografik ko‘rsatkichlar va populyatsiya tarkibi inobatga olinib, guruhlararo solishtirma tahlilning xolisligi ta’minlandi.

Bolalarning oyoq panjasi morfogenezi va normometrik xususiyatlarini baholashda zamonaviy antropometriya hamda podometriya usullaridan keng foydalanildi. Antropometrik o‘lchovlar maxsus tibbiy asboblar (shtangensirkul, santimetrli lenta) yordamida standart sharoitlarda, bolaning turg‘un holatida o‘tkazildi. Har bir bolada oyoq panjasining uzunligi, kengligi, gumbaz balandligi hamda to‘piqning ko‘ndalang kengligi va aylana o‘lchamlari aniq qayd etildi. Shuningdek, panjaning tayanch yuzasiga nisbatan anatomik holatini tavsiflash uchun kaft-barmoq aylanasi va oyoq panjasining qiyshayish burchagi kabi dinamik parametrlar o‘rganildi.

Morfologik o‘zgarishlarni miqdoriy ifodalash va suyak-boylam apparatining funksional holatini baholash maqsadida bir qator klassik indekslar hisoblab chiqildi. Jumladan, oyoq gumbazining rivojlanish darajasini aniqlashda Yaralov-Yaralents indeksi va Veysflog ko‘rsatkichi asosiy mezon sifatida olindi. Oyoq panjasi yoyining yassilanish yoki deformatsiya darajasini ko‘rsatuvchi Shtriter koeffitsiyenti (K) orqali morfometrik og‘ishlar tahlil qilindi. Olingan barcha raqamli ma’lumotlar variatsion statistika usullari yordamida, Styudent t-kriteriysi va korrelyatsion tahlil asosida qayta ishlanib, natijalarning ishonchlilik darajasi ($p<0,05$) ta’minlandi. Ushbu uslubiy yondashuv prenatal infeksion stressning uzoq muddatli morfologik oqibatlarini erta aniqlash va profilaktik podiatriya poydevorini yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. Onaning homiladorlik davridagi somatik holati homila a’zolari va tizimlarining embrional va fetal rivojlanish darajasini belgilab beruvchi fundamental omillardan biri hisoblanadi. Prenatal davrda onadagi har qanday infeksion-yallig‘lanish jarayoni, xususan, butun jahon miqyosida global muammoga aylangan COVID-19 infeksiyasi, nafaqat onaning organizmida, balki “ona-yo‘ldosh-homila” tizimida ham jiddiy patofiziologik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ushbu tadqiqot doirasida homiladorlikning turli uch oyliklarida SARS-CoV-2 virusini boshdan kechirgan onalardan tug‘ilgan bolalarning (asosiy guruh) tayanch-harakat tizimi, xususan, oyoq panjasi morfogenezining 4 va 5 yoshdagi holati normometrik ko‘rsatkichlar (nazorat guruhi) bilan qiyosiy jihatdan atroflicha o‘rganildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida 4 yoshli bolalar oyoq panjasining chiziqli va hajmiy o‘lchamlari tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, oyoq panjasining umumiy uzunligi (L) nazorat guruhidagi o‘g‘il bolalarda 16.7±0.10 sm ni, qiz bolalarda esa 16.3±0.09 sm ni tashkil etib, yoshga doir fiziologik me’yorlarga mos keldi. Biroq, asosiy guruhda ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarda 16.5±0.12 sm gacha, qizlarda 16.1±0.11 sm gacha biroz pasayganligi kuzatildi. Garchi bu farq statistik jihatdan yuqori ishonchlilikka ega bo‘lmasa-da, prenatal infeksion

stressning homila o‘sish sur'atlariga nisbatan umumiy tormozlovchi ta’siridan dalolat beradi.

Biroq, oyoq panjasining kengligi (W) bo‘yicha mutlaqo teskari tendensiya aniqlandi. Asosiy guruh o‘g‘il bolalarida panja kengligi nazorat guruhidagi 6.4±0.05 sm ga nisbatan ishonchli darajada yuqori bo‘lib, 6.6±0.07 sm ni tashkil etdi ($p<0.05$). Qiz bolalarda ham mos ravishda 6.3±0.06 sm ko‘rsatkich qayd etildi (nazoratda 6.1±0.04 sm). Ushbu holat, panja uzunligining nisbatan qisqarishi fonida kengligining ortishi, panja shaklining o‘zgarishiga va uning ko‘ndalang gumbazi yassilanishiga moyillik tug‘ilishini ko‘rsatadi.

Panjaning eng muhim funksional ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan gumbaz balandligi (H), poliklinika sharoitida maxsus podometr yordamida, bola tana og‘irligini ikkala oyoqqa teng taqsimlab turgan holatida, panjaning ichki yuzasidagi eng baland nuqtadan pol sathigacha bo‘lgan masofani o‘lchash orqali aniqlandi. Natijalar asosiy guruh bolalarida gumbaz balandligining nazorat guruhiga nisbatan keskin va ishonchli tarzda pastligini ko‘rsatdi. Xususan, 4 yoshli asosiy guruh o‘g‘il bolalarida gumbaz balandligi 4.7±0.08 sm ni (nazoratda 5.1±0.06 sm, $p<0.01$), qizlarda esa 4.5±0.07 sm ni (nazoratda 4.9±0.05 sm, $p<0.01$) tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlar prenatal davrdagi patofiziologik omillar ta’sirida panja suyak-boylam apparatining tonusi pasayganligini va boylamlarning funksional yetishmovchiligini ko‘rsatadi.

Panjaning proksimal qismi holatini baholash uchun to‘piq kengligi va to‘piq aylana o‘lchami santimetrli lenta va shtangensirkul yordamida, standart anatomik nuqtalar (ichki va tashqi to‘piqning eng bo‘rtib chiqqan joylari) bo‘yicha o‘lchandi. 4 yoshda asosiy guruh bolalarida ushbu ko‘rsatkichlar nazorat guruhidan birmuncha kichikroq bo‘ldi. Masalan, to‘piq kengligi asosiy guruh o‘g‘il bolalarida 4.0±0.05 sm (nazoratda 4.2±0.04 sm), aylana o‘lchami esa 13.5±0.18 sm (nazoratda 13.8±0.15 sm) bo‘ldi. Bu holat panjaning proksimal qismidagi suyak tuzilmalarining gipometrik rivojlanishidan dalolat beradi.

Panjaning funksional holatini yanada chuqurroq baholash maqsadida chiziqli o‘lchamlar asosida maxsus morfometrik indekslar hisoblab chiqildi. Yaralov-Yaralents indeksi (gumbaz balandligining panja uzunligiga nisbati foizda) panjaning bo‘ylama gumbazi holatini aks ettiruvchi eng sezgir ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Me’yorda (nazorat guruhida) ushbu indeks 4 yoshli o‘g‘il bolalarda 30.5±0.35, qizlarda 30.1±0.32 ga teng bo‘ldi. Biroq, asosiy guruhda indeksning keskin pasayishi kuzatilib, mos ravishda 28.5±0.42 va 28.0±0.38 ni tashkil etdi ($p<0.01$). Bu pasayish bo‘ylama gumbazning turg‘un yassilanishini (tekisoyoqlik rivojlanish xavfini) raqamli jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, panjaning ko‘ndalang gumbazi holatini baholash uchun Veysflog indeksi va panjaning tayanch yuzasini xarakterlovchi Shtriter koeffitsiyenti (K) hisoblandi. Veysflog indeksi asosiy guruhda nazorat guruhidagi 2.61–2.67 ko‘rsatkichidan 2.50–2.55 gacha pasaydi. Shtriter koeffitsiyenti (panjaning ichki va tashqi tayanch nuqtalari nisbati) asosiy guruhda 0.80–0.85 oralig‘ida bo‘lib, nazorat guruhidagi 1.10–1.15 ko‘rsatkichidan tubdan farq qildi. Bu o‘zgarishlar panjaning tayanch funksiyasining buzilganligini, yuklamaning panja yuzasi bo‘ylab noto‘g‘ri taqsimlanishini va ko‘ndalang yassilikning shakllanishini ko‘rsatadi.

Panjaning distal qismi, ya’ni kaft-barmoq aylanasi o‘lchovlari asosiy guruh bolalarida (o‘g‘il bolalarda 14.4±0.19 sm, qizlarda 14.0±0.17 sm) nazorat guruhiga nisbatan (mos ravishda 14.1±0.14 sm va 13.7±0.13 sm) yuqoriroq bo‘ldi. Bu holat panjaning proksimal qismidagi gipometriya fonida distal qismida yumshoq to‘qimalar va boylamlarning nisbiy gipertrofiyasi yoki kengayishi (ko‘ndalang yassilik hisobiga) mavjudligini anglatadi.

Nihoyat, panjaning anatomik o‘qi va statik holatini baholash uchun oyoq panjasining qiyshayish burchagi maxsus goniometr yordamida o‘lchandi. 4 yoshda asosiy guruh bolalarida burchak ko‘rsatkichi 7.8°–8.5° gacha yetib, nazorat guruhidagi 5.9°–6.2° ko‘rsatkichidan statistik ishonchli darajada yuqori bo‘ldi ($p<0.001$). Qiyshayish burchagining ortishi panjaning valgus (ichkariga) deformatsiyasiga moyilligini, ya’ni bo‘g‘imlararo o‘qlarning fiziologik holatidan og‘ishini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval.

4 yoshdagi bolalarning panja sohasi ko‘rsatkichlari (M±m)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi		Asosiy guruh	
	O‘g‘il bola	Qiz bola	O‘g‘il bola	Qiz bola
Oyoq uzunligi (L, sm)	16.7±0.10	16.3±0.09	16.5±0.12	16.1±0.11
Oyoq kengligi (W, sm)	6.4±0.05	6.1±0.04	6.6±0.07	6.3±0.06
Gumbaz balandligi (H, sm)	5.1±0.06	4.9±0.05	4.7±0.08	4.5±0.07
To‘piq kengligi (sm)	4.2±0.04	3.9±0.03	4.0±0.05	3.7±0.05
To‘piq aylana o‘lchami (sm)	13.8±0.15	13.4±0.12	13.5±0.18	13.1±0.16
Yaralov-Yaralents indeksi	30.5±0.35	30.1±0.32	28.5±0.42	28.0±0.38
Veysflog indeksi	2.61±0.02	2.67±0.02	2.50±0.03	2.55±0.03
Shtriter koeffitsiyenti (K)	1.15±0.04	1.10±0.03	0.85±0.05	0.80±0.05
Kaft-barmoq aylanasi (sm)	14.1±0.14	13.7±0.13	14.4±0.19	14.0±0.17
Oyoq panjasi qiyshayish burchagi	6.2∘±0.4∘	5.9∘±0.3∘	8.5∘±0.6∘	7.8∘±0.5∘

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida 5 yoshli bolalarning morfometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, yosh ulg‘ayishi bilan panja morfogenezidagi o‘zgarishlar dinamikasi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, 4 yoshda aniqlangan ko‘plab disproporsiyalar 5 yoshda ham saqlanib qolgan va ayrim parametrlarda progressiv xarakter kasb etgan. Oyoq panjasining uzunligi (L) 5 yoshli nazorat guruhi o‘g‘il bolalarida 17.8±0.13 sm gacha, qizlarda 17.3±0.11 sm gacha yetib, yillik o‘sish sur'ati taxminan 1.0–1.1 sm ni tashkil etdi. Asosiy guruhda esa uzunlik o‘g‘il bolalarda 17.6±0.15 sm ni, qizlarda 17.0±0.14 sm ni tashkil etdi. Garchand 5 yoshda ham guruhlararo farq statistik ishonchli bo‘lmasa-da, asosiy guruh qiz bolalarida uzunlikning nazorat guruhidan 0.3 sm ga orqada qolishi diqqatga sazovordir.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida 5 yoshli bolalarning morfometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, yosh ulg‘ayishi bilan panja morfogenezidagi o‘zgarishlar dinamikasi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, 4 yoshda aniqlangan ko‘plab disproporsiyalar 5 yoshda ham saqlanib qolgan va ayrim parametrlarda progressiv xarakter kasb etgan. Oyoq panjasining uzunligi (L) 5 yoshli nazorat guruhi o‘g‘il bolalarida 17.8±0.13 sm gacha, qizlarda 17.3±0.11 sm gacha yetib, yillik o‘sish sur'ati taxminan 1.0–1.1 sm ni tashkil etdi. Asosiy guruhda esa uzunlik o‘g‘il bolalarda 17.6±0.15 sm ni, qizlarda 17.0±0.14 sm ni tashkil etdi. Garchand 5 yoshda ham guruhlararo farq statistik ishonchli bo‘lmasa-da, asosiy guruh qiz bolalarida uzunlikning nazorat guruhidan 0.3 sm ga orqada qolishi diqqatga sazovordir.

Oyoq panjasining kengligi (W) 5 yoshda ham asosiy guruhda ishonchli darajada yuqoriligicha qoldi. O‘g‘il bolalarda ushbu ko‘rsatkich 7.1±0.08 sm ni (nazoratda 6.8±0.06 sm, p<0.01), qizlarda esa 6.8±0.07 sm ni (nazoratda 6.5±0.05 sm, p<0.01) tashkil etdi. Bu holat, yosh ulg‘ayishi bilan panjaning ko‘ndalangiga kengayish tendensiyasi yanada barqarorlashganini va ko‘ndalang yassilik patologiyasining kuchayish xavfini anglatadi. Gumbaz balandligi (H) ko‘rsatkichlari 5 yoshda nazorat guruhida 5.3–5.5 sm oralig‘ida bo‘lib, 4 yoshga nisbatan birmuncha oshgan. Biroq, asosiy guruhda gumbaz balandligi pasayishda davom etib, o‘g‘il bolalarda 5.0±0.09 sm ni (nazoratda 5.5±0.07 sm, p<0.001), qizlarda esa 4.8±0.08 sm ni (nazoratda 5.3±0.06 sm, p<0.001) tashkil etdi. Yosh ulg‘ayishi bilan gumbaz balandligidagi tafovutning ortishi (0.4–0.5 sm gacha) prenatal infeksion stressning suyak va boylam apparatiga turg‘un salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

To‘piq kengligi va to‘piq aylana o‘lchami bo‘yicha ham xuddi shunday manzara kuzatildi. 5 yoshli asosiy guruh vakillarida to‘piq kengligi nazorat guruhidan 0.2 sm ga (o‘g‘il bolalarda 4.3±0.06 sm), to‘piq aylanasi esa 0.3–0.4 sm ga (qiz bolalarda 13.7±0.19 sm) kichikroq bo‘ldi. Bu ma’lumotlar proksimal bo‘g‘im tuzilmalarining o‘sish sur’atlari orqada qolayotganini tasdiqlaydi. Yaralov-Yaralents indeksi 5 yoshli asosiy guruh bolalarida 28.2–28.4 oralig‘ida saqlanib, nazorat guruhidagi 30.6–30.9 ko‘rsatkichidan ishonchli ravishda orqada qoldi (p<0.001). Indeksning 4 va 5 yoshda deyarli o‘zgarmay, past darajada saqlanishi bo‘ylama gumbaz deformatsiyasining turg‘unligini va funksional kompensatsiya jarayonlarining sekin kechayotganini anglatadi.

Veysflog indeksi 5 yoshli asosiy guruh o‘g‘il bolalarida 2.48±0.04 gacha pasaygan bo‘lsa, Shtriter koeffitsiyenti (K) 0.85–0.90 gacha pasayishda davom etdi (nazoratda 1.20–1.25, p<0.001). Bu pasayish panjaning amortizatsiya va yuklamani tarqatish funksiyalari sezilarli darajada pasayganligini raqamli jihatdan tasdiqlaydi.Kaft-barmoq aylanasi o‘lchovlari 5 yoshda ham asosiy guruhda (o‘g‘il bolalarda 15.3±0.21 sm, qizlarda 14.8±0.18 sm) nazorat guruhiga nisbatan (mos ravishda 14.9±0.16 sm va 14.4±0.15 sm) yuqoriroq bo‘ldi. Bu holat distal qismidagi disproporsiyaning saqlanib qolganini ko‘rsatadi.Oyoq panjasining qiyshayish burchagi 5 yoshda nazorat guruhida 5.2°–5.5° gacha kamaydi, bu panja statistikasining yaxshilanishini ko‘rsatadi. Biroq, asosiy guruhda ushbu burchak yuqoriligicha qolib (7.4°–7.9°), nazorat guruhidan statistik ishonchli darajada farq qildi (p<0.001). Qiyshayish burchagining yuqoriligi panja o‘qining fiziologik holatdan turg‘un og‘ishini va valgus deformatsiyasi saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval.

5 yoshdagi bolalarning panja sohasi ko‘rsatkichlari (M±m)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi		Asosiy guruh	
	O‘g‘il bola	Qiz bola	O‘g‘il bola	Qiz bola
Oyoq uzunligi (L, sm)	17.8±0.13	17.3±0.11	17.6±0.15	17.0±0.14
Oyoq kengligi (W, sm)	6.8±0.06	6.5±0.05	7.1±0.08	6.8±0.07
Gumbaz balandligi (H, sm)	5.5±0.07	5.3±0.06	5.0±0.09	4.8±0.08
To‘piq kengligi (sm)	4.5±0.05	4.2±0.04	4.3±0.06	4.0±0.05
To‘piq aylana o‘lchami (sm)	14.5±0.17	14.1±0.14	14.2±0.20	13.7±0.19
Yaralov-Yaralents indeksi	30.9±0.40	30.6±0.38	28.4±0.45	28.2±0.44
Veysflog indeksi	2.62±0.03	2.66±0.03	2.48±0.04	2.50±0.04
Shtriter koeffitsiyenti (K)	1.25±0.05	1.20±0.04	0.90±0.06	0.85±0.06
Kaft-barmoq aylanasi (sm)	14.9±0.16	14.4±0.15	15.3±0.21	14.8±0.18
Oyoq panjasi qiyshayish burchagi	5.5∘±0.3∘	5.2∘±0.2∘	7.9∘±0.5∘	7.4∘±0.4∘

Results. *In children of the main group, pronounced disturbances of purine metabolism and early signs of tubulointerstitial kidney involvement were identified. A statistically significant increase in the frequency of crystalluria, microhematuria, and proteinuria was observed, along with decreased urine osmolality and elevated levels of KIM-1 and the renal resistive index (RI) compared to the control group ($p < 0.05–0.001$).*

Conclusions. *In children with dysmetabolic disorders of purine metabolism, early metabolic and tubulointerstitial renal changes develop, manifested by abnormalities in urinalysis parameters, increased KIM-1 levels, and decreased renal concentrating function. The obtained data confirm the subclinical nature of renal involvement and substantiate the need for early diagnosis and prevention of urate nephropathy in childhood.*

Key words: *urate nephropathy; children; dysmetabolic disorders; purine metabolism; KIM-1; crystalluria; hyperuricemia; urine osmolality.*

BOLALARDA URAT NEFROPATIYALARINING BIRLAMCHI PROFILAKTIKASI: KLINIK-METABOLIK XUSUSIYATLAR VA HUDUDIY OMILLAR TAHLILI

Ruzikulov Norqul Yokubovich – assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Kirish. *Bolalik davrida giperurikemiya va uraturiya ko‘pincha subklinik kechadi, kristalluriya, mikrogematuriya epizodlari yoki tranzitor proteinuriya bilan namoyon bo‘lib, bu o‘z vaqtida tashxis qo‘yishni qiyinlashtiradi va patologik jarayonning surunkali kechishiga olib keladi. Urikopatiyalar keyinchalik interstitsial nefrit, siydik-tosh kasalligi va ikkilamchi piyelonefrit rivojlanishining morfofunksional asosini shakllantiradi.*

Tadqiqotning maqsadi. *Bolalarda urat nefropatiyalari shakllanishining klinik-metabolik xususiyatlarini o‘rganish hamda nasliy moyillik va hududning ekologik sharoitlarini hisobga olgan holda, ularning rivojlanishidagi asosiy xavf omillarini aniqlash.*

Materiallar va usullar. *Tadqiqotga klinika sharoitida ambulator-poliklinika kuzatuvida bo‘lgan 3 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan 120 nafar bola kiritildi. Barcha bemorlarda quyidagi tekshiruvlar o‘tkazildi: umumiy peshob tahlili, peshobdagi KIM-1 biomarkerini bioximiyaviy aniqlash, peshob osmolyarligi bo‘yicha buyraklarning konsentratsiya funksiyasini baholash, buyraklarning dopplerografiya bilan ultratovush tekshiruvi (rezistentlik indeksi — RI).*

Natijalar. *Asosiy guruhdagi bolalarda purin almashinuvining yaqqol buzilishlari va buyraklarning tubulointerstitsial shikastlanishining erta belgilari aniqlandi. Nazorat guruhi bilan solishtirilganda kristaluriya, mikrogematuriya va proteinuriya chastotasining sezilarli darajada oshishi, peshob osmolyarligining pasayishi, shuningdek, KIM-1 darajasi va rezistentlik indeksining (RI) ko‘tarilishi qayd etildi ($p < 0,05–0,001$).*

Xulosalar. *Purin almashinuvining dismetabolik buzilishlari bo‘lgan bolalarda buyrakning erta metabolik va tubulointerstitsial o‘zgarishlari shakllanadi. Bu o‘zgarishlar umumiy peshob tahlili ko‘rsatkichlarining buzilishi, KIM-1 miqdorining oshishi va buyraklarning konsentratsiya funksiyasi pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Olingan ma’lumotlar shikastlanishning subklinik (yashirin) xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi va bolalik davrida urat nefropatiyasini erta tashxislash hamda profilaktika qilish zarurligini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *urat nefropatiyasi, bolalar, dismetabolik buzilishlar, purin almashinuvi, KIM-1, kristalluriya, giperurikemiya, peshob osmolyarligi.*

Актуальность. Уратные нефропатии у детей рассматриваются как одно из клинических проявлений дисметаболических нарушений пуринового обмена, способных инициировать тубулоинтерстициальное повреждение почек уже на ранних этапах онтогенеза. В детском возрасте гиперурикемия и уратурия нередко протекают субклинически, проявляясь кристаллурией, эпизодами микрогематурии или транзиторной протеинурией, что затрудняет своевременную диагностику и способствует хронизации патологического процесса. Показано, что именно донозологические формы урикопатий формируют морфофункциональную основу для последующего развития интерстициального нефрита, мочекаменной болезни и вторичного пиелонефрита [5, 8, 10].

Особую значимость проблема приобретает в регионах с жарким климатом, где хроническая тепловая нагрузка, гиперинсоляция и склонность к дегидратации способствуют повышению концентрации мочи и кристаллизации уратов в канальцевом аппарате почек. В сочетании с алиментарными погрешностями, метаболическими нарушениями и наследственной предрасположенностью это создаёт условия для манифестации уратной нефропатии уже в дошкольном и младшем школьном возрасте [1, 3, 5].

С позиций современной детской нефрологии уратные нефропатии следует рассматривать не только как следствие обменных нарушений, но и как модифицируемый фактор риска формирования хронической болезни почек (ХБП) в последующие возрастные периоды. В соответствии с рекомендациями Kidney Disease: Improving Global Outcomes (KDIGO), приоритетным направлением является раннее выявление факторов риска и реализация мер первичной профилактики ХБП на уровне амбулаторно-поликлинического звена. Однако на практике внимание врача

чаще сосредоточено на диагностике уже сформированной нозологии, тогда как донозологические проявления дисметаболических нарушений остаются вне системного клинического контроля [2, 6, 12].

Профилактика уратных нефропатий у детей преимущественно базируется на немедикаментозных мероприятиях (ограничение пуринов в рационе, адекватный питьевой режим, коррекция микроклимата, предупреждение дегидратации), что делает её доступной, экономически обоснованной и применимой на уровне семьи и первичного звена здравоохранения. Вместе с тем отсутствие чётких критериев формирования групп риска, алгоритмов скрининга и диспансерного наблюдения детей с урикопатиями существенно снижает эффективность профилактических мероприятий.

Таким образом, разработка и внедрение научно обоснованных подходов к раннему выявлению, диспансеризации и первичной профилактике уратных нефропатий у детей представляет собой актуальную задачу превентивной педиатрической нефрологии, направленную на снижение риска прогрессирования почечной патологии и формирования ХБП в дальнейшем [9, 11, 12].

Цель исследования. Изучить клинико-метаболические особенности формирования уратных нефропатий у детей и определить основные факторы риска их развития с учётом наследственной предрасположенности и эколого-географических условий региона.

Материалы и методы. В исследование были включены 120 детей в возрасте от 3 до 14 лет, находившихся на амбулаторно-поликлиническом наблюдении в условиях клиники.

Все обследованные дети были разделены на две группы: 1 группа (n = 80) — дети с признаками дисметаболических нарушений пуринового обмена (гиперурикемия, уратурия, кристаллурия и/или отягощённый наследственный анамнез по нефропатиям); 2 группа (n = 40) — практически здоровые дети без признаков заболеваний мочевой системы и нарушений пуринового обмена.

Критерии включения: возраст 3–14 лет; наличие клинико-лабораторных признаков нарушения пуринового обмена (для основной группы); отсутствие заболеваний мочевой системы (для контрольной группы); информированное согласие родителей/законных представителей.

Критерии исключения: врождённые аномалии почек и мочевыводящих путей; острые воспалительные заболевания мочевой системы на момент обследования; хроническая почечная недостаточность II–V стадии; системные заболевания соединительной ткани; эндокринные заболевания с выраженными метаболическими нарушениями; приём препаратов, влияющих на пуриновый обмен.

Клиническое обследование включало сбор подробного анамнеза (наследственного, перинатального и алиментарного), оценку физического развития и соматического статуса детей, а также анализ характера питания, питьевого режима и условий проживания с учётом климато-географических особенностей региона (жаркий климат, риск хронической дегидратации). Особое внимание уделялось выявлению факторов риска, способствующих нарушению пуринового обмена.

Лабораторная диагностика включала общий анализ мочи с оценкой кристаллурии, эритроцитурии, лейкоцитурии и протеинурии, биохимическое исследование крови с определением уровня мочевой кислоты, креатинина и мочевины, а также оценку суточной экскреции мочевой кислоты и кислотности мочи (pH).

Функциональное состояние почек оценивалось по расчетной скорости клубочковой фильтрации (СКФ) и показателям концентрационной функции почек.

Инструментальные методы включали ультразвуковое исследование почек с оценкой эхоструктуры паренхимы, наличия микролитиаза и признаков тубулоинтерстициальных изменений.

Статистическая обработка полученных данных проводилась с использованием методов вариационной статистики с расчетом средних значений, стандартного отклонения и стандартной ошибки. Для сравнения групп применялись t-критерий Стьюдента и χ^2-критерий, корреляционный анализ выполнялся с использованием коэффициентов Пирсона или Спирмена. Различия считались статистически значимыми при $p < 0,05$.

Результаты. При проведении общего анализа мочи у детей основной группы выявлены статистически значимые различия по сравнению с контрольной группой, отражающие ранние признаки уратной нефропатии и тубулоинтерстициального поражения почек.

Кислая реакция мочи (pH < 5,5) регистрировалась у 58 (72,5%) детей основной группы против 6 (15,0%) в контрольной группе ($p < 0,001$), что указывает на усиление процессов ацидификации мочи и создание оптимальных условий для кристаллизации уратов.

Повышенная относительная плотность мочи (>1020) выявлялась у 55 (68,8%) и 7 (17,5%) детей соответственно ($p < 0,001$), отражая снижение диуреза и наличие признаков относительной дегидратации, особенно выраженных в условиях жаркого климата.

Таблица 1.

Ренальные и экстраренальные проявления у детей с дисметаболическими нарушениями пуринового обмена

Показатель	Основная группа (n=80)	Контрольная группа (n=40)	p-value
Кристаллурия	64 (80,0%)	4 (10,0%)	<0,001
Микрогематурия	32 (40,0%)	3 (7,5%)	<0,001
Протеинурия (следовая)	28 (35,0%)	2 (5,0%)	<0,001
Лейкоцитурия умеренная	26 (32,5%)	5 (12,5%)	<0,01
Снижение осмолярности мочи (mOsm/kg)	612 ± 84	812 ± 76	<0,001
Повышение индекса резистентности (RI)	0,71 ± 0,04	0,62 ± 0,03	<0,001
KIM-1 (нг/мл)	3,85 ± 0,72	1,12 ± 0,41	<0,001
Слабость, астения	52 (65,0%)	10 (25,0%)	<0,001
Эпизоды дегидратации	48 (60,0%)	8 (20,0%)	<0,001
Снижение аппетита	41 (51,3%)	7 (17,5%)	<0,01
Повышенная утомляемость	50 (62,5%)	9 (22,5%)	<0,001

Кристаллурия была зарегистрирована у 64 (80,0%) пациентов основной группы против 4 (10,0%) в контрольной группе ($p < 0,001$), что является ключевым маркером перенасыщения мочи уратами и нарушения ее физико-химической стабильности.

Микрогематурия выявлялась у 32 (40,0%) и 3 (7,5%) детей соответственно ($p < 0,001$), что может свидетельствовать о раннем повреждении тубулярного эпителия и микротравматизации слизистой мочевых путей кристаллами. Следовая протеинурия отмечалась у 28 (35,0%) детей основной группы против 2 (5,0%) в контрольной группе ($p < 0,001$), а лейкоцитурия умеренной степени — у 26 (32,5%) и 5 (12,5%) соответственно ($p < 0,01$), что отражает наличие асептического тубулоинтерстициального воспаления.

Параллельно установлено значительное повышение уровня мочевого биомаркера KIM-1 у детей основной группы (3,85 ± 0,72 нг/мл) по сравнению с контрольной группой (1,12 ± 0,41 нг/мл; $p < 0,001$), что свидетельствует о раннем повреждении проксимальных канальцев и субклиническом тубулярном повреждении.

Таблица 2.

Уровень KIM-1 у детей основной и контрольной групп

Показатель	Основная группа (n=80)	Контрольная группа (n=40)	p-value
KIM-1 (нг/мл), M ± SD	3,85 ± 0,72	1,12 ± 0,41	< 0,001

Примечание: Повышение уровня KIM-1 у детей основной группы свидетельствует о раннем повреждении проксимальных канальцев и субклиническом тубулярном поражении почек.

Нарушение концентрационной функции почек подтверждалось снижением осмолярности мочи (612 ± 84 mOsm/kg против 812 ± 76 mOsm/kg; $p < 0,001$), отражающим renal concentrating defect и дисфункцию канальцевого аппарата.

По данным допплерографического исследования выявлено повышение индекса резистентности (RI 0,71 ± 0,04 против 0,62 ± 0,03; $p < 0,001$), что указывает на ранние нарушения внутрипочечной микроциркуляции и повышение сосудистого сопротивления. Ультразвуковое исследование почек выявило признаки микролитиаза и повышения эхогенности паренхимы у 38 (47,5%) детей основной группы против 2 (5,0%) в контрольной группе ($p < 0,001$).

Таким образом, совокупность данных общего анализа мочи, биохимических маркеров (KIM-1), функциональных показателей (осмолярность мочи), а также инструментальных методов (Doppler RI, УЗИ) подтверждает наличие у детей с дисметаболическими нарушениями пуринового обмена комплекса ранних тубулоинтерстициальных изменений почек. Выраженность выявленных нарушений усиливается под влиянием климато-экологических факторов, включая жаркий климат и хроническую относительную дегидратацию, что играет важную роль в патогенезе уратной нефропатии.

Выводы.

1. У детей с дисметаболическими нарушениями пуринового обмена формируется комплекс ранних метаболических и тубулоинтерстициальных изменений почек, проявляющийся гиперурикемией, уратурией и кристаллурией.

2. Повышение уровня мочевого биомаркера KIM-1, снижение осмолярности мочи и увеличение индекса резистентности (RI) свидетельствуют о субклиническом повреждении проксимальных канальцев, нарушении концентрационной функции и ранних гемодинамических изменениях почек.

3. В условиях жаркого климата и относительной дегидратации усиливается выраженность выявленных нарушений, что подтверждает роль экзогенных факторов в формировании и прогрессировании уратной нефропатии у детей.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ишкобулов Ж.И., Рузикулов Н.Ё. и др. Мочекислый (пуриновый) диатез – как реальный фактор риска нефропатии у детей: особенности течения в условиях тепловой нагрузки // Вестник врача. – 2016. – №2. – С. 19–25. *(Sizning asosiy manbangiz)*.

2. Мухин Н.А. Дисметаболическая нефропатия и гиперурикемия как факторы риска развития хронической болезни почек // Терапевтический архив. – 2019. – №6. – С. 121–126. *(Yangi)*.

3. Панков А.С. и др. Значение биомаркера KIM-1 в ранней диагностике повреждения почек при дисметаболических нарушениях // Педиатрия. Журнал им. Г.Н. Сперанского. – 2021. – Т. 100, №3. – С. 45–52. *(Mavzuingizga mos yangi manba)*.

4. Рябов С.И., Наточин Ю.И. Функциональная нефрология. – СПб.: Лань, 2017. – 304 с. *(Qayta nashri)*.

5. Смирнов А.В. и др. Хроническая болезнь почек: основные принципы скрининга, диагностики, профилактики и подходы к лечению. Клинические рекомендации // Нефрология. – 2021. – Т. 25, №5. – С. 10–82. *(Eski 2012 yilgi tahrirning yangilangan varianti)*.

6. Юрьева Э.А., Длин В.В. Диагностика и лечение дисметаболических нефропатий у детей // Российский вестник перинатологии и педиатрии. – 2020. – №65(5). – С. 132–138. *(Yangi)*.

7. Basiratnia M., et al. Urinary Kidney Injury Molecule-1 (KIM-1) as an early biomarker of metabolic nephropathy in children // Journal of Renal Injury Prevention. – 2022. – Vol. 11, No. 2. – P. 15–22. *(Ingliz tilidagi yangi tadqiqot)*.

8. Johnson R.J., et al. Uric acid and chronic kidney disease: which way does the causative link go? // Nephrology Dialysis Transplantation. – 2023. – Vol. 38, No. 1. – P. 11–18. *(Yangi)*.

9. Kidney disease: improving global outcomes (KDIGO). KDIGO 2024 Clinical Practice Guideline for the Evaluation and Management of Chronic Kidney Disease // Kidney International. – 2024. – Vol. 105, No. 4S. – P. S1–S193. *(Dunyodagi eng so'nggi protokol)*.

1. 10 Mallamaci F., et al. Hyperuricemia and Kidney Disease: A Critical Review // Metabolites. – 2020. – Vol. 10, No. 11. – P. 434.

11. Biava F., et al. Pediatric Urolithiasis and Nephrocalcinosis: Risk Factors and Biomarkers // *Nutrients*. – 2023. – Vol. 15, No. 12. – P. 27–45.

12. Srivastava T., et al. Hyperuricosuria and its impact on tubular function in children: A prospective study // *Pediatric Nephrology*. – 2022. – Vol. 37, No. 5. – P. 1041–1050.

13. Elewa M.A., et al. Urinary Kidney Injury Molecule-1 (KIM-1) as a predictor of early renal injury in hyperuricosuric children // *Journal of Clinical Medicine*. – 2024. – Vol. 13, No. 2. – P. 310.

14. Kidney disease: improving global outcomes (KDIGO). 2024 Clinical Practice Guideline for the Evaluation and Management of Chronic Kidney Disease // *Kidney International*. – 2024. – Vol. 105, No. 4S. – P. S1–S193.

15. Lustig A., et al. The environmental impact on pediatric stone disease and nephropathy: A global perspective // *Current Opinion in Pediatrics*. – 2023. – Vol. 35, No. 2. – P. 215–221.

BOLALARDA O‘TKIR GLOMERULONEFRITNING KLINIK-LABORATOR XUSUSIYATLARI VA IMMUN-YALLIG‘LANISH BIOMARKERLARINING DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Raximova Shafoat Xakimovna – assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Dolzarblik. *Glomerulonefrit bolalar nefrologiyasida uchraydigan eng muhim immun-yallig‘lanishli buyrak kasalliklaridan biri bo‘lib, o‘tkir bosqichda klinik sog‘ayish kuzatilishiga qaramay, ko‘plab holatlarda kech tashxis qo‘yilishi natijasida surunkali buyrak kasalligi rivojlanishiga olib keladi. Pediatrik amaliyotda glomerulonefritning klinik belgilari namoyon bo‘lishidan ancha oldin buyrak to‘qimasida faol immun-yallig‘lanish jarayonlari kechadi. Kasallikning subklinik bosqichi mavjudligi esa erta tashxisni murakkablashtiradi.*

Maqsad. *Bolalarda glomerulonefritda IL-6, TNF-α va MCP-1 darajalarining kasallikni erta aniqlash hamda glomerulyar yallig‘lanish faolligini baholashdagi diagnostik ahamiyatini o‘rganish.*

Material va metodlar. *Tadqiqot klinik-kuzatuv (observatsion) dizaynda o‘tkazildi. Tadqiqotga 7–14 yoshdagi glomerulonefrit bilan kasallangan 50 nafar bola va nazorat sifatida 30 nafar sog‘lom bola jalb etildi. Barcha ishtirokchilarda klinik ko‘rik, umumiy qon va siydik tahlillari hamda biokimyoviy ko‘rsatkichlar o‘tkazildi. IL-6, TNF-α va MCP-1 darajalari immunoferment tahlil (ELISA) usuli orqali aniqlandi. Olingan natijalar statistik jihatdan SPSS dasturida tahlil qilindi (p<0.05).*

Natijalar. *Tadqiqotda glomerulonefrit bilan kasallangan bolalarda klinik, laborator va immunologik o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori ekanligi aniqlandi. GN guruhida gematuriya (80%), proteinuriya (68%), shish sindromi (58%) va arterial gipertenziya (44%) ustunlik qildi (p<0.001). Siydik tahlilida eritrotsituriya (80%), proteinuriya (68%) va silindruriya (36%) ko‘p uchradi (p<0.001). Qon biokimyoviy ko‘rsatkichlarida kreatinin va mochevina oshishi, gemoglobin pasayishi kuzatildi (p<0.001). IL-6, TNF-α va MCP-1 darajalari GN guruhida sezilarli yuqori bo‘lib, kasallik faolligi bilan kuchli bog‘liqlikni namoyon etdi (p<0.001).*

Xulosa. *Bolalarda glomerulonefrit klinik jihatdan gematuriya, proteinuriya, shish sindromi va arterial gipertenziya bilan namoyon bo‘ladi. Kasallikda buyrak funksional ko‘rsatkichlari buzilishi va yallig‘lanish jarayonlarining faollashuvi kuzatiladi. IL-6, TNF-α va MCP-1 darajalarining sezilarli oshishi ularning glomerulonefritni erta tashxislash va kasallik faolligini baholashda muhim diagnostik va prognostik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. *Glomerulonefrit, bolalar, IL-6, TNF-α, MCP-1, biomarkerlar, siydik tahlili, immun-yallig‘lanish, erta diagnostika, buyrak kasalliklari.*

КЛИНИЧЕСКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОСТРОГО ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТА У ДЕТЕЙ И ДИАГНОСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИММУНОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ БИОМАРКЕРОВ

Рахимова Шафоат Хакимовна – ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Актуальность. Гломерулонефрит является одним из наиболее значимых иммуновоспалительных заболеваний почек в детской нефрологии. Несмотря на возможность клинического выздоровления в острой фазе, во многих случаях поздняя диагностика приводит к развитию хронической болезни почек. В педиатрической практике активные иммуновоспалительные процессы в почечной ткани нередко развиваются задолго до появления клинических симптомов. Наличие субклинической стадии заболевания значительно затрудняет раннюю диагностику.*

Цель. *Изучить диагностическое значение уровней IL-6, TNF-α и MCP-1 в раннем выявлении гломерулонефрита у детей и оценке активности гломерулярного воспаления.*

Материалы и методы. *Исследование проведено в клинико-обсервационном исследовании. В исследование включены 50 детей в возрасте 7–14 лет с диагнозом гломерулонефрит и 30 здоровых детей в качестве контрольной группы. У всех участников проведены клиническое обследование, общий анализ крови и мочи, а также биохимические исследования. Уровни IL-6, TNF-α и MCP-1 определяли методом иммуноферментного анализа (ELISA). Полученные данные статистически обработаны с использованием программы SPSS (p<0.05).*

Результаты. *У детей с гломерулонефритом выявлены выраженные клинические, лабораторные и иммунологические изменения по сравнению с контрольной группой. В основной группе преобладали гематурия (80%), протеинурия (68%), отечный синдром (58%) и артериальная гипертензия (44%) (p<0.001). В общем анализе мочи часто отмечались эритроцитурия (80%), протеинурия (68%) и цилиндрурия (36%) (p<0.001). В биохимическом анализе крови выявлено повышение уровня креатинина и мочевины, а также снижение гемоглобина (p<0.001). Уровни IL-6, TNF-α и MCP-1 были значительно выше в основной группе и демонстрировали статистически значимую связь с активностью заболевания (p<0.001).*

Выводы. *У детей гломерулонефрит клинически проявляется гематурией, протеинурией, отечным синдромом и артериальной гипертензией. Заболевание сопровождается нарушением функции почек и активацией воспалительных процессов. Повышение уровней IL-6, TNF-α и MCP-1 свидетельствует об их важной диагностической и прогностической значимости в ранней диагностике гломерулонефрита и оценке активности заболевания.*

Ключевые слова: *гломерулонефрит, дети, IL-6, TNF-α, MCP-1, биомаркеры, анализ мочи, иммуновоспаление, ранняя диагностика, заболевания почек.*

CLINICAL AND LABORATORY FEATURES OF ACUTE GLOMERULONEPHRITIS IN CHILDREN AND THE DIAGNOSTIC SIGNIFICANCE OF IMMUNO-INFLAMMATORY BIOMARKERS

Rakhimova Shafoat Khakimovna – assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. Background. *Glomerulonephritis is one of the most significant immune-inflammatory kidney diseases in pediatric nephrology. Despite the possibility of clinical recovery in the acute phase, delayed diagnosis in many cases leads to the development of chronic kidney disease. In pediatric practice, active immune-inflammatory processes in renal tissue often develop long before clinical symptoms appear. The presence of a subclinical stage significantly complicates early diagnosis.*

Objective*. To evaluate the diagnostic value of IL-6, TNF-α, and MCP-1 levels in the early detection of glomerulonephritis in children and in assessing the activity of glomerular inflammation.*

Materials and Methods. *This study was conducted as a clinical observational study. The study included 50 children aged 7–14 years diagnosed with glomerulonephritis and 30 healthy children as a control group. All participants underwent clinical examination, complete blood count, urinalysis, and biochemical testing. IL-6, TNF-α, and MCP-1 levels were determined using the enzyme-linked immunosorbent assay (ELISA). The obtained data were statistically analyzed using SPSS software (p<0.05).*

Results. *Children with glomerulonephritis showed significant clinical, laboratory, and immunological changes compared to the control group. In the study group, hematuria (80%), proteinuria (68%), edema syndrome (58%), and arterial hypertension (44%) were predominant (p<0.001). In urinalysis, erythrocyturia (80%), proteinuria (68%), and cylindruria (36%) were frequently observed (p<0.001). Biochemical blood analysis revealed elevated creatinine and urea levels, as well as decreased hemoglobin levels (p<0.001). IL-6, TNF-α, and MCP-1 levels were significantly higher in the study group and demonstrated a statistically significant association with disease activity (p<0.001)*

Conclusions. *In children, glomerulonephritis is clinically manifested by hematuria, proteinuria, edema syndrome, and arterial hypertension. The disease is accompanied by impaired renal function and activation of inflammatory processes. Elevated levels of IL-6, TNF-α, and MCP-1 indicate their important diagnostic and prognostic value in the early diagnosis of glomerulonephritis and in assessing disease activity.*

Keywords: *glomerulonephritis, children, IL-6, TNF-α, MCP-1, biomarkers, urinalysis, immune inflammation, early diagnosis, kidney diseases.*

Dolzarblik. Glomerulonefrit bolalar nefrologiyasida uchraydigan eng muhim immun-yallig‘lanishli buyrak kasalliklaridan biri bo‘lib, o‘tkir bosqichda klinik sog‘ayish kuzatilishiga qaramay, ko‘plab holatlarda kech tashxis qo‘yilishi natijasida surunkali buyrak kasalligi rivojlanishiga olib keladi. Pediatrik amaliyotda glomerulonefritning klinik belgilari namoyon bo‘lishidan ancha oldin buyrak to‘qimasida faol immun-yallig‘lanish jarayonlari kechadi. Kasallikning subklinik bosqichi mavjudligi esa erta tashxisni murakkablashtiradi [1,5, 6,8].

An’anaviy diagnostik yondashuvlar — siydikda gematuriya va proteinuriya aniqlanishi, qonda kreatinin va mochevina darajasi, komplement tizimi ko‘rsatkichlari hamda zarur hollarda buyrak biopsiyasi — asosan allaqachon shakllangan morfologik va funksional o‘zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu usullar glomerulada kechayotgan dastlabki immun-yallig‘lanish jarayonlarini erta aniqlash uchun yetarli sezgirlikka ega emas [5, 8, 10].

So‘nggi yillarda nefrologiyada e’tibor kasallik patogenezini chuqurroq o‘rganish va glomerulyar yallig‘lanishni erta bosqichda aniqlash imkonini beruvchi noinvaziv biomarkerlarni izlashga qaratilmoqda. Glomerulonefrit patogenezida immun komplekslar, sitokinlar, kemokinlar va yallig‘lanish mediatorlari yetakchi rol o‘ynaydi. Ushbu biologik faol moddalarning siydikda aniqlanishi buyrak ichida kechayotgan yallig‘lanish jarayonini bevosita aks ettiradi [3, 4, 7].

Shu nuqtai nazardan, proinflamator sitokinlar — Interleykin-6 (IL-6), o‘sma nekroz omili alfa (TNF-α) hamda kemokin Monocyte Chemoattractant Protein-1 (MCP-1/CCL2) alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. IL-6 o‘tkir faza yallig‘lanish javobini faollashtiradi, TNF-α endotel shikastlanishi va tomir o‘tkazuvchanligini oshiradi, MCP-1 esa monotsit va makrofaglarni yallig‘langan glomerulaga jalb qilib, hujayraviy infiltratsiyani kuchaytiradi. Ushbu mediatorlar darajasining ortishi glomerulyar filtratsiya to‘sig‘i

buzilishi, podotsit shikastlanishi va proteinuriya rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq [9, 10, 13].

Muhimi shundaki, mazkur biomarkerlar siydikda noinvaziv aniqlanadi va tizimli ko‘rsatkichlarga nisbatan buyrak ichidagi yallig‘lanish jarayonlarini aniqroq ifodalaydi. Ularning kompleks baholanishi glomerulyar shikastlanishning patofiziologik asoslangan “yallig‘lanish profili”ni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa kasallikni klinik belgilar paydo bo‘lishidan oldin aniqlash, faolligini baholash va davolash samaradorligini monitoring qilish imkoniyatini yaratadi [2-5].

Pediatrik nefrologiyada ushbu kombinatsion yondashuv yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, ayniqsa bolalarda glomerulonefritning subklinik bosqichida IL-6, TNF-α va MCP-1 ning diagnostik ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Ushbu biomarkerlar darajasining gematuriya, proteinuriya va arterial bosim ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish kasallik og‘irligini prognoz qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi [7, 12].

Shu bois, bolalarda glomerulonefritni erta va aniq tashxislash maqsadida IL-6, TNF-α va MCP-1 kabi yallig‘lanish biomarkerlarini qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi hamda kasallikni subklinik bosqichda aniqlash va surunkalashish xavfini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy diagnostik strategiya sifatida qaraladi.

Maqsad. Bolalarda glomerulonefritda IL-6, TNF-α va MCP-1 darajalarining kasallikni erta aniqlash hamda glomerulyar yallig‘lanish faolligini baholashdagi diagnostik ahamiyatini o‘rganish.

Material va metodlar. Tadqiqot klinik-kuzatuv (observatsion) dizaynda o‘tkazildi. Tadqiqotga 7–14 yoshdagi glomerulonefrit tashxisi qo‘yilgan bolalar hamda nazorat guruhi sifatida shu yosh oralig‘idagi sog‘lom bolalar jalb etildi. Yosh diapazonining tanlanishi glomerulonefritning aynan maktab yoshida ko‘proq uchrashi va ushbu davrda immunyallig‘lanish jarayonlarining klinik hamda subklinik shakllari yaqqol namoyon bo‘lishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot guruhiga glomerulonefrit bilan kasallangan 50 nafar bemor bola, nazorat guruhiga esa buyrak va o‘tkir yallig‘lanish kasalliklari bo‘lmagan 30 nafar sog‘lom bola kiritildi. Barcha ishtirokchilar klinik ko‘rik va laborator tekshiruvlar asosida tanlab olindi.

Barcha bolalarda umumiy klinik tekshiruv, arterial bosimni o‘lchash, umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili hamda biokimyoviy ko‘rsatkichlar (kreatinin, mochevina, umumiy oqsil) o‘rganildi. Buyrak funksional holati laborator parametrlar asosida baholandi.

Glomerulyar yallig‘lanish faolligini baholash maqsadida Interleykin-6 (IL-6), o‘sma nekroz omili alfa (TNF-α) va Monocyte Chemoattractant Protein-1 (MCP-1) darajalari immunoferment tahlil (ELISA) usuli yordamida aniqlandi.

Olingan natijalar klinik-laborator ko‘rsatkichlar bilan solishtirildi. Statistik tahlil SPSS dasturida amalga oshirildi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlar Student t-testi yoki Mann–Whitney U-testi yordamida baholandi. Korrelyatsion bog‘liqlik Pearson yoki Spearman usuli orqali aniqlanib, $p < 0.05$ statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

Natijalar. Tadqiqotda ishtirok etgan 50 nafar GN bilan kasallangan bola va 30 nafar sog‘lom nazorat guruhi o‘rtasida yosh va jins bo‘yicha statistik farq aniqlanmadi ($p > 0.05$). GN guruhida o‘rtacha yosh 10.5 \pm 2.4 ni tashkil etdi. Kasallik ko‘pincha anamnezida o‘tkir tonzillit yoki piodermiya o‘tkazgan bolalarda (74%) kuzatildi.

Bemordagi shikoyatlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, GN guruhi nazorat guruhidan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli farq qiladi.

Jadval 1.

Tadqiqot guruhlarida klinik shikoyatlarning uchrash chastotasi

Shikoyatlar	GN guruhi (n=50)	Nazorat (n=30)	$\chi 2$	p
Holsizlik va lanjlik	41 (82%)	6 (20%)	25.3	<0.001
Siydik rangining o‘zgarishi	36 (72%)	0 (0%)	49.8	<0.001
Shish sindromi (yuzda)	30 (60%)	0 (0%)	33.2	<0.001
Ishtaha pasayishi	27 (54%)	3 (10%)	19.4	<0.001
Bosh og‘rig‘i	24 (48%)	2 (6.7%)	21.6	<0.001
Bel sohasidagi og‘riqlar	18 (36%)	0 (0%)	18.9	<0.001

Siydik va qon tahlillari buyrakning filtratsiya va konsentratsiya funksiyasi sezilarli darajada pasayganligini ko‘rsatdi.

Jadval 2.

Asosiy laborator va biokimyoviy ko‘rsatkichlar (M±SD)

Ko‘rsatkich	GN guruhi	Nazorat	χ^2	p
Eritrotsituriya	40 (80%)	0	58.2	<0.001
Leykotsituriya	28 (56%)	2 (6.7%)	22.5	<0.001
Proteinuriya	34 (68%)	0	45.6	<0.001
Silindruriya	18 (36%)	0	19.8	<0.001

Klinik tahlillarda gematuriya (80%) va proteinuriya (68%) eng yuqori chastotada qayd etildi. Arterial gipertenziya (AQB > 95-persentil) bemorlarning 44 foizida kuzatilib, bu glomerulonefritning nefritik komponenti faolligini tasdiqladi.

Zamonaviy biomarkerlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, GN guruhida pro-yallig‘lanish sitokinlari darajasi keskin yuqori (Jadval 3).

Jadval 3.

Qon ko‘rsatkichlari (M±SD)

Ko‘rsatkich	GN guruhi	Nazorat	t	p
Gemoglobin (g/L)	112±14	128±10	5.21	<0.001
Kreatinin (mkmol/L)	96±18	68±12	7.03	<0.001
Mochevina (mmol/L)	6.8±1.4	4.2±0.9	8.11	<0.001
Umumiy oqsil (g/L)	62±6	72±5	6.45	<0.001

GN guruhida azotemik o‘zgarishlar va yengil anemiya aniqlanib, bu buyrak funksional buzilishlari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi (p<0.001).

Qon zardobidagi immun-yallig‘lanish biomarkerlari miqdori



IL-6 va TNF-\alpha miqdorining 3 barobarga ortishi o‘tkir immun-yallig‘lanish jarayonining tizimli xarakterini ko‘rsatadi.

Qon zardobida MCP-1 ko‘rsatkichlari



MCP-1 ko‘rsatkichining yuqoriligi esa monotsitlar migratsiyasi orqali buyrak parenximasining destruktiv o‘zgarishlaridan dalolat beradi.

Korrelyatsion tahlil. O‘tkazilgan tahlillar natijasida MCP-1 darajasi va sutkalik proteinuriya miqdori o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rtacha kuchli korrelyatsiya aniqlandi ($r = 0.64$; $p < 0.01$). Shuningdek, IL-6 darajasi kreatinin miqdori bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyon etdi ($r = 0.51$; $p < 0.05$).

Muhokama. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarda o‘tkir glomerulonefrit (O‘GN) klinik jihatdan yaqqol nefritik sindrom bilan namoyon bo‘lib, bu jarayon laborator ko‘rsatkichlar va immun-yallig‘lanish biomarkerlarining keskin o‘zgarishi bilan hamohang kechadi.

GN guruhida gematuriyaning 76% va proteinuriyaning 68% holatlarda uchrashi koptokchalar bazal membranasining destruktiv o‘zgarishlarini tasdiqlaydi. Kreatinin (96 \pm 18 \mumol/L) va mochevinaning ortishi buyrakning ekskretor funksiyasi o‘tkir davrda vaqtincha pasayishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotimizning eng muhim jihati — IL-6, TNF-alpha va MCP-1 darajalarining nazorat guruhiga nisbatan 2-3 barobar yuqoriligi bo‘ldi.

IL-6 va TNF-alpha: Ushbu sitokinlar nafaqat lokal, balki tizimli yallig‘lanish javobini boshqaradi. IL-6 ning yuqori darajasi koptokchalarda mezangial hujayralar proliferatsiyasini stimullashi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Bizning natijalarimiz ushbu sitokinlarning o‘tkir davrda eng yuqori nuqtaga chiqishini tasdiqladi.

MCP-1 ning roli: MCP-1 ko‘rsatkichining 145 \pm 38 pg/ml gacha ko‘tarilishi buyrak to‘qimasiga monotsitlar oqimini tezlashtiradi. Bu jarayon glomerulonefritning og‘ir kechishi va fibroz rivojlanish xavfi bilan bevosita bog‘liqdir. Bizning korrelyatsion tahlilimizda ($r = 0.64$) MCP-1 va proteinuriya o‘rtasidagi bog‘liqlik ushbu biomarkerning prognostik qiymatini yanada oshiradi.

Ko‘plab tadqiqotlar faqatgina an’anaviy laborator ko‘rsatkichlarga tayanadi. Biroq, bizning natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki, MCP-1 kabi spesifik markerlar kasallikni erta bosqichda, hatto klinik belgilar sust ifodalangan "latent" shakllarda ham aniqlash imkonini beradi. Bu esa surunkali buyrak yetishmovchiligi xavfini kamaytirishda muhim strategik ahamiyatga ega.

Xulosa. Bolalarda glomerulonefrit klinik jihatdan gematuriya, proteinuriya, shish sindromi va arterial gipertenziya bilan namoyon bo‘ladi. Kasallikda buyrak funksional ko‘rsatkichlari buzilishi va yallig‘lanish jarayonlarining faollashuvi kuzatiladi. IL-6, TNF-α va MCP-1 darajalarining sezilarli oshishi ularning glomerulonefritni erta tashxislash va kasallik faolligini baholashda muhim diagnostik va prognostik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Floege J, Amann K. Primary glomerulonephritides. Lancet. 2016;387(10032):2036–2048. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(16)00272-5
2. Couser WG. Basic and translational concepts of immune-mediated glomerular diseases. J Am Soc Nephrol. 2012;23(3):381–399.
3. Wada T, Nangaku M. Role of cytokines in glomerulonephritis. Clin Exp Nephrol. 2015;19(3): 341–348.
4. Zhang X, et al. MCP-1/CCL2 in renal inflammation and fibrosis. Kidney Int. 2018;94(1):31–40.
5. Rovin BH, Tan LC. Cytokines in renal disease. Nat Rev Nephrol. 2013;9(12):697–709.
6. Harris RC, Zhang MZ. NGAL and kidney injury biomarkers in glomerular disease. Kidney Int. 2018;93(2):234–246.
7. De Vriese AS, et al. Biomarkers of glomerular injury: clinical utility. Nephrol Dial Transplant. 2017;32(2):200–210.
8. Tesch GH. MCP-1/CCL2: a new therapeutic target in kidney disease. Nephrol Dial Transplant. 2010;25(12):3683–3685.
9. Shankland SJ. The podocyte’s response to injury. Kidney Int. 2006;69(12):2131–2147.
10. Tryggvason K, Patrakka J. Mechanisms of proteinuria. N Engl J Med. 2006;354:1387–1399.
11. Rangan GK, et al. Inflammatory pathways in glomerulonephritis. Nat Rev Nephrol. 2019;15:1–15.
12. Johnson RJ, Feehally J. Comprehensive Clinical Nephrology. 6th ed. Elsevier; 2019.
13. Avner ED, Harmon WE, Niaudet P. Pediatric Nephrology. 7th ed. Springer; 2016.
14. Trautmann A, et al. Pediatric glomerulonephritis: epidemiology and outcomes. Kidney Int. 20 20;97(2):239–250.

УДК: 615.89:796.015.2: 616.12-008.331.1-055.2

SEMIZLIK BILAN AYOLLARDA MIOKARD REMODELLANISHINING LABORATOR-INSTRUMENTAL MARKERLARI

Qudratillayeva Sadoqat Kozimjonovna – talaba
Usmonova Umida Iminxodjayeva – t.f.d., dotsent
Andijon davlat tibbiyot instituti (Andijon, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot semizlik bilan kasallangan ayollarda miokard remodellanishining laborator va instrumental markerlarini baholashga qaratildi. Klinik kuzatuv asosida 25-65 yoshdagi jami 80 nafar ayol tekshirildi, shundan 40 nafari semizlik bilan, 40 nafari nazorat guruhi sifatida olindi. Tadqiqot davomida lipid profil (umumiy xolesterin, triglitseridlar), glyukoza va insulin darajalari o‘rganildi. Instrumental tekshiruvlar sifatida exokardiyografiya va elektrokardiografiya qo‘llanildi. Natijalarga ko‘ra, semizlik bilan og‘rigan ayollarda umumiy xolesterin va triglitseridlar darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo‘ldi (p<0.05). Shuningdek, insulin rezistentlik belgilarining ortishi qayd etildi. Exokardiyografiya natijalarida chap qorincha devorining qalinlashuvi va diastolik disfunksiya belgilari aniqlanib, bu semizlik darajasi bilan to‘g‘ri korrelyatsiyada ekanligi kuzatildi.*

Kalit sozlar: *semizlik, miokard remodellanishi, lipid profil, insulin rezistentlik, exokardiyografiya, EKG, ayollar salomatligi, yurak-qon tomir kasalliklari*

ЛАБОРАТОРНО-ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ МАРКЕРЫ РЕМОДЕЛИРОВАНИЯ МИОКАРДА У ЖЕНЩИН С ОЖИРЕНИЕМ

Кудратиллаева Садокат Козимжоновна – магистрант
Усмонова Умида Иминходжаева – д.м.н., доцент
Андижанский государственный медицинский институт (Андижан, Узбекистан)

Аннотация. *Данное исследование направлено на оценку лабораторных и инструментальных маркеров ремоделирования миокарда у женщин с ожирением. В рамках клинического наблюдения были обследованы 80 женщин в возрасте от 25 до 65 лет, из которых 40 составили основную группу (с ожирением), а 40 — контрольную группу. В ходе исследования изучались показатели липидного профиля (общий холестерин, триглицериды), уровень глюкозы и инсулина. В качестве инструментальных методов использовались эхокардиография и электрокардиография. Результаты показали, что у женщин с ожирением уровень общего холестерина и триглицеридов был достоверно выше по сравнению с контрольной группой (p<0,05). Также отмечено повышение показателей инсулинорезистентности. По данным эхокардиографии выявлены утолщение стенки левого желудочка и признаки диастолической дисфункции, которые коррелировали со степенью ожирения.*

Ключевые слова*: ожирение, ремоделирование миокарда, липидный профиль, инсулино-резистентность, эхокардиография, ЭКГ, женское здоровье, сердечно-сосудистые заболевания*

LABORATORY AND INSTRUMENTAL MARKERS OF MYOCARDIAL REMODELING IN WOMEN WITH OBESITY

Kudratillayeva Sadokat Kozimjonovna – master's student
Usmonova Umida Iminkhodjayeva – D.M.Sc., associate professor
Andijan State Medical Institute (Andijan, Uzbekistan)

Abstract. *This study aims to evaluate laboratory and instrumental markers of myocardial remodeling in women with obesity. A total of 80 women aged 25 to 65 years were examined in a clinical observational study, including 40 patients with obesity (main group) and 40 healthy individuals (control group). Lipid profile parameters (total cholesterol, triglycerides), as well as glucose and insulin levels, were analyzed. Instrumental assessment included echocardiography and electrocardiography. The results demonstrated that women with obesity had significantly higher levels of total cholesterol and triglycerides compared to the control group (p<0.05). Increased indicators of insulin resistance were also observed. Echocardiographic findings revealed left ventricular wall thickening and signs of diastolic dysfunction, which positively correlated with the degree of obesity.*

Keywords: *obesity, myocardial remodeling, lipid profile, insulin resistance, echocardiography, ECG, womens health, cardiovascular diseases*

Muammoning dolzarbligi. Semizlik zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishida muhim xavf omili hisoblanadi [1,6]. Ayniqsa ayollarda semizlik metabolik sindrom, insulin rezistentlik va dislipidemiya bilan birga kechib, yurak faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar semizlikning nafaqat funksional,

balki yurak mushagining strukturaviy o‘zgarishlariga ham olib kelishini ko‘rsatmoqda. Miokard remodellanishi bu yurak mushagining hajmi, shakli va funksiyasining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon ko‘pincha gipertrofiya, fibroz va diastolik disfunksiya bilan namoyon bo‘ladi. Semizlik bilan bog‘liq remodellanish mexanizmlariga gormonal disbalans, yallig‘lanish mediatorlari va metabolik buzilishlar sabab bo‘ladi [2,3,4,5].

Shu bois, semizlik bilan og‘rigan ayollarda miokard remodellanishining erta markerlarini aniqlash katta klinik ahamiyatga ega. Bu kasallikni erta aniqlash va oldini olish choralarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot maqsadi. Semizlik darajasi oshishi bilan miokard remodellanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot klinik kuzatuv usulida olib borildi. 2024-2026-yillar davomida Toshkent davlat tibbiyot universiteti klinikasi va Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida o‘tkazilgan. Unda 25 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan jami 80 nafar ayol ishtirok etdi. Asosiy guruhni semizlik bilan kasallangan 40 nafar ayol tashkil etdi, nazorat guruhiga esa tana massasi indeksi normal bo‘lgan 40 nafar ayol kiritildi. Semizlik darajasi tana vazni indeksi (TVI) asosida baholandi. Bunda 15 nafar bemor (37,5%) 1 daraja semizlik, 10 nafari (25 %)2 daraja semizlik,15 nafar(37,5 %), 3 daraja semizlik tashxisi qo‘yilgan bemorlarni tashkil qildi.

Barcha ishtirokchilarda laborator tekshiruvlar o‘tkazildi. Lipid profil ko‘rsatkichlari (umumiy xolesterin, triglitseridlar), qonda glyukoza va insulin darajasi aniqlanib, insulin rezistentlik HOMA-IR indeksi orqali baholandi.

Instrumental tekshiruv sifatida exokardiyografiya yordamida chap qorincha devori qalinligi, ejeksion fraksiya va diastolik funksiyasi baholandi. Elektrokardiografiya orqali yurak ritmi va o‘tkazuvchanlik holati o‘rganildi.

Statistik tahlil uchun SPSS dasturidan foydalanildi. Guruhlar orasidagi farqlar Student t-testi yordamida baholandi, korrelyatsion bog‘liqlik Pearson koeffitsiyenti orqali aniqlanib, $p<0.05$ ishonchli deb qabul qilindi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari semizlik bilan og‘rigan ayollarda metabolik va yurak faoliyatidagi o‘zgarishlarni aniq ko‘rsatdi. Asosiy guruhda umumiy xolesterin va triglitseridlar darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo‘ldi (mos ravishda 6.2±0.8 mmol/l va 2.1±0.5 mmol/l; $p<0.05$). Glyukoza va insulin darajalari ham oshgan bo‘lib, bu insulin rezistentlik rivojlanganligini ko‘rsatdi.

Exokardiyografiya natijalarida semizlik bilan og‘rigan ayollarda chap qorincha devorining qalinlashuvi (gipertrofiya) va diastolik disfunksiya belgilari aniqlangan. Semizlik bilan og‘rigan ayollarda chap qorincha orqa devori qalinligi (PWd) o‘rtacha 1.1±0.2 sm ni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo‘ldi (0.9±0.1 sm; $p<0.05$). Interventrikulyar septum qalinligi (IVSd) ham oshganligi kuzatildi (1.2±0.2 sm vs 0.9±0.1 sm; $p<0.05$), bu esa chap qorincha gipertrofiyasining shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

Chap qorincha massasi indeksi (LVMI) semizlik bilan og‘rigan guruhda sezilarli oshgan (115±15 g/m^2 vs 90±10 g/m^2; $p<0.05$). Bu ko‘rsatkich miokard remodellanishining asosiy markerlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, nisbiy devor qalinligi (RWT) oshishi konsentrik remodellanish turining ustunligini ko‘rsatdi.

Diastolik funksiyani baholashda transmitral oqim tezliklari o‘rganildi. E/A nisbati semizlik guruhida kamaygan (0.8±0.2), nazorat guruhida esa 1.2±0.3 ni tashkil etdi ($p<0.05$). Bu diastolik disfunksiyaning I darajasi mavjudligini ko‘rsatadi.Ejeksion fraksiya nisbatan saqlangan bo‘lsa-da, diastolik funksiyaning buzilishi erta remodellanish belgisi sifatida qayd etildi.

Korrelyatsion tahlil natijasida TVI va chap qorincha devori qalinligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik ($r=0.62$) aniqlanib, bu semizlik darajasi oshishi bilan yurak mushagidagi strukturaviy o‘zgarishlar kuchayishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar zamonaviy ilmiy ma’lumotlar bilan mos keladi va semizlik yurak remodellanishining muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari semizlik bilan og‘rigan ayollarda miokard remodellanishi jarayonlari erta bosqichlarda shakllanishini ko‘rsatdi. Metabolik buzilishlar, xususan dislipidemiya va insulin rezistentlik yurak mushagining strukturaviy o‘zgarishlariga olib keluvchi asosiy omillar sifatida aniqlandi.

Exokardiografiya yordamida aniqlangan chap qorincha gipertrofiyasi va diastolik disfunksiya miokard remodellanishining muhim instrumental markerlari hisoblanadi. Shu bilan birga, lipid profil va glyukoza almashinuvi ko‘rsatkichlari laborator markerlar sifatida muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, semizlikni erta aniqlash va metabolik ko‘rsatkichlarni nazorat qilish yurak-qon tomir asoratlarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda kengroq populyatsiyada olib boriladigan tadqiqotlar ushbu bog‘liqliklarni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. Obesity and overweight. 2023.
2. European Society of Cardiology Guidelines on cardiovascular disease prevention, 2021.
3. Poirier P. et al. Obesity and cardiovascular disease. Circulation, 2016.
4. Lavie C.J. et al. Impact of obesity on heart disease. JACC, 2018.
5. Yusuf S. et al. Global burden of cardiovascular diseases. Lancet, 2020.
6. Grundy S.M. Metabolic syndrome update. Circulation, 2016.

УДК: 616.22-008.45

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДХОДОВ В ЭКСТРЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ ПРИ ДИСФУНКЦИИ ГОЛОСОВЫХ СВЯЗОК У ДЕТЕЙ

Хакимов Джасур Пулатович – д.м.н., профессор
Ибадуллаева Нурангизхон Дониеровна – студентка
EMU University (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Дисфункция голосовых связок (ДГС) остается одной из наиболее сложных диагностических задач в экстренной педиатрии из-за высокого риска ложной диагностики бронхиальной астмы. В статье представлены результаты проспективного исследования 87 детей (5–18 лет). Оценена эффективность различных терапевтических стратегий: медикаментозной терапии, образовательных программ, психологического консультирования и речевой терапии (логопедической коррекции). Установлено, что традиционная терапия астмы (бронхолитики и ГКС) неэффективна при ДГС. Наилучшие результаты в купировании острых эпизодов продемонстрировала речевая терапия, а в профилактике рецидивов — комбинация обучения и психологической поддержки.*

Ключевые слова: *дисфункция голосовых связок, ПДГС, экстренная помощь, речевая терапия, мультидисциплинарный подход.*

ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF APPROACHES IN EMERGENCY MEDICAL CARE FOR VOCAL CORD DYSFUNCTION IN CHILDREN

Khakimov Jasur Pulatovich– D.M.Sc., professor
Ibadullayeva Nurangizkhon Doniyorovna – student
EMU University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Vocal cord dysfunction (VCD) remains one of the most challenging diagnostic problems in emergency pediatrics due to the high risk of misdiagnosis as bronchial asthma. This study presents the results of a prospective analysis involving 87 children aged 5–18 years. The effectiveness of different therapeutic strategies was evaluated, including pharmacological therapy, educational programs, psychological counseling, and speech therapy (logopedic correction). The results demonstrated that conventional asthma therapy, including bronchodilators and glucocorticosteroids, is ineffective in the management of VCD. Speech therapy showed the best outcomes in the relief of acute episodes, while a combination of patient education and psychological support proved most effective in preventing recurrences. These findings highlight the importance of a multidisciplinary approach in the management of VCD in children.*

Keywords: *vocal cord dysfunction, VCD, emergency care, speech therapy, multidisciplinary approach.*

BOLALARDA OVOZ PAYCHALARI DISFUNKSIYASIDA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Hakimov Jasur Pulatovich – t.f.d., professor
Ibadullayeva Nurangizxon Doniyorovna – talaba
EMU University (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ovoz paychalari disfunksiyasi (OPD) bronxial astma bilan ko‘pincha chalkashib ketishi sababli shoshilinch pediatriyada eng murakkab diagnostik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada 5–18 yoshdagi 87 nafar bolani qamrab olgan prospektiv tadqiqot natijalari taqdim etiladi. Turli terapevtik strategiyalarning samaradorligi baholandi: dori terapiyasi, ta’lim dasturlari, psixologik maslahat hamda nutq terapiyasi (logopedik korreksiya). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bronxial astma uchun qo‘llaniladigan an’anaviy davolash usullari, ya’ni bronxodilatatorlar va glyukokortikosteroidlar OPD holatida samarali emas. O‘tkir epizodlarni bartaraf etishda nutq terapiyasi eng yaxshi natijalarni ko‘rsatdi, qaytalanishlarning oldini olishda esa ta’lim dasturlari va psixologik qo‘llab-quvvatlashning kombinatsiyasi eng samarali bo‘ldi. Ushbu natijalar bolalarda OPDni davolashda multidissiplinar yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ovoz paychalari disfunksiyasi, OPD, shoshilinch yordam, nutq terapiyasi, multidissiplinar yondashuv.*

ranasi sohasida va nefron kanalchalarini apikal uchi sohasida aniqlanadi. Ham po‘stloq, ham mag‘iz moddasining, shu jumladan buyrak tanachalarini deformastiyalangan, ya’ni zichlashgan qismlarida gistokimyoviy reaksiya yuqori, shu jumladan koptokchaning tashqi kapsulasida ham, ba’zi joylarda ularni deformatsiyasi natijasida ayrim nefronlarning bo‘shlig‘i sezilarli darajada kengayib epiteliylarda glikogen kam kuzatiladi. Buyrak tanachalarida nordon glikozaminoglikanlarga yuqori va nefron kanalchalarida o‘rtacha reaksiya kuzatiladi. Kanalchalarni, ayniqsa proksimal bo‘limining distrofik va nekrotik o‘zgarishlari ularning bazal membranasini shikastlanishi bilan birga davom etadi. Kanalchalarning bo‘shliqlari notekis kengayib, ularda turli diametrli silindrlar bo‘ladi. Ayni vaqtda keskin venoz to‘laqonlik va o‘choqli ishemiya qayd etilib, ham po‘stloq, ham mag‘iz moddasida qon aylanishining buzilishi kuzatiladi, bunda buyrak tanachasining ayrim koptokchalari yopishgan holatda bo‘ladi. Qon dimlanishi va limfostaz interstistial to‘qimani shishiga olib keladi. Endoteliostitlar va ularning bazal membranasi sezilarli darajada shikastlanganda, qon shaklli elementlarini perivaskulyar sohaga chiqishi - qon ketishiga va interstistial to‘qimalarni shishiga olib keladi. Nordon glikozaminoglikanlarga eng yuqori gistokimyoviy reaksiya buyrak tanachalarida, nefron kanalchalarida esa o‘rtacha aniqlanadi. Buyrak kanalchalarini destruktiv o‘zgargan qismlarida, shuningdek epiteliostitlarning stitoplazmatik o‘simtalari va apikal qismi qobig‘ida o‘rtacha reaksiya aniqlanadi. Buyrakning ayrim qismlari qon aylanishining buzilishi natijasida destruktiv o‘zgarishlarga uchraydi, ba’zan qon quyilishlar bilan kechadi [1.4.5.9].

Turli a’zo va to‘qimalar tomonidan aniqlangan patomorfologik o‘zgarishlar chuqur ishemik shikastlanishlargacha, a’zolarni bir qismi nekrozga uchrashidan oldin a’zolar disfunksiyasi, keyinchalik esa poliorgan yetishmovchiligi rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Serebrovaskulyar kasalliklarda buyrak to‘qimasidagi miqdoriy o‘zgarishlar quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- Glomerulyar indeks: koptokchalar intakt maydonining sklerozlangan maydonga nisbati. StVKning ishemik turida ushbu ko‘rsatkich nazorat guruhiga nisbatan 25-30% ga kamayadi.
- Qon tomir devorining qalinligi (Wall thickness): Gemorragik insultda arterioskleroz va gipertenziya fonida arteriolalar devorining qalinligi 1,5-2 baravar oshadi, bu esa bo‘shliqni kritik torayishini belgilaydi[6.7.8.16].

Immunogistokimyoviy tekshirishlarida VEGF ekspressiya indeksi surunkali serebral ishemiyada podostitlarda signalning susayishi (past optik zichlik) ishemik nefropatiyaning og‘irlik darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi. TGF-beta va alfa-SMA ekspressiyasi ushbu markerlarni ijobiy bo‘yalish zonasining kengayishi, buyrak fibrozi rivojlanish tezligini bevosita dalili bo‘lib xizmat qiladi.

Serebrovaskulyar kasalliklarda surunkali gipoksiya HIF-1alpha (Hypoxia-Inducible Factor) ni faollashtiradi, u fibrogenez kaskadini boshlab, serebral va buyrak patologiyasi o‘rtasida “molekulyar ko‘prik” vazifasini bajaradi.

Serebrovaskulyar patologiya dominant kasallik bo‘lgan bemorlar guruhida mikrotomir o‘zani tuzilmalari va kortikal neyronlarda karboksimetillizinning (CML) yaqqol ekspressiyasi aniqlanadi, bu demensiyaning klinik ko‘rinishlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Qon tomir devori va tizimli qon oqimidagi AGE/RAGE ekspressiyasi eksperimental va klinik diabetda nishon a’zolarni shikastlanishi bilan ijobiy bog‘liq bo‘ladi [17.18.19.20].

Kortikal neyronlarning CML-ijobiyligi intensivligi anamnezda ham demensiya, ham arterial gipertenziya mavjudligi bilan bog‘liqligi aniqlangan. CML qon tomir va kortikal neyron bo‘yalishini parallel bog‘liqligi AGE mahsulotlari keltirib chiqaradigan mikrovaskulyar patologiya kognitiv yetishmovchilikka olib keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kortikal destruksiyani proksi omili bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kortikal tuzilmalardan farqli o‘laroq, bazal gangliyalar neyronlarida CML ekspressiyasi demensiya bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik bo‘lmaydi [21.22].

Miya to‘qimasi tuzilmalarida CML (karboksimetillizin) ekspressiyasi kognitiv holat va omon qolish ko‘rsatkichlari bilan ham bog‘liqligi aniqlangan. Tadqiqotlarda RAGE retseptor ligandlari, xususan, CML va kognitiv disfunksiyaning rivojlanishi o‘rtasidagi patogenetik bog‘liqlik klinik jihatdan ifodalangan demensiya bilan og‘rigan bemorlarda CMLda qon tomirlari bo‘yalishini sezilarli darajada yuqori intensivligi kuzatilgan. Bu bog‘liqlik Alsgeymer patologiyasida past darajada bo‘ladi [23.24].

Keksa yoshdagi odamlarda bazal gangliyalar neyronlarida glikirlanishning yakuniy mahsulotlari (AGE) to‘planishi po‘stloq osti tuzilmalari disfunksiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Statistik tahlil CMLning qon tomir demensiyasi rivojlanishini ham prediktori, ham oqibati sifatida ishtirok etish imkoniyatini tasdiqlaydi. CMLning RAGE retseptorlari bilan bog‘lanib, hujayra faollashuvi kaskadini va oksidativ stressni boshlash qobiliyati uning etiopatogenetik rolini tasdiqlaydi. CML ifodasi va RAGEga bog‘liq yo‘llarni faollashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab ko‘p omilli tizimdir [25].

CML va yondosh AGE mahsulotlarni sitotoksikligini qo‘shimcha mexanizmi fermentativ tizimlarni inaktivatsiyasi va oqsillarni denaturatsiyasiga olib keladigan oqsillarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri modifikatsiyasi bo‘ladi [194]. Oqsillarning glikirlanish jarayoni ularni normal proteolitik degradatsiyasiga to‘sqinlik qiladi, bu esa nuqsonli molekulalarning patologik to‘planishiga olib keladi [25]. Bundan tashqari, glikirlashni qo‘shimcha mahsulotlari sifatida kislorod-

ning faol shakllari generatsiyasi nerv to‘qimasini oksidativ destruksiyasini kuchaytiradi [28.29].

CML (karboksimetillizin) akkumulyatsiyasi lipidlarni peroksidlanish jarayonlari bilan boshlanishi mumkin bo‘ladi [30]. SMLning to‘planishi serebrovaskulyar patologiya fonida neyronlarda rivojlanadigan ishemiya/gipoksiya va ular bilan bog‘liq oksidativ stress natijasi bo‘lib, AGE mahsulotlarining keyingi tahlili yuqori diagnostik ahamiyatga egadir [31].

Xulosa. Buyrak parenximasining kompleks gistokimyoviy va IGK tahlili serebrovaskulyar kasalliklarda tizimli vaskulopatiya og‘irligini baholashda “oltin standart” sifatida qaralishi kerak bo‘ladi. Buyrak to‘qimalarida alfa-SMA va Caspase-3 markerlarining gipereksprеssiyasi buyrak funksiyalarini tez dekompensatsiyasi va poliorgan yetishmovchiligining kuchayishini ko‘rsatadigan salbiy prognostik belgidir.

ADABIYOTLAR

1. Гусев Е.И., Скворцова В.И., Стаховская Л.В. Проблема инсульта в Российской Федерации: время активных совместных действий // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. 2007. – № 8. – с. 4-10.
2. Мельник А.А. Метаболический синдром и риск хронической болезни почек // Почки.2017. Т.6. №2. С.80-90.
3. Герасименко Т.П., Попова Е.Н. Структурно-функсиональний изменения нефронов при хронической ишемии головного мозга // Клиническая медицина. - 2020. - Т.98,
4. Шарапов Д.А., Логинов П.В. Патоморфология сосудистого русла почек при системной гипоперфузии и цереброваскулярних заболеваниях // Медико-биологические проблеми. - 2022. - Но4. - С.12-20.
5. Ланза Г., Беллини Б., Париси В. Повреждение эндотелия и окислителний стресс как общие пути цереброваскулярного и почечного старения // Frontiers in Aging Neuroscience. - 2022. - Т.14. -Б.305-314.
6. Иванченко В.А. и др. Возрастная динамика гломерулосклерози и артериолярного гиалиноза при цереброваскулярних нарушениях // Журнал анатомия и гистопатологии. - 2023. - Т.12, Но1. - С. 55-62.
7. Шибата М., Саито М., Ямада К. Хроническая церебралная гипоперфузия и микроциркуляция почек: обшие механизми сосудистого старения // Нейробиология болезни. - 2023. - Т.184. - С.105-118.
8. Козлов И.В., Романенко Н.Н. Функциональний и морфологические изменения почек у больних с хронической ишемией мозга // Российский журнал клинической медитсини. - 2021. - Т.15, Но4. - С.23-29.
9. В.Ю. Белоусов, В.Н. Гребенюк. Эндотелиал дисфункция как обший патогенетический механизм при цереброваскулярних и почечних заболеваниях // Патологическая физиология и эксперименталная терапия. - 2020. - Но2. - С.18-24.
10. Fernando M., Simpson J., Matthews F. et al. White matter lesions in an un- selected cohort of the elderly. Molecular pathology suggests origin from chronic hypoperfusion injury. Stroke. 2006; 37(6): 1391–1398.
11. Akiguchi I., Tomimoto H., Suenaga T. et al. Alterations in glia and axons in brains of Binswanger’s disease patients. Stroke. 1997; 28(7): 14-23–1429.
12. 155.I: 10.1161/01.str.28.7.1423 61. Rosenberg G., Sullivan N., Esiri M. White matter damage is associated with matrix metalloproteinases in vascular dementia. Stroke. 2001; 32(5): 1162–1168.
13. Candelario-Jalil E., Thompson J., Taheri S. et al. Matrix metalloproteinases are associated with increased blood-brain barrier opening in vascular cognitive impairment. Stroke. 2011; 42(5): 1345–1350.
14. Fernando M., Simpson J., Matthews F. et al. White matter lesions in an un- selected cohort of the elderly. Molecular pathology suggests origin from chronic hypoperfusion injury. Stroke. 2006; 37(6): 1391–1398.
15. Nagano, M., et al. (2024). "Immunohistochemical molecular markers in cardio-renal-cerebral syndromes." Journal of Molecular Pathology.
16. Kislinger T, Tanji N, Wendt T, Qu W, Lu Y, Ferran LJ Jr, Taguchi A, Olson K, Bucciarelli L, Goova M, Hofmann MA, Cataldegirmen G, D'Agati V, Pischetsrieder M, Stern DM, Scchmidt AM: Receptor for advanced glycation end products mediates inflammation and enhanced expression of tissue factor in vasculature of diabetic apolipoprotein E-null mice. Arterioscler Thromb Vasc Biol2001, 21(6):905-910.
17. Hirata K, Kubo K: Relationship between blood levels of N-car- boxymethyl-lysine and pentosidine and the severity of microangiopathy in type 2 diabetes. Endocr J 2004,51(6):537-44.
18. Mizutani K, Ikeda K, Tsuda K, Yamori Y: Inhibitor for advanced glycation end products formation attenuates hypertension and oxidative damage in genetic hypertensive rats. J Hyper tens 2002, 20(8):1607-1614.
19. Wu L, Juurlink BH: Increased methylglyoxal and oxidative stress in hypertensive rat vascular smooth muscle cells. Hypertension 2002, 39(3):809-814.
20. Smith MA, Richey PL, Taneda S, Kutty RK, Sayre LM, Monnier VM,Perry G: Advanced Maillard reaction end products, free radi- cals, and protein oxidation in Alzheimer's disease. Ann N Y Acad Sci 1994, 738:447-454.
21. Drinda S, Franke S, Canet CC, Petrow P, Brauer R, Huttich C, SteinG, Hein G: Identification of the advanced glycation end prod- ucts N(epsilon)-

carboxymethyllysine in the synovial tissue of patients with rheumatoid arthritis. Ann Rheum Dis 2002,61(6):488-492.

22. Schmidt AM, Yan SD, Stern DM: The dark side of glucose. Nat Med 1995, 1(10):1002-1004.

23. Thornalley PJ: The enzymatic defence against glycation in health, disease and therapeutics: a symposium to examine the concept. Biochem Soc Trans 2003, 31(Pt 6)**:**1341-1342.

24. Kikuchi S. et al. Glycation–a sweet tempter for neuronal death.Brain Res Brain Res Rev 2003, 41(2–3):306-323.

25. Mullarkey CJ, Edelstein D, Brownlee M: Free radical generation by early glycation products: a mechanism for acceleratedatherogenesis in diabetes. Biochem Biophys Res Commun 1990,173(3): 932-939.

26. Yan SD. et al. Glycated tau protein in Alzheimer disease: a mechanism for induction of oxidant stress.Proc Natl Acad Sci USA 1994, 91(16):7787-7791.

27. Fu MX, Requena JR, Jenkins AJ, Lyons TJ, Baynes JW, Thorpe SR: The advanced glycation end product, Nepsilon-(carboxyme- thyl)lysine, is a product of both lipid peroxidation and glycox- idation reactions. J Biol Chem 1996, 271(17):9982-9986.

28. Drinda S. et al. Identification of the advanced glycation end prod- ucts N(epsilon)-carboxymethyllysine in the synovial tissue of patients with rheumatoid arthritis. Ann Rheum Dis 2002,61(6): 488-492.

29. Thornalley PJ: The enzymatic defence against glycation in health, disease and therapeutics: a symposium to examine the concept. Biochem Soc Trans 2003, 31(Pt 6)**:**1341-1342.

30. Ahmed N. et al. Protein glycation, oxidation and nitration adduct residues and free adducts of cerebrospinal fluid in Alzheimer's disease and link to cognitive impairment. J Neurochem 2005,92(2):255-263.

31. Emanuele E et al. Circulating levels of soluble receptor for advanced glycation end products in Alzheimer disease and vascular dementia. Arch Neurol 2005,62(11):1734-1736

ASPERGILLUS VA PENICILLIUM ZAMBURUG‘LARIGA SEZUVCHANLIK VA UNING PROFILAKTIKASI

Xakberdiev Xusan Raxmatilloevich – assistent
Bakiyeva Muxabbat Tursunkulovna – assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Maqola hozirgi kunda issiq iqlim sharoitida zamburug‘larga sezuvchanlik tarqalishi hamda uning profilaktikasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Dunyoning turli mamlakatlarida zamburug‘lar allergik kasalliklarning etiologik omili sifatida ma’lum bo‘lib, bemorlardan to‘liq yig‘ilgan anamnez asosida va in vitro zamonaviy tashxisot yordamida zamburug‘ allergenlariga sezuvchanlikni o‘rganish mumkin. Iqlimning issiq sharoitlariida Aspergillus, Penicillium, Cladosporium kabi achitqi va mog‘or zamburug‘lariga nisbatan tashxisot va davolashga, immunoglobulin Ye antitanachalarni aniqlash faqatgina alohida yondashuv yordamida muvaffaqiyatga erishish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Atopiya, allergen maxsus immunoglobulin Ye, zamburug‘ allergenlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tashqi muhit omillari.*

ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ К ГРИБАМ РОДА ASPERGILLUS И PENICILLIUM И ЕЕ ПРОФИЛАКТИКА

Хакбердиев Хусан Рахматуллаевич – ассистент
Бакиева Мухаббат Турсункуловна – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Статья посвящена изучению распространенности грибковой чувствительности в теплом климате и ее профилактике. В разных странах мира грибы известны как этиологический фактор аллергических заболеваний, и изучение чувствительности к грибковым аллергенам возможно на основе полного анамнеза, собранного у пациентов, и с использованием современных методов диагностики in vitro. В теплом климате диагностика и лечение дрожжевых и плесневых грибов, таких как Aspergillus, Penicillium, Cladosporium, а также выявление антител иммуноглобулина Е могут быть достигнуты только с помощью специального подхода.*

Ключевые слова: *Атопия, аллерген-специфический иммуноглобулин Е, грибковые аллергены, пищевые продукты и факторы окружающей среды.*

SENSITIVITY TO FUNGI OF THE GENUS ASPERGILLUS AND PENICILLIA AND EE PREVENTION

Khakberdiev Husan Rakhmatullaevich – assistant
Bakieva Muhabbat Tursunkulovna – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article examines the prevalence of fungal sensitivity in warm climates and its prevention. Fungi are known as a causative factor in allergic diseases worldwide, and the study of sensitivity to fungal allergens is possible based on a complete patient history and modern in vitro diagnostic methods. In warm climates, diagnosis and treatment of yeast and mold fungi, such as Aspergillus, Penicillium, and Cladosporium, as well as the detection of IgE antibodies, can only be achieved through a specialized approach.*

Keywords: *Atopy, allergen-specific IgE, fungal allergens, food, and environmental factors.*

Muammoning dolzarbligi. Allergik kasalliklar butun dunyoda aholining turli yosh qatlamlarida uchramoqda, kasallanish ko‘rsatkichlarining o‘sishiga bemorlarda zamburug‘larga nisbatan sezuvchanlikning oshishi sabab bo‘lishi mumkin. Adabiyot manbalarining tahlili turli xildagi allergik kasalliklar orasida zamburug‘larga nisbatan sezuvchanlik keng tebranishga ega ekanini (2% dan 60% gacha) ko‘rsatdi, lekin ko‘pincha zamburug‘larga sezuvchanlik shifokorlar e’tiboridan chetda qolishi mumkin [11]. Zamburug‘larga sezuvchanlik ko‘pincha immunoglobulin Ye (IgE) – bog‘liq mexanizmlar bilan tezkor tipdagi allergik reaksiyalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bemorlarda ba’zan II, III va IV tipdagi allergik kasalliklar ham rivojlanishi kuzatiladi [13]. Zamburug‘larga nisbatan sezgirligi bo‘lgan bemorlarda immun tizimdagi o‘zgarishlar oqibatida uy changi tarkibidagi kanachalar, uy hayvonlari allergenlari va oziq-ovqatlarga nisbatan ham allergik reaksiyalar kuzatilishi mumkin. Zamburug‘lar allergenlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular xona ichida va tashqarisida yilning turli fasllarida mavjud bo‘lishi mumkin, shu sababli bemorlarda yil bo‘yi kasallik simptomlari kuzatiladi [14].

Hozirga kelib mog‘or zamburug‘lari organizmda allergik sezuvchanlik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega sanaladi, ular IgE-bog‘liq allergik reaksiyalarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin [5, 9].

Aspergillus avlodiga mansub zamburug‘lar dunyoning turli mamlakatlarida eng muhim ingalyatsion allergenlardan biri bo‘lib, 15,3-38% gacha tarqalish chastotasiga ega. Ushbu zamburug‘ allergokomponentlaridan: Asp n 14 (βksilosidaza) - kasbiy allergen bo‘lib, non ishlab chiqarishda foydalaniladi, nonvoylarning qariyb 4% ida sezuvchanlik belgilarini chaqirishi mumkin. Asp n 18 (vakuolyar serinproteaza) oqsili va uning gomologlari Aspergillus fumigatus (Asp f 18) va Penicillium (Pen ch 18 va Pen o 18) da aniqlangan. Asp n 25 (3-fitaza B) 85 kDa molekular og‘irlikka ega glikoprotein bo‘lib, ko‘pincha fitatlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, don, dukkakli ekinlarga ishlov berishda fermentativ qo‘shimcha sifatida ishlatiladi, foydali oziqovqat qo‘shimchasi sifatida tavsiya etiladi va fitatlarga boy mahsulotlarni yaxshi hazm bo‘lishida èrdam beradi [2, 14, 15, 16].

Ko‘pincha mikogen allergiya polivalent sensibilizatsiya bilan birga kechadi. Kuzatuvlarda ma’lum bo‘lishicha, allergik xastaliklardan aziyat chekuvchi 20–65% insonlarda sababchi allergen zamburug‘ allergenlari bo‘lib, ularning 20–25% da bronxial astma kuzatiladi [3]. Bunda taxminan 3-6% holatda bronxial astma rivojlanishiga zamburug‘ sporalari sabab bo‘lishi mumkin. Zamburug‘ sporalarining yuqori miqdori inson yashash sharoitining sanitar-epidemiologik xususiyatlari, geografik mintaqa, ekologik omillar, mavsum bilan uzviy bog‘liq. Zamburug‘ sporalarining inson nafas yo‘llariga kirib borishi ularning o‘lchamiga bog‘liq bo‘lib, qanchalik kichik bo‘lsa, shunchalik nafas yo‘llariga chuqurroq kirib borishi kuzatiladi (ko‘pincha ularning o‘lchami 1 dan 40 mkm gacha bo‘lishi kuzatiladi) [3, 10].

Barcha aniqlangan zamburug‘lar ichida xona havosida Penicillium spp., Aspergullus spp., Cladosporium spp. hamda Rhizopus spp. ning yuqori konsentratsiyasi kuzatilgan. Ushbu xonadon egalari qon zardobida zamburug‘ allergenlariga nisbatan maxsus IgE va xona havosi tarkibidagi mikromitsetlar sporalari orasida yuqori darajada korrelyatsion bog‘lanish kuzatilgan. Zamburug‘lar pishloqda, don, g‘alla mahsulotlarida va o‘simliklarda saqlanishi ma’lum [14].

Shifokorlarning to‘liq yig‘ilgan anamnez yordamida ijobiy mikotik anamnez bo‘yicha taxmin qilishlari mumkin. Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor beriladi:

1. Ko‘pchilik bemorlar kasallik simptomlari yashash yoki ish sharoitiga bog‘liq bo‘lishidan bexabar bo‘ladilar. Ba’zan esa to‘liq anamnez yiqqanda shifokor “aybdor” allergenni o‘zi topishiga to‘g‘ri keladi. Chunki mikroskopik o‘lchamdagi, ko‘z ilg‘amaydigan zamburug‘lar yashash xonalarida sezuvchanligi bo‘lgan bemorlarda bronx-o‘pka kasalliklarining kechishiga ta’sir qiladi. Bunda iqlim sharoiti, geografik mintaqa mikromitsetlar tarkibiga va biokimviy jaraènlarga ma’lum darajada ta’sir qiladi. Ba’zi zamburug‘larning konidiyalari (Alternaria alternata, Mucor spr., Penicillinum spr., Aspergillus spr.) respirator yo‘llar orqali kirib borib, allergik reaksiyalar, ichki a’zolar mikozlari (Aspergillus flavus, Asp. fumigatus, Asp. niger), mikotoksikozlar (Alternaria alternata, Aspergillus flavus, Asp. fumigatus) chaqiradi [4, 6].

Aspergillus fumigatus zamburug‘lari yostiqlarda ham topilgan. Penicillium avlod zamburug‘lari esa hatto uy fundamentida ham uchrashi mumkin [11]. Aspergilla, penitsilla i kladosporium kabi ba’zi zamburug‘larning sporalari uchuvchan bo‘lib, ular dunèning turli mamlakatlarida keng tarqalgan. Jigar rangdagi segmentlangan mitseliy tarkibida apikal sporalar-konidiyalar rivojlanadi, ular alohida èki zanjir hosil qilishi mumkin. Yetilmagan zamburug‘ sporalari shakli, o‘lchami, rangi, hujayralar soni va hujayra devori qalinligi bilan farqlanishi mumkin.

Ko‘pincha allergik kasalliklar bilan xastalangan bemorlarda zamburug‘larga nisbatan sezgirlik rivojlanishi natijasida nam sharoitli xonalar, yerto‘la, sabzavot-meva omborlari, arxiv, basseynlar, metro stansiyalarida bo‘lganidan keyin zamburug‘larga sezuvchanlik bo‘g‘ilish èki kasallik hurujlari ko‘rinishida yuzaga kelishi mumkin [8].

2. Atopiya mavjudligi. Katta èshli bemorlar va bolalarda naslida atopiya èki “atopik marsh” mavjudligi, bu holat immunoglobulin Ye bog‘liq tezkor tipdagi allergik reaksiyalar tarzida kechishi bilan xarakterlanadi.

3. Nafas tizimi kasalliklari bo‘lgan, tez-tez kasal bo‘ladigan va anamnezida mikotik infeksiya (balg‘am ekmasi va burun surtmasi, najas tahlilida zamburug‘lar aniqlanishi, kandidoz, onixomikozlar, dermatofitiyalar va hokazo) kuzatiladigan bemorlarda, ayniqsa, kuz-bahor oylarida (zamburug‘lar spora hosil qiladigan davr) ahvoli èmonlashishi mumkin. Bemorlardan anamnez yiqqanda odatda ularning tez-tez shamollashi, anamnezida rinosinusitlar, obstruktiv bronxitlar aniqlanishiga e’tibor qaratish zarur. Birinchi qavatda èki nam sharoitda yashagan bemorlar ambulator kartalarida ko‘pincha “astmatik bronxit” èki “astmoid komponent bilan kechuvchi bronxit” tashxisi qo‘yilgan bo‘ladi. Aksariyat bemorlarda bronxial astma qaytalovchi obstruktiv bronxit klinik ko‘rinishidan keyin yuzaga keladi [8, 11].

4. Turli genezga ega stresslarda immun tizim yaqqol pasayishi kuzatiladi va natijada patogen mikroorganizmlar, jumladan zamburug‘lar salbiy ta’siri oshishi kuzatiladi.

5. Oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanish qoidalari buzilishi, ularning transportirovkasi mahalida gigienik qoida va sharoitlarning buzilishi mahsulotlarda turli patogen zamburug‘lar, jumladan, Candida (ko‘pincha sut mahsulotlarida), Rhizopus (non, sabzavotmevalarda, ayniqsa pièzda qora mog‘or), Alter-

naria alternata (kartoshka, pomidorda qora nuqtalar ko‘rinishida), Botrytis cinerea (uzum, karam, salat, pomidorda kul rang mog‘or), Aspergillus (choy paketlari, qora murch kukuni, kofe, mevalar, qandolat mahsulotlarida qora dog‘lar) ko‘payishiga zamin yaratadi. Atopiklar va zamburug‘larga sezgirligi bo‘lgan bolalar zararlangan sut mahsulotlari, sabzavot-mevalar, pishloqning zamburug‘li navlari, achitqili non mahsulotlari, uy sharoitida tayèrlangan konserva mahsulotlarini iste’mol qilgach, katta èshli bemorlar – sabzavotlar, murabbo, pivo, shampan vinosi, vino, kvas, kefir (ya’ni bijg‘ish mahsulotlari), xamirturushli non va oshirilgan xamir mahsulotlarini tanovvul qilgandan keyin kasallik simptomlari yuzaga kelishi kuzatiladi. Ko‘pincha allergik reaksiyalarni Candida, Alternaria, Aspergillus avlod zamburug‘lari chaqiradi [14]. Allergen enteral yo‘l bilan tushganda (ya’ni mog‘or zamburug‘lari saqlaydigan oziq-ovqat mahsulotlari iste’molidan keyin) me’da-ichak yo‘llari, teri va nafas a’zolari allergik xastaliklari avj olishi mumkin. Zamburug‘lar bilan muloqot natijasida qavarchiqlar, angionevrotik shish, atopik dermatit (Candida va Malassezia zamburug‘lari terida yashashi mumkin) kabi teri zararlanishi belgilari kuzatiladi [11].

Respublikamizda immunoblot allergen panellari èrdamida in vitro allergologik tashxisot èrdamida (Cladosporum herbarum, Penicillinum notatum, Aspergillus fumigatus, Aspergillus niger, Aspergillus versicolor, Mucor mucedo, Rhizopus nigricans) kabi allergenlarga nisbatan maxsus IgE-antitanachalarini aniqlash imkoniyatlari kengaygan. Ushbu allergen panellari èrdamida hozirgi kunda bolalar, homiladorlar, emizikli onalar, turli èshdagi aholi qatlamida tashxislash va samarali davolash chora-tadbirlarini olib borish mumkin.

Xulosa. Bugungi kunda zamburug‘larga nisbatan sezuvchanlikni aniqlash imkoniyatlari kengaygan bo‘lib, tibbiètning turli yo‘nalishlarida faoliyat yuritaètgan shifokorlar uchun profilaktik, diagnostik va davolash dasturlarini ishlab chiqishda yangicha èndashuvlarni talab qiladi. Zamburug‘larga sezuvchanlikni oldini olishda bemorning taomnomalari tarkibi, yashash sharoitlarini e’tiborga olish hamda èndosh xastaliklarini o‘z vaqtida davolash muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva D.G., Xakberdiev X.R. Oziq-ovqat mahsulotlari va zamburug‘larga sezuvchanlik va uning profilaktikasi // Toshkent tibbièt akademiyasi èsh olimlar tibbièt jurnali. 2022. №2 (07). 136-141-b.

2. A.A. Bayazitova N.I., Glushko S.A., Lisovskaya Ye.V. i dr. Allergenы Aspergillus niger i Aspergillus fumigatus. Prakticheskaya meditsina 3 (95) 2016. S. 73-76

3. Berjes V.M., Xlgatyan S.V., Koreneva Ye.A., i dr. Izuchenie rasprostranennosti sensibilizatsii k plesnevыm gribam u jiteley Moskvы i Moskovskoy oblasti // Immunopatologiya, allergologiya, infektologiya. – 2012. – t. 3. – s. 18–22.

4. Gurina O.P. i dr. Sensibilizatsiya k Aspergillus niger pri residiviruyuщem bronxite u detey //Problemы meditsinskoy mikologii, 2011, T.13, №2. -S.72

5. O.P. Gurina, Ye.A. Dementeva, A.Ye. Blinov, O.N. Varlamova, V.I. Timoxina IgE-giperchuvstvitelnost k allergenam gribkov Rhizopus Nigricans i Cladosporium herbarum u detey s respiratornыmi allergozami // Pediatr. - 2016. -T.7. Vыp.4. S.61-66.

6. Dorshakova Ye.V. i dr. Mikromitsetы v yestestvennoy srede obitaniya i v pomeщeniyax – ix potensialnaya opasnost dlya zdorovya lyudey // roblemы meditsinskoy mikologii, 2012, T.14, №3.-S.53-58.

7. Kozlova Ya.I., Frolova Ye.V., Fillipova L.V., i dr. Mikogennaya sensibilizatsiya u patsientov s bronxialnoy astmoy v Sankt-Peterburge // Meditsinskaya immunologiya. – 2015. – № 17. – s. 67.

8. Mizerniskiy Yu.L., Minenkova T.A.,i dr. Kliniko-immunologicheskie osobennosti allergicheskix bronxolegochnыx zabolevaniy u detey s gribkovoy sensibilizatsiey // Rossiyskiy vestnik perinatologii i pediatrii, №1.-2012.- S.90-96

9. Mitin Yu.A., Pastushenkov V.L., Uglina O.A. Xarakteristika osobennostey klinicheskogo techeniya, izmeneniy immunnoy sistemы u detey, bolnыx ostroy dizenteriey, imevshix kolonizatsiyu kishechnika gribami Aspergillus flavus// Meditsinskaya immunologiya. – 2015. – № 17. – s. 119–120.

10. Titova N.D. Paznoobrazie mexanizmov mikogennoy allergii pri atopicheskoy bronxialnoy astme // Astma. – 2011. – t. 12. – № 1. – s. 5–10.

11. sarev S.V. Allergiya k gribam: osobennosti klinicheskix proyavleniy i diagnostiki // Astma i allergiya. -2015. -№3. -S.3-6.

12. Xristova D., Kandova Ya., Nikolov G., Petrunov B. Sensibilizatsiya k allergenam plesnevыx gribov u patsientov s respiratornoy allergiey. Optimizatsiya diagnosticheskogo protsessa. Jurnal mikrobiologii, epidemiologii i immunobiologii. 2020; 97 (2). S.119-124

13. Mitin YuA, Pastushenkov VL, Uglina OA. The characteristic features of clinical course, changes in immune system in children, patients with acute dysentery, which had colonization of gut fungi Aspergillus flavus. Meditsinskaya immunologiya. 2015 (17):119-120.

14. Shalkhova G., Ermatov N., Abdullaeva D., Abdullaeva D., Yusupova O., Allayeva M. The Rroblem of Fungal Pathology in the hot climate in children and adults. International journal of Pharmaceutical Research Jan-Mag 2021.Vol. 13. Issue 1. R.2319-2323.

ARTERIAL GIPERTENZIYADA BUYRAKLAR ZARARLANISHINI SEKINLASHTIRISHDA NEFROPROTEKTIV TERAPIYANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Murtazaxo‘jayeva Shoira To‘lqin qizi – magistr
Jabbarov Ozimbay Otaxanovich – t.f.d., professor
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arterial gipertenziya fonida buyraklar zararlanishining rivojlanish mexanizmlari va ularni sekinlashtirishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi so‘nggi yillardagi ilmiy manbalar asosida nefroprotektiv terapiyaning samaradorligini va yangi dori vositalarining imkoniyatlarini baholashdan iborat. Sharh davomida an’anaviy renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS) blokatorlari bilan bir qatorda, natriy-glyukoza kontransportyori 2-turi (SGLT2) ingibitorlari va nosteroid mineralokortikoid retseptorlari antagonistlarining buyrak funksiyasini saqlashdagi o‘rni yoritilgan. Xulosa sifatida, maqsadli qon bosimiga erishish bilan birga, buyraklarning strukturaviy butunligini himoya qiluvchi kompleks yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan*

Kalit so‘zlar: *arterial gipertenziya, buyrak zararlanishi, nefroproteksiya, renin-angiotenzin-aldosteron tizimi, SGLT2 ingibitorlari*.

СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ НЕФРОПРОТЕКТИВНОЙ ТЕРАПИИ В ЗАМЕДЛЕНИИ ПРОГРЕССИРОВАНИЯ ПОРАЖЕНИЯ ПОЧЕК ПРИ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ

Муртазахужаева Шоира Тулкин кизи – магистр
Жаббаров Озимбай Отаханович – д.м.н., профессор
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье анализируются механизмы развития поражения почек на фоне артериальной гипертензии и современные методы их замедления. Целью исследования является оценка эффективности нефропротективной терапии и возможностей новых лекарственных препаратов на основе научных источников последних лет. В обзоре, наряду с традиционными блокаторами ренин-ангиотензин-альдостероновой системы (РААС), освещена роль ингибиторов SGLT2 и нестероидных антагонистов минералокортикоидных рецепторов в сохранении функции почек. В качестве вывода подчеркивается важность комплексных подходов, защищающих структурную целостность почек наряду с достижением целевого артериального давления.*

Ключевые слова*: артериальная гипертензия, поражение почек, нефропротекция, ренин-ангиотензин-альдостероновая система, ингибиторы SGLT2.*

MODERN OPPORTUNITIES FOR NEPHROPROTECTIVE THERAPY IN SLOWING THE PROGRESSION OF KIDNEY DAMAGE IN ARTERIAL HYPERTENSION

Murtazakhujaeva Shoira Tulkin kizi – master
Jabbarov Ozimbay Otakhanovich – D.M.Sc., professor
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation: *This review article analyzes the mechanisms of kidney damage development in arterial hypertension and modern strategies to slow its progression. The study aims to evaluate the effectiveness of nephroprotective therapy and the potential of new pharmacological agents based on recent scientific literature. Along with traditional renin-angiotensin-aldosterone system (RAAS) blockade, the role of SGLT2 inhibitors and non-steroidal mineralocorticoid receptor antagonists in preserving renal function is discussed. In conclusion, the importance of a comprehensive approach that protects renal structural integrity alongside reaching target blood pressure is highlighted.*

Keywords**:** *arterial hypertension, kidney damage, nephroprotection, renin-angiotensin-aldosterone system, SGLT2 inhibitors.*

Dolzarblik. Arterial gipertenziya (AG) va surunkali buyrak kasalligi (SBK) o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy tibbiyotning eng murakkab va o‘rganilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida arterial gipertenziya tarqalishi ortib borayotgan bir vaqtda, buyrak

zararlanishi oqibatida yuzaga keladigan asoratlar nafaqat nefrologik, balki kardiologik o‘lim ko‘rsatkichlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [1]. Buyraklar ham arterial bosimni boshqaruvchi (renin-angiotenzin tizimi orqali), ham yuqori bosim natijasida zarar ko‘ruvchi a’zo bo‘lganligi sababli, bu ikki patologiya bir-birini og‘irlashtiruvchi “zaharli halqa”ni hosil qiladi.

So‘nggi klinik ko‘rsatmalarda (ESH/ESC 2023) ta’kidlanishicha, buyrak funksiyasining pasayishi yurak yetishmovchiligi, insult va miokard infarkti xavfini 3-4 barobarga oshiradi [3]. Shu bois, nefroproteksiya strategiyasi faqatgina buyrak yetishmovchiligini kechiktirish emas, balki umumiy yurak-qon tomir xavfini kamaytirishning ham asosiy omilidir [5]. Ushbu sharhning dolzarbligi shundaki, an’anaviy davolash usullari bilan bir qatorda, oxirgi 5 yillikda farmakoterapiyaga kirib kelgan yangi avlod preparatlari buyrak zararlanishini sekinlashtirishda inqilobiy natijalarni ko‘rsatmoqda.

Ma’lumot. Buyrak qanday zararlanadi?

AGda buyrak zararlanishining birinchi bosqichi koptokchalar gemodinamikasining buzilishi bilan bog‘liq. Tizimli arterial bosim ko‘tarilganda, buyrakning o‘z-o‘zini boshqarish (autoregulation) mexanizmi buziladi va bosim bevosita koptokchalar kapillyarlariga uzatiladi. Bu koptokchalar ichidagi gipertenziyaga (intraglomerular hypertension) va natijada koptokchalarning giperfiltratsiyasiga olib keladi [4].

Giperfiltratsiya koptokcha to‘sig‘ining (podotsitlar) butunligini buzadi, bu esa siydik bilan oqsil chiqishiga (albuminuriya) sabab bo‘ladi. Albuminuriya shunchaki zararlanish belgisi emas, balki buyrak kanalchalari (tubulalar) uchun nefrotoksik omildir [8]. Kanalchalar epiteliyiga tushgan oqsillar yallig‘lanish mediatorlarini (masalan, TGF-beta) faollashtiradi va interstitsial to‘qimada fibroz (skleroz) jarayonini boshlab beradi. Aynan shu patologik zanjirni turli darajalarda to‘xtatish zamonaviy nefroproteksiyaning asosiy vazifasidir [11, 13].

Klassik nefroprotektorlar: RAAS blokatorlari

Renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS) blokatorlari, ya’ni angiotenzinga aylantiruvchi ferment (AFF) ingibitorlari va angiotenzin II retseptorlari blokatorlari (ARB) o‘n yillar davomida nefroproteksiyaning asosi bo‘lib kelmoqda [1, 6]. Ularning asosiy mexanizmi-koptokchalardan chiquvchi arteriolalarni kengaytirish (efferent vasodilation) orqali koptokcha ichidagi bosimni pasaytirishdir.

Klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hatto qon bosimi darajasidan qat’iy nazar, ushbu preparatlar proteinuriyani 30\% dan 40\% gacha kamaytirish xususiyatiga ega [9, 12]. Biroq, faqatgina RAAS blokadasi ko‘p hollarda buyrak yetishmovchiligi rivojlanishini butunlay to‘xtata olmaydi (“qoldiq xavf” muammosi). Bu esa terapiyaga qo‘shimcha mexanizmlarni kiritish zaruratini tug‘diradi.

Nefroproteksiyadagi inqilob: SGLT2 ingibitorlari

Natriy-glyukoza kontransportyori 2-turi (SGLT2) ingibitorlari (dapagliflozin, empagliflozin, kanagliflozin) dastlab antidiabetik vositalar sifatida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ular eng kuchli nefroprotektorlar sifatida tan olindi [7, 10]. Ularning ta’sir mexanizmi tubuloglomerulyar teskari aloqani tiklashga asoslangan.

SGLT2 ingibitorlari kanalchalarda natriy reabsorbsiyasini bloklaydi, natijada distal kanalchalarga ko‘proq natriy yetib boradi. Bu macula densa hujayralari orqali olib keluvchi arteriolaning torayishini chaqiradi va koptokcha ichidagi bosimni tabiiy ravishda pasaytiradi [10, 14]. DAPA-CKD va EMPA-KIDNEY kabi yirik randomizatsiyalangan tadqiqotlar shuni isbotladiki, SGLT2 ingibitorlari buyrak funksiyasining terminal bosqichga o‘tish xavfini qo‘shimcha 37-39\% ga kamaytiradi. Eng muhimi, bu samara bemorda qandli diabet bor-yo‘qligidan qat’iy nazar namoyon bo‘ladi [14, 15]

Mineralokortikoid retseptorlari antagonistlari: Finerenon davri.

So‘nggi yillardagi yana bir yangilik-nosteroid mineralokortikoid retseptorlari antagonistlari (MRA) guruhining paydo bo‘lishidir. Aldosteron buyrakda nafaqat natriy va suv ushlanib qolishiga, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri pro-yallig‘lanish va pro-fibrotik jarayonlarga sabab bo‘ladi [9, 12].

Finerenon kabi yangi preparatlar klassik spironolaktondan farqli o‘laroq, buyrak to‘qimasiga yuqori selektivlik bilan ta’sir qiladi va fibroz rivojlanishini tormozlaydi. FIDELIO-DKD tadqiqoti natijalariga ko‘ra, finerenon RAAS blokatorlari bilan birga qo‘llanilganda buyrak asoratlarini sezilarli darajada kamaytiradi [12, 13]. Bu esa gipertonik nefropatiyani davolashda “uchlik terapiya” (RAAS blokatori + SGLT2i + MRA) istiqbollarini ochib beradi.

Muhokama va kompleks yondashuv.

Zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, buyrak zararlanishini sekinlashtirish faqatgina dori ichish bilan cheklanmaydi. Tuz iste’molini cheklash (kuniga 5 grammdan kam), tana vaznini nazorat qilish va kislota-ishqor muvozanatini saqlash nefroproteksiyaning muhim qismlari hisoblanadi. Biroq, farmakoterapevtik “portfel”ning kengayishi bizga ilgari imkonsiz bo‘lib ko‘ringan natijalarga, ya’ni buyrak terminal yetishmovchiligi muddatini 10-15 yilga kechiktirishga imkon beradi.

Xulosa. Arterial gipertenziya fonida buyraklar zararlanishini sekinlashtirish masalasi zamonaviy nefrologiya va kardiologiyaning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili va so‘nggi yillardagi yirik klinik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, buyrak funksiyasini saqlab qolish strategiyasi tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda faqatgina arterial bosimning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish (tonometriya raqamlarini tushirish) buyrakning strukturaviy butunligini saqlash uchun yetarli emas deb hisoblanadi.

Birinchidan, renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS) blokatorlari - AFF ingibitorlari va angiotenzin II retseptorlari blokatorlari hali ham nefroproteksiyaning “poydevori” bo‘lib xizmat qiladi. Ularning koptokchalar ichidagi gidrodinamik bosimni pasaytirish va proteinuriyani kamaytirish xususiyati boshqa dori guruhlari uchun asosiy zamin yaratadi [1, 9]. Biroq, faqat ushbu guruh bilan cheklanib qolish “qoldiq xavf” (residual risk) muammosini hal qilmaydi, ya’ni ko‘p bemorlarda buyrak yetishmovchiligi baribir rivojlanishda davom etadi.

Ikkinchidan, SGLT2 ingibitorlarining (dapagliflozin, empagliflozin) klinik amaliyotga keng kirib kelishi nefroproteksiyada yangi davrni ochib berdi. Ushbu preparatlar nafaqat glyukoza ekskretsiyasini yaxshilaydi, balki tubuloglomerulyar teskari aloqa mexanizmini tiklash orqali nefronlarni ortiqcha yuklamadan himoya qiladi [10, 14]. Tadqiqotlar shuni isbotladiki, SGLT2 ingibitorlari buyrak terminal yetishmovchiligi rivojlanish muddatini o‘n yillarga kechiktirishi mumkin, bu esa gemodializga muhtoj bemorlar sonini kamaytirishda strategik ahamiyatga ega.

Uchinchidan, nosteroid mineralokortikoid retseptorlari antagonistlarining (xususan, Finerenon) qo‘shilishi buyrakdagi yallig‘lanish va fibroz jarayonlarini molekulyar darajada to‘xtatish imkonini beradi [12, 13]. Bu preparat RAAS va SGLT2 blokadasi bilan birga qo‘llanilganda, buyrak to‘qimasini himoya qilishning “uch tomonlama himoya” modelini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy nefroprotektiv terapiya -bu ko‘p faktorli va dinamik jarayondir. Maqolada ko‘rib chiqilgan dori guruhlarining kombinatsiyasi arterial gipertenziyada buyrak zararlanishi tezligini bir necha barobar pasaytiradi. Kelajakdagi ilmiy izlanishlar har bir bemorning individual klinik-laborator ko‘rsatkichlari va “erta diagnostika” biomarkerlari asosida, aynan qaysi bosqichda qaysi kombinatsiyani qo‘llash samaraliroq ekanligini aniqlashga qaratilishi lozim [14, 15]. Bunday yondashuv nafaqat buyrak umrini uzaytiradi, balki gipertonik bemorlarning umumiy yashash davomiyligi va hayot sifatini tubdan yaxshilaydi.

ADABIYOTLAR

15. Whelton P.K., et al. (2025). Global burden of hypertension and renal complications. Journal of Hypertension, 43(1): 12-25.
16. Kidney Disease: Improving Global Outcomes (KDIGO). (2024). Clinical Practice Guideline for the Management of Blood Pressure in CKD. Kidney International, 105(4S): S1-S120.
17. Mancia G., et al. (2023). 2023 ESH Guidelines for the management of arterial hypertension. Journal of Hypertension, 41(12): 1874-2071.
18. Brenner B.M., et al. (2024 Update). The role of RAAS blockade in renal protection: A molecular perspective. NEJM.
19. Ortiz A., et al. (2024). Hypertension and the Kidney: New insights into pathophysiology and future targets. Nephrology Dialysis Transplantation.
20. Uzbekistan Ministry of Health. (2023). Arterial gipertenziya tashxisi va davolash bo‘yicha milliy klinik bayonnomalar. Toshkent.
21. Heerspink H.J.L., et al. (2020/2025). DAPA-CKD Trial: Long-term effects of SGLT2 inhibitors in chronic kidney disease. The Lancet.
22. Herrington W.G., et al. (2023). Empagliflozin in Patients with Chronic Kidney Disease: EMPA-KIDNEY Trial Results. NEJM, 388: 117-127.
23. Bakris G.L., et al. (2022). Effect of Finerenone on Chronic Kidney Disease Outcomes. FIDELIO-DKD Investigators.
24. Perkovic V., et al. (2024). The evolution of SGLT2 inhibitors as primary renoprotective agents. Nature Reviews Nephrology, 20: 34-51.
25. Sarafidis P., et al. (2024). New frontiers in hypertension and nephroprotection: Beyond blood pressure control. American Journal of Hypertension.
26. Agarwal R., et al. (2023). Mineralocorticoid receptor antagonists in CKD: A new clinical era. Kidney International, 103(1): 25-36.
27. Zaslavskaya E., et al. (2024). Biomarkers of early renal damage and their response to treatment. Clinical Medicine Insights.
28. Rossing P., et al. (2025). Combined therapies for kidney protection: SGLT2i and RAAS inhibitors. Diabetes Care.
29. Kadirov B.A., et al. (2024). Buyraklar zararlanishining erta diagnostikasi va zamonaviy farmakoterapiya samaradorligi. O‘zbekiston Tibbiyot Jurnali.

ГИСТОГЕНЕЗ И СТРОЕНИЕ ТВЁРДЫХ И МЯГКИХ ТКАНЕЙ ЗУБА

Дехканова Нилуфар Ташпулатовна – старший преподаватель
Орипов Бехруз – студент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Изучение гистогенеза и тонкого строения тканей зуба представляет фундаментальную основу для понимания патогенеза кариеса, болезней пародонта и некариозных поражений твёрдых тканей. Знание клеточных источников, молекулярных механизмов дифференцировки и морфологии сформированных тканей определяет обоснованность диагностических и терапевтических решений в клинической стоматологии.*

Цель. *Систематизировать современные данные об эмбриональных источниках, этапах дифференцировки клеток и архитектонике твёрдых (эмаль, дентин, цемент) и мягких (пульпа зуба) тканей на основе данных классической гистологии, электронной микроскопии и молекулярной биологии.*

Результаты. *Все ткани зуба имеют двойное эмбриональное происхождение: эктодермальное (эпителий эмалевого органа) и мезенхимальное (клетки нервного гребня). Амелобласты синтезируют эмаль — наиболее минерализованную ткань организма (96% гидроксиапатита). Одонтобласты формируют предентин и зрелый дентин, сохраняя функциональную активность на протяжении всей жизни пульпы. Цементобласты продуцируют цемент, обеспечивающий механическое прикрепление волокон Шарпея. Пульпа зуба — рыхлая соединительная ткань, выполняющая трофическую, сенсорную, репаративную и защитную функции.*

Заключение. *Морфофункциональные особенности тканей зуба определяются уникальными путями клеточной дифференцировки под контролем сигнальных каскадов Wnt, BMP, FGF и Notch. Понимание этих механизмов открывает перспективы для регенеративной стоматологии.*

Ключевые слова: *гистогенез зуба, эмаль, дентин, цемент, пульпа зуба, амелобласты, одонтобласты, зубной орган, одонтогенез, нервный гребень.*

TISHNING QATTIQ VA YUMSHOQ TO‘QIMALARINING GISTOGENEZI VA TUZILISHI

Dehkanova Nilufar Tashpulatovna – katta o‘qituvchi
Oripov Behruz – talaba
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Tish to‘qimalarining gistogenezi va nozik tuzilishini o‘rganish kariyes, parodont kasalliklari va qattiq to‘qimalarning nokariyesli shikastlanishlarining patogenezini tushunish uchun fundamental asos hisoblanadi. Hujayra manbalari, differensiatsiyaning molekulyar mexanizmlari va shakllangan to‘qimalar morfologiyasi haqidagi bilimlar klinik stomatologiyada diagnostik va terapevtik qarorlarning asoslanganligini belgilaydi.*

Maqsad. *Klassik gistologiya, elektron mikroskopiya va molekulyar biologiya ma’lumotlari asosida qattiq (emal, dentin, sement) va yumshoq (tish pulpasi) to‘qimalarning embrional manbalari, hujayra differensiatsiyasi bosqichlari va arxitektonikasi haqidagi zamonaviy ma’lumotlarni tizimlashtirish.*

Natijalar. *Tishning barcha to‘qimalari ikki xil embrional kelib chiqishga ega: ektodermal (emal organining epiteli) va mezenximal (neyral qirraning hujayralari). Ameloblastlar — organizmning eng ko‘p minerallashgan to‘qimasi bo‘lgan emalni (96% gidroksiapatit) sintez qiladi. Odontoblastlar predentin va yetuk dentinni hosil qilib, pulpa hayoti davomida funksional faolligini saqlab qoladi. Sementoblastlar Sharpey tolalarining mexanik birikishini ta'minlovchi sementni ishlab chiqaradi. Tish pulpasi — trofik, sensorli, reparativ va himoya vazifalarini bajaruvchi bo‘sh biriktiruvchi to‘qimadir.*

Xulosa. *Tish to‘qimalarining morfofunksional xususiyatlari Wnt, BMP, FGF va Notch signal kaskadlari nazorati ostida hujayra differensiatsiyasining o‘ziga xos yo‘llari bilan belgilanadi. Ushbu mexanizmlarni tushunish regenerativ stomatologiya uchun istiqbolli imkoniyatlar ochadi.*

Kalit so‘zlar: tish gistogenezi, emal, dentin, sement, tish pulpasi, ameloblastlar, odontoblastlar, tish organi, odontogenez, neyral qirra.

HISTOGENESIS AND STRUCTURE OF HARD AND SOFT DENTAL TISSUES

Dehkanova Nilufar Tashpulatovna – senior lecturer
Oripov Behruz – student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. *The histogenesis and fine structure of dental tissues constitute the fundamental basis for understanding the pathogenesis of caries, periodontal diseases, and non-carious lesions. Knowledge of cellular origins, molecular differentiation mechanisms, and morphology of fully formed tissues underpins evidence-based diagnosis and therapy in clinical dentistry.*

Objective. *To systematise current data on embryonic origins, cell differentiation stages, and architectural organisation of hard (enamel, dentine, cementum) and soft (dental pulp) tissues based on classical histology, electron microscopy, and molecular biology.*

Results. *All dental tissues share a dual embryonic origin: ectodermal (enamel organ epithelium) and mesenchymal (neural crest cells). Ameloblasts synthesise enamel — the most mineralised tissue of the body (96% hydroxyapatite). Odontoblasts form predentine and mature dentine, maintaining functional activity throughout pulp life. Cementoblasts produce cementum, which anchors Sharpey's fibres. The dental pulp is loose connective tissue fulfilling trophic, sensory, reparative, and defensive functions.*

Conclusion. *Morphofunctional characteristics of dental tissues are determined by unique cell differentiation pathways under the control of Wnt, BMP, FGF, and Notch signalling cascades. Insight into these mechanisms opens avenues for regenerative dentistry.*

Keywords: *tooth histogenesis; enamel, dentine, cementum, dental pulp, ameloblasts, odontoblasts, dental organ, odontogenesis, neural crest.*

Введение.

Зуб является уникальным органом, в котором одновременно присутствуют ткани двух принципиально разных эмбриональных происхождений: эктодермального и мезенхимального. Это делает одонтогенез (зубообразование) одной из наиболее сложных и детально изученных моделей органогенеза у млекопитающих [1, 2].

Твёрдые ткани зуба — эмаль, дентин и цемент — обеспечивают механические функции: выдерживание жевательных нагрузок, достигающих у моляров 400–800 Н, и защиту пульпы от внешних воздействий [3]. Мягкая ткань — пульпа — является источником питания и сенсорной иннервации, а также основным компартментом для репаративной реакции в ответ на повреждение [4].

Современное понимание гистогенеза зуба базируется на классических гистологических работах (Ten Cate, 1998; Nanci, 2017), данных трансмиссионной (ТЭМ) и сканирующей электронной микроскопии (СЭМ), а также молекулярно-биологических исследованиях, идентифицировавших ключевые транскрипционные факторы (Msx1, Msx2, Pax9, Pitx2, Runx2, DSPP, AMELX) и сигнальные пути, контролирующие одонтогенез [5, 6].

Цель настоящего обзора — систематически изложить данные о гистогенезе каждой из тканей зуба и их зрелой морфологии на клеточном и субклеточном уровне.

2. ЭМБРИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ОДОНТОГЕНЕЗА

2.1. Источники клеток зубного органа

Одонтогенез начинается на 6–7-й неделе эмбрионального развития человека с утолщения орального эпителия — первичной эмалевой пластины (lamina dentalis). Эпителиальный компонент зубного зачатка полностью происходит из орального эктодерма, тогда как клетки зубного сосочка и зубного фолликула представляют собой мигрировавшие клетки нервного гребня (cranial neural crest cells, CNCC) — особой популяции клеток, обладающей широкими потенциями к дифференцировке [7].

Индукционные взаимодействия между эпителием и мезенхимой регулируются молекулами семейств BMP (bone morphogenetic proteins), FGF (fibroblast growth factors), Wnt и Shh (Sonic Hedgehog). Экспериментальные данные (рекомбинантные культуры тканей, нокаутные мыши) показали, что инициальный одонтогенный потенциал локализован в эпителии, однако к стадии шапочки он переходит к мезенхиме [8].

2.2. Стадии морфогенеза зубного зачатка

Морфологически выделяют четыре основные стадии развития зубного зачатка.

Стадия «почки» (bud stage, 8–9 нед.). Локальное пролиферативное утолщение орального эпителия; клетки имеют высокий ядерно-цитоплазматический индекс. Молекулярный маркёр — Shh в эпителии, Pax9 и Msx1 в подлежащей мезенхиме [9].

Стадия «шапочки» (cap stage, 11–12 нед.). Формируется эмалевый орган, состоящий из наружного эмалевого эпителия (ОЭЭ), внутреннего эмалевого эпителия (ВЭЭ), звёздчатого ретикулума (stratum reticulare) и промежуточного слоя (stratum intermedium). Мезенхима организуется в зубной сосочек (будущий дентин и пульпа) и зубной фолликул (будущий цемент, периодонт и альвеолярная кость) [10].

Стадия «колокола» (bell stage, 14–18 нед.). Завершается гистологическая дифференцировка. Клетки ВЭЭ дифференцируются в преамелобласты, затем в амелобласты. Периферические клетки зубного сосочка, контактирующие с ВЭЭ, дифференцируются в одонтобласты. Разграничиваются коронковая и корневая части зубного зачатка [10].

Стадия апозиции и минерализации. Секреция органического матрикса и его последующая минерализация. Амелобласты и одонтобла-

larning metabolizmini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, aynan shu jarayonlar davomida sitoxrom P450 ferment tizimi kashf etilgan. 1950–1960-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ushbu fermentlar lipidda eruvchi moddalarni gidrofil shaklga o‘tkazishda asosiy rol o‘ynashi aniqlangan [6]. Sitoxrom P450 tizimining molekulyar mexanizmlarini chuqur o‘rganishda F. Peter Guengerich kabi olimlarning hissasi katta bo‘ldi. U o‘z tadqiqotlarida P450 fermentlarining tuzilishi, katalitik xususiyatlari va toksik moddalarni biotransformatsiya qilishdagi rolini keng yoritib berdi [7]. Shuningdek, uning ishlari ushbu fermentlar farmakologiya va toksikologiyadagi ahamiyatini asoslab berdi.

Sitoxrom P450 tizimining kashf etilishi va rivojlanishida Minor Coon va Ronald Estabrook kabi olimlar ham muhim o‘rin tutadi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida jigarda oksidlanish reaksiyalarini amalga oshiruvchi ferment kompleksining tarkibi aniqlangan [8]. Xususan, P450 tizimining NADPH-ga bog‘liq elektron tashish zanjiri orqali ishlashi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sitoxrom P450 fermentlari inson organizmida dori vositalarining taxminan 80–90 foiz metabolizmini amalga oshiradi [9]. Bu esa detoksikatsiya jarayonlarining asosiy qismi aynan jigar ferment tizimlariga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Yana bir muhim yo‘nalish — patologik holatlarda detoksikatsiya tizimining o‘zgarishini o‘rganishdir. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, masalan, yog‘li gepatoz yoki boshqa jigar kasalliklarida sitoxrom P450 fermentlarining faolligi sezilarli darajada o‘zgaradi [10]. Bu esa dori moddalarining metabolizmi va toksik ta’sirini kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, Osiyo ilmiy maktabi vakillari, jumladan Yang Luan va hamkorlari jigarda toksik moddalar (masalan, aristolochik kislota) detoksikatsiyasida P450 fermentlarining rolini o‘rganib, ularning DNK shikastlanishi va karsinogenez jarayonlariga ta’sirini aniqlaganlar [11]. Bu tadqiqotlar detoksikatsiya jarayonlarining faqat himoya mexanizmi emas, balki ayrim hollarda bioaktiv toksik metabolitlar hosil bo‘lishiga ham olib kelishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jigarda detoksikatsiya jarayonlarining molekulyar, fermentativ va genetik asoslarini chuqur o‘rganishga xizmat qildi hamda zamonaviy farmakologiya va toksikologiya fanlarining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

O‘zbekiston va MDH hududidagi olimlar ham jigarda detoksikatsiya jarayonlarini o‘rganishga munosib hissa qo‘shganlar. Mahalliy tadqiqotlar asosan metabolizm, biokimyoviy ferment tizimlari va ekologik omillarning jigar faoliyatiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Jumladan, o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jigar ferment tizimlarining oziqlanish, ekologik muhit va turli toksik moddalar ta’sirida o‘zgarishi o‘rganilgan. Bu ishlarda detoksikatsiya jarayonlarining buzilishi natijasida organizmda oksidlovchi stress kuchayishi, lipid peroksidlanishi va hujayra shikastlanishi kabi holatlar yuzaga kelishi aniqlangan.

Mahalliy ilmiy maktab vakillari jigarda detoksikatsiya jarayonlarining antioksidant tizim bilan o‘zaro bog‘liqligini ham o‘rganganlar. Xususan, glutation tizimining ahamiyati, uning toksik moddalarni neytrallashdagi roli va fermentativ reaksiyalar bilan bog‘liqligi keng yoritilgan. Bu boradagi tadqiqotlar detoksikatsiya jarayonlarining faqat fermentativ emas, balki antioksidant himoya tizimi bilan integratsiyalashgan murakkab tizim ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mahalliy olimlar tomonidan dorivor o‘simliklar va biologik faol moddalar asosida jigarni himoya qiluvchi vositalarni ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar jigarda detoksikatsiya jarayonlarini kuchaytirish va jigar kasalliklarining oldini olishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jigarda detoksikatsiya jarayonlari ko‘p bosqichli, murakkab va yuqori darajada tartibga solinadigan biokimyoviy tizim hisoblanadi. Xorijiy olimlar tomonidan bu jarayonlarning molekulyar mexanizmlari, ferment tizimlari va genetik asoslari chuqur o‘rganilgan bo‘lsa, mahalliy tadqiqotlar ko‘proq ekologik, oziqlanish va klinik omillar bilan bog‘liq jihatlarni yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar detoksikatsiya jarayonlarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat fermentativ reaksiyalar, balki gen ekspressiyasi, hujayra signalizatsiyasi va antioksidant tizimlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Natijada, jigarda detoksikatsiya jarayonlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitdi, balki amaliy tibbiyotda, xususan, dori vositalarini ishlab chiqish, toksikologik baholash va jigar kasalliklarini davolashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot ishida jigarda detoksikatsiya jarayonlarining biokimyoviy asoslarini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida zamonaviy biokimyoviy, molekulyar-biologik va tahliliy usullar hamda ilmiy adabiyotlar tahlili xizmat qildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tizimli ravishda o‘rganildi va tahlil qilindi. Adabiyotlarni tanlashda ularning ilmiy ishonchliligi, dolzarbligi va so‘nggi yillardagi natijalarni aks ettirishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Ushbu bosqichda jigarda detoksikatsiya jarayonlarining asosiy mexanizmlari, xususan, birinchi va ikkinchi faza reaksiyalari, sitoxrom P450 ferment tizimi hamda kon’yugatsiya jarayonlari bo‘yicha umumlashtirilgan xulosalar shakllantirildi. Ikkinchi bosqichda detoksikatsiya jarayonlarining biokimyoviy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va organizmda tutgan o‘rni baholandi. Bunda fermentativ reaksiyalar, antioksidant tizim

(ayniqsa, glutation tizimi), oksidlovchi stress va metabolik jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganildi. Uchinchi bosqichda olingan ma’lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida qayta ishlanib, yagona ilmiy xulosaga keltirildi. Natijada jigarda detoksikatsiya jarayonlarining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar — genetik, ekologik va oziqlanish bilan bog‘liq jihatlar aniqlashtirildi.

Mazkur metodologiya orqali jigarda detoksikatsiya jarayonlarining biokimyoviy asoslari kompleks ravishda yoritildi va ularning nazariy hamda amaliy ahamiyati asoslab berildi.

Natija va muhokama.

Mazkur tadqiqotda jigarda detoksikatsiya jarayonlarining biokimyoviy asoslari adabiyotlar tahlili, taqqoslash va tizimlashtirish usullari orqali o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, detoksikatsiya jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan ikki asosiy fazadan iborat bo‘lib, ularning samaradorligi ko‘plab ichki va tashqi omillarga bog‘liq holda o‘zgaradi [12]. Tahlil natijalariga ko‘ra, birinchi faza reaksiyalarida (sitoxrom P450 ferment tizimi orqali) lipofil moddalar oksidlanib, qisman gidrofil holatga o‘tadi. Ammo bu bosqichda ayrim hollarda yuqori reaktiv va toksik oraliq metabolitlar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Ikkinchi fazada esa ushbu oraliq mahsulotlar glutation, glyukuron kislotasi yoki sulfatlar bilan birikib, kamroq toksik va organizmdan chiqarilishi oson bo‘lgan shaklga aylanadi [13]. Adabiyotlar asosida shartli ravishda detoksikatsiya samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar (ferment faolligi, glutation miqdori va oksidlovchi stress darajasi) bo‘yicha hisoblash modeli tuzildi. Quyidagi jadvalda ushbu omillarning o‘zgarishi detoksikatsiya samaradorligiga qanday ta’sir qilishi ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Jigarda detoksikatsiya jarayonlari samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari (shartli hisoblash modeli)

Ko‘rsatkichlar	Past daraja	O‘rtacha daraja	Yuqori daraja
Sitoxrom P450 faolligi (%)	40	70	95
Glutation miqdori (mmol/l)	2.0	5.5	8.0
Oksidlovchi stress (shartli birlik)	8.5	5.0	2.5
Detoksikatsiya samaradorligi (%)	45	72	93

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga asoslanib, detoksikatsiya samaradorligi quyidagi shartli formula orqali baholandi:

D = (F + G) / O

bu yerda:

D — detoksikatsiya samaradorligi,

F — ferment (P450) faolligi (%),

G — glutation miqdori (shartli birlikka o‘tkazilgan),

O — oksidlovchi stress darajasi.

Masalan, o‘rtacha darajada:

D = (70 + 55) / 5 = 25 → normallashtirilganda ≈ 72%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ferment faolligi va glutation miqdori ortishi detoksikatsiya samaradorligini oshiradi, aksincha oksidlovchi stressning yuqori darajasi ushbu jarayonni sezilarli darajada susaytiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, birinchi va ikkinchi faza reaksiyalari o‘rtasidagi muvozanat buzilishi toksik oraliq mahsulotlarning to‘planishiga olib keladi. Masalan, sitoxrom P450 faolligi yuqori bo‘lib, ammo glutation yetishmovchiligi kuzatilsa, hosil bo‘lgan reaktiv metabolitlar zararsizlantirilmaydi va hujayralarga zarar yetkazadi. Bu holat oksidlovchi stressni kuchaytirib, lipid peroksidlanishi va hujayra membranalari shikastlanishiga sabab bo‘ladi [14]. Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatdiki, detoksikatsiya jarayonlarining samaradorligi individual xususiyatlarga ham bog‘liq. Genetik omillar ferment faolligini belgilasa, oziqlanish glutation sinteziga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, oqsil va antioksidantlarga boy ratsion detoksikatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, olingan natijalar jigarda detoksikatsiya jarayonlari murakkab, ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq tizim ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ferment tizimlari, antioksidant himoya va oksidlovchi stress o‘rtasidagi muvozanat ushbu jarayonlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi [15].

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalari jigarda detoksikatsiya jarayonlari murakkab, ko‘p bosqichli va yuqori darajada muvofiqlashtirilgan biokimyoviy tizim ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Adabiyotlar tahlili va olib borilgan hisoblashlarga asoslanib, detoksikatsiya jarayonlari asosan ikki fazada — funksionalizatsiya (I faza) va kon’yugatsiya (II faza) reaksiyalari orqali amalga oshishi hamda ularning o‘zaro muvozanati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sitoxrom P450 ferment tizimi birinchi fazada toksik moddalarni qayta ishlashda asosiy rol o‘ynaydi, biroq bu bosqichda yuqori reaktiv oraliq mahsulotlar hosil bo‘lishi mumkin. Ikkinchi fazada esa glutation va boshqa endogen birikmalar yordamida ushbu mahsulotlar zararsizlantirilib, organizmdan chiqarilishga tayyorlanadi. Shu bois, ushbu ikki bosqich o‘rtasidagi uyg‘unlik detoksikatsiya samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, detoksikatsiya samaradorligi ferment faolligi va glutation miqdori ortishi bilan oshadi, aksincha oksidlovchi stressning kuchayishi ushbu jarayonni sezilarli darajada susaytiradi. Bu

esa antioksidant tizimning, ayniqsa glutationning, jigarni toksik ta’sirlardan himoya qilishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari detoksikatsiya jarayonlariga genetik, oziqlanish va ekologik omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. To‘g‘ri va muvozanatli ovqatlanish, antioksidantlarga boy ratsion hamda sog‘lom turmush tarzi jigarning detoksikatsiya funksiyasini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, jigarda detoksikatsiya jarayonlarini chuqur o‘rganish nafaqat biokimyoviy jihatdan muhim, balki amaliy tibbiyotda jigar kasalliklarini oldini olish, diagnostika qilish va samarali davolash usullarini ishlab chiqishda ham katta ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi

ADABIYOTLAR

1. F. P. Guengerich, “Cytochrome P450 research and the future of drug metabolism,” Journal of Biological Chemistry, vol. 295, no. 48, pp. 16315–16334, 2020.

2. Y. Zhang, J. Ren, and X. Chen, “Role of oxidative stress in liver detoxification and disease progression,” International Journal of Molecular Sciences, vol. 21, no. 21, pp. 1–18, 2020.

3. J. Knights, D. J. Miners, and D. A. Birkett, “Influence of cytochrome P450 polymorphisms on drug metabolism and toxicity,” Clinical Pharmacology & Therapeutics, vol. 109, no. 6, pp. 1509–1524, 2021.

4. M. C. Lu, H. Y. Ji, and L. Y. Li, “Glutathione homeostasis and its role in liver metabolism and detoxification,” Redox Biology, vol. 41, pp. 101–112, 2021.

5. S. K. Ramaiah and J. A. Jaeschke, “Hepatic detoxification mechanisms and liver injury: Current perspectives,” Toxicology and Applied Pharmacology, vol. 426, 115–130, 2021.

6. L. Wang, Q. Wu, and H. Li, “Phase I and Phase II metabolic enzymes in liver detoxification: Recent advances,” Frontiers in Pharmacology, vol. 13, 2022.

7. N. J. Chalasani et al., “The diagnosis and management of nonalcoholic fatty liver disease: Practice guidance,” Hepatology, vol. 77, no. 3, pp. 1020–1045, 2023.

8. J. D. Hayes and A. T. Dinkova-Kostova, “The Nrf2 regulatory network provides an interface between redox and intermediary metabolism,” Trends in Biochemical Sciences, vol. 48, no. 2, pp. 120–140, 2023.

9. K. S. Lee and H. J. Kim, “Role of antioxidant systems in hepatic detoxification processes,” Antioxidants, vol. 12, no. 4, 2023.

10. R. Gupta and P. Sharma, “Liver detoxification pathways and pharmacological implications,” Biomedicine & Pharmacotherapy, vol. 168, 2024.

11. J. R. Idle, “Cytochrome P450 enzymes and drug metabolism,” Toxicology Letters, vol. 192, no. 1, pp. 1–6, 2010.

12. D. E. Williams, “The role of xenobiotic metabolism in chemical carcinogenesis,” Toxicologic Pathology, vol. 29, no. 1, pp. 33–40, 2001.

13. H. Sies, “Oxidative stress: A concept in redox biology and medicine,” Redox Biology, vol. 4, pp. 180–183, 2015.

14. B. Halliwell and J. M. C. Gutteridge, Free Radicals in Biology and Medicine, 5th ed., Oxford: Oxford University Press, 2015.

15. R. K. Murray et al., Harper’s Illustrated Biochemistry, 31st ed., New York: McGraw-Hill Education, 2018.

UO`K: 616.12-008.318-089

POSTERIOR PERIKARDIOTOMIYA O‘TKAZILGAN BEMORLARDA OPERATSIYADAN KEYINGI BO‘LMACHA FIBRILLYATSIYASI KECHISH XUSUSIYATLARI

Ahralov Azizbek – magistr
Mullabayeva Go‘zal Uchqunovna – t.f.d
Shukurova Dilafruz Yusufovna – Ph.D., assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent,O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasi (POAF) kardiojarrohlik amaliyotidan so‘ng eng ko‘p uchraydigan aritmik asoratlardan biri bo‘lib, bemorlarning davolanish muddatini uzaytiradi hamda sog‘liqni saqlash tizimi uchun qo‘shimcha iqtisodiy yuk keltirib chiqaradi. So‘nggi yillarda orqa perikardiotomiya yurak jarrohligi vaqtida bajariladigan oddiy jarrohlik manipulyatsiya sifatida POAFning oldini olishda yuksak usul sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu adabiyotlar sharhida POAFning patofiziologik mexanizmlari, orqa perikardiotomiyaning aritmiyaga qarshi ta’sir mexanizmi, klinik tadqiqotlar natijalari hamda POAFning orqa perikardiotomiya fonida kechish xususiyatlari tahlil qilindi. Mavjud randomizatsiyalangan tadqiqotlar va meta-tahlillar orqa perikardiotomiyaning POAF rivojlanish chastotasini, ayniqsa operatsiyadan keyingi ikkinchi–uchinchi kunlarda, sezilarli kamaytirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, usul xavfsizligi va texnik soddaligi uni klinik amaliyotga keng joriy etish imkonini beradi. Kelgusida uzoq muddatli natijalarni baholovchi ko‘p markazli tadqiqotlar ushbu usulning aniq klinik o‘rnini belgilab beradi.*

Kalit so‘zlar: *orqa perikardiotomiya, operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasi, POAF, perikardial effuziya, kardiojarrohlik, aritmiya profilaktikasi.*

ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОЙ ФИБРИЛЛЯЦИИ ПРЕДСЕРДИЙ У ПАЦИЕНТОВ, ПЕРЕНЕСШИХ ЗАДНЮЮ ПЕРИКАРДИОТОМИЮ

Ахралов Азизбек – магистрант
Муллабаева Гўзал Учқуновна – д.м.н.
Шукурова Дилафруз Юсуфовна – Ph.D., ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Послеоперационная фибрилляция предсердий (ПОФП) является одним из наиболее частых аритмических осложнений после кардиохирургических вмешательств, приводящим к увеличению продолжительности госпитализации и дополнительной экономической нагрузке на систему здравоохранения. В последние годы задняя перикардиотомия рассматривается как простая интраоперационная хирургическая манипуляция и перспективный метод профилактики ПОФП. В данном обзоре литературы проанализированы патофизиологические механизмы ПОФП, антиаритмическое действие задней перикардиотомии, результаты клинических исследований, а также особенности течения ПОФП на фоне выполнения задней перикардиотомии. Имеющиеся рандомизированные исследования и метаанализы демонстрируют, что задняя перикардиотомия достоверно снижает частоту развития ПОФП, особенно на вторые–третьи сутки после операции. Кроме того, безопасность и техническая простота метода позволяют широко внедрять его в клиническую практику. В дальнейшем многоцентровые исследования с оценкой отдалённых результатов помогут определить точное клиническое место данной методики.*

Ключевые слова: *задняя перикардиотомия, послеоперационная фибрилляция предсердий, ПОФП, перикардиальный выпот, кардиохирургия, профилактика аритмий.*

CHARACTERISTICS OF POSTOPERATIVE ATRIAL FIBRILLATION IN PATIENTS UNDERGOING POSTERIOR PERICARDIOTOMY

Ahralov Azizbek – master’s student
Mullabayeva Gozal Uchkunovna – D.M.Sc.
Shukurova Dilafruz Yusufovna – Ph.D., assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: *Postoperative atrial fibrillation (POAF) is one of the most common arrhythmic complications following cardiac surgery, leading to prolonged hospitalization and imposing an additional economic burden on healthcare systems. In recent years, posterior pericardiotomy has been recognized as a simple intraoperative surgical maneuver and a promising method for the prevention of POAF. This literature review analyzes the pathophysiological mechanisms of POAF, the antiarrhythmic effects of posterior pericardiotomy, clinical study outcomes, and the characteristics of POAF in patients undergoing posterior pericardiotomy. Available randomized trials and meta-analyses demonstrate that posterior pericardiotomy significantly reduces the incidence of POAF, particularly during the second to third postoperative days. Furthermore, the safety and technical simplicity of this method enable its wide implementation in clinical practice. Future multicenter studies evaluating long-term outcomes will help define the precise clinical role of posterior pericardiotomy.*

Keywords: *posterior pericardiotomy; postoperative atrial fibrillation; POAF; pericardial effusion; cardiac surgery; arrhythmia prevention.*

Dolzarbligi. Turli klinik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko‘ra, POAF yurak jarrohligidan keyin 20–40% bemorlarda kuzatiladi, ayniqsa koronar shuntlash va klapan operatsiyalaridan so‘ng uning uchrash chastotasi yuqori bo‘ladi [1,2]. Ushbu aritmiya ikkilamchi bo‘lmacha fibrillyatsiyasining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

POAFning klinik ahamiyati faqat vaqtinchalik yurak ritmi buzilishi bilan cheklanmaydi. Tadqiqotlarda POAF rivojlangan bemorlarda insult, yurak yetishmovchiligi, miokard infarkti va o‘lim xavfining ortishi, shuningdek tromboembolik asoratlar xavfini oshirishi qayd etilgan. Bundan tashqari, POAF shifoxonada yotish muddatining uzayishiga va davolash xarajatlarining sezilarli oshishiga olib keladi [3,4,5]. Shu sababli POAFni oldini olish kardiojarrohlik amaliyotining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

POAF rivojlanishi ko‘p omilli patofiziologik mexanizmlar bilan izohlanadi. Operatsiya vaqtida miokard ishemiyasi va reperfuziya shikastlanishi, tizimli yallig‘lanish javobi, elektrolit disbalansi hamda vegetativ nerv tizimi faoliyatining o‘zgarishi bo‘lmacha miokardida elektr beqarorlikni yuzaga keltiradi [6,7].

Bu jarayonlar bo‘lmachalar strukturasining o‘zgarishi va ektopik impulslar shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

So‘nggi yillarda POAF patogenezida perikardial bo‘shliqda operatsiyadan keyin yig‘iladigan suyuqlik – perikardial effuziyaning muhim roli aniqlanmoqda. Perikardial suyuqlikning ortishi bo‘lmacha devoriga mexanik bosim o‘tkazib, kech davrdagi POAF epizodlarini qo‘zg‘atishi mumkin. Shu nazariy asosda orqa perikardiotomiya (PP) perikardial suyuqlikni drenaj qilish va POAF xavfini kamaytirishning yuksak jarrohlik usuli sifatida taklif etilgan.

Orqa perikardiotomiya samaradorligi bo‘yicha o‘tkazilgan randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar, xususan PALACS tadqiqoti natijalariga ko‘ra, PP qo‘llangan bemorlarda POAF chastotasi sezilarli darajada kamaygan, ayniqsa operatsiyadan keyingi ikkinchi va uchinchi kunlarda ushbu ta'sir yaqqol namoyon bo‘lgan [8]. Bu esa PP usulining POAF profilaktikasidagi klinik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Zamonaviy klinik qo‘llanmalar POAFni kardiojarrohlikdan keyingi eng muhim asoratlardan biri sifatida e'tirof etadi va uning profilaktikasi muhim klinik vazifa ekanini ta'kidlaydi [4,9].

Shu munosabat bilan, orqa perikardiotomiya o‘tkazilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasining kechish xususiyatlarini, xavf omillarini va profilaktik strategiyalarini tizimli tahlil qilish hozirgi kardiojarrohlik amaliyoti uchun dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Poaf patofiziologiyasi.

Operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasining rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli patofiziologik jarayonlar bilan bog‘liq. Kardiojarrohlik amaliyoti davomida miokard to‘qimalari vaqtinchalik ishemiyaga uchraydi va reperfuziya bosqichida oksidativ stress hamda yallig‘lanish mediatorlarining ajralishi kuchayadi. Ushbu yallig‘lanish javobi bo‘lmacha miokardida ion kanallari faoliyatining o‘zgarishiga va elektr barqarorlikning buzilishiga olib keladi [7]. Yurak jarrohligi sitokinlar faollashuvi va komplement tizimi ishga tushishi bilan xarakterlanuvchi tizimli yallig‘lanish javobini chaqiradi [10]. Jarrohlikdan keyingi yallig‘lanish javobi POAF patogenezida muhim rol o‘ynaydi [2].

Operatsiya vaqtida va undan keyingi davrda simpatik nerv tizimi faolligining oshishi ham POAF patogenezida muhim o‘rin tutadi. Katexolaminlar konsentratsiyasining ortishi bo‘lmacha hujayralarida avtomatizmni kuchaytiradi va ektopik impulslar paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, parasimpatik tonusning keskin o‘zgarishi atrial refrakter davr qisqarishiga olib kelib, qaytuvchi re-entry mexanizmlarini yuzaga chiqaradi [6].

Elektrolit muvozanatining buzilishi, ayniqsa kaliyning pasayishi va magniy yetishmovchiligi bo‘lmacha hujayralarining repolyarizatsiya jarayonini izdan chiqaradi. Bu holat operatsiyadan keyingi davrda POAF boshlanishi uchun qulay elektro-fiziologik muhit hosil qiladi. Shu sababli klinik protokollarda elektrolitlarni muntazam nazorat qilish POAF profilaktikasining muhim qismi sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda POAF patogenezida perikardial bo‘shliqda operatsiyadan keyin yig‘iladigan suyuqlikning alohida roli aniqlanmoqda. Perikardial effuziya bo‘lmacha devoriga mexanik bosim o‘tkazib, bo‘lmacha devor cho‘zilishini yuzaga keltiradi. Bu

esa bo‘lmacha miokardida ion oqimlarining o‘zgarishiga va elektr faolligining qayta shakllanish jarayonining faollashishiga olib keladi [11].

Bo‘lmachalar strukturasining o‘zgarishi jarayonida hujayra ichki kalsiy almashinuvi buziladi, yurak bo‘lmachalari orasidagi elektr signallarni uzatuvchi tutashuv kanallari faoliyati izdan chiqadi va impuls o‘tkazilishining geterogenligi ortadi. Natijada bo‘lmacha miokardida bir vaqtning o‘zida bir nechta re-entry to‘lqinlari paydo bo‘lishi mumkin, bu esa fibrillyatsiya mexanizmining asosini tashkil etadi [7].

Perikardial effuziyaning POAF rivojlanishidagi o‘rni orqa perikardiotomiya usulining klinik ahamiyatini tushuntirib beradi. Posterior perikardiotomiya perikard bo‘shlig‘ini doimiy drenajlanishini ta’minlab, suyuqlik yig‘ilishini kamaytiradi. PALACS randomizatsiyalangan tadqiqoti natijalariga ko‘ra, ushbu usul ayniqsa operatsiyadan keyingi ikkinchi va uchinchi kunlarda yuzaga keladigan POAF epizodlari sezilarli darajada kamayadi [8]. Bu fakt kech davrdagi POAFning muhim qo‘zg‘atuvchi omillaridan biri perikardial mexanik ta’sir ekanini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, POAF patogenezida - yallig‘lanish, vegetativ disbalans, elektrolit buzilishlari va perikardial effuziya o‘zaro bir-birini kuchaytiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kompleks jarayonlarni chuqur tushunish POAFning samarali profilaktik va davolovchi strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Orqa perikardiotomiya: texnikasi va operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyani oldini olish mexanizmlari

Orqa perikardiotomiya – bu kardiojarrohlik amaliyoti vaqtida perikardning orqa (posterior) devorida kichik kesma hosil qilish orqali perikard bo‘shlig‘ini chap plevra bo‘shlig‘i bilan tutashtirish usulidir. Ushbu texnika operatsiya yakunida bajarilib, perikard bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planishini oldini olishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan, kesma chap pastki o‘pka venalari orqasida, diafragma yaqinida bajariladi va qo‘shimcha murakkab manipulyatsiyalarni talab qilmaydi [12].

Orqa perikardiotomiyaning asosiy fiziologik ta’siri perikardial effuziyaning erkin drenajlanishini ta’minlash bilan izohlanadi. Operatsiyadan keyingi davrda perikard bo‘shlig‘ida qon va yallig‘lanish eksudati to‘planishi bo‘lmacha devoriga mexanik bosim o‘tkazadi. Natijada bo‘lmacha devor cho‘zilishi yuzaga kelib, elektrik o‘zgarishlar jarayonini faollashtiradi. Orqa perikardiotomiya ushbu mexanik omilni bartaraf etib, bo‘lmacha cho‘zilishi darajasini kamaytiradi va POAF rivojlanish xavfini pasaytiradi [13].

Klinik tadqiqotlar orqa perikardiotomiyaning POAF profilaktikasidagi samaradorligini tasdiqlagan. Gaudino va hamkorlari o‘tkazgan randomizatsiyalangan sinovda orqa perikardiotomiya bajarilgan bemorlarda operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasi chastotasi sezilarli kamaygani qayd etilgan. Shu bilan birga, usul operatsiya vaqtini deyarli uzaytirmagan va jiddiy asoratlar kuzatilmagan [12].

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan PALACS randomizatsiyalangan klinik tadqiqoti ham orqa perikardiotomiyaning afzalligini yana bir bor isbotladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, perikardiotomiya qilingan guruhda POAF holatlari nazorat guruhga nisbatan sezilarli darajada kam uchragan. Ayniqsa operatsiyadan keyingi 48–96 soat oralig‘ida profilaktik ta’sir yaqqol namoyon bo‘lgan [8].

Meta-tahlillar ham posterior perikardiotomiyaning POAFni kamaytirishda barqaror ijobiy natija berishini ko‘rsatmoqda. Attaran va hamkorlari o‘tkazgan tizimli tahlilda perikardiotomiya POAF rivojlanish xavfini o‘rtacha 40–50% ga kamaytirishi aniqlangan [9,14,15]. Bu natijalar usulni kardiojarrohlik amaliyotida kengroq joriy etish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, posterior perikardiotomiya oddiy bajariladigan, xavfsiz va samarali profilaktik usul bo‘lib, POAF patogenezidagi asosiy mexanik qo‘zg‘atuvchi omil – perikardial effuziyani bartaraf etish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu texnikaning amaliyotga tatbiq etilishi operatsiyadan keyingi yurak ritmi buzilishlarini kamaytirish va bemorlarning shifoxonada yotish muddatini kamaytirish imkonini beradi.

Klinik tadqiqotlar natijalari.

Orqa perikardiotomiya orqali operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasining (POAF) oldini olish masalasi so‘nggi o‘n yillikda keng miqyosli klinik tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Dastlabki randomizatsiyalangan sinovlar bu usulning samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, ularning natijalari perikard bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planishini kamaytirish POAF rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan.

Gaudino va hamkorlari tomonidan o‘tkazilgan ilk randomizatsiyalangan klinik sinovda posterior perikardiotomiya bajarilgan bemorlar nazorat guruhi bilan taqqoslanganda POAF uchrash chastotasi statistik ahamiyatli darajada kamaygani aniqlangan. Tadqiqot mualliflari usulning operatsiya davomiyligiga minimal ta’sir ko‘rsatishini va qo‘shimcha asoratlar kuzatilmaganini qayd etganlar. Ushbu ish orqa perikardiotomiyani kardiojarrohlikda profilaktik yondashuv sifatida baholashga ilmiy asos yaratdi [12].

Keyingi yillarda o‘tkazilgan ko‘p markazli tadqiqotlar bu natijalarni mustahkamladi. Eng muhim dalillardan biri PALACS randomizatsiyalangan sinovidir. Ushbu tadqiqotda 400 dan ortiq bemor uzluksiz telemetrik monitoring ostida kuzatilib, POAFning nafaqat uchrash chastotasi, balki kechish xususiyatlari ham tahlil qilingan. Natijalarga ko‘ra, orqa perikardiotomiya bajarilgan guruhda POAF rivojlanish xavfi sezilarli darajada past bo‘lgan. Ayniqsa operatsiyadan keyingi ikkinchi kundan so‘ng ushbu profilaktik ta’sir yanada yaqqol namoyon bo‘lgan [8].

Meta-tahliliy tadqiqotlar ham posterior perikardiotomiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. Attaran va hamkorlari tomonidan o‘tkazilgan tizimli sharh va meta-tahlilda bir nechta randomizatsiyalangan sinovlar natijalari jamlanib, usul POAF rivojlanish xavfini o‘rtacha 40% ga kamaytirishi aniqlangan. Bundan tashqari, perikardiotomiya bajarilgan bemorlarda perikardial effuziya va tamponada holatlari ham kamroq uchragani qayd etilgan [14].

Randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tahlil qilgan tizimli sharhlar orqa perikardiotomiya operatsiyasining operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiya (POAF) rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytirishini tasdiqlaydi [16].

Alohida e’tiborli jihati shundaki, klinik tadqiqotlarda orqa perikardiotomiyaning xavfsizligi yuqori darajada baholangan. Operatsiyadan keyingi qon ketish, o‘pka asoratlari yoki diafragma shikastlanishi kabi nojo‘ya holatlar kuzatilmagan. Bu esa usulni keng amaliyotga joriy etish imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud klinik dalillar orqa perikardiotomiyani POAFni oldini olishda samarali, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul usul sifatida ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv kardiojarrohlik amaliyotida aritmiya profilaktikasining yangi istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Posterior perikardiotomiya fonida poaf kechish xususiyatlari.

Operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiya (POAF) yurak jarrohligidan keyingi eng keng tarqalgan aritmiyalardan biri bo‘lib, uning klinik ta’siri faqat uchrash chastotasi bilan cheklanmay, boshlanish vaqti, davomiyligi hamda gemodinamik natijalar bilan bog‘liq [8]. Posterior perikardiotomiya (PP) bajarilgan bemorlarda POAF rivojlanish mexanizmi va klinik kechishi an’anaviy jarrohlikdan keyingi holatlardan sezilarli darajada farq qiladi.

PALACS randomizatsiyalangan tadqiqotining post-hoc tahlillari shuni ko‘rsatdiki, POAF epizodlarining aksariyati yurak operatsiyasidan keyingi ikkinchi va uchinchi kunlarda yuzaga keladi. Biroq posterior perikardiotomiya guruhida aritmiya asosan kechroq davrda kuzatilgan va umumiy uchrash chastotasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lgan [8]. Ayniqsa, operatsiyadan keyingi ikkinchi kundan so‘ng POAF rivojlanish xavfining kamayishi ushbu usulning asosiy klinik afzalligi sifatida qayd etilgan.

POAF davomiyligi ham orqa perikardiotomiya fonida qisqaroq bo‘lib, telemetrik monitoring ma’lumotlariga ko‘ra, orqa perikardiotomiya bajarilgan bemorlarda POAF epizodlarining aksariyati 24–36 soat ichida o‘z-o‘zidan sinus ritmga qaytgan [8]. Aritmiya yuklamasi operatsiyadan keyingi statsionar davrning o‘rtacha 10–12% ini tashkil etgan, bu nazorat guruhiga nisbatan past ko‘rsatkich sifatida qayd etilgan.

Gemodinamik jihatdan, orqa perikardiotomiyada antiaritmik preparatlar qo‘llash zarurati yuzaga kelgan. Elektr kardioversiya ehtiyoji esa nazorat guruhiga nisbatan kamroq uchragan [8].

Muhim kuzatuv shuki, posterior perikardiotomiya bajarilgan bemorlarda perikardial effuziya deyarli uchramaydi yoki minimal darajada bo‘ladi. Bu bo‘lmachalar devorining mexanik cho‘zilishini kamaytirib, aritmogen substrat shakllanishining oldini oladi. Natijada POAF epizodlari nafaqat kamroq, balki klinik jihatdan yengilroq kechadi [8].

Shunday qilib, mavjud klinik ma’lumotlar orqa perikardiotomiya POAFning oldini olish va uning klinik kechish xususiyatlarini yengillashtirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi [8].

Cheklovlar va bahsli jihatlar.

Orqa perikardiotomiya operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasining oldini olishda istiqbolli usul sifatida e’tirof etilayotgan bo‘lsa-da, mavjud ilmiy dalillarni baholashda ayrim cheklovlarni inobatga olish zarur. Avvalo, hozirgacha e’lon qilingan asosiy klinik tadqiqotlar ma’lum turdagi kardiojarrohlik amaliyotlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, mitral va trikuspid klapan operatsiyalari, shuningdek ilgari bo‘lmacha aritmiyalari bo‘lgan bemorlar ko‘pincha tadqiqotlardan chiqarib tashlangan. Bu holat posterior perikardiotomiyaning barcha bemor guruhlariga tatbiq etilish imkoniyatini to‘liq baholashni cheklaydi.

Ikkinchi muhim jihat – POAFni aniqlash usullaridagi farqlardir. Ayrim tadqiqotlarda faqat klinik simptomlarga asoslangan elektrokardiografik tekshiruvlar qo‘llanilgan bo‘lsa, boshqalarida uzluksiz telemetrik monitoring amalga oshirilgan. Ma’lumki, uzluksiz monitoring POAFni aniqlash sezgirligini sezilarli oshiradi. Shu sababli, turli tadqiqotlar natijalarini bevosita taqqoslashda metodologik tafovutlar muayyan bahsli jihatlarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, perikardiotomiya bajarilgan bemorlarda elektrolit muvozanati, yallig‘lanish markerlari va avtonom nerv tizimi ta’siri kabi omillar POAF rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishi hali to‘liq o‘rganilmagan. Aksariyat klinik sinovlarda operatsiyadan keyingi davrda kaliy va magniy darajalari muntazam nazorat qilinishi qayd etilgan bo‘lsa-da, aritmiya boshlanishi paytidagi aniq biokimyoviy ko‘rsatkichlar ko‘pincha qayd etilmagan. Bu esa patofiziologik mexanizmlarni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini cheklaydi.

Yana bir bahsli masala – orqa perikardiotomiyaning uzoq muddatli natijalariga oid ma’lumotlarning yetarli emasligidir. Aksariyat tadqiqotlar 30 kunlik kuzatuv bilan cheklangan bo‘lib, POAF kelgusida surunkali bo‘lmacha fibrillyatsiyasiga o‘tish xavfi va uzoq muddatli insult hamda o‘lim darajasi ko‘rsatkichlariga ta’siri hali to‘liq aniqlanmagan.

Nihoyat, operatsion texnikaning standartlashmaganligi ham muhim omil hisoblanadi. Turli markazlarda perikardiotomiya kesmasining uzunligi, joylashuvi va drenaj usullari bir xil emas. Bu esa natijalar o‘rtasida tafovut paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, posterior perikardiotomiyaning POAF profilaktikasidagi haqiqiy o‘rni va optimal qo‘llanish doirasini aniqlash uchun kengroq populyatsiyada, standartlashtirilgan metodologiya asosida o‘tkazilgan ko‘p markazli tadqiqotlar zarur.

Kelajak tadqiqot yo‘nalishlari.

Orqa perikardiotomiya operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasining oldini olishda samarali usul sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, ushbu yondashuvning optimal qo‘llanish strategiyasini aniqlash uchun bir qator ilmiy savollar hali ochiq qolmoqda. Kelajak tadqiqotlari ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilishi lozim.

Birinchi istiqbolli yo‘nalish – orqa perikardiotomiyaning turli kardiojarrohlik turlarida qo‘llanishini baholashdir. Mavjud klinik sinovlar asosan koronar shuntlash va aortal klapan operatsiyalarini qamrab olgan. Mitral va trikuspid klapan jarrohligi, shuningdek kompleks rekonstruktiv yurak amaliyotlarida orqa perikardiotomiyaning POAF profilaktikasidagi o‘rni alohida o‘rganilishi zarur.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – orqa perikardiotomiya va farmakologik profilaktika kombinatsiyasining sinergetik ta’sirini aniqlashdir. Beta-blokatorlar, amiodaron yoki ivabradin kabi dori vositalari bilan birgalikda perikardiotomiya qo‘llanganda POAF chastotasini yanada kamaytirish mumkinligi ehtimoli mavjud. Bunday kombinatsiyalarning optimal protokoli kelajak randomizatsiyalangan tadqiqotlarda ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchi istiqbolli masala – perikardiotomiya orqali perikardial effuziyani kamaytirish va POAF patogenezidagi yallig‘lanish mexanizmlarini chuqurroq o‘rganishdir. Biomarkerlar (CRP, interleykinlar, oksidativ stress markerlari) dinamikasi asosida POAF rivojlanishining molekulyar mexanizmlarini aniqlash yangi profilaktik yondashuvlarga yo‘l ochishi mumkin.

To‘rtinchi yo‘nalish – uzoq muddatli natijalarni baholashdir. Posterior perikardiotomiyaning bo‘lmacha fibrillyatsiyasining keyingi yillarda surunkali shaklga o‘tish xavfiga, insult va yurak yetishmovchiligi rivojlanishiga ta’siri hozircha yetarli o‘rganilmagan. 1–5 yillik kuzatuvli ko‘p markazli registrlar bu masalani aniqlashtirishi mumkin.

Beshinchi yo‘nalish – operatsion texnikani standartlashtirishdir. Kesma uzunligi, perikardial drenaj usuli va anatomik joylashuvni yagona protokolga keltirish natijalarning takrorlanuvchanligini oshiradi va klinik amaliyotga keng joriy etish imkonini beradi.

Umuman olganda, kelajak tadqiqotlarining asosiy maqsadi orqa perikardiotomiyaning POAF profilaktikasidagi rolini shaxsiy xavf darajasini baholash asosida moslashtirilgan yondashuvga aylantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Xulosa.

Operatsiyadan keyingi bo‘lmacha fibrillyatsiyasi kardiojarrohlik amaliyotlaridan so‘ng uchraydigan eng ko‘p tarqalgan aritmik asorat bo‘lib, bemorlarning shifoxonada yotish vaqtini uzaytiradi va davolash xarajatlarini oshiradi. POAF rivojlanishida yallig‘lanish jarayoni, perikardial effuziya, bo’lmacha mexanik cho‘zilish va elektrik o‘zgarishlar jarayoni muhim patofiziologik omillar hisoblanadi.

Mavjud klinik tadqiqotlar natijalari orqa perikardiotomiyaning POAF profilaktikasida samarali va xavfsiz usul ekanligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, operatsiyadan keyingi ikkinchi va uchinchi kunlardan boshlab POAF rivojlanish chastotasini sezilarli kamaytirishi ushbu usulning perikardial effuziyani drenaj qilish orqali aritmogen substratni bartaraf etishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, orqa perikardiotomiya POAFning davomiyligi va klinik kechishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan, umumiy aritmiya yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, ushbu yondashuvning barcha kardiojarrohlik turlarida qo‘llanishi, uzoq muddatli natijalarga ta’siri hamda yuqori operatsion texnikasi bo‘yicha qo‘shimcha ko‘p markazli tadqiqotlar zarur. Kelajakda orqa perikardiotomiyani farmakologik profilaktika va shaxsiy xavf darajasini baholash bilan uyg‘unlashtirish POAFning oldini olishda yanada yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Umuman olganda, orqa perikardiotomiya kardiojarrohlik amaliyotida POAF profilaktikasining istiqbolli, oddiy va iqtisodiy jihatdan qulay usuli sifatida klinik amaliyotga keng joriy etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Maisel WH, Rawn JD, Stevenson WG. Atrial fibrillation after cardiac surgery. Ann Intern Med. 2001 Dec 18;135(12):1061-73. doi: 10.7326/0003-4819-135-12-200112180-00010. PMID: 11747385

2. Greenberg JW, Lancaster TS, Schuessler RB, Melby SJ. Postoperative atrial fibrillation following cardiac surgery: a persistent complication. Eur J Cardiothorac Surg. 2017 Oct 1;52(4):665-672. doi: 10.1093/ejcts/ezx039. PMID: 28369234.

3. Filardo G, Damiano RJ Jr, Ailawadi G, Thourani VH, Pollock BD, Sass DM, Phan TK, Nguyen H, da Graca B. Epidemiology of new-onset atrial fibrillation following coronary artery bypass graft surgery. Heart. 2018 Jun;104(12):985-992. doi: 10.1136/heartjnl-2017-312150. Epub 2018 Jan 11. PMID: 29326112.

4. Hindricks G, Potpara T, Dagres N, Arbelo E, Bax JJ, Blomström-Lundqvist C, Boriani G, Castella M, Dan GA, Dilaveris PE, Fauchier L, Filippatos G, Kalman JM, La Meir M, Lane DA, Lebeau JP, Lettino M, Lip GYH, Pinto FJ, Thomas GN, Valgimigli M, Van Gelder IC, Van Putte BP, Watkins CL; ESC Scientific Document Group. 2020 ESC Guidelines for the diagnosis and management of atrial fibrillation developed in collaboration with the European Association for Cardio-Thoracic Surgery (EACTS): The Task Force for the diagnosis and management of atrial fibrillation of the European Society of Cardiology (ESC) Developed

with the special contribution of the European Heart Rhythm Association (EHRA) of the ESC. Eur Heart J. 2021 Feb 1;42(5):373-498. doi: 10.1093/eurheartj/ehaa612. Erratum in: Eur Heart J. 2021 Feb 1;42(5): 507. doi: 10.1093/eurheartj/ehaa798. Erratum in: Eur Heart

5. Gillinov AM, Bagiella E, Moskowitz AJ, Raiten JM, Groh MA, Bowdish ME, Ailawadi G, Kirkwood KA, Perrault LP, Parides MK, Smith RL 2nd, Kern JA, Dussault G, Hackmann AE, Jeffries NO, Miller MA, Taddei-Peters WC, Rose EA, Weisel RD, Williams DL, Mangusan RF, Argenziano M, Moquete EG, O'Sullivan KL, Pellerin M, Shah KJ, Gammie JS, Mayer ML, Voisine P, Gelijns AC, O'Gara PT, Mack MJ; CTSN. Rate Control versus Rhythm Control for Atrial Fibrillation after Cardiac Surgery. N Engl J Med. 2016 May 19;374(20):1911-21. doi: 10.1056/NEJMoa1602002. Epub 2016 Apr 4. PMID: 27043047; PMCID: PMC4908812.

6. Mathew JP, Fontes ML, Tudor IC, et al. A Multicenter Risk Index for Atrial Fibrillation After Cardiac Surgery. JAMA. 2004;291(14):1720–1729. doi:10.1001/jama.291.14.1720.

7. Echahidi N, Pibarot P, O'Hara G, Mathieu P. Mechanisms, prevention, and treatment of atrial fibrillation after cardiac surgery. J Am Coll Cardiol. 2008 Feb 26;51(8):793-801. Doi: 10.1016/j.jacc.2007.10.043. PMID: 18294562.

8. Perezgrovas-Olaria R, Chadow D, Lau C, Rahouma M, Soletti GJ, Cancelli G, Harik L, Dimagli A, Rong LQ, Gillinov M, Ad N, DiMaio M, Gelijns AC, Sanna T, Fremes S, Crea F, Girardi L, Gaudino M. Characteristics of Postoperative Atrial Fibrillation and the Effect of Posterior Pericardiotomy. Ann Thorac Surg. 2023 Sep;116(3):615-622. Doi: 10.1016/j.athoracsur.2022.11.007. Epub 2022 Nov 11. PMID: 36375495; PMCID: PMC10468100...

9. Joglar JA, Chung MK, Armbruster AL, Benjamin EJ, Chyou JY, Cronin EM, Deswal A, Eckhardt LL, Goldberger ZD, Gopinathannair R, Gorenek B, Hess PL, Hlatky M, Hogan G, Ibeh C, Indik JH, Kido K, Kusumoto F, Link MS, Linta KT, Marcus GM, McCarthy PM, Patel N, Patton KK, Perez MV, Piccini JP, Russo AM, Sanders P, Streur MM, Thomas KL, Times S, Tisdale JE, Valente AM, Van Wagoner DR; Peer Review Committee Members. 2023 ACC/AHA/ACCP/HRS Guideline for the Diagnosis and Management of Atrial Fibrillation: A Report of the American College of Cardiology/American Heart Association Joint Committee on Clinical Practice Guidelines. Circulation. 2024 Jan 2;149(1):e1-e156. doi: 10.1161/CIR.0000000000001193. Epub 2023 Nov 30. Erratum in: Circulation. 2024 Jan 2;149(1):e167. doi: 10.1161/CIR.0000000000001207. Erratum in: Circulation. 2024 Feb 27;149(9):e936. doi: 10.1161/CIR.0000000000001218. Erratum in: Circulation. 2024 Jun 11;149(24):e1413. doi: 10.1161/CIR.0000000000001263. PMID: 38033089; PMCID: PMC11095842.

10. Bruins P, te Velthuis H, Yazdanbakhsh AP, Jansen PG, van Hardevelt FW, de Beaumont EM, Wildevuur CR, Eijsman L, Trouwborst A, Hack CE. Activation of the complement system during and after cardiopulmonary bypass surgery: postsurgery activation involves C-reactive protein and is associated with postoperative arrhythmia. Circulation. 1997 Nov 18;96(10):3542-8. doi: 10.1161/01.cir.96.10.3542. PMID: 9396453.

11. Arsenault KA, Yusuf AM, Crystal E, Healey JS, Morillo CA, Nair GM, Whitlock RP. Interventions for preventing post-operative atrial fibrillation in patients undergoing heart surgery. Cochrane Database Syst Rev. 2013 Jan 31;2013(1):CD003611. Doi: 10.1002/14651858.CD003611.pub3. PMID: 23440790; PMCID: PMC7387225.

12. Gaudino M, Sanna T, Ballman KV, Robinson NB, Hameed I, Audisio K, Rahouma M, Di Franco A, Soletti GJ, Lau C, Rong LQ, Massetti M, Gillinov M, Ad N, Voisine P, DiMaio JM, Chikwe J, Fremes SE, Crea F, Puskas JD, Girardi L; PALACS Investigators. Posterior left pericardiotomy for the prevention of atrial fibrillation after cardiac surgery: an adaptive, single-centre, single-blind, randomised, controlled trial. Lancet. 2021 Dec 4;398(10316):2075-2083. Doi: 10.1016/S0140-6736(21)02490-9. Epub 2021 Nov 14. PMID: 34788640.

13. Kaygin MA, Dag O, Güneş M, Senocak M, Limandal HK, Aslan U, Erkut B. Posterior pericardiotomy reduces the incidence of atrial fibrillation, pericardial effusion, and length of stay in hospital after coronary artery bypasses surgery. Tohoku J Exp Med. 2011 Oct;225(2):103-8. Doi: 10.1620/tjem.225.103. PMID: 21908956.

14. Attaran, S., Shaw, M., Bond, L., Pullan, M. D., & Fabri, B. M. (2011). Atrial fibrillation postcardiac surgery: A common but a morbid complication. Interactive Cardiovascular and Thoracic Surgery, 12 (5), 772–777. https://doi.org/10.1510/icvts.2010.243782.

15. Abdelaziz A, Hafez AH, Elaraby A, Roshdy MR, Abdelaziz M, Eltobgy MA, Elsayed H, El-Samahy M, Elbehbeh NA, Philip KG, Abdelaty AM, Rizk MA, Al-Tawil M, AboElfarh HE, Ramadan A, Ghaith HS, Wahsh EA, Abdelazeem B, Fayed B. Posterior pericardiotomy for the prevention of atrial fibrillation after cardiac surgery: a systematic review and meta-analysis of 25 randomised controlled trials. EuroIntervention. 2023 Jul 17;19(4):e305-e317. doi: 10.4244/EIJ-D-22-00948. PMID: 36927670; PMCID: PMC10336425.

16. Xiong, T., Pu, L., Ma, YF. et al. Posterior pericardiotomy to prevent new-onset atrial fibrillation after coronary artery bypass grafting: a systematic review and meta-analysis of 10 randomized controlled trials. J Cardiothorac Surg 16, 233 (2021). https://doi.org/10.1186/s13019-021-01611-x

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING GISTOLOGIK DAGNOSTIKADAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI

Rajabova Sabrina – talaba
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy gistologik diagnostikada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining o'rni, erishilgan natijalar va sohaning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) va "chuqur o'rganish" (Deep Learning) algoritmlarining patologik to'qimalarni tahlil qilishdagi samaradorligi ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, SI tizimlari diagnostika aniqligini oshirish bilan birga, shifokorlarning ish yukini kamaytirish va subyektiv xatoliklarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada, shuningdek, raqamli patologiyani amaliyotga joriy etishdagi mavjud to'siqlar va kelajakdagi multimodal diagnostika imkoniyatlari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, gistologiya, raqamli patologiya, chuqur o'rganish, neyron tarmoqlari, onkologik diagnostika, Whole Slide Imaging (WSI), avtomatlashtirilgan tahlil.*

РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ГИСТОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ

Раджабова Сабрина – студентка
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация*. В данной статье анализируются роль, достигнутые результаты и перспективы применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современной гистологической диагностике. В ходе исследования рассмотрена эффективность алгоритмов глубокого обучения (Deep Learning) и сверточных нейронных сетей (CNN) при анализе патологических тканей. Полученные данные показывают, что системы ИИ способны существенно повысить точность диагностики, снизить нагрузку на врачей-патологов и минимизировать влияние субъективных ошибок. Также в статье обсуждаются существующие препятствия внедрению цифровой патологии в клиническую практику и перспективы развития мультимодальной диагностики на основе интеграции морфологических, молекулярных и клинических данных.*

Ключевые слова*: искусственный интеллект, гистология, цифровая патология, глубокое обучение, нейронные сети, онкологическая диагностика, Whole Slide Imaging (WSI), автоматизированный анализ.*

THE ROLE AND PROSPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN HISTOLOGICAL DIAGNOSTICS

Rajabova Sabrina – student
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article analyzes the role, current achievements, and future prospects of artificial intelligence (AI) technologies in modern histological diagnostics. The study examines the effectiveness of deep learning algorithms and convolutional neural networks (CNNs) in the analysis of pathological tissues. The results demonstrate that AI systems significantly improve diagnostic accuracy, reduce the workload of pathologists, and minimize subjective errors. The article also discusses the current challenges of implementing digital pathology in clinical practice and explores the future potential of multimodal diagnostics based on the integration of morphological, molecular, and clinical data.*

Keywords*: artificial intelligence, histology, digital pathology, deep learning, neural networks, oncological diagnostics, Whole Slide Imaging (WSI), automated analysis.*

Kirish.

Gistologik diagnostikaning klassik muammolari va yangi davr ehtiyoji. Zamonaviy tibbiyotda gistologik tahlillar kasalliklarni aniqlash, ayniqsa, onkologik patologiyalarga yakuniy tashxis qo'yishda "oltin standart" hisoblanadi. Biroq, an'anaviy mikroskopik tahlil jarayoni patolog-shifokordan o'ta yuqori konsentratsiya, uzoq vaqt va ko'p yillik klinik tajriba talab etadi. Dunyo miqyosida onkologik kasallanishlar sonining ortishi va malakali patologlar yetishmovchiligi diagnostika tizimiga og'irlik tushirmoqda. Shifokorlar o'rtasidagi subyektiv qarashlar (inter-observer variability) va charchoq omili tashxis aniqligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kognitiv xatoliklarga sabab bo'lishi mumkin [1]. Shu nuqtai nazardan, raqamli patologiya (Digital Pathology) va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini gistologik diagnostikaga tatbiq etish tibbiyotning eng ustuvor strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Raqamli patologiya va neyron tarmoqlarining imkoniyatlari. Sun'iy intellekt, xususan, "chuqur o'rganish" (Deep Learning) va konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) gistologik preparatlarning yuqori aniqlikdagi raqamli nusxalarini (Whole Slide Images

- WSI) tahlil qilishda mislsiz imkoniyatlarni taqdim etmoqda [2]. WSI texnologiyasi an'anaviy shisha slaydlarni terabaytlab hajmdagi ma'lumotlarga aylantiradi, SI algoritmlari esa ushbu ulkan ma'lumotlar ichidan inson ko'zi ilg'ashi deyarli imkonsiz bo'lgan mikroskopik o'zgarishlarni — yadro polimorfizmini, stroma va epiteliy o'rtasidagi nozik chegaralarni hamda minimal mitotik faollikni yuqori aniqlikda segmentatsiya qiladi.

SI algoritmlarining klinik samaradorligi. So'nggi yillar statistikasi shuni ko'rsatadiki, SI algoritmlari saraton hujayralarini klassifikatsiya qilishda tajribali mutaxassislar bilan raqobatlash darajasiga yetgan. Algoritmlarning afzalligi shundaki, ular "charchoq" nima ekanligini bilmaydi va har bir slaydni bir xil matematik aniqlikda tahlil qiladi [3]. Masalan, sut bezi saratoni metastazlarini limfa tugunlarida aniqlash yoki prostat bezidagi Gleson shkalasi bo'yicha darajalashda algoritmlarning samaradorligi 90-95% gacha aniqlikni qayd etmoqda [4]. Bundan tashqari, SI "bashoratli onkologiya"da ham yangi sahifa ochmoqda: oddiy gistologik tasvirlar orqali o'simtaning genetik mutatsiyalarini (masalan, o'pka saratonida EGFR yoki sut bezida HER2 holati) tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar ijobiy natijalar bermoqda.

Texnik to'siqlar va "Qora quti" muammosi. Shunga qaramay, sohani to'liq raqamlashtirishda bir qator to'siqlar mavjud. Birinchidan, WSIning standartlashtirilmaganligi — turli skanerlar va bo'yash usullari tasvir ranglarining farqlanishiga olib keladi, bu esa algoritmlarning xato qilishi (overfitting)ga sabab bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, SI qarorlarining "tushunarsizligi" (Black Box muammosi) — algoritm nima uchun aynan shu hududni saraton deb topganini shifokorga tushuntirib bera olmasligi ishonch masalasini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu maqolaning maqsadi — gistologik diagnostikada SI texnologiyalarining hozirgi holatini tizimli tahlil qilish, ularning klinik amaliyotdagi afzalliklari va mavjud texnik-huquqiy to'siqlarni o'rganish hamda sohaning kelajakdagi istiqbollarini prognoz qilishdan iborat. Tadqiqot davomida algoritmlarni o'qitishda qo'llaniladigan ma'lumotlar bazasining (ground truth) sifatini oshirish, "tushuntiriladigan sun'iy intellekt" (XAI) modellarini yaratish va shifokor-AI hamkorligining bioetik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bizning fikrimizcha, SI shifokorning o'rnini bosuvchi kuch emas, balki uning diagnostik imkoniyatlarini kengaytiruvchi eng samarali "ikkinchi fikr" (second opinion) vositasidir. Sun'iy intellektning gistologiyaga kirib kelishi shunchaki texnik yangilanish emas, balki patologiya fanining fundamental transformatsiyasidir. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda "Virtual mikroskopiya" tizimlariga o'tish orqali markazlashgan diagnostika tarmoqlari shakllanmoqda. Bu tizim chekka hududlardagi shifoxonalardan olingan raqamli slaydlarni dunyoning istalgan nuqtasidagi ekspert-markazlarga soniyalar ichida yuborish va algoritmlar yordamida dastlabki saralashdan (triage) o'tkazish imkonini beradi. Bunday yondashuv diagnostika vaqtini 30-40% ga qisqartirib, saratonni barvaqt aniqlash ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Zamonaviy onkologiyada "bir xil tashxis – bir xil davo" tamoyili o'tmishda qolmoqda. Bugungi kunda SI yordamida amalga oshiriladigan Multiparametrik tahlil o'simta hujayralarining nafaqat turini, balki ularning immun mikromuhit bilan bo'lgan o'zaro aloqasini ham miqdoriy baholash imkonini beradi. Masalan, o'simta infiltratsiya qiluvchi limfotsitlar (TILs) zichligini aniqlashda SI inson ko'zi bilan qilinadigan subyektiv baholashdan ko'ra bir necha barobar aniqroq natija beradi. Bu esa har bir bemor uchun individual immunoterapiya yoki maqsadli (target) terapiya sxemalarini aniq hisobkitoblar asosida tanlash imkonini yaratadi.

Patolog-shifokor ish kunining deyarli yarmini normada bo'lgan yoki diagnostik jihatdan oddiy hisoblangan namunalarni ko'zdan kechirishga sarflaydi. SI algoritmlari ushbu rutin ishlarni o'z zimmasiga olgan holda, "manfiy" (sog'lom) namunalarni avtomatik saralaydi va mutaxassis e'tiborini faqat murakkab, shubhali va yuqori malaka talab etadigan holatlarga qaratishga yordam beradi. Bu nafaqat tibbiyot muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki shifokorlarning professional "yonishi" (burnout syndrome) oldini olishda ham muhim ijtimoiy rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili

Gistologik tasvirlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt (SI) tizimlarini qo'llash bo'yicha dunyo miqyosida keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan neyron tarmoqlarining tasvirni aniqlash aniqligini oshirish va diagnostika vaqtini qisqartirishga qaratilgan.

C.S. Mayo va uning hammualliflari ta'kidlashicha, SI nafaqat diagnostik vosita, balki patologning ish yukini 30-40% gacha kamaytiruvchi yordamchi tizimdir [5]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chuqur o'rganish (Deep Learning) modellari gistologik kesmalarda mitoz figuralarini va yadro atipiyasini aniqlashda inson omilidan ko'ra barqarorroq natija beradi [6].

Shuningdek, so'nggi yillardagi izlanishlar "Gleron shkalasi" (Gleason grading) bo'yicha prostat bezi saratonini darajalashda algoritmlarning klinik ahamiyatini isbotlamoqda. Xususan, N. Coudray va boshqalar o'z ishlarida o'pka adenokarsinomasi va yassi hujayrali karsinomani differensial diagnostika qilishda CNN (Konvolyutsion neyron tarmoqlari) samaradorligini 97% dan yuqori ekanligini qayd etishgan [7]. Biroq, ko'plab mualliflar, jumladan A. Madabhushi, SIning klinik amaliyotga keng joriy etilishidagi asosiy to'siq sifatida algoritmlarning "tushunarsizligi" (Black Box muammosi) va turli laboratoriyalardan olingan preparatlarni standartlashtirish muammosini ko'rsatib o'tishadi [8].

Gistologik diagnostikada SI samaradorligi bo‘yicha asosiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili

Muallif va yil	Tadqiqot obyekti / Patologiya	Qo‘llanilgan metod (Algorithm)	Asosiy natija va xulosalar
Bejnordi et al. (2017)	Sut bezi saratoni (Metastazlar)	Deep Learning (CNN)	Algoritmlar patologlardan ko‘ra yuqori sezgirlikni namoyon etdi [9].
Coudray et al. (2018)	O‘pka saratoni turlari	Inception-v3 neyron tarmog‘i	Mutatsiyalarni tasvir asosida 99% aniqlikda bashorat qildi [7].
Nagpal et al. (2019)	Prostat bezi biopsiyasi	Deep Learning System	Gleson darajalashda shifokorlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirdi [10].
Campanella et al. (2019)	Turli a’zolar (Katta hajmli ma’lumotlar)	Multiple Instance Learning	Katta hajmli (Slide-level) tahlillarda yuqori samaradorlik ko'rsatdi [11].

Metodologiya

Ushbu tadqiqot gistologik diagnostikada sun’iy intellekt modellarining samaradorligini baholash uchun kompleks tahlil usullariga tayanadi. Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichma-bosqich metodologiyadan tashkil topgan.

1. Ma’lumotlarni to‘plash va raqamlashtirish

Tadqiqotning asosi sifatida "Whole Slide Imaging" (WSI) texnologiyasi yordamida skanerlangan yuqori aniqlikdagi (odatda 20x yoki 40x kattalashtirishda) gistologik preparatlar olindi. Raqamli tasvirlar turli laboratoriya sharoitlaridagi o‘zgaruvchanlikni (bo‘yash intensivligi, skaner turi) hisobga olish uchun ko‘p markazli ochiq ma’lumotlar bazalaridan (TCGA, CAMELYON16/17) hamda mahalliy klinik arxivlardan shakllantirildi. Har bir tasvirga malakali patologlar tomonidan "Ground Truth" (haqiqiy etalon tashxis) sifatida belgilar (annotations) qo‘yildi. Tadqiqotning asosi sifatida "Whole Slide Imaging" (WSI) texnologiyasi yordamida skanerlangan yuqori aniqlikdagi gistologik preparatlar olindi. Raqamli tasvirlar turli laboratoriya sharoitlaridagi o‘zgaruvchanlikni hisobga olish uchun ko‘p markazli ma’lumotlar bazalaridan (masalan, TCGA — The Cancer Genome Atlas) shakllantirildi [12].

2. Ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish (Preprocessing)

Gistologik tasvirlar gigapikselli o‘lchamga ega bo‘lgani sababli, ularni tahlil qilish uchun “Patch-based” yondashuv qo‘llanildi.

- **Stain Normalization.** Turli laboratoriyalarda gematoksilin va eozin ranglarining farqlanishini Macenko yoki Vahadane metodlari yordamida standartlashtirildi. Bu modelning rangga emas, balki to‘qima morfologiyasiga e’tibor qaratishini ta’minlaydi.
- **Data Augmentation.** Modelning barqarorligini (robustness) oshirish uchun patchlarga tasodifiy burish, o‘lchamni o‘zgartirish, shovqin qo‘shish va yorqinlikni o‘zgartirish kabi operatsiyalar qo‘llanildi. Bu algoritmning kam uchraydigan morfologik tuzilmalarni ham taniy olishiga yordam beradi.

Gistologik tasvirlar juda katta hajmli (bir necha gigabayt) bo‘lganligi sababli, ular kichikroq bo‘laklarga — **patchlarga** (odatda 256x256 yoki 512x512 pikselli) bo‘lindi. Shuningdek, turli mikroskoplardagi rang farqlarini yo‘qotish maqsadida tasvirlarni rang normalizatsiyasi (Stain Normalization) metodlari qo‘llanildi [13].

3. Algoritmni tanlash va arxitekturani shakllantirish

Tadqiqotda tasvirni segmentatsiya qilish uchun **U-Net** (hujayra chegaralarini aniqlashda samarali) va klassifikatsiyalash uchun **EfficientNet** arxitekturalari tanlab olindi.

- **Transfer Learning:** Modellar ImageNet kabi ulkan bazalarda oldindan o‘qitilgan vaznlar bilan initsializatsiya qilindi, bu esa o‘qitish vaqtini qisqartiradi va kichikroq tibbiy ma’lumotlar bilan ham yuqori natijaga erishish imkonini beradi.
- **Multiple Instance Learning (MIL).** Gistologik slaydning barcha qismlari ham saraton hujayralariga ega bo‘lmasligi mumkin. MIL yordamida algoritm slaydning qaysi patchlari tashxis uchun eng muhim ekanligini “e’tibor mexanizmi” orqali o‘zi aniqlashga o‘rgatildi.

Tadqiqotda tasvirni segmentatsiya qilish va klassifikatsiyalash uchun konvolyutsion neyron tarmoqlarining (CNN) zamonaviy arxitekturalari (ResNet, U-Net yoki EfficientNet) tanlab olindi. Ushbu modellar "Transfer Learning" (o‘zlashtirilgan bilim orqali o‘qitish) metodikasi asosida oldindan o‘qitilgan vaznlar yordamida optimallashtirildi [14].

4. O‘qitish va validatsiya jarayoni

Ma’lumotlar to‘plami 80/10/10 nisbatda ajratildi. Modelning o‘z-o‘zini o‘rganish (overfitting) xavfini kamaytirish uchun k-fold cross-validation metodikasi qo‘llanildi. Bunda validatsiya jarayoni bir necha bor turli qismlarda takrorlanadi, natijada modelning umumlashtirish qobiliyati oshadi.

Ma’lumotlar to‘plami uch qismga ajratildi:

- O‘qitish to‘plami (Training set): Modelning parametrlarini sozlash uchun.
- Validatsiya to‘plami (Validation set): Giperparametrlarni optimallashtirish uchun.
- Test to‘plami (Test set): Modelning yakuniy aniqligini mustaqil baholash uchun [15].

5. Statistik baholash metodlari

Algoritmlarning diagnostik samaradorligini o‘lchashda faqat "Accuracy" (aniqlik) bilan cheklanmasdan, quyidagi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratildi:

• **Precision-Recall Curve:** Kam uchraydigan, lekin kritik bo‘lgan patologiyalarni (masalan, mikrometastazlar) topish qobiliyatini baholash uchun.

• **F1-Score:** Sezgirlik va aniqlik o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich sifatida.

• **Heatmaps (Issiqlik xaritalari):** Algoritmning qaror qabul qilish jarayonini vizuallashtirish uchun Grad-CAM metodidan foydalanildi. Bu patologshifokorga algoritm aynan qaysi hujayralarni “shubhali” deb topganini vizual ko‘rish imkonini beradi (Explainable AI).

Algoritmlarning diagnostik samaradorligini o‘lchash uchun quyidagi metrikalar qo‘llanildi:

• Sezgirlik (Sensitivity) va Maxsuslik (Specificity).

• AUC-ROC egri chizig‘i (tashxis aniqligini vizuallashtirish uchun).

• Dice koeffitsienti (segmentatsiya aniqligini baholash uchun) [16].

Gistologik tasvirlarni tahlil qilish jarayoni bosqichlari

Bosqich	Amaldagi jarayon	Kutilayotgan natija
Skanerlash	WSI skanerlaridan foydalanish	Yuqori aniqlikdagi raqamli slayd
Annotatsiya	Patologlar tomonidan patologik sohalarni belgilash	"Ground Truth" (etalon ma'lumot)
O‘qitish	Neyron tarmoqlariga ma'lumot uzatish	O'qitilgan diagnostik model
Inferensiya	Yangi slaydni AI tahlilidan o'tkazish	Avtomatik tashxis va hisobot

Natijalar va muhokama.

O‘tkazilgan tahlillar va SI modellarining gistologik preparatlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, avtomatlashtirilgan tizimlar diagnostika aniqligini sezilarli darajada oshirish potensialiga ega.

1. Diagnostik aniqlik ko‘rsatkichlari

Tadqiqot doirasida qo‘llanilgan ResNet-50 va U-Net modellarining natijalari an’anaviy patologik tahlil natijalari bilan solishtirilganda quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi:

• **Saraton hujayralarini aniqlash (Detection):** Modellarning umumiy aniqligi (Accuracy) 94.5% ni tashkil etdi.

• **Spesifiklik:** Normadagi to‘qimalarni noto‘g‘ri ijobiy (false positive) deb topish holatlari 3.2% gacha kamaydi [17].

• **Vaqt samaradorligi:** Bitta raqamli slaydni (WSI) tahlil qilish uchun patolog-shifokor o‘rtacha 10-15 daqiqa sarflagan bo‘lsa, SI algoritmi bu jarayonni 45-60 soniya ichida yakunladi.

2. Differensial diagnostika va gradatsiya

Ayniqsa, prostat bezi saratonini Gleson shkalasi bo‘yicha darajalashda SI tizimi shifokorlar o‘rtasidagi subyektiv tafovutlarni (inter-observer variability) kamaytirishga xizmat qildi. Jadvalda shifokor va SI natijalarining qiyosiy tahlili keltirilgan:

Patologik holat	Shifokor aniqligi (o‘rtacha)	SI modelining aniqligi	Farq (%)
Benign (Xavfsiz)	91.0%	96.2%	+5.2%
Grade 3 (Gleson)	85.4%	89.1%	+3.7%
Grade 4/5 (Gleson)	88.2%	93.5%	+5.3%
Metastaz tahlili	87.0%	95.8%	+8.8%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari patologik anatomiya sohasida «ikkinchi fikr” (second opinion) sifatida juda samarali. Biroq, tadqiqot davomida bir qator muammolar ham aniqlandi:

• **Sifatga bo‘liqlik:** Gistologik kesmaning sifati (qalinligi, bo‘yalish darajasi) past bo‘lgan hollarda algoritmlarning xatolik ehtimoli ortadi [18].

• **Kam uchraydigan patologiyalar:** Algoritm keng tarqalgan saraton turlarini yaxshi aniqlasa-da, juda kam uchraydigan gistologik variantlarda o‘qitish ma’lumotlari yetishmasligi sababli biroz oqsamoqda.

Kelajakda "Multi-modal AI" tizimlarini yaratish, ya’ni gistologik tasvirlarni bemorning genetik va klinik ma’lumotlari bilan integratsiya qilish orqali shaxsiylashtirilgan tibbiyotni (Personalized Medicine) yangi bosqichga olib chiqish mumkin [19]. SI shunchaki shifokor o'rnini bosuvchi vosita emas, balki diagnostika sifatini kafolatlovchi yuqori texnologik hamkor sifatida qaralishi lozim.

Xulosa.

Gistologik diagnostikada sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi bo‘yicha o‘tkazilgan ushbu tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1.**Diagnostik aniqlik va barqarorlik.** SI algoritmlari, xususan chuqur o‘rganish modellari, gistologik tasvirlarni tahlil qilishda yuqori aniqlik (94%

dan yuqori) ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich patolog-shifokorlar ishini nazorat qilish va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni minimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2.**Ish samaradorligining ortishi.** Raqamli patologiya tizimlari rutin va vaqt talab qiladigan jarayonlarni (hujayralarni sanash, metastazlarni qidirish) avtomatlashtirish orqali shifokorlarning ish unumdorligini bir necha barobar oshiradi. Bu, ayniqsa, kadrlar yetishmovchiligi sharoitida katta ijtimoiy-iqtisodiy samara beradi.

3.**Standartlashtirish zarurati:** SIning keng ko‘lamli istiqbollariga qaramay, preparatlarni tayyorlash va skanerlash jarayonlarini global darajada standartlashtirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Algoritmlarning turli laboratoriya sharoitlariga moslashuvchanligini (robustness) oshirish kelajakdagi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

4.**Kelajak istiqbollari:** Gistologik tahlillarning genetik va klinik ma’lumotlar bilan SI yordamida integratsiyalashuvi "aqlli" diagnostika tizimlarini yaratishga zamin yaratadi. Bu esa nafaqat kasallikni aniqlash, balki uning prognozini va eng samarali davolash usulini (prediktiv tahlil) oldindan aytib berish imkonini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt patolog-shifokorning o‘rnini egallamaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi, tashxislar aniqligini yangi bosqichga olib chiquvchi eng kuchli qurolga aylanadi. Ushbu texnologiyalarni O‘zbekiston tibbiyot tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish milliy onkologiya va gistopatologiya sohasini modernizatsiya qilishning asosiy omilidir. Gistologik diagnostikada sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilgan ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli patologiya shunchaki texnik yangilik emas, balki tibbiyotda sifat va aniqlikni yangi bosqichga olib chiquvchi fundamental burilish nuqtasidir. Mening fikrimcha, algoritmlarning diagnostik jarayonga integratsiyasi shifokorlar o‘rtasidagi subyektiv qarashlar va charchoq omili bilan bog‘liq xatoliklarni bartaraf etib, har bir bemor uchun xolis va yuqori aniqlikdagi “ikkinchi fikr” shakllanishiga xizmat qiladi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, neyron tarmoqlarining rutin va ko‘p vaqt talab etadigan ishlarni o‘z zimmasiga olishi patolog-shifokorga ko‘proq diqqatni murakkab klinik holatlarga qaratish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida diagnostika tezligini 30-40 foizga oshiradi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt faqatgina hujayralarni klassifikatsiya qilish bilan cheklanib qolmasdan, oddiy gistologik tasvirlar orqali o‘simtaning genetik profilini bashorat qila olishi bilan shaxsiylashtirilgan onkologiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Garchi texnologik va etik to‘siqlar mavjud bo‘lsa-da, "tushuntiriladigan sun’iy intellekt" modellari ushbu jarayonni shifokor uchun shaffof va ishonchli holatga keltirmoqda. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, sun’iy intellekt va inson intellektining hamkorligi kelajakda onkologik diagnostika sifatini tubdan yaxshilab, bemorlarning hayot sifatini saqlab qolishda eng asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. L. Pantanowitz, "Digital pathology: implementation and challenges," *J. Pathol. Inform.*, vol. 1, no. 1, p. 15, 2010.
2. Janowczyk and A. Madabhushi, "Deep learning for digital pathology image analysis: A comprehensive tutorial with selected use cases," *J. Pathol. Inform.*, vol. 7, no. 1, p. 29, 2016.
3. K. Bera et al., "Artificial intelligence in digital pathology — new tools for personalized medicine," *Nat. Rev. Clin. Oncol.*, vol. 16, no. 11, pp. 703–715, 2019.
4. G. Litjens et al., "A survey on deep learning in medical image analysis," *Med. Image Anal.*, vol. 42, pp. 60–88, 2017.
5. C. S. Mayo et al., "The role of AI in streamlining pathology workflow," *J. Digit. Imaging*, vol. 33, no. 5, pp. 1200–1210, 2020.
6. M. Veta et al., "Predicting breast cancer outcomes using deep learning on histology images," *Nat. Commun.*, vol. 10, no. 1, p. 1024, 2019.
7. N. Coudray et al., "Classification and mutation prediction from non–small cell lung cancer histopathology images using deep learning," *Nat. Med.*, vol. 24, no. 10, pp. 1559–1567, 2018.
8. Madabhushi and G. Lee, "Image analysis and machine learning in digital pathology: Challenges and opportunities," *Med. Image Anal.*, vol. 33, pp. 170–175, 2016.
9. Ehteshami Bejnordi et al., "Diagnostic Assessment of Deep Learning Algorithms for Detection of Lymph Node Metastases in Women With Breast Cancer," *JAMA*, vol. 318, no. 22, pp. 2199–2210, 2017.
10. K. Nagpal et al., "Development and validation of a deep learning algorithm for improving Gleason scoring of prostate cancer," *Mod. Pathol.*, vol. 32, no. 6, pp. 829–836, 2019.
11. G. Campanella et al., "Clinical-grade computational pathology using weakly supervised deep learning on whole slide images," *Nat. Med.*, vol. 25, no. 8, pp. 1301–1309, 2019.
12. L. A. Cooper et al., "The Cancer Genome Atlas (TCGA) as a resource for digital pathology analysis," *Sci. Data*, vol. 5, p. 180070, 2018.

13. M. Macenko et al., "A method for normalizing histology slides for quantitative analysis," in *IEEE Int. Symp. Biomed. Imaging (ISBI)*, 2009, pp. 1107–1110.

14. K. He, X. Zhang, S. Ren, and J. Sun, "Deep Residual Learning for Image Recognition," in *Proc. IEEE Conf. Comput. Vis. Pattern Recognit. (CVPR)*, 2016, pp. 770–778.

15. H. R. Tizhoosh and L. Pantanowitz, "Artificial Intelligence and Digital Pathology: Challenges and Opportunities," *J. Pathol. Inform.*, vol. 9, no. 1, p. 38, 2018.

16. D. Komura and S. Ishikawa, "Machine Learning Methods for Histopathological Image Analysis," *Comput. Struct. Biotechnol. J.*, vol. 16, pp. 34–42, 2018.

17. Esteva et al., "Deep learning-enabled medical computer vision," *NPJ Digit. Med.*, vol. 4, no. 1, p. 5, 2021.

18. D. Tellez et al., "Quantifying the effects of data augmentation and stain color normalization in convolutional neural networks for computational pathology," *Med. Image Anal.*, vol. 58, p. 101544, 2019.

19. M. Y. Lu et al., "AI-based pathology predicts origins for cancers of unknown primary," *Nature*, vol. 594, no. 7861, pp. 106–110, 2021.

20. M. K. K. Niazi, A. D. Parwani, and M. N. Gurcan, "Digital pathology image analysis: Opportunities and challenges," *Diagn. Pathol.*, vol. 14, no. 1, p. 119, 2019.

UO‘K: 616.12-005.4:616-008.9

METABOLIK SINDROM BILAN BEMORLARDA OG‘RIQSIZ MIOKARD ISHEMIYASINING PATOGENETIK MEXANIZMLARI

Shavkatova Muslima – magistr
Shukurova Dilafruz Yusufovna – Ph.D., assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent,O‘zbekiston)

Annotatsiya. *So‘nggi yillarda semizlik dunyo miqyosida eng keng tarqalgan metabolik buzilishlardan biri bo‘lib, yurak-qon tomir kasalliklari, xususan yurak ishemik kasalligining rivojlanishida asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi. Yuqori tana vazni indeksi yurak ishemik kasalliklarining og‘riqli yoki og‘riqsiz shakllarini rivojlantirishda muhim xavf omili bo‘lib, bunday bemorlarda miokard ishemiyasi ko‘pincha subklinik tarzda kechadi. Natijada kasallik kech aniqlanadi va yurak yetishmovchiligi rivojlanishi va o‘lim xavfi ortadi. Ushbu maqolada semizlik fonida og‘riqsiz miokard ishemiyasi rivojlanishining asosiy patofiziologik mexanizmlar — yurak gemodinamikasidagi o‘zgarishlar, vegetativ asab tizimi funksiyasining buzilishi, endotelial disfunksiya, surunkali yallig‘lanish jarayonlari va insulin rezistentlik — tahlil qilinadi. Semizlik va metabolik sindrom fonida og‘riqsiz miokard ishemiyasi yurak-qon tomir asoratlarining yashirin, ammo yuqori xavfli shakli bo‘lib, uning patofiziologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish erta tashxis va samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *semizlik, yuqori tana vazni indeksi (TVI), og‘riqsiz miokard ishemiyasi, yurak ishemik kasalligi, endotelial disfunksiya, insulin rezistentligi, vegetativ nerv tizimi, yallig‘lanish jarayonlari.*

ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ БЕЗБОЛЕВОЙ ИШЕМИИ МИОКАРДА У БОЛЬНЫХ С МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ

Шавкатова Муслима – магистрант
Шукурова Дилафруз Юсуфовна – Ph.D., ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В последние годы ожирение является одним из наиболее распространённых метаболических нарушений в мире и рассматривается как один из основных факторов риска развития сердечно-сосудистых заболеваний, в частности ишемической болезни сердца. Повышение индекса массы тела является важным фактором риска развития безангинозных или безболевых форм ишемической болезни сердца. У таких пациентов ишемия миокарда часто протекает субклинически, что приводит к поздней диагностике заболевания и увеличению риска сердечной недостаточности и летального исхода. В данной статье проанализированы основные патофизиологические механизмы, способствующие развитию безболевой ишемии миокарда на фоне ожирения, включая гемодинамические изменения сердца, нарушение функции вегетативной нервной системы, эндотелиальную дисфункцию, хронические воспалительные процессы и инсулинорезистентность. Безболевая ишемия миокарда на фоне ожирения и метаболического синдрома является скрытой, но высокорискованной формой сердечно-сосудистых осложнений, и глубокое изучение её патофизиологических механизмов способствует ранней диагностике и разработке эффективных профилактических стратегий.*

Ключевые слова: *ожирение, высокий индекс массы тела (ИМТ), безболевая ишемия миокарда, ишемическая болезнь сердца, эндотелиальная дисфункция, инсулинорезистентность, вегетативная нервная система, воспалительные процессы.*

PATHOGENETIC MECHANISMS OF SILENT MYOCARDIAL ISCHEMIA IN PATIENTS WITH METABOLIC SYNDROME

Shavkatova Muslima – master’s student
Shukurova Dilafruz Yusufovna – Ph.D, assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: *In recent years, obesity has become one of the most prevalent metabolic disorders worldwide and is considered a major risk factor for the development of cardiovascular diseases, particularly ischemic heart disease. An elevated body mass index is a significant risk factor for the development of painless or silent forms of ischemic heart disease. In such patients, myocardial ischemia often occurs subclinically, leading to delayed diagnosis and an*

increased risk of heart failure and mortality.This article analyzes the main pathophysiological mechanisms contributing to the development of silent myocardial ischemia in the context of obesity, including cardiac hemodynamic alterations, autonomic nervous system dysfunction, endothelial dysfunction, chronic inflammatory processes, and insulin resistance. Silent myocardial ischemia in the setting of obesity and metabolic syndrome represents a hidden but high-risk form of cardiovascular complications, and a thorough understanding of its pathophysiological mechanisms may facilitate early diagnosis and the development of effective preventive strategies.

Keywords: *obesity, high body mass index (BMI), silent myocardial ischemia, ischemic heart disease, endothelial dysfunction, insulin resistance, autonomic nervous system, inflammatory processes.*

Dolzarbligi. Hozirgi davrda semizlik dunyo miqyosida jiddiy sog‘liq xavfi sifatida ham tan olingan [11]. Turli epidemiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ortiqcha vazn yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishida eng muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi, shuningdek, u metabolik sindrom, arterial gipertenziya va insulin rezistentligi kabi qo‘shimcha xavf omillariga ham sabab bo‘ladi [6,8]. Yuqoridagi xavf omillari yuqori tana massasi indeksiga ega shaxslar orasida yurak ishemik kasalliklari, jumladan, og‘riqsiz miokard ishemiyasining keng tarqalishiga olib keladi [22,19]. Og‘riqsiz miokard ishemiyasi ko‘pincha tipik stenokardiya belgilarisiz kechadi, natijada kasallik kech tashxislanadi va yurak yetishmovchiligi, aritmiyalar hamda to‘satdan o‘lim xavfi ortadi [22]. Shu bilan birga, yuqori tana vazni indeksi (TVI) bilan bog‘liq o‘lim holatlarining katta qismi yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog‘liq bo‘lib, bu semizlikning kardiovaskulyar xavfini yanada oshiradi [11,19].

Patogenetik nuqtai nazardan, metabolik sindrom bir necha mexanizmlar orqali miokard qon ta’minotini buzadi, yurakdagi gemodinamik o‘zgarishlar, vegetativ nerv tizimi funksiyasining buzilishi, endotelial disfunksiya, yallig‘lanish jarayonlari va insulin rezistentligi kabi bir qancha mexanizmlarga ta’sir qiladi, shu bilan birga ortiqcha vaznli bemorlarda simpatik va parasimpatik nerv tizimi faoliyati o‘zgaradi, surunkali yallig‘lanish va metabolik buzilishlar nerv tolalarining sezgirligini pasaytiradi, ya’ni miokarddagi og‘riq impulslari markaziy nerv tizimiga yetib bormaydi yoki susayadi. Bu jarayonlar esa hali to‘liq tizimli tarzda baholanmagan va ilmiy adabiyotlarda bo‘shliq sifatida qolmoqda [11,19,24]. Shu sababli, ushbu maqola yuqori darajali semizlik fonida og‘riqsiz miokard ishemiyasining patofiziologik asoslarini tizimli tarzda tahlil qilishga qaratilgan.

Yuqori darajali semizlikda og‘riqsiz miokard ishemiyasining patogenetik mexanizmlari

Yurakdagi gemodinamik o‘zgarishlar. Semizlikda tanadagi jismoniy massa va yog‘ miqdori oshgani sari yurakka tushuvchi gemodinamik yuk ham sezilarli darajada ortadi [2]. Ko‘p miqdordagi visseral va subkutan yog‘ to‘qimasi organizmning umumiy qon hajmini oshiradi, buning natijasida esa yurak har bir siklda normadan ko‘proq qon haydab beradi. Bu esa chap qorincha gipertrofiyasi rivojlanishiga olib keladi [12]. Shu jarayon miokardning kislorodga bo‘lgan talabini sezilarli darajada oshiradi, lekin semizlik fonida koronar tomirlarning qo‘shimcha perfuziya imkoniyati cheklangan bo‘ladi, natijada kislorod yetishmovchiligi va ishemik jarayonlar paydo bo‘lishi osonlashadi [5]. Obyektiv o‘lchovlarda semizlikda yurakning chiquvchi qon hajmi va streyk hajmi sezilarli darajada ko‘tarilganligi aniqlangan, shuningdek ularning kislorodga bo‘lgan talabini qayta ta’minlash imkoniyati cheklanganligi kuzatilgan [15]. Bunday nomuvofiqlik tinch holatda ham yurakda kislorod yetishmovchiligi va miokard ishemiyasini keltirib chiqaradi. Bu mexanizm bilan bog‘liq holatlarda simptomlar ko‘pincha ifodalanmaydi, chunki semizlik fonida koronar reaksiyalar va og‘riq sezgirligi deyarli buzilgan bo‘ladi, natijada og‘riqsiz miokard ishemiyasi rivojlanadi. Ushbu holatlarda qon bosimi va yurak urish tezligi ortishi bilan ishemiya paydo bo‘lishi ehtimoli yanada yuqori ekanligi aniqlangan. O‘tkazilgan tadqiqotda og‘riqsiz miokard ishemiyasi (OMI) kuzatilgan holatlarning ko‘pchiligi yurak urish tezligi va sistolik qon bosimi oshgan vaqtlarda ro‘y berganligi qayd etilgan (masalan, yurak urishi 5 ta zarbadan oshib ketganda yoki sistolik bosim 10 mmHg ko‘tarilganda) [18].

Vegetativ nerv tizimi funksiyasining buzilishi. Ortiqcha vaznlilik holatida organizmning vegetativ nerv tizimi (VNT) muvozanati buziladi va simpatik tonus dominant holga keladi, parasimpatik ta’sir esa pasayadi [9]. Bu holat yurak-qon tomir tizimini boshqaruvchi nerv regulyatsiyasining samaradorligini kamaytiradi, natijada yurak urish tezligi ortadi, tomir tonusi o‘zgaradi va avtonom boshqaruv mexanizmlari zaiflashadi [4].

Klinik tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, semizlik mavud insonlarda yurak variabelligi ko‘rsatkichlari pasayadi — bu yurak urishining o‘zgaruvchanligi kamaygani, parasimpatik tonusning susaygani va simpatik faoliyatning nisbatan ortgani bilan izohlanadi. Yurak urushlari o‘zgaruvchanligi — avtonom nerv tizimi (ANT) balansini baholashda ishlatiladigan asosiy marker bo‘lib, uning pasayishi parasimpatik tonusning kamayishi va simpatik dominantlikni ko‘rsatadi [27]. 11 ta tadqiqotni o‘z ichiga olgan sistematik sharh shuni ko‘rsatadiki, semizlikda ANT disfunksiyasi mavjud bo‘lib, simpatik faollik oshadi va parasimpatik ta’sir pasayadi, shuningdek yurak variabelligi ko‘rsatkichlari semizlik fonida sezilarli darajada kamayadi [18].

Yana bir tadqiqotda semiz bemorlarda yurak variabelligi indekslari tahlili shuni tasdiqladiki, adipokinlar va boshqa metabolik mediatorlar vegetativ nerv sistemasi balansiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa yurak urishining doimiy yuqori tezligi va past yurak variabelligi bilan bog‘liq [3].

Yurak variabelligi tahlili vegetativ nerv tizimi balansini diagnostika qilishda muhim vosita hisoblanadi: u simpatik va parasimpatik tonusning faoliyatini baholaydi va yurak-qon tomir riski bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot beradi [4]. Shu sababli semizlikdagi vegetativ nerv sistemasi disfunksiyasi yurak urishi va qon bosimini oshiruvchi omil sifatida qaraladi, bu esa miokard kislorod talabini va ishemik xavfni oshiradi [27,3].

Endotelial disfunksiya. Endoteliy — bu qon tomir ichki qavati bo‘lib, u normal vazodilatatsiya, qon oqimini boshqarish va vaskulyar tonusni tartibga solishda asosiy rol o‘ynaydi [5]. Semizlik va insulin qarshiligi fonida endotelning normal funksiyasi buziladi, ya’ni endotelial disfunksiya rivojlanadi [21]. Ushbu buzilishning asosiy mexanizmi azot oksid (NO) ishlab chiqarilishining kamayishi bilan bog‘liq [23]. NO — tomirlarni kengaytiruvchi (vasodilatator) molekula bo‘lib, u qon oqimini va periferik qarshilikni tartibga soladi. Semizlik fonida oksidlovchi xususiyatning ortishi NO ni inaktivlashtiradi va shuning natijasida tomirlarning kengayish qobiliyati pasayadi [13]. Endotelial disfunksiya koronar perfuziyasining yomonlashishiga olib keladi, shu bilan birga tomir devorida aterosklerotik o‘zgarishlarga moyillikni oshiradi [25]. Bu mexanizm miokardning kislorodga bo‘lgan talabini qondirishni qiyinlashtiradi va og‘riqsiz miokard ishemiyasi rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu sababli, endotelial disfunksiya va NO signalizatsiyasi buzilishi semizlik fonida yurak-qon tomir xavfini oshiruvchi asosiy patofiziologik mexanizmlardan biri sifatida qaraladi [5,25].

Surunkali yallig‘lanish jarayonlari. Semizlikda visseral yog‘ to‘qimasi faol endokrin organ sifatida turli pro-inflamator sitokinlar (masalan, TNF-α, IL-6, IL-1β) ajratadi [26]. Ushbu sitokinlar yallig‘lanish jarayonini davom ettiradi, endotelial funksiyani buzadi va tomir devorlarida yallig‘lanish reaksiyalarini kuchaytiradi [7]. Yallig‘lanish oqibatida mikrovaskulyar disfunksiya rivojlanadi, bu esa miokard kislorod ta’minoti va perfuziyasini kamaytiradi. Shu bilan birga, sitokinlar va oksidlovchi stress miokardning energiya metabolizmini yomonlashtiradi, yurak to‘qimasida mikrosirkulyatsiyani kamaytiradi va og‘riqsiz miokard ishemiyasi rivojlanishiga hissa qo‘shadi [14]. Klinik tadqiqotlarda semizlik fonida IL-6 va TNF-α darajasi ortgan bemorlarda endotel stressi va koronar ishemiya alomatlari ko‘proq kuzatilgani aniqlangan [16].

Insulin rezistentlik. Semizlik ko‘pincha insulin rezistentlik (IR) bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat glukoza va lipid almashinuvini buzadi [20]. Yurakda IR energiya metabolizmini yomonlashtiradi, kislorod yetkazilishini kamaytiradi va miokard energiya balansiga salbiy ta’sir qiladi. Shuningdek, IR endotel funksiyasini yanada yomonlashtiradi, NO sintezini pasaytiradi va oksidlovchi stressni oshiradi [1]. Bu mexanizmlar miokard kislorod talabining oshishi va perfuzion buzilish bilan birga ishlaydi, natijada og‘riqsiz miokard ishemiyasi rivojlanish xavfi ortadi [10]. Shu bilan birga, IR va yallig‘lanish bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, semizlikda metabolik buzilishdan miokard ishemiya rivojlanishigacha bo‘lgan uzluksiz patofiziologik jarayonni hosil qiladi [20–10].

Xulosa. Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, metabolik sindrom fonida og‘riqsiz miokard ishemiyasi rivojlanishi ko‘p omilli va murakkab patofiziologik jarayon bo‘lib, uni birgina mexanizm bilan izohlab bo‘lmaydi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, klinik amaliyotda OMI ko‘pincha kech aniqlanadi, chunki simptomlarning yo‘qligi yurak-qon tomir xavfini past deb noto‘g‘ri baholashga olib keladi. Ayniqsa semiz bemorlarda og‘riq sezgirligining pasayishi va vegetativ regulyatsiyaning buzilishi ishemik jarayonlarni yashirin kechishiga sharoit yaratadi.

Semizlik bir nechta mexanizmlar orqali OMI xavfini oshiradi, bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi sababli OMI ko‘pincha og‘riqsiz kechadi. Shu bois faqat klinik simptomlarga tayanish diagnostika uchun yetarli emas. Yurakdagi gemodinamik yuklanishning ortishi, chap qorincha gipertrofiyasi va kislorod yetishmovchiligi, vegetativ nerv tizimi disbalansi va yurak variabelligi pasayishi, endotelial disfunksiya, surunkali yallig‘lanish jarayonlari va insulin rezistentlik bir-birini kuchaytiruvchi zanjir sifatida namoyon bo‘lib, subklinik va OMI rivojlanishiga olib keladi.

Keng olib borilgan ilmiy ishlarga qaramasdan, bu mavzuda hali yechimi topilmagan muammolar yetarlicha. Ko‘pgina tadqiqotlarda yurak variabelligi, endotel indikatorlari va yallig‘lanish biomarkerlarining OMI xavfini baholashda foydali bo‘lishi ko‘rsatilgan bo‘lsa [17], ayrim manbalar ushbu indikatorlar boshqa mexanizmlar bilan birgalikda ishlashini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, populyatsiya va etnik farqlar yetarlicha o‘rganilmagan, HRV va endoteliy indikatorlarini standartlashtirish masalasi ham o‘z yechimini topmagan [12].

Semizlikni kamaytirish, metabolik va profilaktik yondashuvlarni qo‘llash yurak-qon tomir kasalliklari xavfini sezilarli darajada pasaytiradi, shuningdek individualizatsiyalangan davolash va monitoring strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Kelajakda semizlik fonida OMI patofiziologiyasini yaxshiroq tushunish uchun keng ko‘lamli epidemiologik tadqiqotlar, standartlashtirilgan HRV va endoteliy indikatorlari bilan klinik tadqiqotlar, shuningdek molekulyar va genetik eksperimental tadqiqotlarni birlashtirish zarur. Bu yondashuv OMI xavfini baholash, profilaktika va individual terapiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy asos yaratadi.

Umuman olganda, semizlik fonida og‘riqsiz miokard ishemiyasi yurak-qon tomir, metabolik va vegetativ tizimlar bilan bog‘liq murakkab va yashirin jarayon bo‘lib, uni erta aniqlash va samarali profilaktika qilish uchun integrativ diagnostika va individual strategiyalar muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abel E.D., Litwin S.E., Sweeney G. Cardiac remodeling in obesity // Physiological Reviews. – 2008. – Vol. 88(1). – P. 389–419.
2. Alpert M.A., Omran J., Bostick B.P. Effects of obesity on cardiovascular hemodynamics, cardiac morphology, and ventricular function // Current Obesity Reports. – 2016. – Vol. 5(4). – P. 424–434.
3. Bekenova N., Vochshenkova T., Aitkaliyev A., Imankulova B., Turgumbayeva Z., Kassiyeva B., Benberin V. Heart rate variability in relation to cardiovascular autonomic neuropathy among patients at an urban hospital in Kazakhstan // Int. J. Environ. Res. Public Health. – 2024. – Vol. 21(12). – P. 1653.
4. Csige I., Pallo J., Ujvarosy D., et al. The impact of obesity on the cardiovascular system // PMC. – 2018.
5. Csige I., Ujvarosy D., Szabo Z., et al. The impact of obesity on the cardiovascular system // PMC. – 2018.
6. GBD Obesity Collaborators. Health effects of overweight and obesity in 195 countries over 25 years // N. Engl. J. Med. – 2017. – Vol. 377(1). – P. 13–27.
7. Hotamisligil G.S. Inflammation and metabolic disorders // Nature. – 2006. – Vol. 444. – P. 860–867.
8. Hubert H.B., Feinleib M., McNamara P.M., et al. Obesity as an independent risk factor for cardiovascular disease: A 26-year follow up of participants in the Framingham Heart Study // Circulation. – 1983. – Vol. 67(5). – P. 968–977.
9. Jamialahmadi T., Abdalla M.A., Mirhadi E., et al. Impact of metabolic and bariatric surgery on heart rate variability: A systematic review and meta-analysis // Surg. Obes. Relat. Dis. – 2025.
10. Kahn S.E., Hull R.L., Utzschneider K.M. Mechanisms linking obesity to insulin resistance and type 2 diabetes // Nature. – 2006. – Vol. 444. – P. 840–846.
11. Konstantinos C.K., Van Craenenbroeck E., Prescott E., et al. Obesity and cardiovascular disease: An ESC clinical consensus statement // Eur. Heart J. – 2024. – Vol. 45(38). – P. 4063–4098.
12. Madronio C.M., Pathan S., Low G.K.K., et al. The effect of body size and obesity on cardiovascular haemodynamics and myocardial mechanics // Heart Lung Circ. – 2025. – Vol. 34(10). – P. 1109–1118.
13. Montezano A.C., Touyz R.M. Reactive oxygen species, vascular oxidative stress, and redox signaling in hypertension // Hypertension. – 2012. – Vol. 60(1). – P. 9–17.
14. Ouchi N., Parker J.L., Lugus J.J., Walsh K. Adipokines in inflammation and metabolic disease // Nat. Rev. Immunol. – 2011. – Vol. 11. – P. 85–97.
15. Poirier P., Giles T.D., Bray G.A., et al. Obesity and cardiovascular disease: Pathophysiology, evaluation, and effect of weight loss // Circulation. – 2006. – Vol. 113(6). – P. 898–918.
16. Pradhan A.D., Manson J.E., Rifai N., et al. C-reactive protein, interleukin-6, and risk of developing type 2 diabetes mellitus // JAMA. – 2001. – Vol. 286. – P. 327–334.
17. Ridker P.M. Inflammatory biomarkers and cardiovascular risk prediction in obesity // Nat. Rev. Cardiol. – 2020. – Vol. 17. – P. 165–179.
18. Shams P. Silent myocardial ischemia // StatPearls [Internet]. – Treasure Island (FL): StatPearls Publishing. – 2024.
19. Shams P., StatPearls Contributors. Silent myocardial ischemia // StatPearls Publishing. – 2024.
20. Shulman G.I. Ectopic fat in insulin resistance, dyslipidemia, and cardiometabolic disease // N. Engl. J. Med. – 2014. – Vol. 371. – P. 1131–1141.
21. Taddei S., Virdis A., Mattei P., et al. Endothelial dysfunction in obesity: Role of insulin resistance // J. Hypertens. – 2002. – Vol. 20(10). – P. 1839–1845.
22. Theofilis P., Antonopoulos A.S., Sagris M., et al. Silent myocardial ischemia: From pathophysiology to diagnosis and treatment // Biomedicines. – 2024. – Vol. 12(2). – P. 259.
23. Tousoulis D., Kampoli A.M., Tentolouris C., Papageorgiou N., Stefanadis C. The role of nitric oxide on endothelial function // Curr. Vasc. Pharmacol. – 2012. – Vol. 10(1). – P. 4–18.
24. Van Gaal L.F., Mertens I.L., De Block C.E. Mechanisms linking obesity with cardiovascular disease // Nature. – 2006. – Vol. 444(7121). – P. 875–880.
25. Vita J.A., Keaney J.F. Endothelial function: A barometer for cardiovascular risk? // Circulation. – 2002. – Vol. 106(6). – P. 640–642.
26. Wozniak T.M., Silva J.A., Cuzzocrea S., et al. Adipose tissue inflammation and cardiovascular disease in obesity // Curr. Opin. Endocrinol. Diabetes Obes. – 2023. – Vol. 30(2). – P. 87–96.
27. Yadav R.L., et al. Association between obesity and heart rate variability indices: An intuition toward cardiac autonomic alteration — a risk of CVD // Diabetes Metab. Syndr. Obes. – 2017. – Vol. 10. – P. 383–391.

МОЛЕКУЛЯРНЫЕ ПУТИ СТАРЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ БИОХИМИЧЕСКОГО ПРОДЛЕНИЯ ЖИЗНИ (ОБЗОРНАЯ ЛИТЕРАТУРА)

Солиев Содикбек Шерзод угли – студент
Исаева Эльмина Руслановна – студентка
Зоирова Муниса Дилмурод кизи – студентка
Тўрабоева Ситора Эргаш кизи – студентка
Нематова Муниса Хуршидовна – студентка
Каримов Улуғбек Рустамович – студент
Валиев Аббосхон Алиевич – студент
Иброхимов Мухаммадали Абдухалил угли-студент
Турдимуратов Русланбек Эркебаевич – студент
Абдивохидов Камронбек Акмалович – студент
Нишонова Юлдуз Хатамовна – Ph.D., доцент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Старение представляет собой многоуровневый биологический процесс, включающий нарушение клеточного метаболизма, накопление повреждений макромолекул и снижение регуляции генов. В статье рассмотрены ключевые молекулярные пути старения — mTOR, AMPK, SIRT, а также роль теломер, митохондрий, эпигенетических изменений и сенесцентных клеток. Особое внимание уделено биохимическим стратегиям продления жизни: ингибиторам mTOR, активаторам AMPK, NAD^+-прекурсорам, сенолитикам, эпигенетическим и клеточным технологиям. Также анализируются современные направления исследований, включающие применение искусственного интеллекта, терапию стволовыми клетками и комбинированные фармакологические подходы. Представленный обзор помогает понять связь молекулярных механизмов старения с возможными методами профилактики возрастных заболеваний и продления жизни.*

Ключевые слова*: старение, mTOR, AMPK, сиртуины, теломеры, митохондриальная дисфункция, эпигенетика, сенесцентные клетки, SASP, NAD^+, метформин, рапамицин, сенолитики, микробиом, факторы Яманаки, биохимическое продление жизни.*

MOLECULAR PATHWAYS OF AGING AND PROSPECTS FOR BIOCHEMICAL LIFE EXTENSION (LITERATURE REVIEW)

Soliyev Sodikbek Sherzod ugli – student
Isayeva Elmina Ruslanovna – student
Zoirova Munisa Dilmurod kizi – student
Turaboyeva Sitora Ergash kizi – student
Nematova Munisa Khurshidovna – student
Karimov Ulugbek Rustamovich – student
Valiyev Abboskhon Aliyevich – student
Ibrokhimov Muhammadali Abdukhalil ugli – student
Turdimuratov Ruslanbek Erkebayevich – student
Abdivokhidov Kamronbek Akmalovich – student
Nishonova Yulduz Khatamovna – Ph.D., associate professor
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Aging is a complex, multi-level biological process involving the accumulation of molecular damage, metabolic decline, and impaired gene regulation. This article reviews the key molecular pathways associated with aging, including mTOR, AMPK, and sirtuins, as well as the roles of telomere shortening, mitochondrial dysfunction, epigenetic alterations, and cellular senescence. Special attention is given to biochemical strategies for lifespan extension, such as mTOR inhibitors, AMPK activators, NAD^+ precursors, senolytics, and emerging epigenetic and regenerative approaches. Recent advances, including artificial intelligence–based molecule discovery, stem-cell therapies, and combined pharmacological interventions, are also discussed. This review highlights how understanding the molecular mechanisms of aging enables the development of strategies aimed at preventing age-related diseases and promoting healthy longevity.*

Keywords: *aging, mTOR pathway, AMPK, sirtuins, telomeres, mitochondrial dysfunction, epigenetics, cellular senescence, SASP, NAD^+, metformin, rapamycin, senolytics, microbiome, Yamanaka factors, biochemical life extension.*

QARISHNING MOLEKULYAR YO‘LLARI VA HAYOTNI BIOKIMYOVIY UZAYTIRISH ISTIQBOLLARI (ADABIYOTLAR SHARHI)

Soliyev Sodiqbek Sherzod o‘g‘li – talaba
Isayeva Elmina Ruslanovna – talaba
Zoirova Munisa Dilmurod qizi – talaba
To‘raboyeva Sitora Ergash qizi – talaba
Nematova Munisa Xurshidovna – talaba
Karimov Ulugbek Rustamovich – talaba
Valiyev Abbosxon Aliyevich – talaba
Ibroximov Muhammadali Abduxalil o‘g‘li – talaba
Turdimuratov Ruslanbek Erkebayevich – talaba
Abdivoxidov Kamronbek Akmalovich – talaba
Nishonova Yulduz Xatamovna – Ph.D., dotsent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Keksayish — bu hujayra darajasida boshlanadigan, ko‘p bosqichli murakkab jarayon bo‘lib, molekulyar zararlanishning to‘planishi, metabolik faollikning pasayishi va genlarning tartibga solinishining buzilishi bilan kechadi. Ushbu maqolada keksayishning asosiy molekulyar yo‘llari — mTOR, AMPK va sirtuinlar, shuningdek telomerlarning qisqarishi, mitoxondriyal disfunksiya, epigenetik o‘zgarishlar va hujayra senessensiyasi kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Hayot davomiyligini uzaytirishga qaratilgan biokimyoviy strategiyalar — mTOR ingibitorlari, AMPK aktivatorlari, NAD^+ prekursorlari, senolitik dorilar hamda yangi epigenetik va regenerativ yondashuvlar tahlil qilinadi. Zamonaviy tadqiqotlar, jumladan sun’iy intellekt orqali molekulalar qidiruvi, ildiz hujayralar terapiyasi va kombinatsiyalangan farmakologik usullar ham muhokama qilinadi. Keltirilgan sharh keksayishning molekulyar mexanizmlarini chuqur tushunish orqali yoshga bog‘liq kasalliklarning oldini olish va sog‘lom uzoq umr ko‘rishni ta’minlashga yo‘naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar*: keksayish; mTOR yo‘li, AMPK, sirtuinlar, telomerlar, mitoxondrial disfunksiya, epigenetika, hujayra senessensiyasi, SASP, NAD^+, metformin, rapamitsin, senolitiklar, mikrobiom, Yamanaka omillari, biokimyoviy hayotni uzaytirish.*

Введение.

Старение — это сложный, многоуровневый процесс, затрагивающий все системы организма. С биохимической точки зрения, оно связано с накоплением клеточных повреждений, снижением энергетического обмена и нарушением регуляции генов [4].

Современная наука стремится понять, какие молекулярные механизмы запускают старение, чтобы найти способы его замедлить или предотвратить. Основные исследуемые пути — mTOR, AMPK, SIRT, теломерный и митохондриальный механизмы [2].

Путь mTOR контролирует рост клеток, синтез белков и энергетический обмен. При переизбытке питательных веществ и энергии mTOR активируется, что ускоряет деление клеток и расход ресурсов. Однако при хронической активации mTOR клетки быстрее «изнашиваются» и теряют способность к регенерации. Исследования показали, что ингибиторы mTOR, например рапамицин, способны продлить жизнь животных и снизить риск возрастных заболеваний. Также mTOR связан с аутофагией — процессом очищения клеток от повреждённых компонентов. При его подавлении аутофагия активируется, что способствует «омоложению» клеток [5].

AMPK активируется, когда в клетке снижается уровень энергии (АТФ). Этот фермент помогает клетке «перейти в режим экономии», усиливая расщепление жиров и углеводов [15].

Кроме того, AMPK стимулирует аутофагию и снижает воспаление, защищая клетки от возрастных повреждений.

Препараты вроде метформина, применяемые при диабете, также активируют AMPK и показывают потенциал в продлении жизни.

Сиртуины — ферменты, зависящие от уровня никотинамидадениндинуклеотида (NAD^+). Они регулируют экспрессию генов, участвующих в репарации ДНК, метаболизме и стрессоустойчивости.

Активность сиртуинов падает с возрастом, что ведёт к повреждению ДНК и клеточному старению. Натуральные соединения, такие как ресвератрол (встречается в винограде), могут активировать SIRT1, улучшая работу митохондрий и повышая продолжительность жизни в экспериментах. С возрастом количество свободных радикалов (активных форм кислорода) увеличивается, а антиоксидантные системы ослабевают [7].

Это приводит к повреждению ДНК, белков и липидов — ключевым признакам клеточного старения [8].

Антиоксиданты, такие как глутатион, витамин Е, коэнзим Q10, помогают уменьшить эти повреждения [3].

Теломеры — это концевые участки хромосом, защищающие ДНК от разрушения. При каждом делении клетки они укорачиваются, что в итоге приводит к потере способности клетки делиться [1].

Фермент теломераза может частично восстанавливать теломеры, но её активность снижается с возрастом.

Некоторые эксперименты показали, что активация теломеразы у животных увеличивает продолжительность жизни.

Рапамицин — ингибитор mTOR, продлевающий жизнь у животных.

Метформин — активатор AMPK, снижает воспаление и окислительный стресс. NMN и NR (никотинамид мононуклеотид и рибозид) — повышают уровень NAD^+, активируя сиртуины. Пищевые и поведенческие стратегии:

Калорийное ограничение и интервальное голодание активируют AMPK и SIRT1. Диеты с высоким содержанием антиоксидантов (овощи, ягоды, орехи) защищают клетки от окислительного стресса[5].

Новые направления:

Эпигенетическая терапия — восстановление метилирования ДНК.

Терапия стволовыми клетками для обновления тканей.

Keywords: *chronic stress, oxidative stress, myocardium, cardiomyocyte, apoptosis, immunohistochemistry, Bax/Bcl-2, NF-κB, lipid peroxidation, cardiac remodeling, mitochondria.*

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining keskin ortishi fonida ularning patogenezida psixoemotsional va surunkali stress omillarining roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Klinik va eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, surunkali stress organizmda neyroendokrin disbalansni keltirib chiqarib, oksidativ stressning kuchayishiga olib keladi, bu esa yurak to‘qimalarida hujayra darajasidagi shikastlanishlarni boshlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Oksidativ stressning yurak miokardiga ta’siri natijasida kardiomiotsitlar struktur buzilishi, apoptoz faollashuvi, interstitsial fibroz rivojlanishi va mikrosirkulyatsiyaning izdan chiqishi kuzatiladi. Shu bilan birga, immunogistokimyoviy markerlarning o‘zgarishi ushbu jarayonlarning molekulyar asoslarini aniqlash imkonini beradi. Biroq hozirgi adabiyotlarda morfofunksional va immunogistokimyoviy o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmlari hamda qaysi bosqichda qaysi markerlar ustun rol o‘ynashi masalasi yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Shu sababli ushbu mavzuni chuqur tahlil qilish zamonaviy kardiopatologiya uchun dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Surunkali stress sharoitida oksidativ stress vositasida yurak to‘qimalarida yuzaga keladigan morfofunksional o‘zgarishlar va immunogistokimyoviy markerlar ekspressiyasini so‘nggi ilmiy adabiyotlar asosida kompleks va qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ularning o‘zaro patogenetik bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

Surunkali stress sharoitida yurak to‘qimasida yuzaga keladigan morfofunksional o‘zgarishlar va immunogistokimyoviy markerlar o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy kardiopatofiziologiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, stressning uzoq davom etishi natijasida yuzaga keladigan oksidativ stress bir vaqtning o‘zida ham hujayra strukturasi, ham hujayra ichki signal tizimlarini o‘zgartiruvchi kompleks patogenetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [1–6]. Bu jarayonda morfologik o‘zgarishlar bevosita immunogistokimyoviy markerlar ekspressiyasi bilan parallel ravishda rivojlanadi, biroq turli tadqiqot maktablarida ularning ustuvorligi turlicha talqin qilinadi.

Morfofunksional darajada eng erta kuzatiladigan o‘zgarish kardiomiotsitlarning gipertrofik javob reaksiyasidir. Stress gormonlari ta’sirida β-adrenergik stimulyatsiya kuchayishi hujayra ichida Ca^{2+} oqimini oshirib, kontraktil apparatni haddan tashqari yuklaydi. Natijada miofibrillarning kompensator yo‘g‘onlashuvi kuzatiladi [7–9]. Biroq uzoq davom etuvchi stress sharoitida bu kompensatsiya bosqichi dekompensatsiya bilan almashinib, miofibrill disorganizatsiyasi, Z-chiziqlarning buzilishi va sarkomer strukturasi fragmentatsiyasi rivojlanadi [10–12]. Ayrim mualliflar bu jarayonni “gipertrofiya–degeneratsiya davomi” sifatida izohlaydi, ya’ni morfologik o‘zgarishlar bir yo‘nalishda emas, balki dinamik o‘zgaruvchan spektr sifatida kechadi.

Shu morfologik o‘zgarishlar bilan bir vaqtda interstitsial to‘qimada sezilarli fibroz rivojlanadi. Fibroblastlarning aktivatsiyasi va kollagen I hamda III sintezi oshishi natijasida miokardning elastikligi kamayadi [13–15]. Qiyosiy tadqiqotlarda fibroz darajasi stress davomiyligiga bevosita proporsional ekanligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, ayrim eksperimental modellarda individual genetik sezgirlik bu jarayonni sezilarli modulyatsiya qilishi aniqlangan [16]. Bu esa morfologik o‘zgarishlarning faqat stress omiliga emas, balki organizmning individual reaktivligiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kapillyar tarmoq darajasida esa mikrosirkulyatsiya buzilishi kuzatiladi. Endotelial hujayralarda oksidativ stress ta’sirida NO sintezi kamayadi, bu esa vazodilatatsiyaning susayishiga olib keladi [17–18]. Natijada nisbiy ishemiya rivojlanib, kardiomiositlarning metabolik stressi yanada kuchayadi.

Immunogistokimyoviy darajada eng muhim o‘zgarishlar apoptotik signal yo‘llar faollashuvi bilan bog‘liq. Bax/Bcl-2 nisbati bu jarayonning markaziy indikatori hisoblanadi. Oksidativ stress sharoitida Bax ekspressiyasi ortib, Bcl-2 kamayadi, bu esa mitoxondrial membrana o‘tkazuvchanligini oshiradi va sitoxrom C chiqishini faollashtiradi [19–21]. Bu bosqichda Caspase-9 va Caspase-3 faollashuvi kuzatiladi, bu esa hujayraning dasturlashtirilgan o‘limini yakuniy bosqichga olib keladi [22].

Qiziqarli jihat shundaki, morfologik degeneratsiya darajasi har doim ham apoptotik markerlar bilan to‘liq mos kelmaydi. Ayrim tadqiqotlarda kuchli fibroz va struktur buzilishlar kuzatilgan bo‘lsa ham, Caspase-3 ekspressiyasi nisbatan past bo‘lishi mumkinligi aniqlangan [23]. Bu holat nekrotik va apoptotik yo‘llarning parallel faollashuvi mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotlar apoptoz dominant mexanizm ekanligini ta’kidlab, morfologik o‘zgarishlarni aynan hujayra o‘limi bilan izohlaydi [24]. Bu esa ilmiy adabiyotlarda sezilarli

konseptual tafovut mavjudligini bildiradi. Oksidativ stress markerlari orasida 4-HNE va nitrotirozin ekspressiyasi eng sezgir indikator sifatida qaraladi. Ular membrana lipidlarining peroksidatsiyasi va oqsil nitratsiyasini aks ettiradi [25–27]. Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 4-HNE darajasi morfologik shikastlanish darajasi bilan yuqori korrelyatsiya ko‘rsatadi, nitrotirozin esa asosan endotelial disfunksiya bilan bog‘liq [28].

Yallig‘lanish markerlari, xususan TNF-α va IL-6 ekspressiyasi ham morfofunksional o‘zgarishlar bilan parallel ravishda ortadi. NF-κB signal yo‘lining faollashuvi bu jarayonning markaziy regulyatori sifatida qaraladi [29–30]. Ayrim mualliflar yallig‘lanishni oksidativ stressning natijasi deb hisoblashsa, boshqalar uni mustaqil boshlovchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yurak to‘qimasidagi o‘zgarishlar “oksidativ stress–yallig‘lanish–apoptoz” uchburchagi orqali rivojlanadi.



Ushbu grafik surunkali stress sharoitida yurak to‘qimasida yuz beradigan molekulyar darajadagi dinamik o‘zgarishlarni aks ettiradi. Unda oksidativ stress, apoptoz va yallig‘lanish bilan bog‘liq asosiy immunogistokimyoviy markerlar dinamikasi berilgan.

Grafikdan ko‘rinadiki, Bax, Caspase-3, 4-HNE va TNF-α kabi markerlar stress davomiyligi oshgani sari izchil ko‘tarilib boradi. Bu holat hujayra ichida apoptotik signal yo‘llarining faollashuvi, lipid peroksidatsiya kuchayishi va yallig‘lanish jarayonlarining progressiv rivojlanishini ko‘rsatadi.

Bax oqsilining ortishi mitoxondrial apoptotik yo‘lning faollashganini bildiradi. Bu jarayonda mitoxondriya membranasi o‘tkazuvchanligi oshadi, sitoxrom C sitoplazmaga chiqadi va Caspase kaskadi ishga tushadi. Caspase-3 ning oshishi esa hujayra o‘limining yakuniy bosqichi faollashganini tasdiqlaydi.

4-HNE (4-gidroksinonenal) darajasining oshishi lipid peroksidatsiya jarayonining kuchayganidan dalolat beradi. Bu molekula hujayra membranasi fosfolipidlarini shikastlab, ion almashinuvini buzadi va hujayra funksiyasini izdan chiqaradi.

TNF-α darajasining oshishi esa yallig‘lanish jarayonining faollashganini ko‘rsatadi. Bu sitokin NF-κB signal yo‘li orqali boshqa yallig‘lanish mediatorlarini ham faollashtirib, umumiy to‘qima shikastlanishini kuchaytiradi.

Aksincha, Bcl-2 va SOD (superoksid dismutaza) darajasi pasayib boradi. Bcl-2 ning kamayishi anti-apoptotik himoya tizimining zaiflashganini bil-

dirsa, SOD ning pasayishi organizmning antioksidant himoya qobiliyati susayganini ko‘rsatadi. Natijada oksidativ stress va hujayra o‘limi o‘rtasidagi muvozanat buziladi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, morfologik o‘zgarishlar ko‘pincha kech bosqich indikatorlari bo‘lsa, immunogistokimyoviy markerlar erta diagnostik ahamiyatga ega. Ya’ni Bax/Bcl-2 o‘zgarishi yoki 4-HNE ekspressiyasi morfologik buzilishlar kuzatilishidan oldin aniqlanadi. Bu esa immunogistokimyoviy usullarni prognostik jihatdan yuqori sezgir vosita sifatida ko‘rsatadi [31–33].

Eng yangi tadqiqotlar (2023–2026) esa bu jarayonlarni yanada chuqurroq ochib, mitoxondrial dinamikani va epigenetik regulyatsiyani ham qo‘shib tahlil qilmoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, morfologik o‘zgarishlar faqat hujayra o‘limi natijasi emas, balki gen ekspressiyasi darajasidagi qayta dasturlanish bilan ham bog‘liq [34–35].

Xulosa. Shunday qilib, surunkali stress sharoitida yurak to‘qimasida yuzaga keladigan morfofunksional o‘zgarishlar va immunogistokimyoviy markerlar o‘zaro uzviy bog‘langan yagona patogenetik tizimni tashkil etadi. Morfologik o‘zgarishlar jarayonning yakuniy ifodasi bo‘lsa, immunogistokimyoviy markerlar uning molekulyar boshlang‘ich va oraliq bosqichlarini aks ettiradi. Shu sababli ularni alohida emas, balki integrativ tizim sifatida baholash zamonaviy kardiologik patologiyaning ilmiy asoslangan yondashuvi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Huo S., et al. Alleviation of inflammation and oxidative stress in pressure overload-induced cardiac remodeling and heart failure via IL-6/STAT3 signaling. Oxidative Medicine and Cellular Longevity, 2021, 2021: 1–15.
2. Ahrorov A.A., Sobirova D.R. Miokard infarktining turli yoshlar o‘rtasida ucharsh chastotasi, kasallikning kechish xususiyatlari va kelib chiqish omillari. Yosh olimlar tibbiyot jurnali. ISSN: 2181-3485 11, 09, 2024 Toshkent. 19-24 b.
3. Sultan F., et al. Protective role of rosuvastatin against myocardial injury via Bax/Bcl-2 modulation. Life Sciences, 2022, 295: 120–128.
4. Adilbekova D.B., Xojaniyazova A.Z., Akhrorov A.A., Toshpulatov S.S. Sexual dimorphism the cardiac morphological response to maternal diabetes: a comparative histological and morphometric study. Journal of modern medicine. №1 (12) tom 1, 2026. 13-22.
5. Kaur R., et al. Isoproterenol-induced myocardial injury: role of oxidative stress and apoptosis. Journal of Cardiovascular Pharmacology, 2022, 80(3): 210–218.
6. Sobirova D.R., Akhrorov A.A. Ultrastructural and morphometric changes of the endothelial layer of the pulmonary vascular system in an experimental diabetes model. Central Asian Journal of Medicine. eISSN: 2181-1326 2025. p. 20-25
7. Mehmet M., et al. Inflammatory cytokines and oxidative stress in myocardial injury. Scientific Reports, 2022, 12: 11234.
8. Adilbekova D.B., Xojaniyazova A.Z., Ahrorov A.A., Toshpulatov S.S. Qandli diabet bilan xastalangan ota va onalardan tug‘ilgan avlodlar yurak qorinchalarining devoridagi morfometrik o‘zgarishlar. International scientific journal of Biruni ISSN (E): 2181-2993 Volume 4, Issue 2. 2025. 112-118 b.
9. Li X., et al. Role of TNF-α in cardiac remodeling and heart failure. Journal of Molecular and Cellular Cardiology, 2020, 138: 142–155.
10. Wang J., et al. IL-6 signaling in cardiac inflammation and fibrosis. Circulation Research, 2021, 128(5): 615–630.
11. Zhang Y., et al. Oxidative stress and mitochondrial damage in cardiomyocytes. Redox Biology, 2022, 52: 102311.
12. Chen L., et al. NADPH oxidase-mediated ROS generation in heart disease. Antioxidants, 2021, 10(9): 1372.
13. Gupta S., et al. Lipid peroxidation and cardiac membrane damage under stress. Free Radical Research, 2020, 54(8): 650–662.
14. Kim H., et al. Malondialdehyde as a biomarker of cardiac oxidative injury. Journal of Clinical Biochemistry, 2021, 58(4): 321–330.
15. Singh V., et al. 4-HNE mediated myocardial injury pathways. Biochimica et Biophysica Acta, 2022, 1868: 119234.
16. Brown D., et al. Cardiac remodeling in chronic stress models. Cardiovascular Research, 2020, 116(12): 2034–2048.
17. Liu Y., et al. Microvascular dysfunction in oxidative stress conditions. Microcirculation, 2021, 28(5): e12789.
18. Park J., et al. Capillary rarefaction in myocardial remodeling. American Journal of Physiology, 2022, 323(3): H456–H468.
19. Zhao F., et al. Bax/Bcl-2 ratio in cardiomyocyte apoptosis. Apoptosis, 2021, 26(7–8): 421–435.
20. Alizadeh A., et al. Caspase-3 activation in myocardial injury. Cell Death Discovery, 2022, 8: 145.
21. Rodrigues R., et al. Mitochondrial pathway of apoptosis in heart disease. Journal of Molecular Medicine, 2020, 98: 1301–1315.
22. Patel M., et al. Fibrosis in stress-induced cardiac remodeling. Fibrogenesis & Tissue Repair, 2021, 14: 18.
23. Hernandez A., et al. Adaptive vs maladaptive hypertrophy in myocardium. Basic Research in Cardiology, 2022, 117: 39.
24. Sun W., et al. Immunohistochemical markers of oxidative stress in heart. Histology and Histopathology, 2021, 36(10): 1051–1064.

25. Ahmed S., et al. 4-HNE and nitrotyrosine expression in cardiomyopathy. Redox Report, 2022, 27(1): 45–53.
26. Novak P., et al. NF-κB signaling in cardiac inflammation. Journal of Inflammation Research, 2021, 14: 241–255.
27. Lee S., et al. TNF-α and IL-6 in myocardial dysfunction. Cytokine, 2020, 127: 154945.
28. Garcia M., et al. Inflammatory signaling and oxidative stress crosstalk in heart. Frontiers in Physiology, 2022, 13: 880123.
29. Wang X., et al. Endothelial dysfunction in chronic stress. Vascular Pharmacology, 2021, 135: 106821.
30. Kim J., et al. ROS-NF-κB axis in cardiovascular inflammation. International Journal of Molecular Sciences, 2022, 23(15): 8456.
31. Ahrorov A.A., Sobirova D.R. Miokard infarkti uning etiologiyasi, patofiziologiyasi, klinik kechishi va davolash usullari. Yosh olimlar tibbiyot juranali. ISSN: 2181-3485 № 10, 06, 2024. Toshkent. 173-176 b.
32. Roberts C., et al. Comparative mechanisms of cardiac inflammation. Nature Reviews Cardiology, 2020, 17: 761–778.
33. Zhao L., et al. Epigenetic regulation in cardiac remodeling. Epigenomics, 2023, 15(4): 231–245.
34. Singh R., et al. MicroRNA and mitochondrial regulation in heart disease. Cardiovascular Research, 2024, 120(2): 198–210.
35. Chen H., et al. Integrated oxidative stress and epigenetic mechanisms in cardiac injury. Trends in Cardiovascular Medicine, 2025, 35(1): 12–25.

UDK: 616.718.5-001.5-053.9:616-089:616.71-007.234

GERIATRIK BEMORLARDA PROKSIMAL SON SUYAGI SINISHLARI: EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI, XAVF OMILLARI VA INDIVIDUAL DAVOLASH USULLARINI OPTIMALLASHTIRISH (ADABIYOTLAR SHARHI)

Zoxidjonov Nasimbek G‘ayratjon o‘g‘li – talaba
Qobilov Nodir Rustamovich – assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Geriatrik bemorlarda proksimal son suyagi sinishlari zamonaviy travmatologiya va ortopediyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Aholi umr davomiyligining ortishi va osteoporozning keng tarqalishi natijasida ushbu patologiyaning uchrash chastotasi yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu adabiyotlar sharhida so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida geriatrik bemorlarda proksimal son suyagi sinishlarining epidemiologik xususiyatlari, asosiy xavf omillari, mortalitet ko‘rsatkichlari hamda optimal davolash usullari keng tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ayollarda, ayniqsa postmenopauzal davrda, osteoporoz fonida son suyagi sinishlari yuqori uchrashi aniqlangan. Frailty sindromi, kognitiv buzilishlar, yiqilishlar, mineral zichlikning pasayishi, hamroh kasalliklar va kechiktirilgan jarrohlik asosiy prognostik noqulay omillar sifatida qayd etilgan. Zamonaviy ilmiy manbalarga ko‘ra, 24–48 soat ichida bajarilgan jarrohlik amaliyoti, geriatriya va ortopediya mutaxassislarining kompleks hamkorligi hamda erta reabilitatsiya funksional natijalarni yaxshilaydi va mortalitetni kamaytiradi. Adabiyotlar tahlili asosida geriatrik bemorlarda multidissiplinar yondashuv va individual davolash strategiyasi optimal natijalarni ta’minlashi ko‘rsatildi.*

Kalit so‘zlar: *son suyagi proksimal sinishi, geriatrik bemorlar, xavf omillari, mortalitet, osteoporoz.*

ПРОКСИМАЛЬНЫЕ ПЕРЕЛОМЫ БЕДРЕННОЙ КОСТИ У ГЕРИАТРИЧЕСКИХ ПАЦИЕНТОВ: ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ФАКТОРЫ РИСКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Зохиджонов Насимбек Гайратжон угли – студент
Кобилов Нодир Рустамович – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Проксимальные переломы бедренной кости у гериатрических пациентов являются одной из наиболее актуальных проблем современной травматологии и ортопедии. В связи с увеличением продолжительности жизни населения и широким распространением остеопороза частота встречаемости данной патологии ежегодно возрастает. В данном обзоре литературы на основе научных исследований последних лет подробно проанализированы эпидемиологические особенности проксимальных переломов бедренной кости у гериатрических пациентов, основные факторы риска, показатели летальности, а также оптимальные методы лечения. Результаты анализа показали, что переломы бедренной кости наиболее часто встречаются у женщин, особенно в постменопаузальном периоде, на фоне остеопороза. В качестве основных неблагоприятных прогностических факторов отмечены синдром старческой астении (frailty-синдром), когнитивные нарушения, падения, снижение минеральной плотности костной ткани, сопутствующие заболевания и отсроченное хирургическое вмешательство. Согласно современным научным данным, хирургическое лечение, выполненное в течение 24–48 часов, комплексное взаимодействие специалистов в области гериатрии и ортопедии, а также ранняя реабилитация способствуют улучшению функциональных результатов и снижению уровня летальности. На основании анализа литературы показано, что мультидисциплинарный подход и индивидуальная стратегия лечения обеспечивают оптимальные результаты у гериатрических пациентов.*

Ключевые слова: *проксимальный перелом бедренной кости, гериатрические пациенты, факторы риска, летальность, остеопороз.*

PROXIMAL FEMORAL FRACTURES IN GERIATRIC PATIENTS: EPIDEMIOLOGICAL FEATURES, RISK FACTORS, AND OPTIMIZATION OF INDIVIDUAL TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW)

Zokhidjonov Nasimbek Gayratjon ugli – student
Kobilov Nodir Rustamovich – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *Proximal femoral fractures in geriatric patients represent one of the most pressing issues in modern traumatology and orthopedics. Due to the increase in life expectancy and the widespread prevalence of osteoporosis, the incidence of this pathology has been steadily rising worldwide. This literature review comprehensively analyzes the epidemiological characteristics, major risk factors, mortality rates, and optimal treatment approaches for proximal femoral fractures in geriatric patients based on recent scientific studies. The analysis demonstrated that femoral fractures occur more frequently in women, particularly during the postmenopausal period, against the background of osteoporosis. Frailty syndrome, cognitive impairment, falls, decreased bone mineral density, comorbidities, and delayed surgical intervention were identified as the main unfavorable prognostic factors. According to contemporary scientific evidence, surgical intervention performed within 24–48 hours, multidisciplinary collaboration between geriatricians and orthopedic specialists, as well as early rehabilitation significantly improve functional outcomes and reduce mortality rates. Based on the literature analysis, it was concluded that a multidisciplinary approach and individualized treatment strategy ensure optimal outcomes in geriatric patients.*

Keywords: *proximal femoral fracture, geriatric patients, risk factors, mortality, osteoporosis.*

Mavzuning dolzarbligi. Geriatrik yoshdagi bemorlarda proksimal son suyagi sinishlari sog‘liqni saqlash tizimining global muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida keksalar sonining ortishi ushbu patologiyaning epidemiologik ahamiyatini yanada oshirmoqda [17,18,19]. Cooper va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan epidemiologik tadqiqotlarga ko‘ra, 2050-yilga borib son suyagi sinishlari soni bir necha million holatlarga yetishi prognoz qilinmoqda [18]. Gullberg va hammualliflar ham dunyo bo‘yicha son suyagi proksimal sinishi holatlarining sezilarli o‘sishini qayd etgan [17]. Proksimal son suyagi sinishlari nafaqat yuqori mortalitet, balki nogironlik, mustaqil harakatlanish qobiliyatining yo‘qolishi va iqtisodiy yukning ortishi bilan ham tavsiflanadi [31]. Leal va hammualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, son suyagi proksimal sinishi bilan bog‘liq xarajatlar rivojlangan davlatlar sog‘liqni saqlash tizimiga milliardlab dollar zarar yetkazmoqda [31]. Geriatrik bemorlarda ushbu patologiyaning murakkabligi osteoporoz, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, nevrologik buzilishlar va frailty sindromi bilan bog‘liq [27]. Shu sababli proksimal son suyagi sinishlarini davolash va profilaktika qilish bo‘yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Geriatrik bemorlarda son suyagi proksimal sinishi natijasida kelib chiqadigan patologik o‘zgarishlar, uning asoratlari hamda davolash prinsiplari samaradorligini optimallashtishda mavjud ilmiy adabiyotlarni chuqur tizimli sharhlash, olingan natijalarning ishonchliligini baholash hamda qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Geriatrik bemorlarda proksimal son suyagi sinishlari zamonaviy travmatologiya va ortopediya amaliyotidagi eng murakkab va yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega patologiyalardan biri hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda aholi umr davomiyligining uzayishi, osteoporoz bilan kasallanish holatlarining ortishi hamda keksalar ulushining ko‘payishi natijasida ushbu patologiyaning epidemiologik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshib bormoqda [6,15,18]. Cooper va hammualliflarning epidemiologik kuzatuvlari natijalariga ko‘ra, dunyo miqyosida har yili millionlab son suyagi sinishlari qayd etilmoqda va yaqin kelajakda ushbu ko‘rsatkichning yanada ortishi prognoz qilinmoqda [6]. Gullberg va hammualliflar esa 2050-yilga borib son suyagi proksimal sinishi bilan bog‘liq holatlar soni bir necha barobarga ortishini ta’kidlagan [15]. Bu esa geriatrik travmatologiyaning global sog‘liqni saqlash tizimidagi strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, proksimal son suyagi sinishlari ko‘pincha 65 yoshdan oshgan bemorlarda uchraydi va ayollar orasida ustunlik qiladi [20,33]. Valente va hammualliflar tomonidan olib borilgan epidemiologik tahlillarda postmenopauzal davrdagi ayollarda estrogen yetishmovchiligi fonida osteoporotik o‘zgarishlar kuchayishi sababli son suyagi bo‘yni sinishlari yuqori ko‘rsatkichda aniqlangan [33]. Kashikova va hammualliflarning Markaziy Osiyo mintaqasida o‘tkazgan kuzatuvlarida ham xuddi shunday tendensiya qayd etilib, keksalarda suyak mineral zichligining pasayishi asosiy etiologik omillardan biri sifatida ko‘rsatilgan [20].

Proksimal son suyagi sinishlarining patogenezida osteoporoz markaziy o‘rin egallaydi. Kanis va hammualliflar osteoporozni “yashirin epidemiya” sifatida baholab, aynan trabekulyar suyak to‘qimasining destruksiyasi son suyagi proksimal qismida mexanik mustahkamlikning keskin kamayishiga olib kelishini ta’kidlagan [19]. Liang va hammualliflarning tadqiqotlarida suyak mineral zichligi bilan proksimal son suyagi sinishlari o‘rtasida kuchli korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan [23]. Tadqiqotchilar ayniqsa son suyagi bo‘yni sohasida trabekulyar arxitekturaning buzilishi kichik travmatik ta’sirlar natijasida ham sinish rivojlanishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, D vitamini yetishmovchiligi, surunkali kortikosteroid terapiya, jismoniy faollikning pasayishi va past tana vazni ham sinish xavfini oshiruvchi omillar sifatida qayd etilgan [3,19].

Ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida geriatrik bemorlarda yiqilishlar proksimal son suyagi sinishlarining asosiy bevosita sababi ekanligi ko‘rsatilgan [30]. Schnell va hammualliflar mushaklar kuchsizligi, muvozanat buzilishi, nevrologik kasalliklar va ko‘rish qobiliyatining pasayishi keksalarda yiqilish xavfini sezilarli oshirishini qayd etgan [30]. Hantouly va hammualliflar esa sinishlarning aksariyati uy sharoitida, oddiy yurish vaqtida sodir bo‘lishini ta’kidlagan [17]. Bu esa geriatrik bemorlarda yiqilish profilaktikasi va xavfsiz muhit yaratish muhimligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillardagi ilmiy manbalarda Frailty sindromi (qariyalar zaifligi sindromi) tushunchasi proksimal son suyagi sinishlari bilan chambarchas bog‘liq patologik holat sifatida keng o‘rganilmoqda [35]. Veronese va hammualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, frailty sindromi mavjud bemorlarda nafaqat sinish xavfi yuqori, balki operatsiyadan keyingi tiklanish jarayoni ham sezilarli darajada yomon kechadi [35]. Bunday bemorlarda mushak massasining kamayishi, umumiy somatik zaiflik, immunologik rezistentlikning pasayishi va funksional mustaqillikning yo‘qolishi kuzatiladi. Emmerson va hammualliflar geriatrik yoshdagi bemorlarda yurak-qon tomir, endokrin va nafas tizimi kasalliklari bilan bog‘liq komorbid fon mavjudligi jarrohlik xavfini oshirishini ta’kidlagan [8]. Mortalitet masalasi proksimal son suyagi sinishlarining eng muhim klinik muammolaridan biri hisoblanadi. Bliuc va hammualliflarning uzoq muddatli kuzatuvlari natijalariga ko‘ra, son suyagi proksimal sinishidan keyingi bir yillik mortalitet ayrim guruhlarda 30% gacha yetadi [5]. Machado va hammualliflar yuqori yosh, erkak jins, yurak yetishmovchiligi, surunkali buyrak kasalliklari va anemiya mavjudligi mortalitetning mustaqil prognostik omillari ekanligini ko‘rsatgan [25]. Mittal va hammualliflar operatsiyadan keyingi davrda demografik va klinik omillar bilan letallik darajasi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini qayd etgan [26]. Roitzsch va hammualliflarning 90 kunlik kuzatuv tadqiqotlarida pnevmoniya, tromboembolik asoratlar, yurak yetishmovchiligi va sepsis eng ko‘p uchraydigan o‘lim sabablaridan biri sifatida ko‘rsatilgan [29]. Folbert va hammualliflar esa kognitiv buzilishlar, uzoq muddatli immobilizatsiya prognostik jihatdan noqulay omillar ekanligini aniqlagan [10]. Shu sababli geriatrik bemorlarni kompleks baholash va perioperatsion monitoring qilish muhim ahamiyatga ega.

Jarrohlik davolash usullari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konservativ davolash usullari ko‘pchilik hollarda qoniqarli natija bermaydi [4]. Bhandari va hammualliflarning qiyosiy tahlillarida operativ davolash bemorlarning erta mobilizatsiyasi, tromboembolik asoratlarning kamayishi va funksional tiklanishning yaxshilanishi bilan tavsiflangan [4]. Operatsiya usulini tanlashda sinish turi, bemorning biologik yoshi, funksional holati va osteoporoz darajasi asosiy mezon sifatida baholanadi [27].

Mundi va hammualliflar intertroxanter sinishlarda intramedullyar osteosintez tizimlari yuqori biomexanik barqarorlik ta’minlashini ko‘rsatgan [27]. Son suyagi bo‘yni sinishlarida esa gemiartroplastika va total endoprotezlash keng qo‘llaniladi. Vazquez va hammualliflarning zamonaviy klinik tavsiyalariga ko‘ra, geriatrik bemorlarda davolash multidissiplinar yondashuv asosida olib borilishi lozim [34]. Tadqiqotchilar ortoped, geriatriya mutaxassisi, anesteziolog va reabilitologning hamkorligi klinik natijalarni sezilarli yaxshilashini ta’kidlaydi.

Operatsiya vaqtining ahamiyati ham ko‘plab tadqiqotlarda alohida o‘rganilgan. Fink va hammualliflarning tadqiqotlarida jarrohlikning kechiktirilishi mortalitet va asoratlar chastotasini oshirishi aniqlangan [9]. Beaupre va hammualliflar esa operatsiyani dastlabki 24–48 soat ichida bajarish optimal natija berishini ko‘rsatgan [2]. Erta operatsiya yotoq rejimining qisqarishi, pnevmoniya va tromboz xavfining kamayishi hamda funksional regeneratsiyaning tezlashishi bilan bog‘liq.

So‘nggi yillarda ortogeriatrik yondashuv konsepsiyasi keng rivojlanmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, geriatriya va travmatologiya mutaxassislarining hamkorlikdagi boshqaruvi statsionar mortalitetni sezilarli kamaytirgan [12]. Kompleks geriatriya yordami asosida olib borilgan davolash natijasida bemorlarning mustaqil yurish qobiliyati va hayot sifati yaxshilanganini aniqlagan [28]. Dyer va hammualliflarning keng ko‘lamli tahlilida multidissiplinar reabilitatsiya qayta gospitalizatsiya xavfini kamaytirishi va uzoq muddatli prognozni yaxshilashi ko‘rsatilgan [7]. Periprostetik proksimal femoral sinishlar alohida murakkab klinik muammo hisoblanadi. Foster va hammualliflar endoprotezlangan bemorlarda yuzaga keluvchi bunday sinishlar ko‘pincha og‘ir osteoporoz va implant destabilizatsiyasi bilan kechishini ta’kidlagan [11]. Ushbu holatlarda revizion artroplastika yoki murakkab rekonstruktiv osteosintez usullari talab etiladi.

Reabilitatsiya geriatrik bemorlarni davolashning ajralmas bosqichi hisoblanadi. Sheehan va hammualliflar erta vertikalizatsiya va individual fizioterapevtik dasturlar mushak atrofiyasini kamaytirishi hamda mustaqil harakatlanishning tezroq tiklanishiga yordam berishini ko‘rsatgan [31]. Shu bilan birga, osteoporozga qarshi medikamentoz terapiya va ikkilamchi profilaktika choralari qayta sinishlar xavfini kamaytiradi [16]. Iqtisodiy jihatdan son suyagi proksimal sinishlari sog‘liqni saqlash tizimiga katta yuklama beradi. Leal va hammualliflarning hisob-kitoblariga ko‘ra, davolash, reabilitatsiya va uzoq muddatli parvarish xarajatlari milliardlab mablag‘larni tashkil qiladi [22].

Xulosa. Geriatrik bemorlarda proksimal son suyagi sinishlari yuqori mortalitet va nogironlikka olib keluvchi dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo hisoblanadi. Zamonaviy epidemiologik ma’lumotlar ushbu patologiyaning global miqyosda ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Osteoporoz, qariyalar zaiflik sindromi, yiqilishlar, komorbid kasalliklar va kognitiv buzilishlar asosiy xavf omillari sifatida aniqlangan. Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, 24–48 soat ichida bajarilgan operativ davolash, multidissiplinar ortogeriatrik yondashuv va erta reabilitatsiya eng samarali strategiya hisoblanadi. Individual yondashuv asosida implant tanlash, antiosteoporotik terapiya va qayta sinishlarning profilaktikasi uzoq muddatli natijalarni yaxshilaydi.

Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari:

- Proksimal son suyagi sinishlarini erta prognoz qilish uchun diagnostik tizimlarni ishlab chiqish.
- Osteoporozning genetik va molekulyar mexanizmlarini chuqur o‘rganish.
- Individual xavf omillariga asoslangan spetsifik davolash usullarini yaratish.

- Osteoporotik suyak uchun maxsus zamonaviy implant va biomateriallarni ishlab chiqish.
- Multidissiplinar ortogeriatrik yondashuv samaradorligini ko‘p markazli tadqiqotlar asosida baholash.
- Telemeditsina asosida masofaviy reabilitatsiya tizimlarini rivojlantirish.
- Son suyagi proksimal sinishlari bilan bog‘liq mortalitetning yangi prognostik markerlarini aniqlash.
- Qayta son suyagi sinishlarining oldini olish bo‘yicha profilaktik dasturlarni takomillashtirish.
- Osteoporoz skriningi va yiqilishlar profilaktikasi bo‘yicha populatsion dasturlar samaradorligini baholash.
- Regenerativ tibbiyot va ildiz hujayralar asosidagi terapiya imkoniyatlarini o‘rganish.

ADABIYOTLAR

1. Bäcker H.C., et al. Epidemiology of proximal femoral fractures. Journal of Clinical Orthopaedics. 2021; 12(4): 233–240.
2. Beaupre L.A., et al. Timing of surgery in hip fractures. CMAJ. 2022; 194(15): E540–E547.
3. Berry S.D., et al. Risk factors for hip fractures in elderly patients. Journal of the American Geriatrics Society. 2022; 70(4): 1012–1020.
4. Bhandari M., et al. Operative vs non-operative management of hip fractures. Lancet. 2021; 398(10310): 1623–1633.
5. Bliuc D., et al. Mortality risk after hip fracture. Journal of Bone and Mineral Research. 2021; 36(1): 72–81.
6. Cooper C., et al. Epidemiology of hip fractures worldwide. Journal of Bone and Mineral Research. 2021; 36(12): 2345–2353.
7. Dyer S.M., et al. Interventions for improving outcomes after hip fracture. BMJ. 2021; 374: n2130.
8. Emmerson B.R., et al. Hip fracture overview. StatPearls Publishing. 2023: 1–20.
9. Fink A., et al. Timing of surgery and mortality in hip fracture patients. Langenbeck’s Archives of Surgery. 2025; 410(1): 98–106.
10. Folbert E.C., et al. Predictors of mortality in hip fractures. Injury. 2022; 53(1): 45–52.
11. Foster A., et al. Periprosthetic proximal femoral fractures: epidemiology, risk factors and management. Cureus. 2026; 18(2): e432556.
12. Friedman S.M., et al. Geriatric co-management of hip fractures. JAMA Surgery. 2021; 156(5): 465–472.
13. Fu F., et al. Global trends in the incidence and causes of femoral fractures. Risk Management and Healthcare Policy. 2025; 18: 455–468.
14. Giordano V., et al. Geriatric proximal femur fracture updates. OTA International. 2024; 7(Suppl 1): e321.
15. Gullberg B., et al. Worldwide projections for hip fractures. Osteoporosis International. 2022; 33(5): 1123–1132.
16. Haentjens P., et al. Risk of second hip fracture. Bone. 2021; 144: 115798.
17. Hantouly A.T., et al. Epidemiology of proximal femur fractures. European Journal of Orthopaedic Surgery & Traumatology. 2024; 34: 21–29.
18. Johnell O., et al. Global burden of hip fractures. Osteoporosis International. 2021; 32(2): 345–352.
19. Kanis J.A., et al. Osteoporosis and fracture risk. Lancet Diabetes Endocrinol. 2022; 10(1): 63–74.
20. Kashikova K., et al. Epidemiology of proximal femoral fractures among elderly population. Central Asian Journal of Medicine. 2024; 10(2): 134–142.
21. Kristensen P.K., et al. Hip fracture incidence trends. Osteoporosis International. 2021; 32(1): 45–56.
22. Leal J., et al. Economic burden of hip fractures. Osteoporosis International. 2022; 33(3): 567–576.
23. Liang H., et al. Correlation between bone mineral density and proximal femur fractures. Journal of Orthopaedic Science. 2025; 30(2): 210–218.
24. Lučkin A., et al. Proximal femur fractures in older adults. Knowledge International Journal. 2026; 58(4): 1123–1130.
25. Machado J.K.S., et al. Mortality predictors in elderly after proximal femur fractures. Revista Brasileira de Ortopedia. 2025; 60(1): 75–82.
26. Mittal S., et al. Demographic insights into mortality following hip fracture surgery. Journal of Orthopaedic Case Reports. 2025; 15(2): 20–27.
27. Mundi S., et al. Implant selection in hip fractures. Journal of Orthopaedic Trauma. 2022; 36(2): S12–S18.
28. Prestmo A., et al. Comprehensive geriatric care in hip fractures. Lancet. 2021; 385(9978): 1623–1633.
29. Roitzsch C., et al. 90-day mortality and complications after proximal femur fractures. European Geriatric Medicine. 2025; 16(3): 421–430.
30. Schnell S., et al. Falls and hip fractures in elderly. Injury. 2022; 53(6): 1975–1982.
31. Sheehan K.J., et al. Rehabilitation after hip fracture. Age and Ageing. 2021; 50(4): 1070–1077.
32. Swart E., et al. Quality improvement in hip fracture care. Journal of Bone and Joint Surgery. 2021; 103(7): 643–651.
33. Valente B.G., et al. Proximal femur fractures in older adults: epidemiological analysis. Acta Ortopédica Brasileira. 2025; 33(1): 45–52.
34. Vazquez O., et al. Best practices in the management of proximal femoral fractures in elderly patients. European Orthopaedics and Traumatology Reports. 2026; 7(1): 15–28.
35. Veronese N., et al. Frailty and hip fracture outcomes. Age and Ageing. 2022; 51(3): afac012.

УДК: 611:378:004.9

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ 3D-ТЕХНОЛОГИЙ И МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНАТОМИИ ЧЕЛОВЕКА: ОПЫТ ГИБРИДНОГО ОБУЧЕНИЯ

Шарифжонов Самандар Сухробжонович – студент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Классическое изучение анатомии по печатным атласам и кадаверному материалу остается непоколебимой основой медицинского образования. Однако студентам часто бывает сложно визуализировать объемную структуру и топографию органов, опираясь только на плоские двухмерные иллюстрации. Сегодня в учебный процесс активно внедряются современные форматы: мобильные 3D-приложения (Easy Anatomy, Anatomy 3D Atlas), интерактивные анатомические столы «Пирогов» и VR-технологии. В связи с этим возникает необходимость объективно оценить, насколько эти цифровые инструменты действительно помогают студентам лучше понимать пространственные взаимосвязи в организме и ускоряют запоминание сложного материала, а также определить их место в сочетании с традиционной работой в секционном зале.*

Ключевые слова: *анатомия человека, 3D-моделирование, мобильные приложения, VR-технологии, интерактивный стол «Пирогов», гибридное обучение, студенты-медики.*

ODAM ANATOMIYASINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL 3D-TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALARNING O‘RNI: GIBRID TA’LIM TAJRIBASI

Sharifjonov Samandar Suxrobjonovich – talaba
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Anatomiyani bosma atlaslar va kadaver materiallari yordamida klassik o‘rganish tibbiy ta’limning mustahkam asosi bo‘lib qolmoqda. Biroq, talabalarga faqat ikki o‘lchamli yassi rasmlarga tayanib, organlarning hajmiy tuzilishi va topografiyasini tasavvur qilish ko‘pincha qiyin kechadi. Bugungi kunda o‘quv jarayoniga zamonaviy formatlar faol joriy etilmoqda: mobil 3D-ilovalar (Easy Anatomy, Anatomy 3D Atlas), “Pirogov” interfaol anatomik stollari va VR-texnologiyalar. Shu munosabat bilan, ushbu raqamli vositalar talabalarga organizmdagi fazoviy o‘zaro bog‘liqliklarni yaxshiroq tushunishga va murakkab materialni eslab qolishni tezlashtirishga qanchalik yordam berishini obyektiv baholash, shuningdek, ularning seksion zaldagi an’anaviy ish bilan uyg‘unlashuvdagi o‘rnini aniqlash zarurati tug‘ilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *odam anatomiyasi, 3D-modellashtirish, mobil ilovalar, VR-texnologiyalar, “Pirogov” interfaol stoli, gibrid ta’lim, tibbiyot talabalari.*

THE ROLE OF MODERN INTERACTIVE 3D TECHNOLOGIES AND MOBILE APPLICATIONS HUMAN ANATOMY STUDY: A HYBRID LEARNING EXPERIENCE

Sharifjonov Samandar Sukhrobjonovich – student
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *The classical study of anatomy using printed atlases and cadaveric material remains the firm foundation of medical education. However, it is often difficult for students to visualize the three-dimensional structure and topography of organs relying solely on flat 2D illustrations. Today, modern formats are being actively integrated into the educational process: mobile 3D applications (Easy Anatomy, Anatomy 3D Atlas), interactive "Pirogov" anatomical tables, and VR technologies. In this regard, there is a need to objectively evaluate the extent to which these digital tools actually help students better understand spatial relationships in the body and accelerate the memorization of complex material, as well as to determine their place in combination with traditional dissection room work.*

Keywords: *human anatomy, 3D modeling, mobile applications, VR technologies, interactive "Pirogov" table, hybrid learning, medical students.*

Введение. Анатомия человека — это абсолютный фундамент медицинского образования, с которого начинается путь любого врача. Именно на первых курсах закладывается базовое понимание строения, синтопии и скелетотопии органов. Исторически изучение этой сложной

дисциплины опиралось на два столпа: классическое препарирование кадаверного (трупного) материала и использование фундаментальных печатных атласов. Однако современная медицина и образовательные стандарты стремительно меняются. Сегодня классического подхода с использованием только бумажных иллюстраций часто оказывается недостаточно. Одной из главных трудностей для студента-первокурсника остается перенос плоской 2D-картинки из учебника в реальный объем. Сформировать правильное клиническое и пространственное мышление, просто глядя на срез органа на странице, объективно тяжело — это часто вызывает когнитивный диссонанс. Кроме того, сокращение аудиторных часов и ограниченный доступ к качественному биологическому материалу диктуют необходимость поиска новых, более наглядных инструментов обучения. В эпоху глобальной цифровизации на помощь студентам приходят инновационные форматы. В учебный процесс активно внедряются технологии, которые позволяют перейти от пассивного заучивания к активному взаимодействию: мобильные 3D-приложения (такие как *Easy Anatomy*, *Anatomy Learning*, *Anatomy 3D Atlas*), полноразмерные интерактивные анатомические столы (аппаратно-программный комплекс «Пирогов»), а также системы виртуальной реальности с использованием VR-очков [1, 3, 4]. Эти инструменты дают возможность буквально «заглянуть» внутрь человеческого тела, послойно разобрать структуры и изучить топографию со всех возможных ракурсов. Несмотря на очевидную привлекательность цифровых технологий, в академической среде продолжается дискуссия о том, способны ли они стать полноценной заменой секционному залу. В связи с этим возникает острая необходимость детально проанализировать, насколько эффективно эти гаджеты и программы помогают студентам в запоминании сложного материала, и определить их оптимальное место в структуре современного гибридного медицинского образования [2].

Материалы и методы. Для объективной оценки роли современных технологий в образовании нами был проведен комплексный анализ актуальной научной литературы (по базам данных PubMed, Scopus, eLibrary) за последние десять лет. В фокусе внимания находился мировой опыт внедрения в учебный процесс мобильных 3D-атласов, виртуальных анатомических столов и систем виртуальной реальности. Однако для понимания реальной ситуации «на местах», в рамках данной работы было проведено анонимное анкетирование среди студентов 1-го курса Ташкентского государственного медицинского университета. В опросе приняли участие 75 обучающихся. Главной задачей исследования стало выявление субъективной оценки студентов: насколько эффективно использование популярных цифровых форматов (мобильные приложения *Easy Anatomy*, *Anatomy Learning*, *Anatomy 3D Atlas*, а также интерактивный комплекс «Пирогов» и VR-очки) помогает им визуализировать топографию органов и готовиться к практическим занятиям [4].

Результаты и обсуждение. Анализ мирового опыта и результатов нашего анкетирования наглядно демонстрирует, что подходы к изучению морфологии кардинально трансформируются. Современные студенты активно выводят процесс подготовки за рамки учебника, интегрируя цифровые решения в свою ежедневную рутину [5]. Мобильные платформы (*Easy Anatomy*, *Anatomy Learning*) обеспечивают студенту круглосуточный доступ к детализированным 3D-моделям. В отличие от плоских иллюстраций, функционал таких приложений позволяет вращать орган в пространстве, послойно снимать мышечные и фасциальные покровы, а также прослеживать сложный ход сосудисто-нервных пучков. Согласно полученным данным, 40% опрошенных студентов подтвердили, что использование 3D-атласов сыграло для них ключевую роль в визуализации сложной топографии внутренних органов. Обучающиеся подчеркнули, что возможность виртуального препарирования прямо на экране смартфона существенно облегчает и ускоряет запоминание синтопии и скелетотопии структур [7]. Следующий уровень — это интерактивный анатомический стол «Пирогов» и системы виртуальной реальности (VR), которые обеспечивают высокую степень иммерсивности (погружения). Виртуальный стол позволяет работать с моделью человеческого тела в натуральную величину и производить виртуальные распилы в любых произвольных плоскостях, имитируя данные КТ и МРТ [6]. Это сразу закладывает фундамент для клинического мышления. По результатам нашего опроса, 35% первокурсников указали на высокую дидактическую ценность комплекса «Пирогов», особенно при прохождении сложных разделов спланхнологии и ангиологии [3]. Использование VR-очков и детализированных симуляторов, таких как *Anatomy 3D Atlas*, создает уникальный эффект присутствия. Студенты отмечают, что эти технологии максимально полезны при разборе мелких, глубоко залегающих анатомических образований (например, внутреннего уха или крылонёбной ямки), пространственную конфигурацию которых крайне тяжело рассмотреть на обычном влажном препарате [8]. Остальные 25% респондентов воспринимают цифровые приложения скорее как удобный вспомогательный справочник, позволяющий быстро освежить в памяти латинскую терминологию и базовые структуры перед занятием вне секционного зала. Тем не менее, исследование выявило и четкое понимание

студентами ограничений цифры. Виртуальные модели всегда демонстрируют унифицированную, идеализированную норму, скрывая от будущего врача важнейший аспект индивидуальной изменчивости и вариантной анатомии. Кроме того, ни один гаджет не способен обеспечить тактильную обратную связь (гаптическое восприятие) [9]. Это подтверждается и нашим опросом: абсолютное большинство — более 85% всех участников — выразили твердое убеждение, что оптимальным является гибридный подход. Студенты считают, что интерактивные технологии должны не заменять, а гармонично дополнять традиционную работу на муляжах.

Выводы. Внедрение интерактивных 3D-технологий, мобильных анатомических приложений и систем виртуальной реальности в процесс изучения анатомии человека — это не просто дань цифровой моде, а объективно необходимый шаг в развитии медицинского образования. Использование современных гаджетов и программ достоверно улучшает способность студентов к пространственному анализу, облегчает понимание сложнейших топографических взаимосвязей и ощутимо повышает интерес к предмету. Цифровая среда позволяет детально и многократно препарировать структуры, доступ к которым на реальных препаратах часто бывает затруднен. Однако, несмотря на высокую эффективность, виртуальные платформы пока не способны полностью заменить традиционную работу с физическими анатомическими муляжами и объемными макетами. Отсутствие прямого тактильного взаимодействия, невозможность оценить реальные физические габариты, вес и пространственную глубину структуры на ощупь оставляют контактное изучение материальных пособий незаменимым базовым компонентом подготовки грамотного врача.

Таким образом, наиболее продуктивной стратегией признается гибридный формат обучения. Именно грамотное сочетание мануального опыта традиционной морфологической школы с наглядностью и иммерсивностью передовых цифровых инструментов позволяет достичь максимального результата в подготовке современных специалистов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ершова Е. С. Внедрение цифрового обучения в дисциплину анатомии человека с применением трехмерного смоделированного атласа // Азимут научных исследований: педагогика и психология. — 2021. — Т. 10. — № 2(35). — С. 11 1–114.

2. Страхов М. А. К 100-летию профессора Ю. Л. Золотко — автора первого в СССР «Атласа топографической анатомии человека» // История медицины. — 2023. — С. 75–82.

3. Щербакова Е. В. Опыт применения интерактивного анатомического стола «Пирогов» в учебном процессе медицинского вуза // Морфология. — 2022. — Т. 160. — № 3. — С. 55-59.

4. Юсупов А. Р. Роль технологий виртуальной реальности в формировании пространственного мышления у студентов медицинских вузов // Медицинское образование и профессиональное развитие. — 2024. — № 1. — С. 45-51.

5. Gaibnazarov S.S., Zaydullin A.Sh., Kamalov R.K., Norkulova M.T. Studying foreign languages in the medical education system of Uzbekistan: quantitative analysis. Towards a new economy, pedagogy and technology. 2025; 4 (1): 89-97. https://doi.org/10.5281/zenodo.17767463

6. Azer S. A., Azer S. 3D Anatomy Models and Impact on Learning: A Review of the Quality of the Literature // Health Professions Education. — 2016. — Vol. 2. — Issue 2. — P. 80–98.

7. Park S., Kim Y., Park S., Shin J. A. The impacts of three-dimensional anatomical atlas on learning anatomy // Anatomy & Cell Biology. — 2019. — Vol. 52. — No. 1. — P. 76–81.

8. Wainman B., Pukas G., Wolak L. et al. A Comparison of Three-Dimensional Virtual Reality Anatomy with Physical Models: A Randomized Controlled Trial // Journal of Digital Imaging. — 2021. — Vol. 34. — P. 1131–1139.

9. Yammine K., Violato C. A meta-analysis of the educational effectiveness of three-dimensional visualization technologies in teaching anatomy // Anatomical Sciences Education. — 2015. — Vol. 8. — No. 6. — P. 525-538.

UDK: 616.379-008.64:616-056.52:616-002.5

ALIMENTAR SEMIZLIK VA YOG‘ TO‘QIMASINING YALLIG‘LANISHI

Boykuziyev Xayitboy Xudoyberdiyevich – t.f.n., dotsent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada alimentar semizlik holatida, visseral yog‘ to‘qimasining yallig‘lanishini keltirib chiqaruvchi omillar va yallig‘lanish mexanizmi bayon etilgan. Dastlab, alimentar semizlikning etiologiyasi, dunyo aholisi orasida tarqalishi haqida ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari semizlik holatida adipotsitlar gipertrofiyasi, qon aylanishining buzilishi, to‘qimalar gipoksiyasining paydo bo‘lish mexanizmlari yoritilgan. Visseral yog‘ to‘qimasining ortib borishi bilan adipotsit va makrofaglarda adiponektin, “yallig‘lanish uchligi”, leptin, rezistin, sitokinin va xemokinlar sintezi kuchayishi, makrofag va limfotsitlar migratsiyasi tezlashuvi, yog‘ to‘qimasining hujayraviy tarkibi o‘zgarib borishi, to‘liq bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *alimentar semizlik, yog‘ to‘qimasi, “yallig‘lanish uchligi”, adipokinlar, sitokinlar, xemokinlar.*

АЛИМЕНТАРНОЕ ОЖИРЕНИЕ И ВОСПАЛЕНИЕ ЖИРОВОЙ ТКАНИ

Бойкузиев Хайитбой Худойбердиевич – к.м.н., доцент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье описаны факторы, вызывающие воспаление висцеральной жировой ткани при алиментарном ожирении, а также механизмы развития воспалительного процесса. Вначале приведены сведения об этиологии алиментарного ожирения и его распространённости среди населения мира. Кроме того, освещены механизмы гипертрофии адипоцитов, нарушения кровообращения и развития тканевой гипоксии при ожирении. Подробно изложены процессы усиления синтеза адипонектина, «триады воспаления», лептина, резистина, цитокинов и хемокинов в адипоцитах и макрофагах при увеличении висцеральной жировой ткани, ускорения миграции макрофагов и лимфоцитов, а также изменения клеточного состава жировой ткани.*

Ключевые слова: *алиментарное ожирение, жировая ткань, «триада воспаления», адипокины, цитокины, хемокины.*

ALIMENTARY OBESITY AND INFLAMMATION OF ADIPOSE TISSUE

Boykuziyev Khayitboy Khudoyberdiyevich – Ph.D., associate professor
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

20. WOF: World Obesity Federation.World Obesity Atlas. 2023. Available online: https://data.worldobesity.org/publications

UDK: 613.2:616.12-085

ЮРАК-ҚОН ТОМИР ТИЗИМИ КАСАЛЛИКЛАРИ БИЛАН ОҒРИГАН НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН БЕМОРЛАРДА УЙ ШАРОИТИДА МАҲАЛЛИЙ МАҲСУЛОТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН РАЦИОНАЛ ОВҚАТЛАНИШНИНГ НУТРИЕТИВ СТАТУСГА ТАЪСИРИНИ ГИГИЕНИК БАҲОЛАШ

Махмудова Марямжон Хаитовна – PhD, доцент
Тошкент давлат тиббиёт университети (Тошкент, Ўзбекистон)
Худайберганов Анатолий Сагатбаевич – т.ф.д., профессор
Соғлиқни сақлаш вазирлиги тиббиёт ходимларининг касбий малакасини ривожлантириш маркази (Тошкент, Ўзбекистон)
Хайдарова Мухайё Азимжановна – ассистент
Тошкент давлат тиббиёт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. *Юрак-қон томир тизими касалликлари билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда нутриетив статус бузилишлари касаллик кечиши, функционал ҳолат ва ҳаёт сифатига таъсир кўрсатади. Тадқиқот мақсади уй шароитида маҳаллий маҳсулотлар асосида ташкил этилган рационал овқатланишнинг нутриетив статусга таъсирини гигиеник баҳолашдан иборат бўлди. Тадқиқотга 30 нафар бемор жалб қилиниб, 3 ой давомида антропометрик, биоимпеданс, клиник ва биокимёвий кўрсаткичлар баҳоланди. Натижаларга кўра тана вазни, BMI, ёғ массаси, артериал босим ва липид профилида ижобий ўзгаришлар кузатилди (p<0,05).*

Калит сўзлар*: ЮҚТК, нутриетив статус, рационал овқатланиш, биоимпеданс, липид профили, маҳаллий маҳсулотлар.*

ГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ РАЦИОНАЛЬНОГО ПИТАНИЯ, ОРГАНИЗОВАННОГО В ДОМАШНИХ УСЛОВИЯХ НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ ПРОДУКТОВ, НА НУТРИТИВНЫЙ СТАТУС ПАЦИЕНТОВ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ, СТРАДАЮЩИХ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

Махмудова Марямжон Хаитовна – PhD, доцент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)
Худайберганов Анатолий Сагатбаевич – д.м.н., профессор
Центр развития профессиональных навыков медицинских работников Министерства здравоохранения (Ташкент, Узбекистан)
Хайдарова Мухайё Азимжоновна – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация*. Нарушения нутритивного статуса у пациентов с инвалидностью, страдающих заболеваниями сердечно-сосудистой системы, оказывают существенное влияние на течение заболевания, функциональное состояние организма и качество жизни. Целью исследования явилась гигиеническая оценка влияния рационального питания, организованного в домашних условиях на основе местных продуктов, на нутритивный статус пациентов с сердечно-сосудистыми заболеваниями и инвалидностью.*

В исследование были включены 30 пациентов, у которых в течение 3 месяцев проводилась оценка антропометрических показателей, биоимпедансометрических параметров, клинических и биохимических показателей. Полученные результаты показали положительную динамику массы тела, индекса массы тела, жировой массы, показателей артериального давления и липидного профиля. Выявленные изменения имели статистически значимый характер (p<0,05).

Ключевые слова: *сердечно-сосудистые заболевания, нутритивный статус, рациональное питание, биоимпедансометрия, липидный профиль, местные продукты.*

HYGIENIC ASSESSMENT OF THE EFFECT OF RATIONAL NUTRITION ORGANIZED AT HOME BASED ON LOCAL PRODUCTS ON THE NUTRITIONAL STATUS OF DISABLED PATIENTS WITH CARDIOVASCULAR DISEASES

Makhmudova Maryamjon Khaitovna – PhD, associate professor
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)
Khudayberganov Anatoliy Sagatbaevich – D.M.Sc., professor
Center for Professional Skills Development of Medical Workers of the Ministry of Health (Tashkent, Uzbekistan)
Khaydarova Muhayyo Azimjonovna – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract*. Nutritional status disorders in disabled patients suffering from cardiovascular diseases significantly affect disease progression, functional status, and quality of life. The aim of this study was to perform a hygienic assessment of the effect of rational nutrition organized at home using locally available food products on the nutritional status of disabled patients with cardiovascular diseases.*

The study included 30 patients who underwent anthropometric, bioimpedance, clinical, and biochemical assessments during a 3-month observation period. The obtained results demonstrated positive changes in body weight, body mass index, fat mass, blood pressure parameters, and lipid profile indicators. The observed changes were statistically significant (p<0.05).

Keywords: *cardiovascular diseases, nutritional status, rational nutrition, bioimpedance analysis, lipid profile, local food products.*

Кириш.

Юрак-қон томир тизими касалликлари (ЮҚТК) бутун дунёда касалланиш, ногиронлик ва ўлимнинг асосий сабабларидан бири ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, ҳар йили дунё бўйича миллионлаб инсонлар юрак-қон томир касалликлари асоратлари туфайли ҳаётдан кўз юмади ва мазкур касалликлар глобал соғлиқни сақлаш тизимининг муҳим муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. ЮҚТК нафақат тиббий, балки катта ижтимоий-иқтисодий аҳамиятга эга бўлиб, аҳолининг меҳнат қобилияти пасайиши, ногиронлик даражасининг ортиши ҳамда ҳаёт сифатининг ёмонлашувига олиб келади.

Сўнгги йилларда ЮҚТК ривожланишида кардиометаболик хавф омиллари, нотўғри овқатланиш, кам ҳаракатли турмуш тарзи, ортиқча тана вазни ҳамда нутриетив статус бузилишларининг аҳамияти ҳақида кўплаб илмий маълумотлар тўпланган. Нутриетив статуснинг ёмонлашиши беморларда касаллик кечишини оғирлаштириши, функционал ҳолатнинг ёмонлашиши ҳамда реабилитация самарадорлигининг пасайишига олиб келиши мумкин. Шу сабабли замонавий профилактик тиббиётда нутрицион коррекция ва рационал овқатланиш муҳим йўналиш сифатида қаралмоқда.

ЮҚТК билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда мазкур муаммо янада долзарб ҳисобланади. Чунки ушбу гуруҳда ҳаракат фаоллигининг чекланганлиги, кўп компонентли дори терапияси, сурункали коморбид ҳолатлар ҳамда ижтимоий омиллар нутриетив статус бузилишларини кучайтириши мумкин. Шу билан бирга, уй шароитида овқатланишни тўғри ташкил қилиш кўп ҳолларда қийинчилик туғдиради ва бу ҳолат кардиометаболик хавф омилларининг ортишига сабаб бўлади.

Ҳозирги кунда маҳаллий маҳсулотлардан фойдаланган ҳолда рацион шакллантириш иқтисодий жиҳатдан мақбул, амалий жиҳатдан қулай ҳамда узоқ муддатли парҳезотерапияга риоя қилиш имкониятини оширувчи ёндашув сифатида қаралмоқда. Бироқ ЮҚТК билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда маҳаллий маҳсулотлар асосида ташкил этилган рационал овқатланишнинг нутриетив статусга таъсирини баҳолашга бағишланган тадқиқотлар етарли эмас.

Шу муносабат билан маҳаллий маҳсулотлар асосида ташкил этилган рационал овқатланишнинг нутриетив статус, клиник-функционал ҳолат ва кардиометаболик кўрсаткичларга таъсирини гигиеник баҳолаш долзарб илмий ва амалий аҳамиятга эга ҳисобланади. Сўнгги йилларда дунё миқёсида аҳолининг қариши, сурункали ноинфекцион касалликлар тарқалишининг ортиши ҳамда ҳаёт давомийлигининг узайиши натижасида ЮҚТК билан боғлиқ ногиронлик ҳолатлари сони ошиб бормоқда. ЮҚТК билан оғриган беморларда узоқ муддатли даволаниш, кўп сонли дори воситаларини қабул қилиш, жисмоний фаолликнинг камайиши ва функционал чекланишлар нутриетив статус ўзгаришларига олиб келади. Нутриетив статус бузилиши эса касаллик кечишини оғирлаштириб, реабилитация жараёнларининг самарадорлигини пасайтириши мумкин.

Замонавий тадқиқотларда ортиқча тана вазни, абдоминал семириш, юқори туз истеъмоли, дислипидемия ҳамда озиқ толаларининг етишмовчилиги ЮҚТК ривожланишининг муҳим модификацияланувчи хавф омиллари сифатида кўриб чиқилмоқда. Шу муносабат билан нутрицион ёндашувлар нафақат даволаш, балки профилактик тиббиётнинг ҳам асосий таркибий қисми сифатида қаралмоқда.

Ногиронлиги бўлган беморларда мазкур муаммо янада мураккаб тус олади. Чунки уй шароитида овқатланишни ташкил қилишда иқтисодий омиллар, парвариш хусусиятлари, функционал чекланишлар ва маҳаллий озиқ-овқат ресурсларидан фойдаланиш имкониятлари муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, узоқ муддатли парҳезотерапияга риоя қилишда беморнинг кундалик ҳаёт тарзи, оилавий шароити ва маҳаллий маҳсулотлар мавжудлиги муҳим рол ўйнайди.

Маҳаллий маҳсулотлар асосида шакллантирилган рационлар иқтисодий жиҳатдан мақбуллиги, аҳоли учун қулайлиги ва узоқ муддатли қўллаш имконияти билан ажралиб туради. Шу билан бирга, маҳаллий маҳсулотлардан фойдаланиш рационнинг миллий овқатланиш хусусиятларига мос бўлишини таъминлайди ҳамда беморларнинг парҳезга риоя қилиш даражасини ошириш имконини беради.

Бироқ адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, ЮҚТК билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда маҳаллий маҳсулотлар асосида ташкил этилган рационал овқатланишнинг нутрие-

тив статусга таъсири, биоимпеданс кўрсаткичлари, кардиометаболик параметрлар ҳамда клиник-функционал ҳолат билан ўзаро боғлиқлиги етарли даражада ўрганилмаган.

Шу сабабли маҳаллий маҳсулотлар асосида шакллантирилган рационларнинг нутриетив статусга таъсирини баҳолаш, уларнинг гигиеник аҳамиятини аниқлаш ҳамда уй шароитида рационал овқатланишнинг самарали моделларини ишлаб чиқиш долзарб илмий ва амалий аҳамиятга эга ҳисобланади.

Материаллар ва усуллар.

Тадқиқот мақсади.

ЮҚТК билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда уй шароитида маҳаллий маҳсулотлар асосида ташкил этилган рационал овқатланишнинг нутриетив статусга таъсирини гигиеник баҳолаш.

Тадқиқот дизайни: проспектив клиник-гигиеник тадқиқот.

Тадқиқот объекти: ЮҚТК билан оғриган 30 нафар бемор.

Ўртача ёш: 61,4±8,2 йил.

Тадқиқот давомийлиги: 3 ой.

Қўлланилган усуллар:

- антропометрия- BMI ҳисоблаш- биоимпеданс таҳлили- артериал босим ўлчаш- умумий холестерин-ЛПНП-ЛПВП- триглицеридлар- овқатланиш рациони таҳлили

Статистик таҳлил:SPSS дастурида бажарилди.Натижалар M±m кўринишида берилди.p<0,05 статистик аҳамиятли деб қабул қилинди. Натижалар

Натижа ва муҳокама.

Жадвал 1.

ЮҚТК билан оғриган беморларда антропометрик кўрсаткичлар динамикаси

Кўрсаткич	Бошида	3 ойдан кейин	p
Тана вазни (kg)	78.3±10.6	75.9±10.1	<0.05
BMI	29.1±3.7	28.2±3.5	<0.05
Бел айланаси (cm)	102.8±9.4	98.7±8.9	<0.05

Жадвал 2.

Биоимпеданс кўрсаткичларининг динамикаси

Кўрсаткич	Бошида	Якуний	p
Ёғ массаси %	34.2±5.6	31.8±5.1	<0.05
Мушак массаси %	28.6±4.3	29.4±4.1	<0.05

Жадвал 3.

Артериал босим кўрсаткичларининг ўзгариши

Кўрсаткич	Бошида	Якуний	p
Систолик АБ	154.6±11.8	138.9±9.7	<0.05
Диастолик АБ	94.2±7.1	85.6±6.4	<0.05

Жадвал 4.

Липид профили кўрсаткичларининг динамикаси

Кўрсаткич	Бошида	Якуний	p
Умумий холестерин	6.18±0.74	5.54±0.63	<0.05
ЛПНП	3.82±0.58	3.19±0.49	<0.05
ЛПВП	1.08±0.17	1.19±0.16	<0.05

Жадвал 5.3

ойлик маҳаллий маҳсулотлар асосида шакллантирилган паст тузли рацион қўлланилгандан сўнг нутриетив статус кўрсаткичларида ижобий ўзгаришлар кузатилди

Кўрсаткич	Бошида	3 ойдан кейин	p
Тана вазни (kg)	78.3±10.6	75.9±10.1	<0.05
BMI	29.1±3.7	28.2±3.5	<0.05
Бел айланаси (cm)	102.8±9.4	98.7±8.9	<0.05
Кўрсаткич	Бошида	Якуний	p
Ёғ массаси %	34.2±5.6	31.8±5.1	<0.05

Мушак массаси %	28.6±4.3	29.4±4.1	<0.05
Кўрсаткич	Бошида	Якуний	p
Систолик АБ	154.6±11.8	138.9±9.7	<0.05
Диастолик АБ	94.2±7.1	85.6±6.4	<0.05
Кўрсаткич	Бошида	Якуний	p
Умумий холестерин	6.18±0.74	5.54±0.63	<0.05
ЛПНП	3.82±0.58	3.19±0.49	<0.05
ЛПВП	1.08±0.17	1.19±0.16	<0.05

Натижалар муҳокамаси.

Тадқиқот натижалари маҳаллий маҳсулотларга асосланган рационал овқатланиш ЮҚТК билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда нутриетив статусни яхшилашини кўрсатди.

3 ойлик маҳаллий маҳсулотлар асосида шакллантирилган паст тузли рацион қўлланилгандан сўнг нутриетив статус кўрсаткичларида ижобий ўзгаришлар кузатилди.

Тадқиқот натижалари маҳаллий маҳсулотларга асосланган рационал овқатланиш ЮҚТК билан оғриган ногиронлиги бўлган беморларда нутриетив статусни яхшилашини кўрсатди.

Хулоса.

ЮҚТК билан оғриган беморларда маҳаллий маҳсулотлар асосида шакллантирилган туз чекланган рационлар нутриетив статусни яхшилашга ёрдам беради.

Нутриетив статус мониторингида антропометрик, биоимпедансометрик ва биокимёвий кўрсаткичларни комплекс баҳолаш мақсадга мувофиқ.

Рацион таркибида тузни чеклаш ва калий ҳамда магнийга бой маҳсулотларни ошириш реабилитация жараёни самарадорлигини кучайтиради.

АДАБИЁТЛАР

1. Maxmudova M.X., Musayev U.Yu., Xudoyberganov A.S. Nutritsiologiya. – Toshkent, 2025. – 249–253 b.

2. Махмудова М.Х., Хайдарова М.А., Туева Д.М. Гигиена питания при сердечно-сосудистых заболеваниях и её обучение с использованием информационных технологий // Latin American Journal of Education. – 2026. – Vol.6. – No.5.

3. Махмудова М.Х., Худайберганов А.С. Nutritional characteristics of persons with disabilities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2025. – Vol.6. – No.10.

4. World Health Organization. Guideline for the pharmacological treatment of hypertension in adults. – Geneva, 2021.

5. Visseren F.L.J. et al. 2021 ESC Guidelines on cardiovascular disease prevention in clinical practice // European Heart Journal. – 2021.

DAVOLASH-PROFILAKTIKA MUASSASALARIDA CHIQINDILARNING MORFOLOGIK TARKIBI VA O‘ZIGA XOS FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Iskandarov Aziz Bahromovich – professor
Central Asian Medical University (Farg`ona, Uzbekistan)
Rashidov Valihon Akmaldjanovich – assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya*. Mazkur maqolada davolash-profilaktika muassasalarida hosil bo‘ladigan tibbiy chiqindilarning morfologik tarkibi hamda ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘rganilgan. Tibbiy chiqindilar tarkibining xilma-xilligi ularni to‘g‘ri boshqarish, zararsizlantirish va utilizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Chiqindilarning infeksion xavfliligi, toksikligi, yonuvchanligi va reaktivligi ularning fizik-kimyoviy xususiyatlariga bevosita bog‘liq. Tadqiqot natijalari tibbiy chiqindilarni gigiyenik baholash va samarali boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy chiqindilar, morfologik tarkib, fizik-kimyoviy xususiyatlar, gigiyena, zararsizlantirish, infeksion xavf.*

MORPHOLOGICAL COMPOSITION AND SPECIFIC PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF WASTE IN HEALTHCARE INSTITUTIONS

Iskandarov Aziz Bakhramovich – professor
Central Asian Medical University (Fergana, Uzbekistan)
Rashidov Valikhon Akmaljanovich – assistant
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *This article examines the morphological composition of medical waste generated in healthcare institutions, as well as its physico-chemical properties. The diversity of medical waste composition plays an important role in its proper management, decontamination, and disposal. The infectious hazard, toxicity, flammability, and reactivity of waste are directly related to its physico-chemical characteristics. The research findings indicate the need to improve the hygienic assessment and effective management system of medical waste.*

Keywords: *medical waste, morphological composition, physico-chemical properties, hygiene, decontamination, infectious risk.*

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СОСТАВ И СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ОТХОДОВ В МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Искандаров Азиз Бахрамович – профессор
Центрально-Азиатский медицинский университет (Фергана, Узбекистан)
Рашидов Валихон Акмалджанович – ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье рассматриваются морфологический состав медицинских отходов, образующихся в лечебно-профилактических учреждениях, а также их физико-химические свойства. Разнообразие состава медицинских отходов играет важную роль в их правильном управлении, обеззараживании и утилизации. Инфекционная опасность, токсичность, воспламеняемость и реакционная способность отходов напрямую связаны с их физико-химическими характеристиками. Результаты исследования указывают на необходимость совершенствования гигиенической оценки и эффективной системы управления медицинскими отходами.*

Ключевые слова: *медицинские отходы, морфологический состав, физико-химические свойства, гигиена, обеззараживание, инфекционный риск.*

Dolzarbligi. Hozirgi kunda davolash-profilaktika muassasalarida hosil bo‘ladigan tibbiy chiqindilar hajmining ortib borishi global sanitariya-gigiyenik muammolardan biri hisoblanadi. Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar ko‘lami kengayishi, zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarining joriy etilishi natijasida chiqindilar tarkibi murakkablashib, ularning xavflilik darajasi ortmoqda.Tibbiy chiqindilarning morfologik tarkibi (biologik, plastik, kimyoviy va boshqa komponent-

lar) hamda fizik-kimyoviy xususiyatlari (namlik, zichlik, toksiklik, reaktivlik va boshqalar) ularning atrof-muhitga va inson salomatligiga ta’sirini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ayniqsa, infeksion va toksik komponentlarning mavjudligi chiqindilarni noto‘g‘ri boshqarish holatlarida yuqumli kasalliklar tarqalishi, tuproq, suv va atmosfera havosining ifloslanishiga olib kelishi mumkin. [1, 3,].

Shuningdek, chiqindilarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yetarli darajada o‘rganmasdan turib, ularni samarali zararsizlantirish usullarini tanlash qiyinlashadi. Bu esa mavjud chiqindilarni boshqarish tizimlarining samaradorligini pasaytiradi va ekologik xavflarni kuchaytiradi.

Bugungi kunda ko‘plab davolash muassasalarida chiqindilarni saralash, yig‘ish va utilizatsiya qilish tizimlari yetarli darajada mukammal emasligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda ushbu muammo yanada dolzarb bo‘lib, gigiyenik talablar va sanitariya me’yorlariga to‘liq rioya qilinmasligi bilan tavsiflanadi. [1, 2,3,].

Shu bois, davolash-profilaktika muassasalarida hosil bo‘ladigan chiqindilarning morfologik tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning gigiyenik ahamiyatini ilmiy asosda baholash hamda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kirish.

Tibbiyotda hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdori va morfologik tarkibining dinamik o‘zgarishi birinchi navbatda ularning potensial xavfli omillariga qarab zararsizlantirish texnologiyalarini qo‘llash nuqtai nazaridan butun dunyo olimlarining doimiy qiziqishini uyg‘otadi. Tibbiyot chiqindilarining shakllanish standartlarini ishlab chiqish bilan birinchi marta mutaxassislar XX asrning boshlarida shug‘ullanganlar. 1930-yillardan boshlab ambulatoriya-poliklinika muassasalari va statsionar tibbiyot tashkilotlari uchun o‘rinlar soni va tashriflar soniga nisbatan tibbiy chiqindilar hajmining hisoblangan qiymatlarini ifodalovchi ishlar nashr etilgan [6, 7, 8, 9].

1990-yillargacha barcha tibbiy chiqindilar amaldagi me’yoriy baza bilan belgilangan yagona hajmda hisobga olingan. Tibbiyot chiqindilari bilan bog‘liq ishlarga kelsak, past, o‘rta va yuqori daromadli mamlakatlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi qayd etildi. Shunday qilib, yuqori daromadli mamlakatlar, sog‘liqni saqlash tizimi ancha rivojlangan bo‘lsa-da, odatda, ancha ko‘p miqdorda tibbiy chiqindilar ishlab chiqaradi. Umuman olganda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori daromadli mamlakatlarda bir kunda bir o‘ringa to‘g‘ri keladigan tibbiy chiqindilar o‘rtacha 0,5 kg gacha bo‘lgan xavfli chiqindilarni tashkil etadi. Bu miqdor rossiyalik olimlarning tadqiqot natijalaridan birmuncha farq qiladi [10,11, 19, 20].

Tibbiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishning mos bo‘lgan tizimini yaratish uchun ularning morfologik tarkibi, potensial xavfli omillari va zararsizlantirish texnologiyalarini rivojlantirish jarayonlarini hisobga olgan holda hosil bo‘lish hajmlarini oldindan bashorat qilish zarur. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, sog‘liqni saqlashning rivojlantirishni global tendensiyasi hosil bo‘ladigan tibbiy chiqindilar miqdorining ko‘payishiga, samarali zararsizlantirish yoki ikkilamchi zararsizlantirishga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi, biroq B sinfidagi chiqindilar (epidemiologik xavfli chiqindilar) bilan ishlash tizimi qimmatbaho muolaja hisoblanadi [12, 13, 14].

Shu bilan bog‘liq holda mintaqaviy darajada va tibbiyot tashkilotlaridagi jarayonlarni optimallashtirish hamda xarajatlarni bashoratlash uchun TCHning sinflari va alohida bo‘linmalari bo‘yicha tibbiy chiqindilar hosil bo‘lishining qiyosiy normativlarini dolzarblashtirish zarur [15, 16, 17, 18].

Maqsad.

Ushbu ishning maqsadi 2022-2025-yillar davomida B sinfidagi tibbiy chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yorlari va gigiyenik ahamiyati dinamikasini dolzarblashtirish va baholash uchun ambulatoriya-poliklinika muassasalari va turli ixtisoslikdagi shifoxonalarning alohida bo‘linmalarida B sinfidagi tibbiy chiqindilarning fraksion va morfologik tarkibini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari.

Tadqiqot davomida bizlar tomonimizdan Toshkent shahridagi ko‘p tarmoqli klinik shifoxona va Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan ko‘p tarmoqli shifoxonada hosil bo‘ladigan B sinfiga kiruvchi chiqindilarni hosil bo‘lish miqdori ustidan monitoringi va tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Ko‘p tarmoqli shifoxonada B sinfga mansub chiqindilar hosil bo‘lish hajmini baholash Toshkent shahar (Ibn Sino nomidagi 1-sonli klinik kasalxonasi) va Toshkent viloyati Zangiota tumanida joylashgan ko‘p tarmoqli kasalxonasida olib borildi. 1-sonli klinik kasalxona 680 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, o‘z ichiga turli profildagi bo‘limlar, shu jumladan terapevtik, jarrohlik, RITB (reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlari), gemodializ va kuniga 300 qatnovga mo‘ljallangan ambulatoriya-poliklinika bo‘limilarini qamrab olgan.

Zangiota tumanida joylashgan 2-statsionar 350 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, turli xil profildagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan: terapevtik, jarrohlik, RITB, shuningdek, kuniga 200 bemorni qabul qila oladigan ambulatoriya-poliklinika bo‘limi ham shu kasalxona tassarufiga kiradi. Tibbiy bo‘limlar faoliyati natijasida to‘planadigan chiqindilar

hajmi, muassasa bo‘linmalarining har biri uchun uning profili va chiqindilarning morfologik tarkibiga bog‘liq holda alohida hisoblab chiqildi. Chiqindilar hosil bo‘lishi normativlarini tajriba yo‘li bilan aniqlash 10- 12 kun davomida shu kunlarda tibbiy yordam olgan bemorlar soni va tibbiy chiqindilarni hosil bo‘lish miqdori ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Natijada o‘rtacha kattaliklarning ishonchliligi statistik usullar bilan tekshirildi. Eksperimental tadqiqotlar terapevtik bo‘lim, jarrohlik bo‘limi, intensiv terapiya va reanimatsiya bo‘limi, gemodializ bo‘limi kabi turli profildagi bo‘limlarda o‘tkazildi.

Tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq infeksiyalar xavfini keltirib chiqaradigan klassik profildan kelib chiqqan holda tanlangan yuqorida sanab o‘tilgan bo‘limlarda, shuningdek, yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limlarida tabaqalashtirilgan yig‘ishdan tashqari, umuman kasalxonalar bo‘yicha hosil bo‘lgan B sinfidagi chiqindilar miqdori to‘g‘risida ma’lumotlar olindi. Ushbu ma’lumotlar tibbiy chiqindilarni zararsizlantirish uchastkalarida chiqindilarni hisobga olishning texnologik jurnallari asosida olingan.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari uchun B sinfga mansub chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yori muassasa chiqindilarini hisobga olishning texnologik jurnallari ma’lumotlari va smenadagi tashriflar soni asosida hisoblab chiqilgan, bunda bitta bemorni qabul qilish paytida hosil bo‘lgan chiqindilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bemorlarni xonalarda qabul qilish paytida chiqindilarni har kuni tortish usuli bilan tabiiy kuzatuv natijalari bilan tasdiqlangan. Natijada olingan qiymatlar tibbiy chiqindilar quvvati va bemorlar sonini hisobga olgan holda kun davomida hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdorining o‘rtacha ko‘rsatkichlariga (kilogrammda) qayta hisoblandi. Ishning birinchi bosqichida 2022-yildan hozirgi kungacha ambulatoriya-poliklinika va statsionar yo‘nalishdagi muassasalarda B sinfidagi chiqindilarning morfologik va fraksion tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan holda adabiy manbalar tahlili amalga oshirildi, bunda B sinfidagi chiqindilarning umumiy tarkibidagi plastik va polivinilxlorid plastik tarkibining dinamikasi ham baholandi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun Windows Microsof Excel (2016) uchun Statistica 10, dasturiy ta’minot paketlaridan foydalangan holda statistik ishlov berildi, o‘rtacha qiymat, o‘rtacha standart xato va o‘rtacha kvadratik (standart) og‘ish kabi statistik ko‘rsatkichlar, shuningdek, 95 foizlik ishonchlilik interval darajasi hisoblab chiqildi.

Tadqiqot natijalarini tavsiflashda o‘rtacha qiymat (X) va standart og‘ish (mx) yig‘indisi sifatida aniqlangan statistik kattalikdan foydalanildi. Miqdoriy ma’lumotlar uchun Shapiro-Uilk mezoni yordamida taqsimotning normalligini tekshirish amalga oshirildi. Ikkala guruhni taqqoslash uchun Mann-Uitni noparametrik mezonidan foydalanildi va taqqoslash holatlarida bir nechta guruhlar uchun - Kraskel - Uollis mezoni qo‘llanildi. Miqdoriy belgilarni tavsiflash uchun mediana va kvartillardan foydalanildi, toifaviy belgilar foizlarda ifodalangan chastotalar bilan tavsiflandi.

Tadqiqot natijalari 2022-2024-yillarda statsionar va ambulator-poliklinika muassasalarida (APM) o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida yangi B sinfga mansub chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yorlari: statsionarlar uchun - bir kunda bir koykaga 0,76 ± 0,09 kg; APU uchun - bir tashrif uchun 0,06 ± 0,005 kg bo‘lishiga oid ma’lumotlar olindi.

2012-yildan 2024-yilgacha B sinfga mansub chiqindilar hosil bo‘lishi taxminiy me’yorlarning dinamik o‘zgarishlarini baholash amalga oshirildi. 2024-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida umumiy yo‘nalishdagi statsionar davolash-profilaktika muassasalari uchun chiqindilar hosil bo‘lishining quyidagi taxminiy me’yori o‘rnatildi - kuniga bir koyka uchun 0,156 kg; APMlarga bir tashrif uchun - 0,02 kg miqdorda tibbiy chiqindi hosil bo‘ladi. Tekshirishlar natijasida olingan ma’lumotlardan ma’lum bo‘ldiki, 2012-yilga nisbatan 2024-yilga kelib nazorat ostidagi tibbiyot muassasalarida hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdori sezilarli ravishda oshdi va u mos holda 2022-yilda statsionarlar uchun kuniga 0,18 kg ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu 0,76 kgni tashkil etdi.

Olingan ma’lumotlarga asoslanib, 2022-2024-yillar davomida B sinfga mansub chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yori sezilarli darajada oshganligi qayd etilgan. O‘sish sur’ati 2022-yilda qayd etilgan ko‘rsatkichlarga nisbatan 85,2% ni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval.

Sutka davomida statsionardagi bir koykadan hosil bo‘ladigan tibbiy chiqindining qiyosiy me’yor dinamikasi (2022 -2024-yillar)

Qiyosiy miqdori (kg)		O‘sish sur’ati (%)	
2022	2024	2022	2024
0,18	0,76	21,4	85,2

2-jadval.

Kasalxonada bir koykadan sutka davomida hosil bo‘ladigan B sinf chiqindilar qiyosiy normativlarining statistik ko‘rsatkichlari (2022-2024-yillar)

Bo‘limlar	2022-yildagi chiqindilarning o‘rtacha miqdori	O‘rtacha kvadrat og‘ish	Mediana	2024 yildagi chiqindioarning o‘rtacha miqdori	O‘rtacha kvadrat og‘ish
Terapiya	0,20	0,05	0,15	0,49	0,02
Jarrohlik	0,40	0,07	0,41	0,59	0,03
RITB	0,15	0,55	0,12	0,55	0,12
Gemodializ	0,20	0,06	0,20	0,22	0,07
Kasalxonadagi koyka-larning umumiy soniga nisbatan	0,145	0,04	0,10	0,65	0,09

3-jadval.

Terapiya, Jarrohdik, RITB va gemodializ bo‘limlarida chiqindilar xosil bo‘lishining qiyosiy dinamik ko‘rsatkichlari

Bo‘limlar	Chiqindilarning o‘rtacha miqdori (kg)		O‘sish sur’ati (%)
	2022	2024	
Terapiya	0,18	0,48	51,5
Jarrohlik	0,40	0,60	47,8
RITB	0,20	1,60	43,5
Gemodializ	0,19	1,15	71,8

Turli klinik bo‘limlarda 2022-yil uchun chiqindilar hosil bo‘lishi taxminiy me’yorlarining statistik ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

Chiqindi hosil bo‘lishining taxminiy me’yorlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar bo‘linmalarda chiqindilarning turli fraksion va morfologik tarkibi, ularning bir qatorida, masalan, RITB, gemodializ va jarrohlik bo‘limlarida o‘ta yuqori potensial yuqumli xavf (shu jumladan, polirezistent shtammlarning tarqalishi) va, shubhasiz, B sinfidagi chiqindilar tarkibida plastikning yuqori miqdori tufayli juda dolzarb bo‘lib, bu zararsizlantirish texnologiyasini tanlash bilan bog‘liq bo‘ladi. Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, dinamikaning eng yuqori ko‘rsatkichlari bu gemodializ bo‘limlari uchun xos bo‘lib, 2012-2024- yillarda o‘sish sur’ati 71,8% ni tashkil etdi.

2024-yilga kelib B sinfidagi chiqindilar hosil bo‘lishi taxminiy me’yorining sezilarli o‘sishi COVID-19 tarqalishi davrida ham bir martalik tibbiy buyumlardan, ham xodimlar va bemorlarni shaxsiy himoya qilish vositalaridan foydalanishning ko‘payishi bilan bog‘liq. B sinfga mansub chiqindilarning o‘sish sur’ati O‘RIT bo‘limlarida biroz pastroq bo‘ldi, bu yerda tahlil qilinayotgan davrda kuniga bir o‘ringa to‘g‘ri keladigan chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy mye’yorining o‘zgarishi 2012-yil darajasiga nisbatan 30,3% ni tashkil etdi.

XulosaZamonaviy bosqichda B sinfidagi tibbiy chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yorlarini dolzarblashtirish zamonaviy sog‘liqni saqlashning muhim vazifasidir, chunki tibbiy chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish uchun hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdorining o‘sishini va ularning fraksion va morfologik tarkibini, shu jumladan iqtisodiy nuqtai nazardan ham oldindan bashorat qilish juda muhim gigiyenik va epidemiologik ahamiyatga ega. Olib borilgan tekshirishlardan ma’lum bo‘ldiki, tibbiy chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yorlari dunyoning turli mamlakatlarida turlicha bo‘lib, ilmiy-texnik taraqqiyot va sog‘liqni saqlashning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlarda rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda shifoxona chiqindilari o‘rtacha ko‘proq ishlab chiqariladi. JSST-ning 2011-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori daromadli mamlakatlarda kuniga bir koykaga o‘rtacha 0,5 kg gacha zararlangan xavfli chiqindilar to‘g‘ri keladi, past daromadli mamlakatlarda esa so‘nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda kasalxona chiqindilari umumiy miqdorining ko‘payishi bilan o‘rtacha 0,2 kg ishlab chiqariladi. Sog‘liqni saqlashning rivojlanishi, yangi materiallarning paydo bo‘lishi tibbiy chiqindilarning tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, plastmassa fraksiyasining o‘sishiga ham, umuman chiqindilarning ko‘payishiga ham olib keladi. Ushbu tendensiya tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasining oshishi; bir martalik asboblar va materiallarni ustuvor joriy etish bilan bog‘liq yuqori texnologiyali tibbiy yordamning faol tarqalishi; yangi xavfli infeksiyalarning paydo bo‘lishi va shunga mos ravishda xodimlar va bemorlar uchun himoya choralarini kuchaytirish kabi omillar bilan belgilanadi. Umuman olganda, B sinfidagi tibbiy chiqindilar hajmining ko‘payishidan tashqari, ularning fraksion va morfologik tarkibi ham o‘zgardi. Asosiy tarkibiy qism polimer moddalar - tibbiy plastmassadan iborat.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 2022-yilda shifoxonalarda B sinfidagi

tibbiy chiqindilarning umumiy miqdorida o‘sish kuzatilgan. B sinfga mansub chiqindilar hosil bo‘lishining taxminiy me’yori kuniga bir koykaga 0,76 ± 0,09 kg ni tashkil etdi (2004 yilda bu me’yor kuniga bir koykaga 0,156 kg ni tashkil etgan). Ambulatoriya-poliklinika muassasalarida xuddi shu tarzda B sinfga mansub chiqindilar miqdorining ko‘payishi kuzatildi, taxminiy me’yor bir tashrif uchun 0,06 ± 0,005 kg ni tashkil etdi (taqqoslash uchun 2004-yilda bu ko‘rsatkich bir tashrif uchun 0,02 kg ni tashkil etgan).

ADABIYOTLAR

1. WHO. *Safe management of wastes from health-care activities*. Geneva, 2019.
2. Chartier Y. et al. *Healthcare Waste Management*. WHO Press.
3. Windfeld E.S., Brooks M.S. Medical waste management – A review. *Journal of Environmental Management*, 2015.
4. Das A. et al. Biomedical waste management: The challenge amidst COVID-19. *Environmental Research*, 2021.
5. UNEP. *Waste management during pandemics*, 2020.Перелыгин В. В. и др. Подходы к комплексному решению проблемы обращения с медицинскими отходами //Формулы Фармации. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 78-83.
6. Киёк О. В. и др. Обращение с медицинскими отходами в условиях современного здравоохранения-проблемы и пути решения //Кубанский научный медицинский вестник. – 2022. – Т. 29. – №. 3. – С. 121-134.
7. Бондарева Е. Д. Надлежащее обращение с биологическими и медицинскими отходами виварием //Лабораторные животные для научных исследований. – 2020. – №. 1. – С. 3-8.
8. Магомедов Х. К. и др. Ориентировочные нормативы образования медицинских отходов класса Б на современном этапе //Вестник Санкт-Петербургского университета. Медицина. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 295-304.
9. Зинченко А. Пособие по обращению с медицинскими отходами в медицинских учреждениях. – Litres, 2024.
10. Шаповал И. В. и др. Санитарно-эпидемиологический режим при организации процесса утилизации медицинских отходов на примере многопрофильного лечебно-профилактического учреждения //Медицина труда и экология человека. – 2021. – №. 3 (27). – С. 33-43.
11. Родионова А. Ю., Барабаш В. В. Утилизация медицинских отходов //Холодильная техника и биотехнологии. – 2023. – С. 217-219.
12. Марченко Б. И., Дерябкина Л. А., Назарянц А. А. К проблеме государственного мониторинга и регулирования обращения с отдельными видами отходов в целях предотвращения риска загрязнения окружающей среды фармацевтическими средствами //А64 Анализ риска здоровью–2024: материалы XIV Всероссийской научно-практической конференции с международным участием: в 2 т./под ред. проф. АЮ Поповой, акад. РАН НВ Зайцевой.–Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2024. ISBN 978-5-398-03149-2 (общ.). – С. 346.
13. Мироненко О. В., Федорова Е. А., Суворова О. К. Организация системы управления медицинскими отходами в регионе на основе гистехнологий //Редакционная коллегия: Аликбаева ЛА, д. м. н., профессор Асланов БИ, д. м. н., доцент Бакулин ИГ, д. м. н., профессор Гончар НТ, д. м. н., профессор. – 2024. – С. 143.
14. Шамшурина Н. Г. и др. Правовые и экономические проблемы совершенствования системы управления медицинскими отходами //Гигиена и санитария. – 2020. – Т. 99. – №. 7. – С. 656-662.
15. Соколова Н. Р., Ерошкина Л. А. Как не допустить второй волны COVID-19 при обращении с медицинскими отходам //Журнал справочник эколога. – 2020. – №. 5. – С. 32-43.
16. Балакаева А. В., Скопин А. Ю. Гармонизация законодательства по обращению с медицинскими отходами как фактор экологической и санитарно-эпидемиологической безопасности //ББК 51 А43. – 2025. – С. 55.
17. Мозжухина Н. А., Еремин Г. Б., Ломтев А. Ю. Противоречия законодательства по регулированию обращения с медицинскими отходами при производстве лекарственных средств //Гигиена и санитария. – 2019. – Т. 98. – №. 1. – С. 38-44.
18. 20.Ляпухов Н. Е., Перминова В. Н. Способ сбора, временного хранения и утилизации медицинских отходов. – 2015. 21. ISKANDAROV, A. B., & RASHIDOV, V. A. (2025). Tibbiy chiqindilarning sanitar-gigiyenik tavsifi. Innovation in the modern education system, 5(48), 57-58.
19. Iskandarov, A. B., & Rashidov, V. A. (2025). Davolash-profilaktika muassasalari chiqindilarini zararsizlantirishning dolzarb muammolari (adabiyotlar sharhi). MASTERS, 3(1), 56-60.
20. Курбанова, Ш. И., Рашидов, В. А., Абдуразизов, Р. А., & Илясов, О. А. (2015). Значимость организации мусороперегрузочных станций в аспекте утилизации твердых бытовых отходов. Молодой ученый, (11), 545-547.
21. Iskandarov, A. B., & Rashidov, V. A. (2025). Tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilishga qo ‘yiladigan gigiyenik talablar. Innovation in the modern education system, 5(48), 55-56.

TURLI TARKIBLI CHIQINDILARNI KO‘MISH POLIGONLARINING ISH SAMARADORLIGINI GIGIYENIK BAHOLASH USULLARI

Safarov Mizoxid Boltayevich – mustaqil izlanuvchi, assistent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli tarkibli chiqindilarni ko‘mish poligonlarining ish samaradorligini gigiyenik jihatdan baholash usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda poligonlarda chiqindilarni joylashtirish, saqlash va zararsizlantirish jarayonlarining sanitariya me’yorlariga muvofiqligi tahlil qilindi. Atrof-muhitga ta’sir etuvchi omillar, jumladan tuproq, havo va yer osti suvlarining ifloslanish darajasi o‘rganildi. Shuningdek, poligonlarning ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan gigiyenik va ekologik tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *chiqindilar poligoni, qattiq maishiy chiqindilar, gigiyenik baholash, atrof-muhit ifloslanishi, sanitariya nazorati, chiqindilarni zararsizlantirish, ekologik xavfsizlik*

МЕТОДЫ ГИГИЕНИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ ПОЛИГОНОВ ЗАХОРОНЕНИЯ ОТХОДОВ РАЗЛИЧНОГО СОСТАВА

Сафаров Мирзохид Болтаевич – соискатель, ассистент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье рассмотрены методы гигиенической оценки эффективности работы полигонов захоронения отходов различного состава. В ходе исследования проведён анализ соответствия процессов размещения, хранения и обезвреживания отходов санитарным нормам. Изучено влияние полигонов на окружающую среду, включая загрязнение почвы, атмосферного воздуха и подземных вод. Разработаны гигиенические и экологические рекомендации по повышению эффективности функционирования полигонов.*

Ключевые слова: *полигон отходов, твёрдые бытовые отходы, гигиеническая оценка, загрязнение окружающей среды, санитарный контроль, обезвреживание отходов, экологическая безопасность*

METHODS FOR HYGIENIC ASSESSMENT OF THE OPERATIONAL EFFICIENCY OF LANDFILL SITES FOR THE DISPOSAL OF WASTE OF VARIOUS COMPOSITIONS

Safarov Mizokhid Boltayevich – independent researcher, assistant
Tashkent state medical university (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This article presents methods for the hygienic assessment of the operational efficiency of landfills used for the disposal of waste with different compositions. The study analyzes the compliance of waste placement, storage, and disposal processes with sanitary standards. Environmental impacts of landfills, including soil, air, and groundwater contamination, are evaluated. Based on the findings, hygienic and environmental recommendations for improving landfill performance are proposed.*

Keywords: *landfill, municipal solid waste, hygienic assessment, environmental pollution, sanitary control, waste disposal, environmental safety*

Kirish. Hozirgi kunda aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda sanoat va maishiy faoliyat hajmining ortishi natijasida qattiq chiqindilar hosil bo‘lish miqdori keskin oshib bormoqda. Bu esa chiqindilarni to‘plash, tashish, qayta ishlash va ko‘mish jarayonlarini samarali tashkil etishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, turli morfologik tarkibga ega bo‘lgan chiqindilarni ko‘mish uchun mo‘ljallangan poligonlar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi [1,2].

Chiqindilar poligonlarida organik moddalarning parchalanishi, kimyoviy birikmalarning hosil bo‘lishi hamda gaz va filtrat chiqindilarining ajralishi natijasida atmosfera havosi, tuproq va yer osti suvlarining ifloslanishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat ekotizimlarga, balki inson salomatligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, poligonlar faoliyatining sanitar-gigiyenik jihatdan baholanishi va ularning ish samaradorligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Bugungi kunda chiqindilar poligonlarining ish samaradorligini baholashda asosan alohida ekologik yoki texnik ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratiladi. Biroq ularning gigiyenik jihatdan kompleks baholanishi, ya’ni atmosfera havosi, tuproq, suv muhiti, mikroklimat va ish joylaridagi mehnat sharoitlari bilan bog‘liq omillarni birgalikda tahlil qilish yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa mavjud baholash tizimlarining samaradorligini cheklaydi va aniq ilmiy xulosalar chiqarishga to‘sqinlik qiladi [4,5].

Shu munosabat bilan, turli tarkibli chiqindilarni ko‘mish poligonlarining ish samaradorligini kompleks gigiyenik baholash usullarini takomillash-

tirish, atrof-muhit omillari va inson salomatligiga ta’sirini integral yondashuv asosida o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur tadqiqot chiqindilarni boshqarish tizimini optimallashtirish, sanitar me’yorlarni takomillashtirish va aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiladi [6,15].

Dolzarblik. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida qattiq maishiy va sanoat chiqindilari hajmining keskin ortishi global ekologik muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining o‘sishi va iste’mol madaniyatining o‘zgarishi natijasida chiqindilarning morfologik tarkibi ham murakkablashib bormoqda. Bu esa ularni qayta ishlash va zararsizlantirish imkoniyatlarini cheklab, asosiy yuklamani chiqindilarni ko‘mish poligonlariga yuklamoqda [7,8].

Chiqindilar poligonlari atrof-muhitga ta’sir etuvchi muhim antropogen manba hisoblanib, ularda kechadigan fizik-kimyoviy va biologik jarayonlar natijasida atmosfera havosiga zararli gazlar (metan, ammiak, vodorod sulfid), tuproq va yer osti suvlariga filtrat orqali ifloslantiruvchi moddalar tarqaladi. Shu bilan birga, poligon hududida ishlovchi xodimlar uchun noqulay mikroklimat, yuqori changlanish darajasi, shovqin va biologik xavf omillari mehnat sharoitlarining yomonlashuviga olib keladi. Ushbu omillar aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, nafas yo‘llari kasalliklari, allergik holatlar va boshqa kasalliklar xavfini oshiradi [9,10,11].

Hozirgi vaqtda chiqindilar poligonlarining ish samaradorligini baholash ko‘proq texnik-iqtisodiy yoki alohida ekologik ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirilmoqda. Biroq ularning sanitar-gigiyenik holatini kompleks tarzda baholash, ya’ni havo, tuproq, suv muhiti, mikroklimat va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni integral ravishda tahlil qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa poligonlar faoliyatining inson salomatligi va atrof-muhitga ta’sirini to‘liq baholash imkonini cheklaydi [12,13].

Shu nuqtai nazardan, turli morfologik tarkibga ega chiqindilarni ko‘mish poligonlarining ish samaradorligini gigiyenik jihatdan kompleks baholash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar chiqindilarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish, sanitariya-gigiyena me’yorlarini takomillashtirish hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiladi [14].

Tadqiqot maqsadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi turli tarkibli chiqindilarni ko‘mish poligonlarining ish samaradorligini gigiyenik jihatdan baholash, ularda chiqindilarni joylashtirish, saqlash va zararsizlantirish jarayonlarining sanitariya me’yorlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari.

Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallardan: turli tarkibli chiqindilarni qabul qiluvchi poligonlar bo‘yicha ma’lumotlar; poligonlarning loyiha hujjatlari va ekspluatatsiya ko‘rsatkichlari; tuproq, atmosfera havosi va yer osti suvlaridan olingan namuna materiallari; sanitariya qoida va me’yorlari hamda ekologik normativ hujjatlar; laboratoriya tahlillari natijalari va monitoring ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lsa, tadqiqot usullaridan, **kuzatuv usuli**, l**aborator tahlil usullari, statistik tahlil usuli** va t**aqqoslash tahlili** usullari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Toshkent shahri uchun asosiy qattiq maishiy chiqindilar poligoni — Oxangaran poligoni hisoblanadi. U Ohangaron tumani hududida joylashgan bo‘lib, poytaxtdan chiqadigan chiqindilarning katta qismi shu yerga olib kelinadi. Poligonning asosiy vazifalari bo‘lib: qattiq maishiy chiqindilarni qabul qilish; chiqindilarni qatlamlab joylashtirish va zichlash; zararli moddalar tarqalishining oldini olish;

- Filtrat va gazlarni nazorat qilish
- Atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish

Toshkent viloyati Ohangaron tumani Yangihayot MFY hududida joylashgan “Maxsustrans ishlab-chiqarish” DUK “Chiqindilarni qayta yuklash va utilizatsiya qilish” filialiga qarashli “Ohangaron” shahar markaziy chiqindixonasining sanitariya-texnik holati o‘rganib chiqilib, quyidagilar aniqlandi. “Ohangaron” shahar markaziy chiqindixonasi Toshkent viloyati Ohangaron tumani Ohangaron shox ko‘chasi 32-km da joylashgan. Shahar markaziy chiqindixonasi 1970-yilda foydalanishga qabul qilinib, ishga tushurilgan. Chiqindixonaning umumiy yer maydoni 59 gani tashkil etib, shundan chiqindilarni to‘plash uchun 40 ga hamda bino va inshootlar uchun 0,0825 ga yer maydonlari ajratilgan.

Chiqindixonaning loyihaviy quvvati yiliga 800 ming tonna maishiy chiqindilarni qabul qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududlaridan hamda alohida muqobil alternativ kompaniyalar tomonidan bir kunda o‘rtacha 2200-2500 tonna maishiy chiqindilarni qabul qiladi. Shahar markaziy chiqindixonasiga kirish qismida nazorat punkti tashkil etilgan. Chiqindixona hududiga kirish yo‘llari va maxsus avtomashinalar harakatlanishi uchun yo‘llar asfaltlangan. Chiqindixonada jami 42 nafar ishchi-xodim ishlaydi, barchasi maxsus ish kiyimi bilan ta’minlangan. Ishchi-xodimlar uchun yechinib-kiyinish, ovqatlanish va dam olish xonalari mavjud. Yuvinish uchun dushxona tashkil etilgan. Bir o‘rinli o‘rali xojatxona mavjud. Suv ta’minoti markazlashmagan, texnik suvdan foydalaniladi. Ichimlik suvi olib kelib ishlatiladi. Kanalizatsiya tarmog‘i mavjud emas. Chiqindixonada avtomashina va mexanizmlar soni 35 tani tashkil etib, shundan 8 ta buldozer, 7 ta pogruzchik, 4 ta ekskavator, 2 ta zichlagich maxsus mexanizmi va 14 ta samosval mavjud bo‘lib, barchasi soz holatda.

Hozirgi kunda 32 ga yer maydonida loyiha asosida yangi qattiq maishiy chiqindilarni saqlash poligoni tashkil etilmoqda. Loyiha asosida yangi ma’muriy va maishiy binolar qurilishi ham ko‘zda tutilgan. Profilaktik dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya ishlarini olib borish uchun “Maxsustrans ICHB” DUK tomonidan Toshkent viloyati Ohangaron

tuman dezinfeksiya stansiyasi bilan 2023-yil 1-martda 1-sonli shartnoma tuzilgan.

O‘rganish jarayonida qo‘yidagi kamchiliklar aniqlandi:

Ishchilar uchun tashkil etilgan yechinib-kiyinish xonasi kapital ta’mir talab holatda bo‘lib, poli betonlangan, devorlari va shifti qorayib va is bosib ketgan, xonada umuman mukammal tozalash va yig‘ishtirish ishlari o‘tkazilmagan, garderob shkaflari taxtali bo‘lib, ma’nan eskirgan va zamon talablariga javob bermaydi.

Poligon ish joyi havosidagi zararli moddalarning o‘rtacha konsentratsiyasi va normativ bilan solishtirish

Ish joyi	Ko‘rsatkichlar soni	Normadan oshgan moddalar soni	Asosiy oshishlar
Qabul bo‘limi	11	2	Akrolein (2 barobar), Chang (1.6 barobar)
№1 xom ashyo yig‘ish	7	0	Normadan oshish kuzatilmadi
№2 xom ashyo yig‘ish	4	0	Normadan oshish kuzatilmadi
№3 makulatura	11	1	Chang (1.25 barobar)
Buldozerchi	15	5	Akrolein (6 barobar), Fenol (4.5 barobar), Metil-merkaptan (2 barobar), Etilen oksidi (1.3 baro-bar), Chang
Zichlovchi mas-hinist	15	6	Akrolein (5–6 barobar), Fenol (4 barobar), Metilmerkaptan, Etilen oksidi, Chang (3 baro-bar)

Quyidagi diagrammada ish joylari bo‘yicha normadan oshgan moddalar soni ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra: eng xavfsiz hududlar: №1 va №2 xom ashyo yig‘ish joylari. Barcha moddalar me’yor doirasida bo‘lib hisoblanadi. O‘rtacha xavf omillari: qabul bo‘limi va makulaturalarni saralash blokida kuzatiladi. Asosan chang va akrolein muammosi dolzarb hisoblanadi. Eng yuqori xavf zonasi: buldozerchi va zichlovchi mashinistlarning ish o‘rinlari hisoblanadi. Bu ish o‘rinlarida: akrolein: 5–6 marta yuqori; fyenol: 4 marta yuqori bo‘lib hisoblanadi. Ish joylarida esa chang miqdori: 3 martagacha yuqori bo‘lishi aniqlandi. Yuqori konsentratsiyalar asosan: chiqindilarni mexanik qayta ishlash, gaz ajralishi, yopiq kabina himoyasining yetarli emasligi bilan bog‘liq. Ayniqsa: Akrolein va fenol — yuqori toksik moddalar bo‘lib, nafas olish tizimiga jiddiy ta’sir qiladi.

Poligonda kimyoviy xavf ish turiga bog‘liq holda keskin farq qiladi, ya’ni eng xavfli ish o‘rinlari: buldozerchi va zichlovchi mashinistlarni io‘ joyi hisoblansa, asosiy xavf omillari bo‘lib: akrolein, fenol, chang miqdori hisoblanadi. Ayrim ish joylarida konsentratsiyalar ruxsat etilgan me’yordan 5–6 barobar yuqori bo‘lib bu mazkur muassasada ishlarchilarning ish sharoitiga va salomatligiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Ovqatlanish xonasi xam kapital ta’mir talab xolatda bo‘lib, poli betonlangan, devorlari va shifti suvoqlari ko‘chgan va chakki o‘tish sababli sarg‘ayib ketgan, ushbu xonada bitta oyna mavjud bo‘lib, yuvilmagan va ta’mir talab xolatda, ovqatlanish stollari va o‘tirgichlari (skameyka) qo‘l bola usulida yasalgan bo‘lib, ustki qoplami chirq bosib ketgan va zamon talablariga umuman javob bermaydi. Ovqat tayyorlash xonasi xovlida amalga oshiriladi, qozon-o‘choq turgan joyida ustki qismida naves mavjud emas, maxsulotlarga ishlov berish xonalari tashkil etilmagan, sabzavotlarni saqlash omborxonasi xam ko‘zda tutilmagan, tez buzuluvchan mahsulotlarni saqlash uchun muzlatgich bilan ta’minlanmagan.

Idish-tovoq saqlash xonasi kapital ta’mir talab holatda bo‘lib, poli betonlangan, devorlari va shifti qorayib ketgan, tomidan chakki o‘tganligi sababli shiftining suvoqlari ko‘chgan, idish-tovoqlar saqlash.javoni eskirib ketgan, 2 ta kreslo mavjud bo‘lib, umuman zamon talablariga javob bermaydi. Binoning tashqi fasadi ham kapital ta’mir talab holatga kelib qolgan, ya’ni devor qismlarining g‘ishtlari ko‘chib ketgan. Xonada umuman tozalash va yig‘ishtirish ishlari o‘tkazilmagan. Idish-tovoqlarni yuvish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan va issiq suv mavjud emas.

Annotatsiya*. Ushbu tadqiqotda temir tanqisligi anemiyasining 20 yoshli talabalar miya faoliyati va fikrlash qobiliyatiga bo‘lgan ta’siri o‘rganildi. Klinik laborator tekshiruvlar asosida anemiya tashxisi qo‘yilgan talabalar hamda sog‘lom nazorat guruhi Wechsler va Stroop testlari yordamida baholandi. Natijalar anemik talabalar sog‘lom tengdoshlariga nisbatan fikrlash tezligi, ishchi xotira va e’tibor ko‘rsatkichlari bo‘yicha 10–22% past natijalar qayd etganini ko‘rsatdi. Ushbu farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘lib, temir yetishmovchiligi talabalarning kognitiv salohiyatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.*

Kalit so‘zlar: *temir yetishmovchilik anemiyasi, miya faoliyati, mantiqiy fikrlash qobiliyati, Wechsler testi, Stroop testi.*

ДЕФИЦИТНАЯ АНЕМИЯ СРЕДИ СТУДЕНТОВ И ЕЁ НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Мирзаева Шахноза Хамиджановна – ассистент
Исроилов Азизжон Ғайрат ўғли – студент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В настоящем исследовании изучено влияние железодефицитной анемии на когнитивные функции и мыслительную активность студентов в возрасте 20 лет. С помощью тестов Векслера и Струпа были сравнены показатели студентов с диагностированной анемией и здоровой контрольной группы. Результаты показали, что анемичные студенты набрали на 10–22% меньше баллов по сравнению со сверстниками, особенно в аспектах памяти, внимания и скорости обработки информации. Различия были статистически значимыми и свидетельствуют о негативном влиянии анемии на нейропсихологические функции.*

Ключевые слова: *железодефицитная анемия, функционирование мозга, способность к логическому мышлению, тест Векслера, тест Струпа.*

IRON DEFICIENCY ANEMIA AMONG STUDENTS AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL CONSEQUENCES

Mirzayeva Shahnoza Khamidjanovna – assistant
Isroilov Azizjon Gayrat ugli – student
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: *This study investigates the impact of iron deficiency anemia on the cognitive functioning and mental performance of 20-year-old university students. Participants diagnosed with anemia and a healthy control group were assessed using the Wechsler and Stroop tests. Findings revealed that anemic students scored 10–22% lower than their healthy peers, particularly in memory, attention, and processing speed. These differences were statistically significant, indicating a notable negative influence of iron deficiency on students’ neuropsychological functioning*

Keywords: *Iron deficiency anemia, brain function, logical reasoning ability, Wechsler test, Stroop test.*

Kirish.

Anemiya — bu organizmda gemoglobin konsentratsiyasining fiziologik me’yorlardan past bo‘lishi yoki eritrotsitlar (qizil qon hujayralari) sonining kamayishi natijasida yuzaga keladigan gematologik holat bo‘lib, to‘qimalar va a’zolarga yetarli darajada kislorod yetkazib berilmasligi bilan tavsiflanadi. Gemoglobin — kislorodni o‘pkadan organizmning barcha qismlariga tashuvchi asosiy oqsil bo‘lib, uning yetishmovchiligi hujayraviy gipoksiyaga olib keladi, bu esa umumiy charchoq, miya faoliyatining susayishi, diqqatning pasayishi va kognitiv funksiyalarning zaiflashuvi kabi klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, anemiya erkaklarda gemoglobin darajasi 130 g/L dan, ayollarda esa 120 g/L dan, homilador ayollarda esa 110 g/L dan past bo‘lgan hollarda tashxis qilinadi. Global statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 15–49 yoshdagi ayollarning 30 foizga yaqini, ayniqsa 20–24 yoshli yosh ayollarning qariyb uchdan bir qismi (33%) anemiyadan aziyat chekadi. Erkaklar orasida bu ko‘rsatkich ancha past — 12–14% atrofida [1]. Anemiyaning eng ko‘p uchraydigan shakli — temir tanqisligi bo‘lib, u barcha holatlarning 50% dan ortig‘ini tashkil etadi [1]. Temir esa neyronlarning rivojlanishi, miya metabolizmi, miyelinatsiya va neyrotransmitterlar sintezi uchun zarur muhim elementdir [2]. Uning yetishmovchiligi bu jarayonlarni

izdan chiqarib, neyronlararo signal uzatishning sekinlashuvi va kognitiv hamda psixomotor funksiyalarning pasayishiga olib keladi.

Zamonaviy talaba yoshlar intellektual va ruhiy zo‘riqishga to‘la muhitda tahsil olmoqda. Ularning kognitiv faoliyatini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida anemiyani ko‘rsatish mumkin. Talabalar orasida anemiyaning yuzaga kelishiga olib keladigan asosiy omillar orasida noto‘g‘ri ovqatlanish, temir, folat va vitamin B12 kabi muhim mikroelementlarning yetarli darajada qabul qilinmasligi, ruhiy zo‘riqish, uyquning yetishmasligi, ayollar orasida esa hayz sikli davrida temir yo‘qotilishi muhim rol o‘ynaydi [3]. Gemoglobin darajasining pasayishi miyaga yetkaziladigan kislorod miqdorini kamaytiradi, bu esa fikrlash tezligi, e’tibor va xotira faoliyatida sezilarli pasayishga olib keladi [4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, temir tanqisligi bilan kechadigan anemiyaga chalingan yoshlar sog‘lom tengdoshlariga nisbatan testlarda 20–30% past natijalar ko‘rsatadi, shuningdek, stressga nisbatan sezuvchanliklari oshadi, kayfiyat barqarorligi buziladi va o‘zlashtirish darajasi keskin kamayadi [5].

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — yoshi o‘zaro teng bo‘lgan talaba o‘g‘il-qizlar orasida anemiyaning miya faoliyati va fikrlash qobiliyatiga ta’sir darajasini baholash hamda ko‘rsatkichlar orasidagi farqni aniqlashdan iborat.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabalar yotoqxonasida istiqomat qiluvchi 20 yosh toifasiga mansub, klinik-laboratoriya tekshiruvlari orqali temir tanqisligi anemiyasi aniqlangan 20 nafar (10 nafar qiz va 10 nafar o‘g‘il) talaba hamda nazorat guruhi sifatida sog‘lom deb topilgan 10 nafar (5 nafar qiz va 5 nafar o‘g‘il) talabалар tanlab olindi. Suhbatlar jarayonida ishtirokchilarning ijtimoiy va moddiy holatlari bir-biriga yaqin bo‘lishiga alohida e’tibor qaratildi. Talabalarning fikrlash faoliyatini baholashda **Wechsler intellektual testi va Stroop testidan** foydalanildi.

Wechsler testining asosiy maqsadi — talabalar fikrlash qobiliyati, ishchi xotira va aqliy faoliyat tezligini baholashdan iborat bo‘ldi. Baholash quyidagi uchta subtest asosida amalga oshirildi:

1.**“Raqamlar ketma-ketligi” (Digit Span):** Ishtirokchilarga 3 dan 8 tagacha bo‘lgan raqamlar ketma-ketligi aytilib, ularni oldin to‘g‘ri, so‘ng teskari tartibda qayta takrorlash so‘raldi. Bu topshiriq ishchi xotira hajmini va diqqatni baholashga xizmat qildi.

2.**“O‘xshashliklar” (Similarities):** Talabalarga ikkita so‘z jufti berilib (masalan: muz–muzlatgich, qush–qanot), ularning o‘xshash tomonlarini tushuntirish so‘raldi. Bu qism abstrakt fikrlash va tushunchalarni umumlashtirish qobiliyatini aniqladi.

3.**“Matritsa mantiqiylik” (Matrix Reasoning):** Vizual shakllar bilan mantiqiy ketma-ketlikdagi bo‘sh joyni to‘ldirish topshiriqlari berildi. Bu qism orqali talabalarning vizual-analitik fikrlashi va mantiqiy xulosalash salohiyati baholandi.

Tadqiqot doirasida qo‘llanilgan soddalashtirilgan Wechsler testi 28 ta savoldan iborat bo‘lib, uchta asosiy subtestni o‘z ichiga oladi: “Raqamlar ketma-ketligi” (8 ta savol), “O‘xshashliklar” (10 ta savol) va “Matritsa mantiqiyligi” (10 ta savol). Har bir savol maksimal 2 ball bilan baholandi: to‘liq va aniq javoblar uchun 2 ball, qisman to‘g‘ri javoblar uchun 1 ball, noto‘g‘ri yoki javobsiz holatlarda 0 ball qo‘yildi. Shunga muvofiq, ishtirokchining umumiy to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ball — 56 ballni tashkil etdi.

Baholash natijalari kognitiv salohiyat darajasini quyidagi mezonlar asosida aniqlash imkonini berdi:

- **48–56 ball** — yuqori darajadagi intellektual faoliyat,
- **38–47 ball** — o‘rtacha darajadagi kognitiv faoliyat,
- **28–37 ball** — past darajadagi kognitiv salohiyat,
- **0–27 ball** — kognitiv susayish ehtimoli mavjud bo‘lgan holat sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida talabalarning fikrlash tezligi, diqqatni jamlash darajasi va kognitiv nazoratini baholash uchun **Stroop testi** qo‘llanildi. Test uch bosqichdan iborat bo‘lib, unda ishtirokchilarga ranglarda yozilgan so‘zlar ko‘rsatildi. Ular ushbu so‘zlarning yozilgan rangini (masalan, “qizil” so‘zi yashil rangda yozilgan bo‘lsa, “yashil” deb aytish) tez va to‘g‘ri aytishlari kerak edi. Bu usul orqali talabalarning avtomatik o‘qish jarayonini to‘xtatib, rangga e’tibor berish qobiliyati (ya’ni kognitiv inhibitsiya) baholandi.

Baholashda ikki ko‘rsatkich hisobga olindi:

1.Topshiriqni bajarish uchun sarflangan umumiy vaqt (soniyalarda);

2.To‘g‘ri javoblar soni (maksimal 30 ta).

Natijalar quyidagicha baholandi:

- **Vaqt 45 soniyadan ko‘p**, to‘g‘ri javoblar **22 dan kam** — past kognitiv tezlik va e’tibor darajasi;
- **Vaqt 39–44 soniya**, to‘g‘ri javoblar **23–26** — o‘rtacha kognitiv faoliyat;
- **Vaqt 38 soniyadan kam**, to‘g‘ri javoblar **27 dan ko‘p** — yuqori darajadagi fikrlash tezligi va diqqat.

Natijalar va ularning muhokama:

O‘tkazilgan Wechsler testi natijalari asosida aniqlanishicha, temir tanqisligi anemiyasi bilan kasallangan talabalar sog‘lom tengdoshlari bilan taqqoslaganda xotira bilan bog‘liq kognitiv faoliyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ancha past natijalarni qayd etgan. Xususan, anemik talaba qizlarning umumiy o‘rtacha ballari 47,2 ± 4,5, o‘g‘il bolalarning esa 48,1 ± 3,9 ballni tashkil qilgan. Bunga qarshi ravishda, sog‘lom talabalar orasida bu ko‘rsatkichlar ancha yuqori bo‘lib, qizlarda 53,3 ± 2,1, o‘g‘il bolalarda esa 52,7 ± 2,4 ballga teng bo‘lgan.

Shuningdek, Stroop testi natijalari ham anemik talabalar orasida informatsiyani qayta ishlash tezligi va kognitiv e'tibor darajasida sezilarli pasayish kuzatilayotganini ko'rsatdi. Temir tanqisligi mavjud bo'lgan talaba qizlar topshiriqni o'rtacha 47,1 ± 4,6 soniya, o'g'il bolalar esa 45,5 ± 5,2 soniya ichida bajargan. Ularning to'g'ri javoblar soni mos ravishda 21,8 ± 2,5 va 22,3 ± 2,9 ni tashkil etgan. Sog'lom guruhda esa bu ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lib, talaba qizlarda test bajarilish vaqti 37,4 ± 3,8 soniya, to'g'ri javoblar soni esa 28,4 ± 1,2 ni tashkil qilgan. Sog'lom o'g'il bolalarda esa topshiriqni bajarish vaqti 36,8 ± 4,1 soniya, to'g'ri javoblar soni esa 27,9 ± 1,5 deb qayd etilgan.

Bu farqlar ham statistik jihatdan ishonchli deb baholandi ($p < 0.01$) va natijalar anemik talabalar orasida kognitiv nazorat, selektiv e'tibor va axborotni qayta ishlash tezligi kabi psixonevrologik funksiyalarda sezilarli darajada susayish mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'tkazilgan ikki xil test – Wechsler (xotira va tushunish) va Stroop (e'tibor va informatsiya tezligi) – natijalari shuni ko'rsatadiki, temir tanqisligi anemiyasi bilan kasallangan talabalar sog'lom tengdoshlariga nisbatan 10–22% gacha past kognitiv ko'rsatkichlarni namoyon qilganlar. Bu esa anemiya miya faoliyati va kognitiv funksiyalarni sezilarli darajada susaytirishini isbotlaydi.

Tavsiyalar:

- **Talabalar orasida temir tanqisligi anemiyasini erta aniqlash maqsadida muntazam tibbiy skrining tekshiruvlarini yo'lga qo'yish zarur.** Ayniqsa, yotoqxonada yashovchi yoki ovqatlanish muammosi mavjud bo'lgan talabalar alohida e'tiborga olinishi lozim. Gemoglobin va ferritin darajalarini yilda kamida ikki marta nazorat qilish, kasallikni erta bosqichda aniqlashga xizmat qiladi.
- **Ta'lim muassasalari oshxonalarida temirga boy va biologik jihatdan qulay ovqatlanish tizimi shakllantirilishi lozim.** Go'sht mahsulotlari, baklagillar, ko'katlar, C vitamini manbalarini o'z ichiga olgan muvozanatli ratsion talabalar salomatligi va kognitiv salohiyatini qo'llab-quvvatlaydi.
- **Anemik talabalar uchun individual profilaktika va davolash rejalari ishlab chiqilishi kerak.** Ular temir preparatlari, folat, B12 vitamini kabi zarur mikroelementlarni o'z ichiga olgan holda, shifokor nazoratida amalga oshirilishi lozim.
- **Talabalar orasida sog'lom turmush tarzi, jumladan, jismoniy faollik, yetarli uyqu va stressni kamaytirish bo'yicha ma'lumotlar keng targ'ib qilinishi lozim.**
- **Professor-o'qituvchilar va akademik murabbiylar anemiya alomatlarini erta aniqlash bo'yicha xabardor qilinishi zarur.** Agar talaba tez charchasa, diqqatini jamlay olmasa yoki o'qishda keskin pasayish kuzatilsa, bu holatlarni inkor qilmasdan, uni tibbiy ko'rikka yo'naltirish amaliyotga kiritilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. (2021). Haemoglobin concentrations for the diagnosis of anaemia and assessment of severity. Geneva: WHO. https://www.who.int/publications/i/item/WHO-NMH-NHD-MNM-11.

2. Beard, J. L., & Connor, J. R. (2003). Iron status and neural functioning. Annual Review of Nutrition, 23, 41–58. https://doi.org/10.1146/annurev.nutr.23.011702.073139

3. Camaschella, C. (2015). Iron-deficiency anemia. *The New England Journal of Medicine*, 372 (19), 1832–1843. https://doi.org/10.1056/NEJMra1401038

4. McLean, E., Cogswell, M., Egli, I., Wojdyla, D., & de Benoist, B. (2009). Worldwide prevalence of anemia, WHO Vitamin and Mineral Nutrition Information System, 1993–2005. Public Health Nutrition, 12(4), 444–454. https://doi.org/10.1017/S1368980008002401

5. Lozoff, B., & Georgieff, M. K. (2006). Iron deficiency and brain development. Seminars in Pediatric Neurology, 13(3), 158–165. https://doi.org/10.1016/j.spen.2006.08.004

HUJAYRA O‘LIMINING DASTURLANGAN SHAKLI: APOPTOZ VA UNING MEXANIZMLARI

Saidova Firuza Salomovna – assistent
Baxronova Mexrangiz Raxmonkulovna – talaba
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hujayra o‘limining dasturlangan shakli bo‘lgan apoptoz jarayoni, uning molekulyar mexanizmlari va biologik ahamiyati keng yoritilgan. Apoptoz – bu organizmda homeostazni saqlash, rivojlanish jarayonlarini boshqarish hamda shikastlangan yoki funksiyasini yo‘qotgan hujayralarni yo‘q qilishda muhim rol o‘ynovchi murakkab, genetik jihatdan boshqariladigan jarayondir. Maqolada apoptozning asosiy yo‘llari, xususan, intrinsik (mitoxondrial) va ekstrinsik (retseptor orqali) yo‘llar, shuningdek, kaspazalar tizimi va ularning faollashuv bosqichlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, apoptozning buzilishi bilan bog‘liq patologik holatlar, jumladan, onkologik kasalliklar, neyrodegenerativ kasalliklar va autoimmun buzilishlar ham muhokama etilgan. Tadqiqot natijalari apoptoz mexanizmlarini chuqurroq tushunish zamonaviy tibbiyotda yangi diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so’zlar: *apoptoz, hujayra o‘limi, kaspazalar, mitoxondriya, intrinsik yo‘l, ekstrinsik yo‘l, hujayra signalizatsiyasi, patologiya.*

PROGRAMMED CELL DEATH: APOPTOSIS AND ITS MECHANISMS

Saidova Firuza Salomovna – assistant
Bakhronova Mehrangiz Rakhmonkulovna – student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. *This article provides a comprehensive overview of the process of apoptosis, a programmed form of cell death, its molecular mechanisms, and biological significance. Apoptosis is a complex, genetically controlled process that plays an important role in maintaining homeostasis in the body, regulating developmental processes, and eliminating damaged or dysfunctional cells. The article reviews the main pathways of apoptosis, in particular the intrinsic (mitochondrial) and extrinsic (receptor-mediated) pathways, as well as the caspase system and the stages of their activation. In addition, pathological conditions associated with apoptosis disorders, including oncological diseases, neurodegenerative diseases, and autoimmune disorders, are discussed. The results of the study indicate that a deeper understanding of the mechanisms of apoptosis is of great importance in the development of new diagnostic and therapeutic methods in modern medicin*

Key words: *apoptosis, cell death, caspases, mitochondria, intrinsic pathway, extrinsic pathway, cell signaling, pathology.*

ПРОГРАММИРОВАННАЯ СМЕРТЬ КЛЕТКИ: АПОПТОЗ И ЕГО МЕХАНИЗМЫ

Саидова Фируза Саломовна – ассистент
Бахронова Мехрангиз Рахмонкуловна – студентка
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *В данной статье представлен всесторонний обзор процесса апоптоза, запрограммированной формы клеточной смерти, его молекулярных механизмов и биологического значения. Апоптоз — это сложный, генетически контролируемый процесс, играющий важную роль в поддержании гомеостаза в организме, регулировании процессов развития и удалении поврежденных или дисфункциональных клеток. В статье рассматриваются основные пути апоптоза, в частности, внутренний (митохондриальный) и внешний (рецептор-опосредованный) пути, а также каспазная система и стадии их активации. Кроме того, обсуждаются патологические состояния, связанные с нарушениями апоптоза, включая онкологические заболевания, нейродегенеративные заболевания и аутоиммунные расстройства. Результаты исследования показывают, что более глубокое понимание механизмов апоптоза имеет большое значение для разработки новых диагностических и терапевтических методов в современной медицине.*

Ключевые слова: *апоптоз, клеточная смерть, каспазы, митохондрии, внутренний путь, внешний путь, клеточная сигнализация, патология.*

Kirish. Dasturlangan hujayra o‘limi — apoptoz — ko‘p hujayrali organizmlarda hujayra populyatsiyasini nazorat qilishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon hujayralarning genetik jihatdan boshqariladigan tarzda o‘z-o‘zini yo‘q qilishi bilan tavsiflanadi va organizmning normal rivojlanishi, differensiyalanishi hamda to‘qimalar homeostazini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Apoptoz orqali organizm ortiqcha, shikastlangan yoki funksional jihatdan nuqsonli hujayralardan xalos bo‘ladi, bu esa ichki muhit barqarorligini ta’minlaydi. Apoptoz atamasi ilmiy muomalaga John F. R. Kerr, Andrew H. Wyllie va Alastair R. Currie tomonidan kiritilgan bo‘lib, ushbu jarayon hujayra o‘limining faol va qat’iy nazorat qilinadigan shakli ekanligi bilan nekrozdan tubdan farq qiladi. Apoptoz davomida hujayrada xos morfologik o‘zgarishlar — xromatin kondensatsiyasi, DNK fragmentatsiyasi, hujayra membranasining blebbing jarayoni va apoptotik jismlarning hosil bo‘lishi kuzatiladi. Apoptozning molekulyar asoslari murakkab signal uzatish tizimlariga tayanadi. Ushbu jarayonning markazida kaspazalar — sistein proteazalar oilasiga mansub fermentlar bo‘lib, ular ketma-ket faollashish orqali hujayra strukturalarining parchalanishini ta’minlaydi. Apoptoz ikki asosiy yo‘l orqali amalga oshadi: intrinsik (mitoxondrial) va ekstrinsik (o‘lim retseptorlari orqali) yo‘llar. Intrinsik yo‘l asosan hujayra ichidagi stress omillari, masalan, DNK shikastlanishi yoki oksidlovchi stress ta’sirida faollashadi va mitoxondriyalardan sitoxrom c ajralib chiqishi bilan boshlanadi. Ekstrinsik yo‘l esa hujayra yuzasidagi maxsus retseptorlar orqali tashqi signallar ta’sirida ishga tushadi. Apoptoz mexanizmlarining buzilishi turli patologik holatlarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, apoptozning susayishi hujayralarning nazoratsiz proliferatsiyasiga olib kelib, o‘sma kasalliklari rivojlanishiga xizmat qiladi, aksincha, uning ortiqcha faollashuvi esa neyronlarning nobud bo‘lishiga olib kelib, Alzheimer kasalligi va Parkinson kasalligi kabi neyrodegenerativ kasalliklar patogenezida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli apoptoz mexanizmlarini chuqur o‘rganish zamonaviy biotibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi apoptoz jarayonining molekulyar mexanizmlarini tizimli tahlil qilish, uning asosiy signal yo‘llari va regulyator komponentlarini yoritish hamda ushbu jarayonning fiziologik va patologik ahamiyatini ilmiy asosda ochib berishdan iborat.

Dolzarbligi. Hozirgi kunda hujayra biologiyasi va tibbiyot sohasida dasturlangan hujayra o‘limi — apoptozni o‘rganish eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, apoptoz organizmda hujayra sonining muvozanatini saqlash, genetik barqarorlikni ta’minlash hamda zararlangan yoki mutatsiyaga uchragan hujayralarni bartaraf etishda muhim biologik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonning izdan chiqishi esa turli og‘ir va keng tarqalgan kasalliklarning rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Apoptoz mexanizmlarining buzilishi, ayniqsa, onkologik kasalliklar patogenezida muhim o‘rin tutadi. Normal sharoitda apoptoz orqali yo‘q qilinishi kerak bo‘lgan hujayralarning saqlanib qolishi ularning nazoratsiz ko‘payishiga olib keladi va bu o‘sma hosil bo‘lishining asosiy sabablaridan biridir. Shu bilan birga, apoptozning haddan tashqari faollashuvi hujayralarning ortiqcha yo‘qolishiga olib kelib, neyrodegenerativ kasalliklar, xususan, Alzheimer kasalligi va Parkinson kasalligi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, apoptozdagi disbalans autoimmun kasalliklar va immun tizimi buzilishlariga ham sabab bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillarda molekulyar biologiya, genetika va biotexnologiya sohalaridagi yutuqlar apoptozning molekulyar mexanizmlarini chuqurroq o‘rganish imkonini bermoqda. Xususan, kaspazalar tizimi, Bcl-2 oilasiga mansub oqsillar, mitoxondrial signal yo‘llari va o‘lim retseptorlari orqali amalga oshuvchi mexanizmlar zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning markazida turibdi. Ushbu bilimlar asosida yangi avlod dori vositalari — maqsadli (target) terapiyalar ishlab chiqilmoqda, bu esa ayniqsa saraton kasalligini davolashda katta istiqbollarni ochmoqda. Shu nuqtai nazardan, apoptoz va uning mexanizmlarini chuqur o‘rganish nafaqat fundamental biologiya uchun, balki amaliy tibbiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar kasalliklarning erta diagnostikasi, samarali davolash usullarini ishlab chiqish hamda profilaktik choralarni takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi dasturlangan hujayra o‘limi apoptoz jarayonining molekulyar va hujayraviy mexanizmlarini kompleks tarzda o‘rganishdan iborat. Xususan, apoptozning intrinsik (mitoxondrial) va ekstrinsik (retseptor orqali) yo‘llarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish, ushbu jarayonda ishtirok etuvchi asosiy regulyator omillar — kaspazalar tizimi, Bcl-2 oilasiga mansub oqsillar hamda signal uzatish mexanizmlarining rolini aniqlash ko‘zda tutiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida apoptoz jarayonining buzilishi bilan bog‘liq patologik holatlar, jumladan, onkologik va neyrodegenerativ kasalliklar (masalan, Alzheimer kasalligi va Parkinson kasalligi) rivojlanishidagi ahamiyatini baholash ham maqsad qilib qo‘yilgan. Bundan tashqari, apoptoz mexanizmlarini chuqur o‘rganish orqali zamonaviy tibbiyotda yangi diagnostik yondashuvlar va maqsadli terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ilmiy asoslash ham ushbu tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Materiallar va usullar. Mazkur tadqiqotda apoptoz jarayonining asosiy mexanizmlarini o‘rganish maqsadida in vitro sharoitda inson hujayra liniyalaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida HeLa va HEK293 hujayralari tanlab olindi. Hujayralar standart sharoitda (37°C, 5% CO_2) oziqlantiruvchi muhitda yetishtirildi. Apoptozni yuzaga keltirish uchun hujayralarga turli ta’sirlar qo‘llanildi. Jumladan, oksidlovchi stress hosil qilish uchun vodo-

rod peroksid (H_2O_2), DNKga zarar yetkazish uchun etopozid, shuningdek tashqi signal orqali apoptozni faollashtirish uchun TNF-α va Fas-ligand ishlatildi. Hujayralar ma'lum vaqt davomida inkubatsiya qilinib, ularning reaksiyasi kuzatildi. Apoptoz darajasini aniqlash uchun bir nechta usullar qo'llanildi. Hujayralarning o'zgarishi mikroskop yordamida kuzatildi. DNK parchalanishini aniqlash uchun TUNEL usuli ishlatildi. Shuningdek, Annexin V va propidium iodide (PI) bo'yoqlari yordamida apoptoz bosqichlari aniqlanib, hujayralar soni hisoblandi. Apoptoz jarayonida muhim rol o'ynovchi kaspaza-3, kaspaza-8 va kaspaza-9 fermentlarining faolligi maxsus testlar yordamida baholandi. Mitoxondriya faoliyatini o'rganish uchun uning membrana potensiali tekshirildi va sitoxrom c ajralib chiqishi tahlil qilindi. Bundan tashqari, apoptozga ta'sir qiluvchi ayrim oqsillar darajasi laboratoriya usullari yordamida aniqlashtirildi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, o'rtacha qiymatlar hisoblandi. Natijalar o'rtasidagi farqlar maxsus statistik usullar yordamida baholanib, $p<0,05$ ishonchli deb qabul qilindi.

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan tajribalar natijasida apoptoz jarayonining hujayralarda aniq va ketma-ket bosqichlarda kechishi kuzatildi. H_2O_2, etopozid hamda TNF-α va Fas-ligand ta'sirida hujayralarda morfologik o'zgarishlar yuzaga keldi. Mikroskopik kuzatuvlarda hujayralarning qisqarishi, yadroning zichlashishi va hujayra membranasining bo'rtib chiqishi (blebbing) kabi apoptozga xos belgilar aniqlandi. TUNEL testi natijalari DNK fragmentatsiyasi darajasi tajriba guruhlarida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Bu esa hujayralarda genetik materialning parchalanishi apoptoz jarayonining faol kechayotganini tasdiqladi. Annexin V-FITC/PI tahlili natijalariga ko'ra, erta apoptoz bosqichidagi hujayralar ulushi ham oshganligi qayd etildi, bu esa jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatadi. Kaspaza faolligi tahlilida kaspaza-3, kaspaza-8 va kaspaza-9 fermentlarining faollashuvi kuzatildi. Ayniqsa kaspaza-3 faolligining oshishi apoptozning yakuniy bosqichi faol kechayotganidan dalolat berdi. Kaspaza-8 faolligi ekstrinsik yo'lning ishga tushganini, kaspaza-9 esa intrinsik (mitoxondrial) yo'l faollashganini ko'rsatdi. Mitoxondrial membrana potensiali ($\Delta\Psi m$)ning pasayishi JC-1 bo'yash natijalarida aniqlandi. Bu mitoxondriyaning funksional buzilishi va apoptozning intrinsik yo'li faollashganini tasdiqladi. Shuningdek, sitoxrom c ning sitozolga chiqishi kuzatilib, mitoxondrial yo'l orqali apoptoz boshlanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Ekstrinsik yo'l tahlilida TNF-α va Fas-ligand ta'sirida hujayra yuzasidagi o'lim retseptorlari orqali signal uzatilishi faollashgani aniqlandi. Bu jarayon kaspaza-8 faollashuvi bilan birga kechib, hujayra o'limining tashqi signal orqali ham sodir bo'lishini ko'rsatdi. Muhokama qismida olingan natijalar apoptozning ikki asosiy yo'li — intrinsik va ekstrinsik mexanizmlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Har ikkala yo'l yakunda kaspaza-3 faollashuviga olib kelib, hujayraning tartibli parchalanishini ta'minlaydi. Bu natijalar avvalgi ilmiy tadqiqotlar bilan mos keladi va apoptozning universal biologik mexanizm ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Apoptoz jarayonining buzilishi ko'plab kasalliklar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Uning susayishi hujayralarning nazoratsiz ko'payishiga olib kelib, o'smalar rivojlanishiga sharoit yaratadi, ortiqcha faollashuvi esa to'qimalarning yemirilishiga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, olingan natijalar apoptoz mexanizmlarini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari dasturlangan hujayra o'limi — apoptozning murakkab, lekin aniq tartibga solingan biologik jarayon ekanligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, apoptoz hujayra hayot siklining muhim qismi bo'lib, organizmda hujayra muvozanatini saqlash, zararlangan yoki funksiyasini yo'qotgan hujayralarni yo'q qilishda hal qiluvchi rol o'ynashi tasdiqlandi. Tajriba davomida intrinsik (mitoxondrial) va ekstrinsik (retseptor vositachiligidagi) yo'llar orqali apoptoz faollashishi aniqlandi. Mitoxondrial yo'l faollashganda hujayra ichki stress omillari ta'sirida mitoxondriya membrana potensiali pasayishi, sitoxrom c ajralishi va kaspaza-9 faollashuvi kuzatildi. Ekstrinsik yo'l esa tashqi signal molekulalari TNF-α va Fas-ligand ta'sirida ishga tushib, kaspaza-8 orqali apoptoz jarayonini boshladi. Har ikkala yo'l yakunda kaspaza-3 faollashuviga olib kelib, hujayraning tartibli parchalanishini ta'minladi. Shuningdek, olingan natijalar apoptoz jarayonining faollashuvi DNK fragmentatsiyasi, hujayra membranasining o'zgarishi va yadro strukturasining buzilishi kabi aniq morfologik va biokimyoviy belgilar bilan kechishini tasdiqladi. Bu holat apoptozning nazorat qilinadigan va energiyaga bog'liq jarayon ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Muhim jihatlardan biri shundaki, apoptoz mexanizmlaridagi buzilishlar turli patologik holatlarning rivojlanishiga olib keladi. Uning susayishi hujayralarning nazoratsiz ko'payishi orqali o'smalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lsa, haddan tashqari faollashuvi esa to'qimalarning yemirilishi va neyrodegenerativ kasalliklar rivojlanishiga olib keladi. Shu jumladan, Alzheimer kasalligi va Parkinson kasalligi kabi og'ir kasalliklar patogenezida apoptoz muhim o'rin tutishi ilmiy adabiyotlarda keng tasdiqlangan. Umuman olganda, apoptoz mexanizmlarini chuqur o'rganish nafaqat fundamental biologiya uchun, balki amaliy tibbiyot uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni boshqaruvchi molekulyar yo'llarni o'rganish kelajakda saraton kasalliklarini davolashda yangi maqsadli terapiyalarni ishlab chiqish, neyrodegenerativ kasalliklarni oldini olish va hujayra darajasidagi buzilishlarni erta aniqlash imkonini beradi. Shu sababli, apoptoz va uning mexanizmlarini o'rganish zamonaviy biotibbiyotning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Alberts B., Johnson A., Lewis J. *Molecular Biology of the Cell*. New York: Garland Science, 2015.
2. Andrew H. Wyllie, Kerr J.F.R., Currie A.R. Apoptosis: basic biological phenomenon. *Journal of Pathology*, 1972.
3. Bax T., Green D.R. Mitochondrial control of apoptosis. *Nature Reviews Molecular Cell Biology*, 2001.
4. Brown J.M., Attardi L.D. The role of apoptosis in cancer development. *Nature Reviews Cancer*, 2005.
5. Cory S., Adams J.M. The Bcl-2 family: regulators of cell death. *Oncogene*, 2002.
6. Elmore S. Apoptosis: a review of programmed cell death. *Toxicologic Pathology*, 2007.
7. Fulda S., Debatin K.M. Extrinsic and intrinsic apoptosis pathways. *Cell Death & Differentiation*, 2006.
8. Green D.R., Reed J.C. Mitochondria and apoptosis. *Science*, 1998.
9. Hanahan D., Weinberg R.A. Hallmarks of cancer: the next generation. *Cell*, 2011.
10. Igney F.H., Krammer P.H. Death receptors and apoptosis. *Nature Reviews Cancer*, 2002.
11. Kerr J.F.R. Shrinkage necrosis and apoptosis. *British Journal of Cancer*, 1972.
12. Lowe S.W., Lin A.W. Apoptosis in cancer. *Carcinogenesis*, 2000.
13. Nagata S. Apoptosis by death factor Fas. *Cell*, 1997.
14. Oltvai Z.N., Korsmeyer S.J. Checkpoints of apoptosis regulation. *Cell*, 1994.
15. Reed J.C. Mechanisms of apoptosis. *American Journal of Pathology*, 2000.

TURLI TISH PASTALARINING KLINIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Batirova Shaxlo Muxammad qizi – talaba
Mamasoatov Ozodbek Shamsiddin o‘g‘li – talaba
Bobomuratova Dilnoza Turdikulovna – katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda 150 nafar bemor ishtirokida turli tarkibdagi tish pastalarining klinik samaradorligi 3 oy davomida baholandi. Splat Biocalcium, Sensodyne Repair & Protect, R.O.C.S Active Calcium va Lacalut White pastalari o‘rganildi. Baholashda DMF indeksi [1], Silness–Loe plak indeksi (PI) [2] va VAS shkalasi qo‘llanildi, Oqartirish samaradorligi esa foizlarda baholandi [8]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, remineralizatsion komponentlarga ega pastalar kariyes profilaktikasida samarali (DMF pasayishi) [2,3], ftor emal rezistentligini oshiradi [4]. Sensodyne sezgirlikni kamaytirishda eng yuqori natija berdi [7], Lacalut White esa oqartirishda yetakchi bo‘ldi [8].*

Kalit so‘zlar: *tish pastasi, remineralizatsiya, ftor, sezgirlik, abrazivlik, kariyes*

EVALUATION OF THE CLINICAL EFFECTIVENESS OF VARIOUS TOOTHPASTES

Batirova Shakhlo Mukhammad kizi – student
Mamasoatov Ozodbek Shamsiddin ugli – student
Bobomuratova Dilnoza Turdikulovna – Senior lecturer
Tashkent state medical university (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation: *This study evaluated the clinical efficacy of toothpastes with different compositions in 150 patients over a period of 3 months. Splat Biocalcium, Sensodyne Repair & Protect, R.O.C.S Active Calcium and Lacalut White pastes were studied. The DMF index [1], Silness–Loe plaque index (PI) [2], and VAS scale were used to assess the whitening efficacy, which was assessed in percentages [8]. The results showed that pastes with remineralizing components are effective in caries prevention (DMF reduction) [2,3], and fluoride increases enamel resistance [4]. Sensodyne showed the highest results in reducing sensitivity [7], while Lacalut White was the leader in whitening [8].*

Keywords: *toothpaste, remineralization, fluoride, sensitivity, abrasiveness, caries*

ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗЛИЧНЫХ ЗУБНЫХ ПАСТ

Батирова Шахло Мухаммад кизи – студентка
Мамасоатов Озодбек Шамсиддин угли – студент
Бобомуратова Дильноза Турдикуловна – старший преподаватель
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация*. В данном исследовании оценивалась клиническая эффективность зубных паст различного состава у 150 пациентов в течение 3 месяцев. Были изучены зубные пасты Splat Biocalcium, Sensodyne Repair & Protect, R.O.C.S Active Calcium и Lacalut White. Для оценки отбеливающей эффективности использовались индекс ДМФ [1], индекс зубного налета Сильнесса-Лоэ (ИП) [2] и шкала VAS, которая оценивается в процентах [8]. Результаты показали, что зубные пасты с реминерализующими компонентами эффективны в профилактике кариеса (снижение ДМФ) [2,3] и повышении устойчивости эмали к фтору [4]. Sensodyne показала лучшие результаты в снижении чувствительности [7], в то время как Lacalut White была лидером по отбеливанию [8].*

Ключевые слова*: зубная паста, реминерализующая, фтор, чувствительность, абразивность, кариес*

Dolzarbligi.

Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi umumiy salomatlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [5]. So‘nggi yillarda tish pastalari tarkibi sezilarli darajada takomillashib, ular nafaqat tozalash, balki davolovchi va profilaktik funksiyalarni ham bajaradigan bo‘ldi [4].

2021-yildan keyingi ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, ftor (NaF), gidroksiapatit va kalsiy-fosfat komplekslari tish emalini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi [1,2,3].Shu sababli turli tish pastalarining klinik samaradorligini solishtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Maqsad va vazifalar.

Maqsad:

Turli tarkibga ega tish pastalarining klinik samaradorligini baholash.

Vazifalar:

Tish pastalarining kariyes profilaktikasiga ta’sirini o‘rganish

Sezgirlikka ta’sirini baholash

Oqartirish samaradorligini aniqlash

Bemorlar qoniqish darajasini aniqlash

Material va usullar.

Tadqiqot dizayni:

Prospektiv, randomizatsiyalangan klinik tadqiqot

Tadqiqot joyi:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko‘p tarmoqli klinikasi

Tadqiqot davomiyligi:

3 oy (2026 yil yanvar–mart)

Ishtirokchilar:

Jami:	**150**
Yosh:	18–45 yosh
Erkaklar:	70(46,7%)
Ayollar:	80(53,3%)

Guruhlash:

Bemorlar 4 guruhga bo‘lindi:

Guruhlar	**Bemorlar soni**	**Ishlatilgan tish pastalari**
1-guruh	40(26,7%)	Splat Biocalcium
2-guruh	40(26,7%)	Sensodyne Repair & Protect
3-guruh	35(23,3%)	R.O.C.S. active calcium
4-guruh	35(23,3%)	Lacalut White

Tadqiqot usullari:

DMF indeksi (Decayed, Missing, Filled teeth) bu indeks kariyes intensivligini baholash uchun ishlatiladi [1].

Hisoblash formulasi: DMF = D (kariyesli tishlar) + M (olib tashlangan tishlar) + F (plombalangan tishlar)

Baholash tartibi:

- Har bir bemorda og‘iz bo‘shlig‘i klinik ko‘rik qilinadi
- Har bir tish alohida baholanadi
- Natija umumiy yig‘indi sifatida qayd etiladi
- **Tahlil:** DMF kamayishi → kariyes profilaktikasi samaradorligini ko‘rsatadi

Plak indeksi – Silness-Löe (PI) Tish yuzasidagi blyashka (plak) miqdorini baholaydi [2].

Baholash mezoni (0–3 ball):

- 0 – plak yo‘q
- 1 – yupqa qatlam (faqat zond bilan aniqlanadi)
- 2 – ko‘zga ko‘rinadigan plak
- 3 – ko‘p miqdorda plak
- **Hisoblash formulasi:** PI = barcha tishlar bo‘yicha ball yig‘indisi / tekshirilgan tishlar soni**Interpretatsiya:**0–1 → yaxshi gigiyena1–2 → qoniqarli2–3 → yomon

VAS (Visual Analog Scale) – sezgirlikni baholash

Bemorning subyektiv og‘riq sezgisi baholanadi [7].

Shkala: 0 dan 10 gacha0 – og‘riq yo‘q10 – maksimal og‘riq

Tekshiruv usuli:

- Sovuq suv yoki havo oqimi bilan test
- Bemor o‘z sezgisini ball bilan baholaydi

Oqartirish samaradorligi (%) Vizual rang shkala asosida aniqlanadi (VITA scale analog) [8].**Formula:**Oqartirish (%) = (Boshlang‘ich rang – Yakuniy rang) / Boshlang‘ich rang × 100

Natijalar.

1-jadval.

Kariyes rivojlanish dinamikasi

Guruh	**Boshlanish (DMF)**	**3-oy oxiri**	**O‘zgarish**
Splat	3.2	2.1	1
Sensodyne	3	2.4	0.6
R.O.C.S	3.1	2	1.1
Lacalut	3.3	2.5	0.8

Izoh: Splat va R.O.C.S guruhlarida DMF indeksi eng ko‘p kamaygan. Bu ularning remineralizatsion ta’siri yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

2-jadval.

Sezgirlik (VAS ball)

Guruh	Boshlanish	3-oy oxiri	O‘zgarish
Splat	6.5	3.2	3.3
Sensodyne	6.8	2.1	4.7
R.O.C.S	6.4	3.5	2.9
Lacalut	6.6	4	2.6

Izoh: Sensodyne eng katta sezgirlik kamayishini ko‘rsatdi, bu uning nerv bloklovchi komponentlari bilan bog‘liq.

3-jadval.

Oqartirish samaradorligi (%)

Guruh	Oqartirish (%)
Splat	35%
Sensodyne	20%
R.O.C.S	25%
Lacalut	45%

Izoh: Lacalut White abraziv komponentlari sababli eng yuqori Oqartirish natijasini berdi.

Diagramma tahlili:

Sensodyne sezgirlikni kamaytirishda eng samarali

R.O.C.S va Splat remineralizatsiyada yetakchi

Lacalut oqartirishda yuqori natija berdi

Muhokama.

Olingan natijalar 2021–2024-yillardagi ilmiy tadqiqotlar bilan mos keladi [1,2,3,4]. Ftorli pastalar kariyesni kamaytirishda samarali ekanligi tasdiqlandi [4]. Sensodyne tarkibidagi kaliy nitrat nerv impulslarini bloklab, sezgirlikni kamaytiradi [7].

R.O.C.S tarkibidagi kalsiy-fosfat komplekslari emalni tiklashda muhim rol o‘ynaydi [2,6].

Lacalut tarkibidagi abraziv komponentlar oqartirish samaradorligini oshiradi, ammo uzoq muddatda ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak [8].

Xulosa.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, turli tarkibga ega tish pastalarining klinik samaradorligi ularning faol komponentlariga bevosita bog‘liq. Bemorning individual ehtiyojlari, tish sezgirligi, kariyes xavfi va estetik talablar hisobga olinishi zarur [1–8].

Turli pastalarning samaradorligi bo‘yicha farqlar:

- Splat Biocalcium: eng yuqori umumiy samaradorlik [1,2,6]
- R.O.C.S Active Calcium: emal remineralizatsiyasi va kariyes profilaktikasi [2,6]
- Sensodyne Repair & Protect: sezgirlikni kamaytirish [7]
- Lacalut White: estetik oqartirish [8]

Klinik va amaliy ahamiyati:

- Remineralizatsion pastalar: kariyes oldini olish va emal mustahkamlash [1,2,6]
- Sezgir tishlar: maxsus tarkibga ega pastalar [7]
- Estetik oqartirish: abraziv komponentli pastalar [8]

Ilmiy ahamiyati. Tadqiqot zamonaviy tish pastalarining tarkibiy komponentlari klinik samaradorlikka bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatdi va stomatologlarga bemorlar uchun individuallashtirilgan tavsiyalar berishda asos bo‘la oladi [1–8].

ADABIYOTLAR

1. Featherstone J.D.B. Dental Caries: A Dynamic Disease Process. *Journal of Dentistry*, 2022
2. Ten Cate J.M. Remineralization of Carious Lesions. *Caries Research*, 2023
3. Amaechi B.T. Fluoride and Non-fluoride Remineralization Systems. *Clinical Oral Investigations*, 2021
4. Zero D.T. Dentifrices and Caries Prevention. *International Dental Journal*, 2024
5. World Health Organization. *Oral Health Report*, 2022
6. Lynch R.J.M. Calcium Phosphate Technologies. *Journal of Clinical Dentistry*, 2023
7. West N.X. Dentin Hypersensitivity Mechanisms. *Journal of Oral Rehabilitation*, 2022
8. Joiner A. Whitening Toothpastes Review. *Journal of Dentistry*, 2021

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ СТРОЕНИЯ СЕТЧАТКИ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ТОКСИЧЕСКОМ ГЕПАТИТЕ

Хидирова Гульноза Озодовна – Ph.D., доцент
Бурхонов Аббос Босит угли
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Экспериментальный токсический гепатит сопровождается выраженными метаболическими нарушениями, системной гипоксией, оксидативным стрессом и сосудистой дисрегуляцией, что приводит к поражению не только печени, но и других органов с высоким уровнем метаболической активности. Сетчатка глаза, являясь высокоспециализированной нейроваскулярной тканью, отличается особой чувствительностью к подобным системным изменениям. Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых печёночной патологии, морфофункциональные особенности сетчатки при токсическом гепатите остаются недостаточно изученными. Исследование морфофункциональных особенностей сетчатки при экспериментальном токсическом гепатите имеет важное значение для понимания механизмов системного поражения органов, а также может способствовать разработке новых диагностических и прогностических подходов на основе оценки состояния органа зрения.*

Ключевые слова: *токсический гепатит, сетчатка, морфология, нейроваскулярная ткань, оксидативный стресс, гипоксия, микроциркуляция, дегенерация фоторецепторов, глиальная активация, сосудистая дисфункция, системная интоксикация, морфометрия.*

EKSPERIMENTAL TOKSIK GEPATITDA TO‘R PARDA TUZILISHINING MORFOFUNKSIONAL ASOSLARI

Xidirova Gulnoza Ozodovna – Ph.D., dotsent
Burhonov Abbos Bosit o‘g‘li
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Eksperimental toksik gepatit og‘ir metabolik buzilishlar, tizimli gipoksiya, oksidativ stress va qon tomir disregulyatsiyasi bilan kechadi, bu nafaqat jigarning, balki metabolik faolligi yuqori bo‘lgan boshqa a’zolarning ham shikastlanishiga olib keladi. Ko‘zning to‘r pardasi yuqori darajada ixtisoslashgan neyrovaskulyar to‘qima bo‘lib, bunday tizimli o‘zgarishlarga alohida sezgirligi bilan ajralib turadi. Jigar patologiyasiga bag‘ishlangan ko‘p sonli tadqiqotlarga qaramay, toksik gepatitda to‘r pardaning morfofunksional xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Eksperimental toksik gepatitda to‘r pardaning morfofunksional xususiyatlarini o‘rganish organlarning tizimli shikastlanish mexanizmlarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega, shuningdek, ko‘rish organining holatini baholash asosida yangi diagnostik va prognostik yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *toksik gepatit, to‘r parda, morfologiya, neyrovaskulyar to‘qima, oksidativ stress, gipoksiya, mikrotsirkulyatsiya, fotoretseptorlar degeneratsiyasi, glial faollashuv, qon tomir disfunksiyasi, tizimli intoksikatsiya, morfometriya.*

MORPHOFUNCTIONAL PREREQUISITES OF RETINAL STRUCTURE IN EXPERIMENTAL TOXIC HEPATITIS

Khidirova Gulnoza Ozodovna – Ph.D., associate professor
Burhonov Abbos Bosit ugli
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. *Experimental toxic hepatitis is accompanied by severe metabolic disturbances, systemic hypoxia, oxidative stress, and vascular dysregulation, leading to damage not only to the liver but also to other organs with high metabolic activity. The retina, a highly specialized neurovascular tissue, is particularly sensitive to such systemic changes. Despite a significant number of studies devoted to liver pathology, the morphofunctional characteristics of the retina in toxic hepatitis remain poorly understood. Studying the morphofunctional characteristics of the retina in experimental toxic hepatitis is important for understanding the mechanisms of systemic organ damage and may also contribute to the development of new diagnostic and prognostic approaches based on visual assessment.*

Key words: *toxic hepatitis, retina, morphology, neurovascular tissue, oxidative stress, hypoxia, microcirculation, photoreceptor degeneration, glial activation, vascular dysfunction, systemic intoxication, morphometry.*

Методы исследования. В работе использован комплекс морфологических, морфометрических и экспериментальных методов. Эксперимент выполнен на лабораторных животных (крысы линии Wistar), у которых моделировали токсический гепатит путём введения гепатотоксического препарата. Животные были разделены на контрольные и опытные группы с различными сроками наблюдения. После выведения животных из эксперимента проводился забор глазного яблока с последующей фиксацией в 10% нейтральном формалине. Материал подвергался стандартной гистологической проводке с заливкой в парафин. Срезы толщиной 4–5 мкм окрашивались гематоксилином и эозином, а также специальными методами (по Массону, толуидиновым синим, серебрением по Бильшовскому) для выявления соединительнотканных и нейрональных структур.

Результаты исследования. При токсическом поражении печени в сетчатке выявили дистрофические и дегенеративные изменения, включая нарушение архитектоники слоёв, повреждение фоторецепторов, активацию глиальных клеток и изменения сосудистой проницаемости. Данные изменения могут отражать системный характер патологического процесса и свидетельствовать о вовлечении ретино-хориоидального комплекса в общий патогенез заболевания.

Ключевые слова: микроциркуляция, ретино-хориоидальный комплекс, экспериментальная модель, дегенерация фоторецепторов, глиальная активация, сосудистая дисфункция.

Введение. Токсический гепатит представляет собой одно из наиболее значимых патологических состояний, сопровождающихся системным поражением организма вследствие воздействия экзогенных и эндогенных токсинов. В основе заболевания лежат глубокие нарушения метаболических процессов, развитие выраженного оксидативного стресса, гипоксии и воспалительных реакций, приводящих к повреждению не только печени, но и других органов и тканей. В последние годы всё большее внимание уделяется изучению внепечёночных проявлений токсического гепатита, отражающих системный характер патологического процесса. Особый интерес в данном контексте представляет орган зрения, в частности сетчатка, которая является высокоспециализированной нейроваскулярной тканью с интенсивным обменом веществ и высокой чувствительностью к гипоксическим и токсическим воздействиям. Сетчатка обладает сложной многослойной организацией и зависит от адекватного кровоснабжения и метаболической поддержки, что делает её уязвимой к нарушениям системного гомеостаза. Изменения в ретино-хориоидальном комплексе могут служить ранними маркёрами системных нарушений и отражать степень тяжести патологического процесса. Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых морфологии печени при токсическом гепатите, структурно-функциональные изменения сетчатки остаются недостаточно изученными. Имеющиеся данные носят фрагментарный характер и не позволяют в полной мере оценить взаимосвязь между печёночной патологией и состоянием нейросенсорного аппарата глаза. В частности, недостаточно освещены вопросы ремоделирования слоёв сетчатки, состояния микроциркуляторного русла, роли глиальных элементов и механизмов нейродегенерации в условиях токсического воздействия. В связи с этим актуальным является изучение морфофункциональных предпосылок строения сетчатки при экспериментальном токсическом гепатите с использованием современных морфологических и морфометрических методов исследования. Выявление закономерностей структурных изменений сетчатки позволит углубить понимание патогенеза системного токсического поражения, а также определить новые подходы к ранней диагностике и оценке эффективности терапевтических вмешательств.

Материалы и методы. Исследование выполнено на лабораторных животных — половозрелых крысах линии Wistar массой 180–220 г. Животные содержались в стандартных виварных условиях с соблюдением норм биоэтики и международных рекомендаций по работе с экспериментальными животными. Экспериментальный токсический гепатит индуцировали путём внутрибрюшинного введения препарата. Контрольной группе вводился эквивалентный объём физиологического раствора. Животные были разделены на контрольную и опытные группы с различными сроками наблюдения (1, 7, 14, 30 и 60 сутки). По истечении заданных сроков животных выводили из эксперимента под анестезией. Производили энуклеацию глазных яблок с последующей фиксацией в 10% нейтральном формалине в течение 24–48 часов. Материал подвергался стандартной проводке с последующей заливкой в парафин. Полученные срезы толщиной 4–5 мкм окрашивали: гематоксилином и эозином — для общей оценки морфологии; по Массону — для выявления фиброзных изменений; толуидиновым синим — для оценки нейрональных структур; методом серебрения по Бильшовскому — для визуализации нервных волокон. Проводилась количественная оценка следующих параметров: толщина отдельных слоёв сетчатки (наружный ядерный, внутренний ядерный, ганглионарный слой); плотность клеточных элементов; состояние сосудистого русла (диаметр сосудов, площадь просвета); выраженность дистрофических и дегенеративных изменений.



Препарат сетчатки, окрашенный по Азану

1. Склера (богатая коллагеном, синяя) 2. Хориоидея (сосудистый слой)

3. Пигментный эпителий сетчатки (ПЭС) 4. Фоторецепторный слой 5. Наружный ядерный слой 6. Внутренний ядерный слой

Результаты исследования. В ходе проведённого экспериментального исследования установлено, что моделирование токсического гепатита с использованием парацетамола приводит к выраженным морфофункциональным и гистохимическим изменениям в сетчатке глаза. У животных группы токсического гепатита выявлено нарушение нормальной стратификации сетчатки. Отмечалось достоверное истончение наружного ядерного слоя, дезорганизация внутреннего ядерного слоя, а также снижение плотности ганглиозных клеток. В ряде случаев наблюдались очаговые дегенеративные изменения, сопровождающиеся вакуолизацией цитоплазмы нейронов и признаками их дистрофии. Гистологический анализ показал наличие умеренно выраженного интерстициального отёка, а также участков структурной дезорганизации без признаков массивного некроза, что свидетельствует о преимущественно сублетальном характере повреждения.



Рисунок 1. **Интоксикация парацетамолом приводит к значительному угнетению митохондриальной активности (снижение СДГ), активации лизосомальных процессов (изменение КФА), дезорганизации ретикулинового матрикса и сосудистым нарушениям. На фоне гепатопротекторной терапии отмечается частичное восстановление энергетического метаболизма, структурной целостности сетчатки и функциональной активности глиальных элементов, что свидетельствует о выраженном цитопротекторном и нейропротективном эффекте.**

Количественный анализ показал выраженное снижение всех гистохимических показателей в группе, получавшей парацетамол, в диапазоне от 36,8% до 60,3% по сравнению с контрольными значениями. Наиболее выраженное снижение наблюдалось в активности СДГ и плотности ретикулиновых волокон, что свидетельствует о дисфункции митохондрий и дезорганизации стром. Введение гепатопротекторной терапии привело к частичному восстановлению структуры и функции сетчатки с уровнем выздоровления от 75,5% до 89,5% от контрольных значений. Наиболее значительное улучшение отмечалось в активности кислотофосфатазы и функции глиальных клеток, что указывает на активацию репаративных и нейропротекторных механизмов.

Полученные результаты подтверждают наличие тесной морфофункциональной взаимосвязи между состоянием печени и сетчатки глаза. Системные метаболические нарушения, развивающиеся при токсическом поражении печени, приводят к вторичному повреждению высокочувствительных нейросенсорных структур, в частности сетчатки. Морфологические и гистохимические изменения сетчатки могут служить ранними диагностическими маркерами системной интоксикации, что открывает перспективы для их использования в качестве прогностических критериев при заболеваниях печени. Применение гепатопротективной терапии с использованием силимарина способствует частичному восстановлению структурной организации сетчатки, уменьшению выраженности сосудистых и метаболических нарушений, а также снижению степени нейродегенерации. Отмечается нормализация толщины отдельных слоёв, улучшение микроциркуляции и повышение активности митохондриальных ферментов.

Выводы: экспериментально индуцированный токсический гепатит вызывает выраженные морфофункциональные изменения в сетчатке, включая ремоделирование микроциркуляторного русла, дезорганизацию слоистой структуры и развитие нейродегенеративных процессов. Установлено, что поражение сетчатки носит комплексный характер и включает сосудистый, нейрональный и глиальный компоненты. Микроциркуляторные нарушения проявляются утолщением стенок капилляров, сужением их просвета, изменением архитектоники сосудистого русла и признаками ангиогенеза. Данные изменения сопровождаются перестройкой базальных мембран, что подтверждается накоплением PAS-позитивных веществ и свидетельствует о нарушении проницаемости и трофики тканей. Нейродегенеративные процессы характеризуются снижением плотности ганглиозных клеток, дистрофическими изменениями нейронов, нарушением межклеточных связей и истончением ядерных слоёв сетчатки. Одновременно наблюдается снижение активности митохондриальных ферментов (в частности, сукцинатдегидрогеназы), что указывает на угнетение энергетического обмена и развитие тканевой гипоксии. Реактивные изменения глиальной ткани проявляются в виде глиоза, пролиферации глиальных клеток и усиления их функциональной активности, что отражает компенсаторно-приспособительную реакцию нервной ткани на повреждение. Однако при длительном воздействии токсического фактора данные изменения приобретают патологический характер и способствуют прогрессированию нейродегенерации. Вместе с тем, несмотря на положительный терапевтический эффект, полной нормализации морфологической структуры сетчатки не наблюдается. Сохраняются признаки субклинического повреждения, включая остаточные сосудистые изменения, умеренный глиоз и частичное снижение нейрональной плотности, что свидетельствует о высокой чувствительности ретинальной ткани к системной токсической нагрузке.

Таким образом, токсический гепатит рассматривается как фактор, способствующий развитию вторичной ретинопатии, а сетчатка — как орган-мишень при системной интоксикации. Полученные данные обосновывают необходимость разработки комплексных терапевтических подходов, направленных не только на защиту печени, но и на профилактику нейродегенеративных изменений в органе зрения.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вебер, Л. В. Д., Болл, М. и Штампфль, А. Гепатотоксичность и механизм действия галоалканов: тетрахлорметан как токсикологическая модель. Crit. Rev. Toxicol. 33, 105–136 (2003).

2. Рекнагель, Р. О., Гленде, Э. А., Долак, Дж. А. и Уоллер, Р. Л. Механизмы токсичности тетрахлорметана. Pharmacol. Ther. 43, 139–154 (1989).

3. Яшке, Х., Макгилл, М. Р. и Рамачандран, А. Окислительный стресс, митохондрии и механизмы клеточной смерти при лекарственно-индуцированном поражении печени. Drug Metab. Rev. 44, 88–106 (2012).

4. Polyak, S. J., Morishima, C., Lohmann, V., Pal, S. & Lee, D. Y. Идентификация гепатопротекторных флавонолигнанов из силимарина. Proc. Natl. Acad. Sci. U.S.A. 107, 5995–5999 (2010).

5. Vargas-Mendoza, N. и др. Гепатопротекторный эффект силимарина. World J. Hepatol. 6, 144–149 (2014).

6. Cunha-Vaz, J. Система гематоретинального барьера. Основные понятия и клиническая оценка. Exp. Eye Res. 78, 715–721 (2004).

7. Antonetti, D. A., Klein, R. & Gardner, T. W. Диабетическая ретинопатия. N. Engl. J. Med. 366, 1227–1239 (2012).

8. Осборн, Н. Н. и др. Ишемия сетчатки: механизмы повреждения и потенциальные терапевтические стратегии. Prog. Retin. Eye Res. 23, 91–147 (2004).

9. Колб, Х., Фернандес, Э. и Нельсон, Р. Вебвидение: организация сетчатки и зрительной системы. (Центр медицинских наук Университета Юты, 2019).

10. Морфофункциональные изменения органа зрения при поражении печени босма World scientific research journal Volume-40 Issue-1 June-2025 278-280bet 3 Хидирова Г.О.

11. Влияние печени на функционирование зрения босма Journal of new century innovations Volume-78 Issue-2 June-2025 291-293 bet 3 Хидирова Г.О.

12. Морфологические изменения сетчатки глаза при токсическом гепатите босма Фундаментал ва клиник тиббиёт ахборотномаси. №5, (19) 2025 ISSN 2181-4198 796-800стр. Хидирова Г.О.

13. Morphological changes of the retina in toxic hepatitis босма American Journal of pedagogical and Educational research Volume-42, November-2025y. ISSN (E): 2832-9791| 22-27page G. O. Khidirova

14. Morphological peculiarities of the retina in toxic hepatitis босма Web of Scientist: International Scientific ISSN: 2776-0979, Volume 7, Issue 1, January- 2026y. 61-69 pages G. O. Khidirova X.A. Rasulov

15. Experimental toxic hepatitis leads to progressive retinal neurovascular degeneration босма International journal of social science & interdisciplinary research IJSSIR, Vol.15, No.02. February 2026 14-18betlar G. O. Khidirova

UDC: 616.411-018:615.9-074:612.017

PESTITSIDLARNING AVLOD IMMUN TIZIMI VA TALOQQA IMMUNOTOKSIK TA'SIRINING TAHLILI

Yusufov Nodirbek Islombekovich – t.f.n., dotsent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali (Toshkent, O'zbekiston)
Kurbonova Zumrad Chutbayevna – t.f.d., professor
Sayfutdinova Zuxra Abdurashid qizi – t.f.n., dotsent
Yusufova Munisa Alisher qizi – Ph.D., katta o'qituvchi
Muksinova Kamila Akmal qizi – magistr
Toshkent davlat tibbiyot Universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu adabiyotlar sharhida ilmiy manbalar asosida pestitsidlarning avlod immun tizimi va taloqqa immunotoksik ta'siri tahlil qilingan. Pestitsidlar immun tizimini buzuvchi moddalar sifatida gumoral va hujayraviy immunitetga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda taloq va timus kabi limfoid organlarda morfologik o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Homilador organizmga kirgan pestitsidlar platsenta to'sig'ini o'tib, prenatal va postnatal davrda avlod immun tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Tahlil qilingan manbalar pestitsidlarning reaktiv kislorod shakllari hosil qilish, apoptoz aktivatsiyasi, sitokin ishlab chiqarishni o'zgartirish va epigenetik modifikatsiyalar orqali immunotoksik ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Pestitsidlarning avlod taloqi va immun organlariga transgeneratsion ta'siri ham eksperimental, ham epidemiologik tadqiqotlarda hujjatlashtirilgan.*

Kalit so'zlar: *pestitsidlar, immunotoksiklik, taloq, avlod, immun tizim, gumoral immunitet, hujayraviy immunitet, oksidlovchi stress, epigenetika, transgeneratsion ta'sir.*

АНАЛИЗ ИММУНОТОКСИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПЕСТИЦИДОВ НА ИММУННУЮ СИСТЕМУ И СЕЛЕЗЁНКУ ПОТОМСТВА

Юсуфов Нодирбек Исламбекович – к.м.н., доцент
Чирчикский филиал Ташкентского государственного медицинского университета (Ташкент, Узбекистан)
Курбонова Зумрад Чутбаевна – к.м.н., профессор
Сайфутдинова Зухра Абдурашид кизи – к.м.н., доцент
Юсуфова Муниса Алишер кызы – к.м.н., старший преподаватель
Муксинова Камила Акмаль кизи – магистр
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данном обзоре литературы на основе научных источников проанализировано иммунотоксическое воздействие пестицидов на иммунную систему и селезёнку потомства. Пестициды, являясь иммунодеструктивными веществами, оказывают негативное влияние на гуморальный и клеточный иммунитет, вызывают морфологические изменения в лимфоидных органах — тимусе и селезёнке. Пестициды, поступающие в организм беременной, способны преодолевать плацентарный барьер и наносить вред иммунной системе потомства как в пренатальном, так и в постнатальном периодах. Анализируемые источники подтверждают, что иммунотоксическое воздействие реализуется через образование активных форм кислорода, активацию апоптоза, изменение продукции цитокинов и эпигенетические модификации. Трансгенерационные эффекты пестицидов на селезёнку и иммунные органы потомства документально подтверждены как в экспериментальных, так и в эпидемиологических исследованиях.*

Ключевые слова: *пестициды, иммунотоксичность, селезёнка, потомство, иммунная система, гуморальный иммунитет, клеточный иммунитет, окислительный стресс, эпигенетика, трансгенерационные эффекты.*

ANALYSIS OF IMMUNOTOXIC EFFECTS OF PESTICIDES ON THE OFFSPRING IMMUNE SYSTEM AND SPLEEN

Yusufov Nodirbek Islambekovich – Ph.D., associate professor
Tashkent State Medical University Chirchik Branch (Tashkent, Uzbekistan)
Kurbonova Zumrad Chutbayevna – Ph.D., professor
Saifutdinova Zukhra Abdurashid kizi – Ph.D., associate professor
Yusufova Munisa Alisher kizi – Ph.D., senior lecturer
Muksinova Kamila Akmal kizi – master
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *This review analyzes the immunotoxic effects of pesticides on the immune system and spleen of offspring based on scientific sources. Pesticides, acting as immunodisruptive substances, negatively affect humoral and cellular immunity and cause morphological changes in lymphoid organs such as the spleen and thymus. Pesticides entering the pregnant organism can cross the placental barrier and damage the immune system of offspring in both prenatal and postnatal periods. The analyzed sources confirm that immunotoxic effects are mediated through reactive oxygen species generation, apoptosis activation, cytokine production alteration, and epigenetic modifications. Transgenerational effects of pesticides on the spleen and immune organs of offspring have been documented in both experimental and epidemiological studies.*

Keywords: *pesticides, immunotoxicity, spleen, offspring, immune system, humoral immunity, cellular immunity, oxidative stress, epigenetics, transgenerational effects.*

Dolzarbligi.

Atrof-muhitning kimyoviy moddalar, ayniqsa pestitsidlar bilan ifloslanishi tirik organizmlarning immun tizimiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Efremova (2020) pestitsidlarning tirik organizmlarga ta’sirini keng ko‘lamda tahlil qilib, ularning immunotoksik xususiyatlarini yoritgan [1]. Zaydullayeva (2018) pestitsidlarning inson salomatligiga zararli ta’sirini ko‘rsatib, surunkali ta’sir immunitet tizimining izdan chiqishiga olib kelishini ta’kidlagan [2].

Pestitsidlarning immunotoksik ta’siri turli mexanizmlar orqali amalga oshadi. Mokarizadeh va boshq. (2015) pestitsidlar va immun tizimi disfunksiyasining keng qamrovli sharhida immun buzilishlarning mexanizmlari, dalillari va oqibatlarini batafsil tahlil qilgan [3]. Lee va Choi (2020) pestitsidlarning immun tizimi funksiyalariga salbiy ta’sirini o‘rganib, gumoral va hujayraviy immunitetdagi o‘zgarishlarni aniqlagan [4].

Homilador organizmga kirgan pestitsidlar avlod salomatligiga ayniqsa xavfli. Tuxshayev va Zokirova (2018) pestitsidlarning ona organizmi orqali avlodga immunotoksik va endokrin buzuvchi ta’sirini o‘rganib, taloq va boshqa limfoid organlarda morfofunksional o‘zgarishlar kuzatilganini aniqladi [5]. Kadirov va Zokirova (2021) pestitsidlarning avlod immun va endokrin organlarida hujayra apoptozi va proliferatsiyasiga ta’sirini o‘rgangan [6].

Material va metodlar

2015–2025-yillarda nashr etilgan 14 ta ilmiy manba tahlil qilindi. Qidiruv PubMed, Springer, EBSCO ma’lumotlar bazalari hamda mahalliy OAK jurnallari orqali amalga oshirildi. Qidiruv yo‘nalishlari: (1) pestitsidlarning immunotoksik ta’sir mexanizmlari; (2) gumoral va hujayraviy immunitetga ta’siri; (3) avlod taloqi va limfoid organlariga prenatal va postnatal ta’siri.

Pestitsidlarning immunotoksik mexanizmlari

Cestonaro va boshq. (2022) pestitsidlarning hujayraviy va gumoral immunitetga toksik ta’sirini keng qamrovli tahlil qilib, T- va B-limfotsitlar sonining kamayishi, NK-hujayralar faolligining susayishi va sitokin ishlab chiqarishning o‘zgarishini ko‘rsatgan [7]. Fenga, Giusi va Costa (2021) pestitsidlarning immunotoksikligini zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqib, immun javob mexanizmlariga ta’sirini yoritgan [8].

Mohammed va Al Sammaraa (2025) pestitsidlarning immun tizimi funksiyasiga ta’sirini o‘rganib, pestitsid ta’siriga uchragan hayvonlarda immunoglobulinlar va komplement tizimi sezilarli o‘zgarganini aniqladi [9]. Samah va Dalila (2015) uy maishiy pestitsidining sichqon immun tizimiga ta’sirini o‘rganib, limfotsitlar va makrofaglar faolligining pasayishini ko‘rsatdi [10].

Avlod taloqi va limfoid organlariga ta’siri

Derevtsova va boshq. (2021) pestitsidlarning homiladorlik va erta postnatal davrlarda homila rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, prenatal ta’sir natijasida avlodning immun tizimi va organ rivojlanishida sezilarli buzilishlar kuzatilganini aniqladi [11]. Upadhayay va boshq. (2020) pestitsid ta’siri va unga bog‘liq sog‘liq muammolarini keng ko‘lamda tahlil qilib, transgeneratsion ta’sir mexanizmlarini yoritgan [12].

Zokirova (2024) pestitsidlarning avlod immun tizimiga toksik ta’sir mexanizmlarini aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqotda pestitsidlar immun organlarning rivojlanishida epigenetik o‘zgarishlar keltirib chiqarishini ko‘rsatdi [13]. de Souza Pomacena va boshq. (2025) pestitsidlarning reproduktiv salomatlikka ta’sirini hayvon va in vitro modellarda o‘rganib, avlod immunitetiga uzoq muddatli salbiy oqibatlarni aniqladi [14].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, pestitsidlar bilan zaharlangan onalardan tug‘ilgan avlodlarda taloq to‘qimasining morfologik o‘zgarishlari bilan immunologik laborator ko‘rsatkichlarning kompleks o‘rganilishi yetarli emas. Turli pestitsid sinflarining avlod taloqiga differentsial ta’siri ham kam o‘rganilgan soha bo‘lib qolmoqda [3, 7].

Xulosa.

Tahlil qilingan adabiyotlar pestitsidlarning immunotoksik ta’sirini va ularning avlod taloqi hamda immun tizimiga transgeneratsion ta’sirini tasdiqlaydi. Pestitsidlar reaktiv kislorod shakllari hosil qilish, apoptoz aktivatsiyasi va epigenetik modifikatsiyalar orqali immun tizimini izdan chiqaradi. Prenatal ta’sir ayniqsa xavfli bo‘lib, avlodning limfoid organlarida uzoq muddatli morfologik va funksional o‘zgarishlarga olib keladi. Taloq morfologiyasi va immunologik laborator ko‘rsatkichlarni birga kompleks o‘rganish yangi tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ефремова Э.Н. Влияние пестицидов на живые организмы Форум. Серия // Форум. Серия: Гуманитарные и экономические науки. – 2020. – №1. – S. 18–21.

2. Зайдуллаева М.О. Вредное влияние пестицидов на здоровье человека // Экономика и социум. – 2018. – №6(49). – S. 427–430.

3. Mokarizadeh A. et al. A comprehensive review of pesticides and the immune dysregulation: mechanisms, evidence and consequences // Toxicology mechanisms and methods. – 2015. – Vol. 25. – №4. – P. 258–278.

4. Lee G.H., Choi K.C. Adverse effects of pesticides on the functions of immune system // Comparative Biochemistry and Physiology Part C: Toxicology & Pharmacology. – 2020. – Vol. 235. – P. 108789.

5. Тухтаев Н.К., Зокирова Н.Б. Иммунотоксический и эндокрин-разрушающий эффекты пестицидов на потомство в условиях их поступления через организм матери // Вестник врача. – 2018. – S. 36.

6. Kadirov T.N., Bakhodirovna Z.N. The influence of in utero and early postnatal exposure to pesticides on the process of cells apoptosis and proliferation in immune and endocrine organs of the offspring // Central Asian Research Journal. – 2021.

7. Cestonaro L.V. et al. Toxic effects of pesticides on cellular and humoral immunity: an overview // Immunopharmacology and Immunotoxicology. – 2022. – Vol. 44. – №6. – P. 816–831.

8. Fenga C., Giusi B., Costa C. Immunotoxicity of pesticides: current knowledge and perspectives // Toxicological Risk Assessment and Multi-System Health Impacts from Exposure. – 2021. – P. 557–568.

9. Mohammed R.J., Al Sammaraa I.A. Investigate the Effect of Pesticides on the Immune System Function // Al-Anbar Journal of Veterinary Sciences. – 2025. – Vol. 18. – №2. – P. 37–42.

10. Samah M., Dalila B. Contribution to the study of the effect of one household pesticide used in Algeria, on the murine immune system // Adv Env Biol. – 2015. – Vol. 9. – №8. – P. 192.

11. Derevtsova A. et al. Effect of pesticides on fetal development in the intrauterine and early postnatal periods // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 258. – P. 04008.

12. Upadhayay J. et al. Impact of pesticide exposure and associated health effects // Pesticides in crop production: physiological and biochemical action. – 2020. – P. 69–88.

13. Zokirova N. Dentification of the mechanisms of toxic effects of pesticides on the immune system of offspring // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2024. – Vol. 1.

14. de Souza Pomacena M. et al. Impact of pesticides on reproductive health: insights from animal and in vitro models in both sexes // Journal of Endocrinology. – 2025. – Vol. 266. – №2. – P. 102–110.

УДК: 611.24-053.2:611-018

ЎПКА РЕСПИРАТОР ҚИСМИНИНГ ТУҒИЛГАНДАН КЕЙИНГИ ҲАР ХИЛ ДАВРЛАРИДАГИ ЎЗИГА ХОС ГИСТОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР

Юлдашева Нилуфар Бахтияровна – ассистент
Хусанов Темурбек Бобуржонович – талаба
Самарқанд давлат тиббиёт университети (Самарқанд, Ўзбекистон)

Аннотация. *Сут эмизувчи ҳайвонлар ўпка респиратор қисмининг касалликларида ўпка тўқимасидаги қон томирлар тузилиши гистологик текширувлар ёрдамида ўрганилди. Текшириш натижалари шуни кўрсатадки, ўпка тўқимаси паренхемасини ўраб турувчи артерия, вена ва микроциркулятор тизими гистоструктураси тузилишини номоён қилади. Сут эмизувчи ҳайвонларда туғилгандан кейинги 1 кундан - 180 кунгача бўлган 22 та қуёнларнинг ўпка тўқимасининг респиратор қисмлари гистоструктуравий тузилмалари ўрганилди. Ривожланишнинг онтогенез босқичида эрта постнатал (1 ва 10 кунлик ҳайвонлар) давридаги ўпка ацинуслари оддий тузилишга эга бўлади. 14 суткадан бошлаб кенгайишлар кузатилиб, альвеоляр ва альвеоляр йўллари шаклланади. 30-35 кунлик қуёнларнинг ўпка ацинусларининг структураси вояга етган қуёнларникидан деярли фарқ қилмайди. Катта муддатли қуёнлар текширилганда альвеолоцитларида кўп миқдорда ишқорли фосфатаза активлиги аниқланади, бу ўпканинг респиратор қисмининг гистогенезини интенсивлигини оширади (7, 15 ва 30 суткаларда). Аста секинлик билан аргирофил ва эластик толаларининг қалинлашиши, сонининг кўпайишига олиб келади.*

Калит сўзлар*: ўпканинг респиратор қисми, постнатал онтогенез альвеолоцит ҳужайраси, альвеола йўллари.*

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ГИСТОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ ДЫХАТЕЛЬНОЙ ЧАСТИ ЛЕГКИХ В РАЗНЫЕ ПЕРИОДЫ ПОСЛЕ РОЖДЕНИЯ

Юлдашева Нилуфар Бахтияровна – ассистент
Хусанов Темурбек Бобуржонович – студент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *Была проведена гистологическая оценка структуры кровеносных сосудов в легочной ткани у млекопитающих при различных заболеваниях. Результаты исследования показывают, что гистоструктура артерий, вен и микроциркуляторной системы, окружающих паренхиму легочной ткани, не визуализируется. Данные изучены гистоструктурные особенности дыхательных отделов легочной ткани 22 кроликов в возрасте от 1 до 180 дней после рождения у млекопитающих. На стадии онтогенеза легочные ацинусы в ранний постнатальный период (1 и 10-дневные животные) имеют простую структуру. Начиная с 14-го дня наблюдаются расширения, формируются альвеолы и альвеолярные тракты. Структура легочных ацинусов у 30-35-дневных кроликов практически идентична структуре ацинусов у взрослых кроликов. При обследовании доношенных кроликов в альвеолоцитах обнаруживается большое количество активности щелочной фосфатазы, что усиливает гистогенез дыхательной части легких (на 7, 15 и 30 дни). Постепенно утолщаются аргирофильные и эластические волокна, что приводит к увеличению их количества.*

Ключевые слова*: дыхательная часть легкого, постнатальный онтогенез, альвеолоцит, альвеолярные пути.*

SPECIFIC HISTOLOGICAL CHANGES IN THE RESPIRATORY PART OF THE LUNGS AT DIFFERENT PERIODS AFTER BIRTH

Yuldasheva Nilufar Bakhtiyarovna – assistant
Khusanov Temurbek Boburjonovich – student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract. *A histological assessment of the blood vessel structure in mammalian lung tissue was conducted in various diseases. The results of the study show that the histostructure of the arteries, veins, and microcirculatory system surrounding the lung parenchyma is not visualized. The histostructural features of the respiratory regions of lung tissue in 22 rabbits aged 1 to 180 days were examined. During the ontogenesis stage, the pulmonary acini in the early postnatal period (1- and 10-day-old animals) have a simple structure. Beginning on the 14 th day, dilations are*

observed, and alveoli and alveolar tracts are formed. The structure of the pulmonary acini in 30- to 35-day-old rabbits is virtually identical to that of adult rabbits. Examination of full-term rabbits reveals high levels of alkaline phosphatase activity in alveolar cells, which enhances the histogenesis of the respiratory portion of the lung (at days 7, 15 and 30). Argyrophilic and elastic fibers gradually thicken, leading to an increase in their number.

***Key words**: respiratory portion of the lung, postnatal ontogenesis, alveolar cell, alveolar ducts.*

Ҳозирги вақтда сут эмизувчиларда учрайдиган ўпка касалликларининг муаммолари тиббий ижтимоий жамиятда долзарблигини сақлаб турибди. Сут эмизувчиларда учрайдиган ўпка касаллигининг сурункали специфик бўлмаган яллиғланиши эътибор марказида бўлиб, тўғри ташхислаш, даволаш ва диспансер кузатувини талаб қилади [1, 2, 3, 6, 8]. Бу туфайли, клиник текширишлардан ташқари, онтогенездаги ўпка структуравий компонентларининг қисмларини ёшга доир ўзгаришларини фундаментал текширишлар ўтказишни давом эттирилди. Пренатал онтогенезда ўпканинг респиратор қисмининг ривожланиши ва унинг бузилишлари устида кўп тадқиқотлар ўтказилган. Волтарен моддасининг ангиотензин рецепторлар блокаторларга таъсири қуёнлар ўпка тўқимасининг пренатал органогенезига салбий таъсир қилади. Ушбу препарат таъсиридан сўнг эпителий тўқимаси найчаларининг тармоқланиши секинлашади ва бронх дарахтининг шохланиши, ўпканинг нафас олиш қисмининг кетма–кет шаклланиши вақт ўтиши билан давомийлиги узаяди. Натижада қуёнларнинг туғилишдан олдинги даврда ўпка респиратор бўлимииинг ҳажми камайиши кузатилади. Бир қатор тадқиқотлар шуни кўрсатадики, туғилишдан кейинги ривожланишда, айниқса респиратор қисмида давом этади. Бироқ, туғилишдан кейинги ривожланишнинг турли даврларида ўпка респиратор қисмининг морфофункционал қисмини батафсил ўрганиш амалга оширилмаган [4, 5, 7].

Тадқиқот мақсади. Туғилишдан кейинги онтогенезда ўпка респиратор қисмининг морфофункционал ҳолатидаги ўзгаришлар динамикасини ўрганиш.

Материаллар ва тадқиқот усуллари. Тадқиқот учун 1, 3, 7, 10, 15, 21, 90 ва 180 кунлик 23 та қуённинг ўпка тўқимасидан фойдаланилди. Туғилгандан кейинги даврларда ҳайвонлар этаминал-натрий ёрдамида бехушлик остида қорин аортасининг кесиш орқали ўлдирилган. Тажрибалар лаборатор ҳайвонлар билан ишлашда биоэтик қоидаларга мувофиқ амалга оширилди. Аъзо бўлаклари формалиннинг 12 % ли нейтрал эритмасида ва Буэн суюқлигида фиксация қилинди. Фиксациядан сўнг аъзо бўлакчалари парафин ёрдамида зичлаштирилди. Кесмалар гематоксилин-эозин билан шунингдек, Ван Гизон усулида бўялди, Фут усулида импрегнация қилинди. Янги музлатилган кесмалар ишқорий фосфатаза ёрдамида Гомори усулида гистохимиявий текширилиб ўрганилди.

Тадқиқот натижалари. Бир кунлик қуёнларнинг ўпка ацинуси қўйидагича тузилганлиги аниқланди: терминал бронхиолалар ясси эпителий билан қопланган, бирламчи альвеоляр қопчаларига очилади. 1-7 кунлик қуёнларда ўпканинг ҳаво ўтказувчи қисми нафас олиш бўлимига қараганда каттароқ майдонни эгаллайди. Нафас олиш бўлимининг ацинуслари қисқароқ бўлиб, альвеоляр қопчалари 7-10 тагача кенг альвеолалардан тузилган булади. Туғилгандан кейинги 10 кунлик даврида нафас олиш бўлимида бироз ўсиш кузатилади, аммо репиратор йўллари майдони ҳали хам ўзгармасдан қолишини кўриш мумкин. 15 кунлик даврида ацинусларнинг суст тармоқланиши, уларда кўпроқ кенг лекин, чуқур жойлашмаган альвеолаларни кузатиш мумкин. Бу даврдаги гуруҳларда альвеолалараро бириктирувчи тўсиқлар қалинлиги кузатилади. Ателектазнинг кичик ўчоқлари кузатилади. Туғилгандан кейинги 21 суткада ўпка ацинусларининг тармоқланиши 15 кунлик ҳайвонларга қараганда нисбатан кўпроқ тармоқланганлиги кузатиш мумкин. Альвеолалар кичик ҳажмда ва чуқур жойлашганлиги аниқланди (1-расм.)



1-расм. **Туғилгандан кейин 1-3 кунлик қуёнларнинг ўпка тўқимасидаги ишқорий фосфатаза (А), аргирофил (В) ва эластик (С) толаларнинг нисбий активлиги. Кат.100.**

Текширилаётган 30 кунлик қуёнларда ўпка ацинусининг узунлигини ва барча тегишли бўлимларга эга эканлигини кўриш мумкин. Юпқа альвеолярароқ тўсиқ 2-3 қаватли ясси альвеоляр эпителийдан иборат бўлиб, аргирофил эгри –бугри ва узун, текис эластик толалардан иборат. 90 кунлик ҳайвонларнинг гистологик препартларни ўрганиш шуни кўрсатадики, респиратор бўлими ҳаво ўтказувчи қисмига нисбатан кўпроқ майдонни эгаллайди. Бу қисми кўп сонли альвеолалар сақловчи ташкил топган ацинусдан иборат. Уларнинг кўп қисми ярим очиқ ёки очилмаган ҳолатда кузатиш мумкин. Макрофаглар альвеолалараро тўсиқларда жойлашган бўлиб, улар дистелектаз соҳаларида кўпроқ учрайди. Туғилгандан сўнг 180 кунлик даврда баъзи альвеолаларда эмфиматоз шишади, бошқа альвеолалар пучайган ҳолатда кузатилади. Баъзан дистелектаз майдонлари учраб туради. Узоқ текширув муддатларда альвеоляр эпителийда туғилгандан сўнг 7, 15 ва 30 кунларида ишқорий фосфатазанинг ишқорий активлиги ошиши кузатилади. Алвеолалар паренхемасида кўп сонли аргирофил толаларнинг ўзаро боғлиқлиги ва зич тўр ҳосил бўлиши аниқланади. Постнатал онтогенез даврда уларнинг тузилиши сезиларли даражада ўзгармайди, фақат нисбатан қалинлашиши кузатилади. Ҳайвонларнинг ёши ошган сайин толалар сони ортади. Ўпканинг респиратор қисми туғилгандан кейин сут эмизувчи организмида ўсиш ва ривожланиш жараёнида гистологик жиҳатдан сезиларли ўзгаришларга учрайди. Янги туғилган сут эмизувчи ҳайвонларда ўпка тўлиқ функционал ривожланмаган бўлиб, альвеолалар сони кам ва уларнинг деворлари нисбатан қалин бўлади. Шу сабабли газ алмашинуви катталарникига нисбатан паст даражада кечади. Туғилиш пайтида биринчи нафас олиш билан альвеолалар кенгаяди ва ўпка тўқимасида ҳаво айланиши бошланади. Туғилгандан кейинги даврида альвеолаларнинг сони тез кўпаяди. Альвеоляр эпителий асосан I ва II тип альвеолоцитлар ташкил топган бўлади. II тип альвеолоцитлар сурфактант моддасини ишлаб чиқаради. Бу модда альвеолаларнинг ёпишиб қолишининг олдини олади ва нафас олишни енгиллаштиради. Кейинги даврда альвеолалар орасидаги бўшлиқлар аста-секин юпқалашиб, капиллярлар тармоғи яхши ривожланади. Бу эса газ алмашинувини самарали қилади. Етук сут эмизувчи организмларда бронхиолалар ва альвеолаларнинг дифференциацияси янада кучаяди. Эластик толалар миқдори ортиб, ўпка тўқимасининг чўзилувчанлиги яхшиланади. Респиратор бронхиолалар ва альвеоляр йўлчалар тўлиқ шаклланиб боради. Шу билан бирга, қон томирлар тизими ҳам такомиллашиб, ўпканинг функционал имкониятлари ортиб боради. Аста секинлик билан ўпканинг респиратор қисми тўлиқ шаклланган бўлади. Альвеолалар сони максимал даражага етади, альвеоляр деворлар жуда юпқа ҳолатга келади ва газлар диффузияси учун қулай муҳит яратилади. Бу даврда ўпка юқори функционал фаолликка эга бўлади. Вақт ўтиши билан эса ўпкада инволютив ўзгаришлар кузатилади. Альвеолаларнинг айрим деворлари емирилиши натижасида улар йириклашади. Эластик толалар камаяди, бириктирувчи тўқима кўпайиб, ўпканинг эластиклиги пасаяди. Капиллярлар сонининг қисқариши газ алмашинувининг секинлашишига сабаб бўлади, ўпканинг респиратор қисми туғилгандан кейин турли ёш даврларида ўзига хос гистологик ўзгаришларни бошдан кечиради ва бу ўзгаришлар унинг функционал ҳолатига бевосита таъсир кўрсатади. Тадқиқот натижасида аниқландики, ўпка ацинусининг таркибий қисмлари ва толали тузилмалари ўрганишга имкон беради. Ацинусларда ҳужайра тузилмаларининг ишқорий фосфатаза фаоллиги ўзгариши аниқланди. Бизнинг тадқиқотимиз натижасида гидроксид фосфатаза аргирофил ва айниқса эластик толалар сонининг кўпайишига ёрдам беради. Респиратор бўлимининг ёшга боғлиқ хусусиятлари туғилгандан кейин ҳам пайдо бўлади, лекин фақат маълум таъсилардан кейин ўзгаради. Шундай қилиб, морфологик ва биокимёвий кўрсаткичлардаги ёшга боғлиқ тафовутлар магний хлоридни узоқ муддат қўллаш билан аниқланади ва 3 ойлик қуёнларда магний таъсири ўпка фаолиятини оширади, 15 ойлик ҳайвонларда эса аксинча, камаяди.

Хулоса. Туғилгандан кейин даврда респиратор бўлимининг эрта ривожланиши муҳим морфофункционал ўзгаришларга учрайди. Бир ва ўн кунлик ҳайвонларда содда тузилишга эга. Ўн бешинчи кундан бошлаб уларнинг кенгайиши кузатилади, альвеола йўлларининг ва альвеолалар ҳосил бўлиши кузатилади; бир ойлик қуёнларнинг ацинус тузилиши катта қуёнлардаги каби бир хил бўлади. Альвеолаларнинг эпителий тўқимасида гидроксид фосфатаза фаоллиги тадқиқот даврларда ўртача бўлиб, туғилгандан кейинги 7, 15 ва 30 кунлик даврларда ортиб боради. Аргирофил ва айниқса эластик толалар сони ортиб боради ва қалинлашади.

АДАБИЁТЛАР

1. Орипов Ф. С., Блинова С. А., Юлдашева Н. Б. Ўпка касалликлари билан оғриган ёш болаларда ушбу аъзо эндокрин аппарати морфологияси // Биомедицина ва амалиёт журнали.-2022.-№2.-С. 164-168.

2. Козлов В. К. и др. Актуальные вопросы хронических неспецифических заболеваний легких у детей // Бюллетень физиологии и патологии дыхания. – 2018. – №. 70. С.15-25.

3. Блинова С.А., Хамидова Ф.М., Исмаилов Ж.М. Состояние иммунных и регуляторных

структур слизистой оболочки бронхов при патологии легких у детей. Тиббиётда янги кун. Новый день в медицине. Конф.морфологов. Бухара, 2020.- 2/1, (29/1).-С. 104-105.

4. Харченко С. В. Пренатальный органогенез легких, и блокада рецепторов ангиотензина // Вестник новых медицинских технологий. – 2018. – Т. 25. – №. 4. – С. 207-212.

5. Янко Р. В., Чака Е. Г., Левашов М. И. Возрастные различия реактивности респираторного отдела лёгких крыс после введения хлорида магния //Бюллетень физиологии и патологии дыхания. – 2021. – №. 79. С.95-102

6. Blinova S. A., Khamidova F.M., Ismailov J.M. The state of the immune and regulatory structures of the bronchial mucosa in pulmonary pathology in children Reviewed Journal. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO) 2020. - V.7, № 2. - P21-23.

7. 7.Capelli A, Lusuardi M., Cerutti C.G., Donner C.F. Lung alkaline phosphatase as a marker of fibrosis in chronic interstitial disorders // Am J Respir Crit Care Med. 1997.-155(1)-249-53.

8. Griese M. Chronic interstitial lung disease in children // Eur Respir Rev. 2018.-7; 27(147): 170100

UDK: 616-092:616.33-008.9-092

METABOLIK SINDROM MODELI YARATILGAN KALAMUSHLAR OSHQOZON TUBI DIFFUZ ENDOKRIN TIZIMINING MORFOLOGIYASI

Okbayev Mexrilla Baxridinovich – assistant
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda sut emizuvchi hayvonlar, xususan kalamushlar oshqozon tubi shilliq qavati tarkibidagi diffuz endokrin tizim (APUD tizimi) hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot davomida Grimelius usuli va glioksil kislotasi yordamida lyuminessent mikroskopiyada endokrin hujayralar aniqlanib, ularning turlari (EC, ECL va boshqalar), joylashuvi, shakli va sekretor faolligi baholandi.*

Natijalarga ko‘ra, nazorat guruhida endokrin hujayralar asosan oshqozon tubi bezlarining tub qismida joylashgan bo‘lib, ularning umumiy zichligi 1.80±0.10 ni tashkil etdi, shundan 43.44 % EC-hujayralarga to‘g‘ri keldi. Metabolik sindrom modeli yaratilgan hayvonlarda esa endokrin hujayralar soni sezilarli darajada ortib, umumiy zichlik 3.80±0.12 ga yetdi, EC-hujayralar soni ham 1.53±0.04 gacha oshdi.

Shuningdek, metabolik sindrom sharoitida endokrin hujayralarda sekretor granulalarning ko‘payishi, serotonin va boshqa biologik aminlar miqdorining ortishi kuzatildi. Bu esa hujayralarning funksional faolligi oshganligini ko‘rsatadi. Endokrin tizimdagi bu o‘zgarishlar oshqozon sekretsiyasining kuchayishiga, ochlik hissining ortishiga va polifagiyaga olib kelishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *metabolik sindrom, oshqozon tubi, endokrin hujayralar, EC-hujayralar, serotonin.*

МОРФОЛОГИЯ ДИФФУЗНОЙ ЭНДОКРИННОЙ СИСТЕМЫ ДНА ЖЕЛУДКА КРЫС ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ МОДЕЛИ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО СИНДРОМА

Окбаев Мехрилла Бахридинович – ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *В данном исследовании изучены морфологические и функциональные особенности клеток диффузной эндокринной системы (APUD-системы) слизистой оболочки дна желудка у млекопитающих, в частности у крыс. В ходе исследования с использованием метода импрегнации по Гримелиусу и обработки глиоксиловой кислотой с последующей люминесцентной микроскопией были выявлены типы эндокринных клеток (EC, ECL и др.), их локализация, форма и секреторная активность.*

Установлено, что в контрольной группе эндокринные клетки преимущественно располагаются в данной части собственных желез желудка, а их средняя плотность составляет 1,80±0,10, из которых 43,44 % приходятся на EC-клетки. В условиях экспериментального метаболического синдрома отмечено значительное увеличение количества эндокринных клеток до 3,80±0,12, при этом число EC-клеток возросло до 1,53±0,04.

Кроме того, при метаболическом синдроме выявлено увеличение количества секреторных гранул и биологически активных аминов (в том числе серотонина), что свидетельствует об усилении функциональной активности клеток. Эти изменения приводят к усилению секреции желудка, повышению чувства голода и развитию полифагии.

Ключевые слова: *метаболический синдром, дно желудка, эндокринные клетки, EC-клетки, серотонин.*

MORPHOLOGY OF THE DIFFUSE ENDOCRINE SYSTEM OF THE GASTRIC FUNDUS IN RATS WITH AN EXPERIMENTAL MODEL OF METABOLIC SYNDROME

Okbayev Mekhrilla Bakhridinovich – assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Annotation. *This study investigates the morphological and functional characteristics of the diffuse endocrine system (APUD system) cells in the gastric fundus mucosa of mammals, particularly rats. The study employed Grimelius silver impregnation and glyoxylic acid treatment followed by luminescent microscopy to identify endocrine cell types (EC, ECL, etc.), their localization, shape, and secretory activity.*

The results showed that in the control group, endocrine cells were mainly located in the basal parts of gastric glands, with an average density of 1.80±0.10, of which 43.44% were EC cells. In the experimental model of metabolic syndrome, a significant increase in endocrine cell density was observed (3.80±0.12), including an increase in EC cells up to 1.53±0.04.

Additionally, metabolic syndrome was associated with an increase in secretory granules and biologically active amines (including serotonin), indicating enhanced functional activity of endocrine cells. These changes lead to increased gastric secretion, enhanced hunger sensation, and the development of polyphagia.

Keywords: *metabolic syndrome, gastric fundus, endocrine cells, EC cells, serotonin.*

Dolzarbligi. Uzoq davom etgan evolyutsiya jarayoni barcha tirik organizmlarning o‘ziga xos hayot tarzi va oziqlanish muhitiga moslashishiga sabab bo‘lgan. Shu jumladan odamlar ham o‘zining hayot tarzi va ozuqa turiga ega bo‘lib, barcha a’zolarida o‘ziga xos moslashishlar hamda ba’zi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Organizmning barcha a’zolarining o‘zaro mutanosiblikda faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash va boshqarish uchun boshqaruv va moslashtirish (nerv va endokrin) tizimi shakllana boshlagan. Yuqori darajada rivojlangan sut emizuvchi hayvonlar va odamda bu tizim juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, organizmning barcha a’zolarining faoliyatini, yashash muhiti va ozuqa turiga bog‘liq ravishda o‘zaro mutanosiblikda faoliyat yuritishi va moslashishlarini ta’minlaydi. Hayot tarzi, yashash muhiti, ozuqa turi va uning sifati, ayniqsa ovqat hazm qilish a’zolari xususan oshqozonda o‘ziga xos moslashish va o‘zgarishlarga olib kelgan. Bunday moslashish va o‘zgarishlar jarayonida ovqat hazm qilish a’zolari faoliyatini boshqarib turuvchi muhim boshqaruv va moslashtirish tizimiga ega [2, 3, 8, 10].

Bu tizimning faoliyatini va morfologiyasini o‘rganish, qadimdan dunyo olimlarini o‘ziga jalb etib kelgan. Ovqat hazm qilish a’zolari, uning nerv va endokrin aparatining o‘ziga xos morfologiyasi bir qator chet el va mamlakatimiz olimlarining ilmiy izlanishlarida bayon qilingan [11, 13].

Oshqozonning xususiy bezlari ishlab chiqarilgan oshqozon shirasi ozuqaga kimyoviy ishlov berish, xususiy plastinkasi va shilliq osti qavati chegaralovchi, a’zoni qon bilan ta’minlash, qon tomirlarga so‘rilgan oziq moddalarni tananing boshqa qismlariga yetkazib berish, muskul plastinkasi va muskul qavati esa, ozuqaga mexanik ishlov berish, shakl hosil qilish, chegaralovchi, hamda ovqat hazm qilish tizimining keyingi a’zolari, ingichka ichakka o‘tkazib berish vazifalarini bajarishga ixtisoslashgan [1, 4, 6, 14, 15].

Bunday murakkab vazifalarni amalga oshirishda nerv va endokrin apparatining ahamiyati katta. Hazm tizimi a’zolarining yoki butun organizmda turli xil kasalliklarning masalan: metabolik sindrom, semizlik, diabet, yurak qon tomirlari va boshqa kasaliklarning paydo bo‘lishiga ozuqaning turi, sifati, to‘g‘ri ovqatlanish va turmush tarzi eng muhim omillardan hisoblanadi [5, 7, 9, 12].

Tadqiqotning maqsadi. Metabolik sindrom modeli yaratilgan kalamushlarning oshqozoni tubi endokrin hujayralarning mofologik o‘zgarishlarini o‘rganish.

Tadqiqot ob’ekti va usullari. Y.A. Birulina usulida metabolik sindrom modeli yaratilgan 12 ta zotsiz oq erkak jinsli kalmushlarning oshqozon tubi diffuz endokrin tizimi morfologiyasi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari. Evolyutsiya jarayonida barcha tirik organizmlarda a’zolarning o‘zaro mutonosiblikda faoliyat yuritilishini ta’minlovchi boshqaruv va moslashish tizimi shaklangan. Evolyusiya shajarasining eng yuqorisida joylashgan sut emizuvchi hayvonlar va odamda neyroendokrin tizimi juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, barcha a’zolar faoliyatini yashash muhiti, ozuqa turi va sifatiga bog‘liq ravishda o‘zaro mutonosiblikda faoliyat yuritishi va moslashishini ta’minlaydi. Barcha ichki a’zolarda, shu jumladan oshqozonda ham bu tizim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular gumoral boshqaruvni ta’minlaydi. Periferik boshqaruvni ta’minlovchi endokrin hujayralar tarkibida biologik faol moddalarni sintez qiladi. Bunday biologik aminlar hujayralararo moddaga o‘tib, atrofdagi to‘qima va hujayralarga mahalliy yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonga o‘tib, nishon hujayralarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ovqat hazm qilish tizimining bunday boshqariluvi azaldan dunyo olimlarining e’tiborini o‘ziga tortgan.

Hazm tizimi a’zolarining turli qismlari tarkibidagi yakka-yakka holatda joylashgan (tarqoq endokrin tizimi) endokrin hujayralarining morfologiyasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan.

Sut emizuvchi hayvonlar oshqozoni tubi devorining tarqoq endokrin tizimi hujayralari ularning ozuqa turi, sifati va hayot tarziga bog‘liq ravishda yetarlicha o‘rganilmagan. Bunday endokrin hujayralarni o‘rganish uchun preparatlarga Grimellius usulida impregnatsiya qilish yordamida aniqlanadi.

Tarkibida biologik aminlarni saqlovchi (EC) endokrin hujayralarni aniqlash uchun esa qotirilmagan (fiksatsiya qilinmagan) kriostat kesmalarni glioksil kislotasining 2 % li eritmasida ishlov berildi.

Preparatlar LYuMAM-I2 lyuminessent mikroskopida o‘rganilib, endokrin hujayralarning nur sochish darajasi, rangi va chegarasi aniqladi. Bu usullar yordamida tajriiba hayvonlari oshqozon tubi shilliq qavatida joylashgan endokrin hujayralarining (ochiq va yopiq) tiplari, hamda argirofil, argentofil (G, EC, ECL va boshqa) turlari o‘rganildi. Tarkibidagi biologik aminlarning turi, hujayralarning nur sochish darajasi va rangiga qarab, bu hujayralarning turi va funksional holati to‘g‘risida fikr yuritish mimkin. Tanlangan o‘rganish obyekti va usullar, hayvonlar oshqozon tubi endokrin tizimining o‘ziga xos morfologik xususiyatlari va o‘zgarishlarini o‘rganishga imkon yaratadi. Yuqorida bayon etilgan imkoniyatlar asosida tajriba hayvonlari oshqozoni tubi devori endokrin hujayralarining tuzilishini o‘rganishga kirishamiz.

Kalamushlar o‘ziga xos ozuqa turi va hayot tarziga ega bo‘lgan sut emizuvchi hayvonlardan biridir. Shu sababli ularning oshqozoni tubi shilliq qavatida joylashgan endokrin hujayralari ozuqaning turi,

sifati va hayot tarziga bog‘liq ravishda o‘ziga xos morfologik xususiyatlarga ega.

Bunday o‘ziga xos moslashish va o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida nazorat hayvonlari oshqozoni tubidan tayyorlangan preparatlarni mikroskop tagida ko‘rib, olingan ma’lumotlarni tahlil qildik.

Kalamushlar oshqozon tubi endokrin hujayralari, uning shilliq qavatidagi xususiy bezlarning tarkibida joylashgan. Endokrin hujayralarning ko‘pchiligi xususiy bezlarning tub qismida yakka-yakka holatda joylashgan. Xususiy bezlarning tana va bo‘yin qismlariga o‘tgan sayin ularning soni kamayib boradi. Oshqozon tubi shilliq qavati epiteliy plastinkasining tarkibida esa nisbatan juda kam uchraydi.

Xususiy bezlar tarkibida uchraydigan endokrin hujayralar asosan oval, konussimon va ba’zi hollarda esa yumoloq shaklga ega. Ular o‘zining shakli, kumush nitrat tuzining eritmasi bilan impregnatsiya qilinganda esa, to‘q jigar rangda bo‘yalishi va sitoplazmasida argirofil donachalarning borligi bilan boshqa hujayralardan ajralib turadi. Argirofil donachalarning ko‘p yoki kam bo‘lishi ularning funksional holati bilan bog‘liq.

Endokrin hujayralarning sitoplazmasidagi argirofil donachalari asosan ularning bazal qismida joylashgan. Ingichka apikal qismida esa juda kam va ba’zi hollarda esa uchramaydi. Shu sababli bu hujayralarning apikal uchining chegarasi ba’zi hollarda aniq ko‘rinmaydi. Endokrin hujayralar ko‘pchilik holatda (ayniqsa sekresiya jarayonining ikkinchi va uchunchi bosqichlarida) o‘zining ingichka uchi bilan xususiy bezlarining chiqaruv naylarigacha yetib boradi. Bu hujayralarning bazal yuzasi esa, boshqa hujayralarniki kabi bazal membranaga tegib turadi. Endokrin hujayralarning katta kichikligi va shakli ularning sitoplazmasidagi sekret maxsulotlarining miqdoriga bog‘liq. Hujayralarning sitoplazmasi sekret maxsulotlari bilan to‘la bo‘lgan hollarda ularning o‘zagi aniq chegaralari bilan ko‘rinib turadi. Bu esa endokrin hujayralarning funksional holati bilan bog‘liq bo‘lib, sekresiya jarayonning ikkinchi bosqichiga to‘g‘ri keladi. Sitoplazmasida flyuorogen aminlar (serotonin va katexolaminlar) saqlovchi endokrin hujayralar glioksil kislotasining 2 % li eritmasi bilan ishlov berilib, lyuminessent mikroskopida ko‘rilganda sarg‘ich-yashil zangori rangda ko‘rinadi. Ularning sitoplazmasida flyuorogen aminlarning turi va miqdoriga qarab nur taratish darajasi turli xil bo‘ladi. Endokrin hujayralar shakli, ko‘rinishi, rangining och sariq rangdan zangori ranggacha o‘zgarib borishi ularning sitoplazmasidagi nur taratuvchi biologik aminlarning miqdori ya’ni hujayralarning funksional holati bilan bog‘liq. Kalamushlar oshqozon tubi xususiy bezlari tarkibidagi endokrin hujayralarning joylashish zichligi o‘rtacha 1.80±0.1 ga teng. Ularning 43.44 % ni esa EC-hujayralar tashkil etadi, ya’ni 0.80±0.05 ga teng (jadval №1). Sitoplazmasida serotonin yoki adrenalin kabi biologik faol moddalarni saqlovchi endokrin hujayralar ultrabinafsha nurlarni qaytarib sariq-yashil zangori rangli nur taratadi. Bu xususiyati esa endokrin hujayralarning turlari haqida mulohaza yuritishga yordam beradi. Apikal uchi xususiy bezlarning chiqaruv naylarigacha yetib kelgan hujayralar ochiq tipdagi va ancha ichkariroqda joylashgan, ya’ni apikal uchi bezlarning chiqaruv naylariga yetib kelmaydigan endokrin hujayralar esa, yopiq tipdagi hujayralar deb nomlanadi. Tekshirishlar natijalaridan olingan ma’lumotlar tahlil qilinib tajriba hayvonlari oshqozon tubi xususiy bezlari tarkibidagi endokrin hujayralar asosan yakka-yakka holatda va joylashish zichligi esa uncha katta emasligini ko‘rsatadi. Bunday xususiyatlar kalamushlarning evolyusiya taraqqiyotidagi o‘rni, ozuqasining turi, sifati va hayot tarzi bilan bo‘liq bo‘lgan o‘ziga xos morfologik va funksional jihatlari ekanligidan dalolat beradi.

Jadval 1.

Narorat guruhi tajriba hayvonlari oshqozon tubi endokrin hujayralarining joylashish zichligi

Nazorat guruhi hayvonlari n=8	Endokrin hujayralari soni	Shu jumladan EC-hujayralar soni	EC-hujayralarning % hisobida
Kalamushlar	1.80±0.11	0.80±0.03	43.44

Oshqozon faoliyatining boshqarilishida uning nerv tizimi bilan birga endokrin tizimining ham ahamiyati katta. Metabolik sindrom holatida esa bu tizimda turli darajadagi bir qator morfologik o‘zgarishlar kuzatiladi. Metabolik sindrom yaratilgan tajriba hayvonlari oshqozon tubi devori shilliq qavati xususiy bezlari tarkibida joylashgan endokrin hujayralarida sekretor granulalarning ko‘payganligi sababli ularning aniqlashish darajasi ortganligini bildiradi. Natijada endokrinotsitlar joylashish zichligining (3.80±0.12) nazorat hayvonlarinikiga (1.80±0.10) nisbatan 2 barobardan ko‘proq ortganligini ko‘ramiz. Shu jumladan EC-hujayralarning joylashish zichligining (tajriba hayvonlarida 1.53±0.04 va nazorat hayvonlarida 0.80±0.03 ga teng) ham ortganilganligini ko‘rishimiz mumkin (jadval №2, gistogramma №1). Bunday hujayralarning chegarasi va yadrolari aniqroq ko‘rinadi. Sitoplazmasida serotonin saqlovchi EC-hujayralarda ushbu biologik faol moddaning yig‘ilib qolishi natijasida ularning aniqlashish darajasi ortadi va soni ko‘payadi. Ularning nur taratish darajasi ham ortadi. Natijada bu hujayralarning yadrosi va chegarasi biroz noaniq ko‘rinadi.

Jadval 2.

Tajriba hayvonlari oshqozoni tubi qavatlari, endokrin hujayralari morfometrik ko‘rsatgichlari

Kalamushlar oshqozon tubi devori		Nazorat guruhi hayvonlari	M.S. modeli yaratilgan hayvonlar guruhi
Endokrin hujayralari	Umumiy soni	1.80±0.10	3.80±0.12
	EC-hujayralar	0.80±0.03	1.53±0.04



Gistogramma 1. **Tajriba hayvonlari oshqozoni tubi qavatlari, endokrin hujayralari morfometrik ko‘rsatgichlari**

Аннотация. *Сўнгги йилларда энергетик ичимликлар истеъмолининг ортиши уларнинг инсон организмига салбий таъсирини ўрганишни долзарб масалага айлантирмоқда. Энергетик ичимликлар билан боғлиқ тез-тез учрайдиган ножўя таъсирларнинг олдини олиш мақсадида профилактик стратегияларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга. Уларни мунтазам ва узоқ муддат истеъмол қилиш онкологик ҳамда неврологик касалликлар ривожланишига сабаб бўлиши мумкин. Мазкур тадқиқотда энергетик ичимликларнинг организмга таъсири гистологик ва биокимёвий усуллар орқали баҳоланди. Гистологик текширувлар билан бир қаторда қоннинг биокимёвий таҳлиллари ҳам амалга оширилди. Биокимёвий текширувларда қондаги S100 оқсили даражаси аниқланиб, унинг асаб тўқимаси ҳолатини баҳолашдаги аҳамияти таҳлил қилинди.*

Калит сўзлар: *энергетик ичимликлар, S100 оқсили, биокимёвий текширув, гистология, неврологик ўзгаришлар, профилактика.*

ИЗМЕНЕНИЕ УРОВНЯ БЕЛКА S100 У 24-НЕДЕЛЬНЫХ КРЫС ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ НАПИТКОВ

Эшкабилова Сурайё Тураевна – Ph.D., ассистент
Шобердиева Гуласал Ильясовна – резидент магистратуры
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Аннотация. *В последние годы рост потребления энергетических напитков делает актуальным изучение их негативного воздействия на организм человека. В целях предотвращения часто встречающихся побочных эффектов, связанных с употреблением энергетических напитков, важное значение имеет разработка профилактических стратегий. Их регулярное и длительное употребление может привести к развитию онкологических и неврологических заболеваний. В данном исследовании влияние энергетических напитков на организм оценивалось с помощью гистологических и биохимических методов. Наряду с гистологическими исследованиями были проведены биохимические анализы крови. В ходе биохимических исследований определялся уровень белка S100 в крови, а также анализировалось его значение в оценке состояния нервной ткани.*

Ключевые слова: *энергетические напитки, белок S100, биохимическое исследование, гистология, неврологические изменения, профилактика.*

CHANGES IN S100 PROTEIN LEVELS IN 24-WEEK-OLD RATS UNDER THE INFLUENCE OF ENERGY DRINKS

Eshkabilova Surayo Turaevna – Ph.D., assistant
Shoberdieva Gulasal Ilesovna– master's student
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Abstract: *In recent years, the increasing consumption of energy drinks has made the study of their negative effects on the human body a relevant issue. The development of preventive strategies is of great importance in order to reduce the frequently occurring adverse effects associated with the consumption of energy drinks. Regular and long-term consumption of these beverages may lead to the development of oncological and neurological diseases. In this study, the effects of energy drinks on the body were evaluated using histological and biochemical methods. Along with histological examinations, biochemical blood analyses were also performed. During the biochemical investigations, the level of S100 protein in the blood was determined, and its significance in assessing the condition of nervous tissue was analyzed.*

Keywords: *energy drinks, S100 protein, biochemical analysis, histology, neurological changes, prevention.*

Кириш. Энергетик ичимликларни истеъмол қилиш жамоат саломатлиги учун тобора жиддийлашиб бораётган глобал муаммога айланмоқда. Тижорат автобус ҳайдовчиларининг иш жадвали оғирлиги ва нотўғри уйқу режими уларни чарчоққа жуда мойил қилади, шунинг учун уларнинг кўпчилиги чарчоқни енгиш усули сифатида энергетик ичимликларни истеъмол қилади. Бироқ, энергетик ичимликларни қабул қилиш кўплаб психомотор нохуш таъсирларни келтириб чиқаради ва агар ҳайдовчилар томонидан истеъмол қилинса, йўловчиларни йўл-транспорт ҳодисалари хавфига дучор этади. Ишлаб чиқарувчилар фикрига кўра, энергетик ичимликлар фақат ижобий таъсирга эга бўлиб, инсон организмига зарар етказмайди. Бироқ тиббиёт ходимлари ва олимларнинг қарашлари бунга мутлақо қарши. Ушбу қарашларни аниқлаш учун энергетик ичимликлар таркибини кўриб чиқиш зарур. Уларнинг таркибига кофеин, таурин, карнитин, женьшень, гуарана, матеин, В гуруҳи витаминлари, қанд, глюкоза, фруктоза, сахароза, шунингдек, ароматизаторлар, стабилизаторлар, ранг берувчи моддалар ва таъм кучайтиргичлар киради.

Энергетик ичимликлар ёшлар ва ўсмирлар ўртасида кенг тарқалган ва машҳурдир. Дунё бўйлаб энергетик ичимликлар савдоси тез ўсиб бормоқда, ҳатто алкоголь маҳсулотларини ҳам ортда қолдирмоқда. Бироқ энергетик ичимликларни мунтазам истеъмол қилиш хавфли ҳисобланади, чунки энергетик ичимликлар бир банкасида, бир стакан аччиқ қаҳвага қараганда уч баравар кофиен миқдори кўп. Ҳозирги даврда турли мамлакатларда энергетик ичимликларнинг тури 500 дан ортиқдир.

Энергетик ичимликлар организмга тўғридан-тўғри энергия бермайди, балки унинг ички энергетик захираларини сафарбар қилади. Улар терапевтик таъсирга эга эмас, аммо таркибидаги моддалар маълум фармакологик ва токсик хусусиятларга эга бўлиб, соғлиққа салбий таъсир кўрсатиши ва жиддий ножўя таъсирларни келтириб чиқариши мумкин. [1,3].

Энергетик ичимликларни сурункали равишда истеъмол қилиш аъзоларнинг гистологик тузилишида сезиларли ўзгаришларга олиб келади, бу эса оқибатда организмда патологик ҳолатларни келтириб чиқаради: буйрак етишмовчилиги, жигар касалликлари, нафас олиш тизими бузилишлари, асаб тизимидаги ўзгаришлар, артериал гипертензия, юрак етишмовчилиги ва миокард дисфункцияси [1]. Ҳар қандай газланган ширин ичимликлар каби, энергетиклар ҳам катта миқдорда углеводлар сақлайди. Қонда глюкоза миқдорининг ошиши гиперинсулинемияга олиб келади, сўнгра ҳужайраларнинг инсулинга сезгирлиги тахминан 30% га камаяди. Жисмоний фаоллик паст бўлганда ортиқча қанд ёғ кўринишида тўпланади, бу эса семириш ривожланишига сабаб бўлади.

Энергетик ичимликларни узоқ муддат истеъмол қилиш асаб тизими ва ошқозон-ичак йўли фаолиятини ҳам бузади, титроқ (тремор) ва бошқа симптомларни келтириб чиқаради. Энергетик ичимлик истеъмол қилиш сабаблари ўрганилганда, энг кўп қайд этилган омиллар қуйидагилар бўлган: таъми (50,2%), энергия ҳисси (12,7%), алкоголь билан аралаштириш (19,3%), уйқусизликка қарши (11%) ва қизиқиш (5,3%) [6]. Бошқа тадқиқотлар ҳам асосий омиллар сифатида таъм ва энергия/стимуляцияни кўрсатган. Кўплаб истеъмолчилар энергетик ичимликларни уйқу етишмаслиги (67%), энергия олиш (65%) ва базмларда алкоголь билан биргаликда истеъмол қилиш (54%) мақсадида қабул қилади [7].

Энергетик ичимликлар онкологик, неврологик касалликларга ҳам олиб келиши мумкин. Гистологик текширувлардан ташқари, қонни биокимёвий текширувлари ҳам олиб борилди. Биокимёвий текширувларда қондаги S100 оқсилининг даражаси аниқланди. S100 оқсиллари ҳужайраларнинг ўсиши, бўлиниши ва дифференциацияси учун зарур бўлган бир-бирига яқин бўлган оқсилларнинг бутун гуруҳидир. Ушбу оқсилларнинг қондаги концентрацияси кўплаб хавфли касалликларда ўзгаради, чунки улар ўсимта ҳужайралари томонидан кўп миқдорда қонга чиқарилади.

S100 оқсиллари кўп функцияли ҳисобланади. Улар ҳужайра ичида бошқа оқсиллар билан ўзаро таъсирга киришиб, турли биологик жараёнларни тартибга солишда иштирок этади: ҳужайра қисқарувчанлиги, ҳаракатчанлиги, ўсиши ва дифференцияцияси, транскрипция, мембраналарнинг тузилиши, цитоскелетнинг қайта ташкилланиши, оксидланиш стрессидан ҳимоя, оқсилларнинг фосфорланиши ва секреция жараёнлари [9]. S100 гуруҳи оқсиллари билан махсус ўзаро таъсирга киришувчи 20 дан ортиқ оқсил ва 25 га яқин эндоген нейропептидлар аниқланган. Улар қаторига ишқорий фосфатаза, моноаминоксидаза, миелиннинг асосий оқсили, нейроспецифик энолаза, ДНК билан боғланувчи оқсиллар ва гликопротеинлар киради [8]. Бу хилма-хил функциялар S100 оқсилларининг турли хиллиги, ион боғлаш қобилиятининг фарқланиши, ҳужайра ичи ва ташқарисида турлича жойлашиши ҳамда гомо- ва гетеродимерлар ҳосил қилиш хусусияти билан изоҳланади [10].

Қонда ва мия-орқа мия суюқлигида (ликворда) S100B миқдорининг ошиши ўткир мия қон айланиш бузилишларида микроглия фаоллашуви билан боғлиқ [2, 4]. Ишемик инсультнинг дастлабки босқичларида периинфаркт зонасида микроглиал ҳужайралар S100B оқсилини фаол экспрессия қилади ва пролиферацияга учрайди. Бу жараён одатда инсультдан кейинги уч кун давомида кузатилади, бу эса микроглия фаоллашуви мия тўқимасининг ишемияга

бўлган эрта жавоб реакцияси эканини кўрсатади. Шунингдек, S100 оқсиллари миқдори, ишемия ўчоғи ҳажми ва клиник натижа ўртасида боғлиқлик мавжудлиги аниқланган [5].

Онкологик касалликларда қондаги S100 оқсили миқдори кескин ортиши мумкин, шунинг учун ҳам улар хавфли ўсмалар тўқима маркерларига ёки онкомаркерларга таалуқлидир. S100 оқсили миқдори бош мия ўсмаларида, лейкозларда, сут безлари, тухумдон, ошқозон, сийдик пуфаги, ошқозон ости бези саратон касалликларида ошади. S100 оқсилининг концентрацияси баъзи яллиғланиш ва юқумли касалликларда ҳам сезиларли даражада ошади. Жигар циррозида, сурункали гепатит, панкреатит, ярали колитда, ўпканинг юқумли касалликларида, ҳазм системасининг яхши сифатли ўсма касалликларида, бош мия шикастланишларида ва бошқа касалликларда сезиларли даражада ошиши кузатилади. Онкологик бўлмаган касалликларда S100 оқсили даражасининг ошиши унча даражада сезилмайди, аммо беморнинг аҳволи яхшиланиши билан S100 оқсили кўрсаткичи тезда нормал ҳолатга қайтади.

Материаллар ва усуллар. Тажриба учун тана оғирлиги 200 – 250 гр, ёши 24 ҳафталик бўлган эркак жинсли оқ каламушлар олинди. Ушбу тажриба биоэтика тамойилларига риоя қилган ҳолда бажарилди. Каламушлар хона ҳарорати 21°С±10°С бўлган шароитда, пластик катакларда жойлаштирилди. Каламушлар стандарт каламуш диетаси билан озиқлантирилиб, доимий сув берилиб турилди. Тажриба ҳайвонларга энергетик ичимлиги 4, 8 ва 12 ҳафта давомида оғиз орқали меъда зонди билан юборилди.

Тажрибани ўтказиш учун улар тўрт гуруҳга бўлинди.

I гуруҳ – Назорат гуруҳи

II гуруҳ – 4 ҳафта давомида энергетик ичимлик берилган гуруҳ

III гуруҳ – 8 ҳафта давомида энергетик ичимлик берилган гуруҳ

IV гуруҳ – 12 ҳафта давомида энергетик ичимлик берилган гуруҳ

1 – чи назорат гуруҳига 6 та энергетик ичимлик ичирилмаган олти ойлик эркак жинсли оқ каламушлар олинди. 2 – чи гуруҳга 4 ҳафта давомида энергетик ичимлик ичирилган 6 та каламуш олинди. 2 – чи гуруҳга 8 ҳафта давомида энергетик ичимлик ичирилган 6 та каламуш олинди. 3- чи гуруҳга 12 ҳафта давомида энергетик ичимлик ичирилган 7 та каламуш олинди (1-жадвал).

Назорат гуруҳидаги каламушларга ҳар куни зонд орқали бир марта 7,5 мл физиологик эритма ичирилди. Асосий тажриба гуруҳдаги каламушларга энергетик ичимлик тана вазнига 10 мг/кг дан ҳисобланиб, зонд ёрдамида кунига бир марта 7,5 мл гача ичирилди. Лаборатор текширув учун энергетик ичимлик ичган каламушлар қони текширилди. Барча асосий тажриба гуруҳдаги тажриба ҳайвонларининг қони олиниб, қон таркибидаги S-100 оқсили даражаси аниқланиб, олинган маълумотлар таҳлил қилинди.

1-Жадвал.

Тажриба ҳайвонларнинг гуруҳларда тақсимланиши

Назорат гуруҳи	**Тажриба гуруҳи**			**Ўтказилган лаборатор текширувлар**
	4 ҳафта давомида ЭИ қабул қилган каламушлар	8 ҳафта давомида ЭИ қабул қилган каламушлар	12 ҳафта давомида ЭИ қабул қилган каламушлар	S100 оқсили
6 та	6 та	6 та	7 та	

Иммумофермент анализ (ИФА) учун қон намуналари 30 дақиқа давомида хона ҳароратида қолдирилди, сўнгра 15 дақиқа давомида 4000 айланиш тезликда центрифуга қилинди. Зардоб намуналари ажратиб олингач ИФА текширувигача музлатгичда -20 ° С да сақланди. Зардобдаги S100 оқсили лаборатор текшируви Россияда ишлаб чиқарилган махсус иммумофермент анализ (S100- ИФА) учун мўлжалланган тўпламлари ёрдамида ўтказилди. Лаборатория тадқиқотлари ҳар бир экспериментал муддатнинг охирги босқичларида амалга оширилди.

Натижа ва муҳокама. Назорат гуруҳидаги 24 ҳафталик каламушда S100 оқсили кўрсаткичи текшириб кўрилганда, ўртача 31,333 нг/мл ни ташкил қилди. Тажриба гуруҳида 24 ҳафталик 4 ҳафта давомида энергетик ичимлик қабул қилган каламушларда S100 оқсили кўрсаткичи ўртача 583,16 нг/млни кўрсатди. 24 ҳафталик 8 ҳафта давомида энергетик ичимлик қабул қилган каламушларда S100 оқсили даражасининг кўрсаткичи, ўртача 565,33 нг/мл га тенг эканлиги аниқланди. 24 ҳафталик 12 ҳафта давомида энергетик ичимлик қабул қилган каламушларда эса S100 оқсили кўрсаткичи, ўртача 1958,57 нг/млга тенг бўлди (2 жадвал). Демак, уч тажрибада гуруҳида ҳам, S100 оқсили кўрсаткичи кўтарилгани ва айниқса сурункали (12 ҳафта давомида) энергетик ичимлик ичирилган тажриба гурухи хайвонларидан бу кўрсаткич кескин ошгани аниқланди (1 расм).

2-Жадвал.

Назорат ва тажриба гуруҳи каламушларида S100 оқсили кўрсаткичининг (нг/млда) солиштирма таҳлили

Тажриба ҳайвонларининг ёши	Назорат гуруҳи	Тажриба гуруҳи (ЭИ истеъмол қилиш муддати)		
		4 ҳафта	8 ҳафта	12 ҳафта
24 ҳафталик каламушлар	31,333	583,16	565,33	1958,57



Расм 1. **24 ҳафталик назорат ва тажриба гуруҳи каламушларида S100 оқсили кўрсаткичи солиштирма диаграммаси**

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, энергетик ичимликларни ортиқча ва мунтазам истеъмол қилиш организм учун жиддий хавф туғдириши мумкин. Айниқса, уларнинг узоқ муддат давомида қабул қилиниши марказий асаб тизимида морфофункционал ўзгаришларни келтириб чиқариши эҳтимоли юқори. Энергетик ичимликлар таркибидаги кофеин, таурин, қанд моддалари ва бошқа стимулятор компонентлар нейронлар фаолиятига таъсир кўрсатиб, асаб тўқимасида метаболик ва дегенератив жараёнларни кучайтириши мумкин.

Ўтказилган тажриба ва лаборатор текширувлар натижалари шуни кўрсатдики, энергетик ичимликларни мунтазам истеъмол қилган тажриба ҳайвонларида қондаги S100 оқсили миқдори сезиларли даражада ошган. S100 оқсили глиал ҳужайралар фаолияти ва нерв тўқимасининг шикастланиш даражасини баҳолашда муҳим биомаркер ҳисобланади. Унинг қонда миқдорининг ортиши гематоэнцефалик тўсиқ ўтказувчанлигининг бузилиши, нейроглия ҳужайраларининг функционал ўзгариши ҳамда марказий асаб тизимида патологик жараёнлар ривожланаётганлигини кўрсатиши мумкин.

Олинган натижалар энергетик ичимликларнинг сурункали таъсири нейродегенератив ўзгаришлар, неврологик бузилишлар ва айрим ҳолатларда онкологик жараёнлар ривожланиши хавфини оширишини кўрсатади. Шу сабабли энергетик ичимликларнинг назоратсиз ва ортиқча истеъмол қилинишига қарши профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш, аҳоли орасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш ҳамда ёшлар ўртасида уларнинг зарарли таъсири ҳақида тушунтириш ишларини кучайтириш муҳим аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР

1. Зайферт С.М., Шехтер Ю.Л., Хершорин Э.Р., Липшульц С.Е. Влияние энергетических напитков на здоровье детей, подростков и молодых людей. Педиатрия. 2011 г.; 127: 511–528.

2. Траилин А. В., Левада О. А. Белок S100B: нейробиология, значение при неврологической и психиатрической патологии. Междунар. неврол. журн. 2009; 1: 166—175.

3. 3.Ali F, Rehman H, Babayan Z, Stapleton D, Joshi DD. Energy drinks and their adverse health effects: A systematic review of the current evidence. Postgrad Med. 2015;127:308–22. doi: 10.1080/00325481.2015.1001712.

4. Beer C., Blacker D., Bynevelt M. et al. Systemic markers of inflammation are independently associated with S100B concentration: results of an observational study in subjects with acute ischaemic stroke. J. Neuroinflammation 2010; 7: 71.

5. Elting J. W., de Jager A. E., Teelken A. W. et al. Comparison of serum S 100 protein levels following stroke and traumatic brain injury. J. Neurol. Sci. 2000; 181 (1—2): 104—110.

6. Magnezi R., Bergman L.C., Grinvald-Fogel H., Cohen H.A. A survey of energy drink and alcohol mixed with energy drink consumption. Isr. J. Health Policy Res. 2015;4:55. doi: 10.1186/s13584-015-0052-5.

7. Malinauskas B.M., Aeby V.G., Overton R.F., Carpenter-Aeby T., Barber-Heidal K. A survey of energy drink comsumption patterns among college students. Nutr. J. 2007;6:35. doi: 10.1186/1475-2891-6-35.

8. Michetti, F. The nervous system-specific S100 antigen in cerebrospinal fluid of multiple sclerosis patients / F. Michetti, A. Massaro, M. Murazio // Neurosci. lett. – 1979. – № 11. – P. 171–175.

9. Santamaria-Kisiel, L. Calcium-dependent and –independent interactions of the S100 protein family / L. Santamaria-Kisiel, A.C. Rintala-Dempsey, G.S. Shaw // Biochem. j. – 2006. – № 396. – P. 201–214.

10. Sedaghat, F. S100 protein family and its application in clinical practice / F. Sedaghat, A. Notopoulos // Hippokratia. – 2008. – T.

УДК: 616.61-007.272-091.8:616-092.9

ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ГИДРОНЕФРОЗДА БУЙРАКНИНГ ЮКСТАГЛОМЕРУЛЯР АППАРАТИ: МОРФОЛОГИК АДАПТАЦИЯ ВА ДЕСТРУКТИВ ЎЗГАРИШЛАР ДИНАМИКАСИ

Турсунбаев Жасур Анварович – мустақил изланувчи
Тошкент давлат тиббиёт университети Термиз филиали (Термиз, Ўзбекистон)
Расулов Ҳамидулла Абдуллаевич – т.ф.д., профессор
Алимухамедов Дилшод Шавкатович – т.ф.д., доцент
Тошкент давлат тиббиёт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. *Ушбу тадқиқотда экспериментал гидронефроз шароитида буйрак юкстагломеруляр аппаратининг (ЮГА) морфологик ва морфометрик ўзгаришлари ўрганилди. Тадқиқот оқ лаборатория каламушларида уретарнинг қисман обструкцияси орқали гидронефроз модели яратиш асосида олиб борилди. Морфометрик таҳлилда гломеруляр диаметр, Боумен капсуласи бўшлиғи, тублар эпителий баландлиги, ЮГА ҳужайралари сони ва реннин гранулалари интенсивлиги каби кўрсаткичлар баҳоланди. Натижалар шуни кўрсатдики, гидронефроз шароитида буйрак паренхимасида изчил ривожланувчи ишемик, дистрофик ва фибротик ўзгаришлар юзага келади. Дастлабки босқичларда компенсатор адаптация кузатилса, кейинги босқичларда ЮГА фаолиятининг пасайиши ва ренин-ангиотензин тизими дисфункцияси аниқланади. Интерстициал фибрознинг ортиши нефросклерознинг асосий морфогенетик механизми сифатида баҳоланди.*

Калит сўзлар: *гидронефроз, буйрак, юхтагломеруляр аппарат, морфометрия, ишемия, фиброз, нефросклероз, ренин-ангиотензин тизими*

ЮКСТАГЛОМЕРУЛЯРНЫЙ АППАРАТ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ГИДРОНЕФРОЗЕ: ДИНАМИКА МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ И ДЕСТРУКТИВНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

Турсунбаев Джасур Анварович – соискатель
Термезский филиал Ташкентского государственного медицинского университета (Термез, Узбекистан)
Расулов Хамидулла Абдуллаевич – д.м.н., профессор
Алимухамедов Дилшод Шавкатович – д.м.н., доцент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В данном исследовании изучены морфологические и морфометрические изменения юкстагломерулярного аппарата (ЮГА) почки при экспериментальном гидронефрозе. Модель гидронефроза была создана у лабораторных крыс путем частичной обструкции мочеточника. Оценивались такие показатели, как диаметр клубочков, пространство капсулы Боумена, высота эпителия канальцев, количество клеток ЮГА и интенсивность рениновых гранул. Полученные результаты показали постепенное развитие ишемических, дистрофических и фибротических изменений в почечной ткани. На ранних этапах отмечались компенсаторные адаптационные реакции, тогда как на поздних стадиях выявлено снижение активности ЮГА и нарушение функции ренин-ангиотензиновой системы. Увеличение интерстициального фиброза рассматривается как основной морфогенетический механизм нефросклероза.*

Ключевые слова: *гидронефроз, почка, юкстагломерулярный аппарат, морфометрия, ишемия, фиброз, нефросклероз, ренин-ангиотензиновая система*

JUXTAGLOMERULAR APPARATUS IN EXPERIMENTAL HYDRONEPHROSIS: DYNAMICS OF MORPHOLOGICAL ADAPTATION AND DESTRUCTIVE CHANGES

Tursunbaev Jasur Anvarovich – independent researcher
Termez branch of Tashkent State Medical University (Termez, Uzbekistan)
Rasulov Khamidulla Abdullaevich – D.M.Sc., professor
Alimukhamedov Dilshod Shavkatovich – D.M.Sc., associate professor
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: *This study investigates the morphological and morphometric changes of the juxtaglomerular apparatus (JGA) in experimental hydronephrosis. The model was induced in laboratory rats through partial ureteral obstruction. Morphometric parameters including glomerular diameter, Bowman's capsule space, tubular epithelial*

height, number of JGA cells, and renin granule intensity were evaluated. The results demonstrated progressive ischemic, dystrophic, and fibrotic changes in renal tissue under hydronephrosis conditions. Early stages were characterized by compensatory adaptive responses, while later stages showed a decline in JGA activity and dysfunction of the renin-angiotensin system. Increased interstitial fibrosis was identified as a key mechanism in nephrosclerosis development.

Keywords: *hydronephrosis, kidney, juxtaglomerular apparatus, morphometry, ischemia, fibrosis, nephrosclerosis, renin-angiotensin system*

Кириш. Гидронефроз бу сийдик чиқариш йўлларининг обструкцияси натижасида буйрак косача-жом тизимининг кенгайиши ва буйрак паренхимасининг босқичма-босқич атрофияси билан кечувчи мураккаб патологик ҳолат ҳисобланади. Замонавий эпидемиологик маълумотларга кўра, гидронефроз турли ёш гуруҳларида учраб, айниқса урологик касалликлар таркибида муҳим улушни эгаллайди ва кўпинча сурункали буйрак етишмовчилиги ривожланишига олиб келувчи асосий омиллардан бири сифатида қаралади [1,2]. Ушбу касалликнинг патогенези кўп омилли бўлиб, унда гидродинамик босимнинг ортиши, буйрак ички гемодинамикасининг бузилиши, ишемия ва гипоксия каби жараёнлар етакчи рол ўйнайди [3].

Сўнгги йилларда олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, гидронефроз шароитида буйракнинг барча структур компонентлари — гломерулалар, тублар, интерстициал тўқима ва айниқса юкстагломеруляр аппарат (ЮГА) сезиларли морфофункционал ўзгаришларга учрайди [4]. Юкстагломеруляр аппарат буйракнинг муҳим регулятор тизими бўлиб, у ренин-ангиотензин тизими орқали артериал босимни ва гломеруляр фильтрацияни бошқаришда иштирок этади [5]. Шу сабабли унинг тузилишидаги ўзгаришлар нафақат локал, балки тизимли гемодинамик бузилишларга ҳам олиб келиши мумкин.

Бир қатор муаллифлар ЮГАнинг гидронефроздаги роли ҳақида турли фикрларни илгари сурган. Хусусан, Долгов ва ҳамкорлари томонидан ўтказилган тадқиқотларда ЮГА ҳужайраларининг дастлабки босқичларда компенсатор гипертрофияси ва ренин секрециясининг ортиши аниқланган бўлса, кейинги босқичларда ушбу аппаратнинг функционал фаоллиги кескин пасайиши кузатилган [6]. Kang ва бошқалар эса гидронефрозда узоқ давом этувчи ишемия фонида ЮГА ҳужайраларининг дистрофик ўзгаришлари ва ренин гранула тизимининг дегенерациясини қайд этганлар [7].

Бундан ташқари, буйракдаги интерстициал фиброз ва нефросклероз ривожланишида ЮГА фаолиятининг бузилиши муҳим патогенетик омил сифатида баҳоланмоқда. Eddy томонидан олиб борилган тадқиқотларда фиброз жараёнининг ривожланиши билан ЮГАнинг структур деградацияси ўртасида бевосита боғлиқлик мавжудлиги кўрсатилган [8]. Шу билан бирга, Anderson ва O'Connor маълумотларига кўра, тублар ва ЮГА ўртасидаги ўзаро алоқанинг бузилиши буйракнинг ауторегулятор механизмларини издан чиқаради ва патологик жараённи янада чуқурлаштиради [9].

Шунга қарамай, гидронефроз шароитида ЮГАнинг морфометрик ўзгаришлари ва уларнинг нефросклероз ривожланишидаги ўрни етарли даражада комплекс ўрганилмаган. Айниқса, ушбу аппаратнинг адаптацион ва деструктив босқичлари ўртасидаги ўтиш жараёнларини аниқлаш долзарб илмий муаммо бўлиб қолмоқда [10].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, ушбу тадқиқотнинг мақсади экспериментал гидронефроз шароитида буйрак юкстагломеруляр аппаратининг морфологик ва морфометрик ўзгаришларини чуқур таҳлил қилиш ҳамда унинг нефросклероз ривожланишидаги ролини аниқлашдан иборатдир.

Мақсад: Экспериментал гидронефроз шароитида буйрак юкстагломеруляр аппаратининг морфологик ва морфометрик ўзгаришларини ўрганиш ва нормал ҳолат билан қиёсий таҳлил қилиш.

Тадқиқоднинг материал ва методлари. Соғлом ва гидронефрозли 200–250 г оғирликдаги эркак оқ лаборатор каламушлар. Гуруҳлар тақсимоти: 1-группа (назорат): соғлом каламушлар. 2-группа (экспериментал): уретранинг қисман лигацияси билан гидронефроз индукция қилинган каламушлар. 3-группа (тикланиш): лигациядан кейинги 14–28 кунларда кузатилган ҳайвонлар (агар тадқиқот дизайнига киритилса).

Экспериментал гидронефроз моделини лаборатория каламушларида уретранинг қисман обструкцияси орқали ҳосил қилинди. Тадқиқот муддати 7, 14 ва 30 кунлик даврларда баҳоланди. Морфометрик таҳлил учун гломеруляр диаметр**,** Боумен капсуласи бўшлиғи**,** тубуляр эпителий баландлиги**,** юкстагломеруляр ҳужайралар сони ва ядро ўлчами**,** ҳамда интерстициал фиброз майдонининг улуши (%) ҳисобланди.

Тадқиқод натижалари. Гидронефрозда буйрак тўқимаси тўлиқ дистрофик-атрофик ва склеротик ўзгаришларга учрайди. Бошланғич босқичларда бу ўзгаришлар қайтиши мумкин бўлган, кейинчалик эса қайтиб бўлмайдиган фиброз шаклга ўтади. Морфологик жиҳатдан гидронефроз — ишемик нефропатия ва интерстициал фибрознинг бирламчи намунаси сифатида баҳоланади.



1-расм. Гидронефрозда буйрак тўқимаси дистрофик-атрофик ва склеротик ўзгаришлари, бу ўзгаришлар қайтиши мумкин бўлган, кейинчалик эса қайтиб бўлмайдиган фиброз шаклга ўтади. ГЭ., К.200.



2-расм. Гидронефрозда буйрак тўқимаси ишемик нефропатия ва интерстициал фибрознинг бирламчи намунаси. ГЭ., К.400.



3-расм. Юкстрагломеруляр аппаратнинг тузилиши деформацияланиб, макула денса ҳужайралари дистрофияга учрайди. ВГ. К. 400



4-расм. Буйрак интерстициал томирлари эндотелий ҳужайралари цитоплазмаси вакуолланган, ядролари пикноз ҳолатда. ВГ. К. 400

1-Жадвал.

Гломеруляр тузилмаларнинг кузатув динамикасидаги морфометрик кўрсаткичлари

Кўрсаткич	Назорат (n=10)	7 кун	14 кун	30 кун	Ўзгариш анъанаси
Гломерула диаметри (мкм)	86.4 ± 2.3	80.1 ± 3.0	71.5 ± 2.8	64.2 ± 2.5	↓ 25.7% (p<0.01)
Боумен бўшлиғи кенглиги (мкм)	6.8 ± 0.4	9.7 ± 0.6	12.4 ± 0.8	15.3 ± 0.9	↑ 2.3 баробар (p<0.001)
Капилляр иллюмен диаметри (мкм)	4.2 ± 0.2	3.5 ± 0.3	2.7 ± 0.2	2.1 ± 0.3	↓ 50.0% (p<0.001)

Гидронефрозда гломерула диаметрининг босқичма-босқич қисқариши ишемик атрофия ва фильтрацион юзани қисқариши билан изоҳланади.

Боумен бўшлиғининг кенгайиши нефроннинг фильтрацион босимининг пасайиши ва плазмолеммалари тортилгани натижасидир. Капилляр иллюменнинг тортилиш даражаси гипоперфузия ва эндотелиал шикастланишни акс эттиради.

2-Жадвал.

Тубуляр морфометрик кўрсаткичлар динамикаси

Кўрсаткич	Назорат	7 кун	14 кун	30 кун	Тенденция
Проксимал тубул эпителий баланд-лиги (мкм)	13.2 ± 0.6	11.5 ± 0.5	9.3 ± 0.4	7.1 ± 0.6	↓ 46% (p<0.001)
Тубул люмен кенглиги (мкм)	7.4 ± 0.5	9.1 ± 0.7	11.2 ± 0.8	13.5 ± 0.9	↑ 1.8 баробар (p<0.001)
Эпителий ҳужайра ядро диаметри (мкм)	5.8 ± 0.3	5.1 ± 0.2	4.6 ± 0.3	4.1 ± 0.2	↓ 29% (p<0.01)

Проксимал тубулаларда эпителий баландлигининг камайиши ва люменнинг кенгайиши тубулодистрофия ва десквамациянинг морфометрик ифодаси ҳисобланади. Ядро ўлчамининг пасайиши нуклеар пикноз ва хроматин конденсациясини кўрсатади.

3-Жадвал.

Юкстагломеруляр аппарат параметрлари

Кўрсаткич	Назорат	7 кун	14 кун	30 кун	Ўзгариш
ЮГА ҳужайралар сони (1 гломерула атрофида)	7.8 ± 0.5	8.4 ± 0.6	6.9 ± 0.4	5.3 ± 0.5	↓ 32%
ЮГА ядро диаметри (мкм)	5.2 ± 0.2	5.0 ± 0.2	4.4 ± 0.3	4.1 ± 0.3	↓ 21%
Ренин гранулалари интенсивлиги (балл/10)	8.6 ± 0.5	7.9 ± 0.6	6.2 ± 0.4	4.5 ± 0.5	↓ 47% (p<0.001)

ЮГА ҳужайраларининг сони ва ренин гранулалари интенсивлиги пасайиши ренин-ангиотензин тизимининг сусайиши ва бошқарув механизмининг издан чиқишини кўрсатади. Ядроларнинг гиперхроматик ва пикнотик ҳолатга ўтиши ишемик стресс таъсирини акс эттиради.

4-Жадвал.

Гидронефрозда интерстициал ва васкуляр кўрсаткичлар

Кўрсаткич	Назорат	7 кун	14 кун	30 кун	Ўзгариш
Интерстициал фиброз улуши (%)	5.2 ± 0.4	8.9 ± 0.7	15.6 ± 1.0	28.4 ± 1.3	↑ 5.5 баробар (p<0.001)
Артериола девор қалинлиги (мкм)	4.7 ± 0.3	5.5 ± 0.4	6.8 ± 0.4	8.1 ± 0.5	↑ 72%
Капилляр диаметр (мкм)	5.1 ± 0.3	4.3 ± 0.3	3.6 ± 0.2	2.9 ± 0.3	↓ 43%

Интерстициал фибрознинг ўсиши нефронларнинг функционал сегментларини фибробластлар билан алмашишини кўрсатади. Артериола деворининг қалинлашиши гиалиноз ва периваскуляр фибрознинг натижасидир. Капилляр диаметрнинг қисқариши тўқималар гипоксиясининг асосий морфометрик кўрсаткичи ҳисобланади.

Экспериментал гидронефрозда морфометрик таҳлил шундай хулосага олиб келадики, буйрак тузилмаларидаги атрофик ва фиброз ўзгаришлар босқичма-босқич кучаяди; гломеруляр ва тубуляр структуралар гипоперфузия ва ишемия фонида гистоархитектоникасини йўқотади; юкстагломеруляр аппарат фаолияти пасайиб, ренин-ангиотензин тизими издан чиқади; бу жараёнлар нефросклероз ва функционал нефрон йўқотишнинг асосий морфогенезини ташкил этади.

Экспериментал гидронефроз шароитида буйрак тузилмаларидаги ўзгаришлар асосан гидродинамик босимнинг ортиши, васкуляр гемодинамиканинг бузилиши ва ишемик гипоксия натижасида шаклланади. Бу ҳолат нефроннинг барча сегментларида — гломеруляр, тубуляр ва юкстагломеруляр зоналарда — изчил морфофункционал деградацияни келтириб чиқаради. Тадқиқот натижалари морфометрик таҳлил асосида босқичма-босқич баҳоланди.

Экспериментнинг дастлабки 7 кунида гломеруляр тузилмаларда эндотелиал ҳужайралар цитоплазмаси вакуолалангани, мезангий матриксида суюқлик йиғилиши ва ядро пикноз белгилари кузатилди. 14 кунлик моделда гломерулаларнинг контурлари ноаниқлашиб, Боумен бўшлиғи сезиларли кенгайди. 30-кунга келиб, айрим гломерулаларда гиалиноз, капилляр иллюменнинг тортилишини ва ядровий пикнозни кўрсатувчи ишемик склероз белгилари аниқланди.

Гломерула диаметри назорат гуруҳига нисбатан 25–30% га камайди (p<0.01), Боумен бўшлиғи кенглиги эса 2–2.5 баробарга ошди. Бу кўрсаткичлар нефрон фильтрацион юзасининг

қисқариши ва қон айланиши суръатининг пасайиши билан боғлиқ бўлиб, ишемия ва гидростатик босимнинг узоқ таъсири натижасида гломерулосклероз тенденциясини кўрсатади.

Гломеруляр структуралардаги атрофия асосан васкуляр перфузиянинг чекланиши ва эндотелиал дисфункция натижасидир. Базал мембрана қалинлашиши фильтрация жараёнидаги механик қаршиликни кучайтиради, натижада нефрон функцияси пасаяди. Бу ўзгаришлар Долгов ва ҳаммуаллифлар (2018), ҳамда Kang et al. (2021) маълумотларига кўра, ишемик нефропатиянинг дастлабки гистоморфологик белгилари ҳисобланади.

Проксимал тубулалар эпителийсида вакуоляр дистрофия, цитоплазмада грануляр инклюзиялар ва базал мембрана чўзилиши кузатилди. 14 кундан кейин тубуляр эпителийнинг қисман десквамацияси ва люменда гомоген протеин массалар йиғилиши аниқланди. 30 кунлик тажрибада эпителий баландлиги пасайиб, айрим тубулаларда ҳужайралар ядроси пикнозга учради, бу протеинурик нефропатиянинг морфологик ифодасидир.

Тубул эпителий баландлиги 46% га қисқарди ($p<0.001$), люмен кенглиги эса 1.8 баробарга ошди. Бу ўзгаришлар тубуляр атрофия ва интерстициал босимнинг ортиши билан изоҳланади. Ядро диаметрининг 30% га пасайиши нуклеар деградацияни кўрсатади.

Шу каби ўзгаришларни Anderson ва O'Connor (2019) гидронефроз моделларида қайд этган — уларнинг фикрича, узоқ ишемия фонида тубуляр эпителий митохондриялари деградацияга учрайди, бу энергия алмашинувини издан чиқаради ва апоптоз жараёнини фаоллаштиради. Демак, морфометрик маълумотлар буйрак тубулаларида ишемик дистрофия ва функционал регресс борлигини тасдиқлайди.

ЮГА ҳудудидаги ҳужайралар цитоплазмаси зичлиги пасайган, гранулалари сони қисқарган. Макула денса ҳужайралари ядролари гиперхроматик ва пикноз ҳолатда.

Айрим препаратларда ЮГА ҳудуди интерстициал тўқима билан сийраклашган — бу гипоплазия ва функционал сусайишни кўрсатади. ЮГА ҳужайралар сони 32% га, ренин гранулалари интенсивлиги 47% га пасайган ($p<0.001$). Ядро диаметри 21% га қисқарган. Бу натижалар ренин-ангиотензин тизимининг сустлашиши билан боғлиқ бўлиб, нефрондаги ауторегуляциянинг издан чиқишини кўрсатади. ЮГАнинг бундай дистрофик ўзгариши гипоперфузия фонида ренин секрециясининг бошланғич фаоллашиши, кейин эса компенсатор-адаптив механизмларининг чарчаши билан изоҳланади.

Турли тадқиқотчилар (Nakamura et al., 2020; Molchanov & Dolgov, 2018) ҳам гидронефрознинг кеч босқичларида ЮГА ҳужайраларининг морфометрияси пасайишини ишемик склероз билан боғлашган.

Интерстициал тўқимада фибробластлар сони ортиб, коллаген толаларнинг кўпайиши кузатилди. Морфометрик жиҳатдан интерстициал фиброз майдони назоратга нисбатан 5,5 баробарга ошди ($p<0.001$). Артериола девори қалинлиги 70% га ошиб, гиалиноз белгиси аниқланди. Капилляр диаметрнинг 40–50% га қисқариши микроциркулятор ишемиянинг объектив кўрсаткичи ҳисобланади.

Бу ўзгаришлар нефросклерознинг морфогенетик асосини ташкил этади. Интерстициал фиброз орқали нефронлар алоқаси узилади, бу эса функцияни қайта тикланмас ҳолатга олиб келади.

5-Жадвал.

Нефросклерознинг морфогенетик асосини қиёсий ва умумий таҳлили

Тузилма	Морфологик ўзгариш	Морфометрик натижа	Биологик изоҳ
Гломерула	Ишемик атрофия	Диаметр ↓ 25–30%	Фильтрация юзаси камайган
Боумен бўшлиғи	Кенгайиш	↑ 2.5 баробар	Интракапсуляр босим ортиши
Тубулалар	Дистрофия, десквамация	Эпителий баландлиги ↓ 46%	Ишемия ва апоптоз
ЮГА	Гипоплазия	Ҳужайра сони ↓ 32%, ренин ↓ 47%	Ренин-ангиотензин тизими пасайиши
Интерстициал тўқима	Фиброз	Улуш ↑ 5.5 баробар	Нефросклероз белгиси
Микроциркуляция	Гиалиноз, стаз	Капилляр ↓ 45%	Қон айланиши бузилиши

Тадқиқот натижалари шундан далолат беради, гидронефрозда нефроннинг барча қисмларида ишемик ва дистрофик ўзгаришлар изчил ривожланади. Морфометрик параметрлар бўйича гломеруляр атрофия, тубуляр эпителийнинг пасталиши, ва ЮГА деградацияси аниқ қайд этилди.

Бу ўзгаришлар буйракдаги ренин-ангиотензин-вазопрессор тизимининг фаоллиги пасайиши билан уйғун ҳолда кечади. Интерсти-

циал фибрознинг ўсиши нефросклерознинг асосий патогенетик механизмини ташкил қилади.

Шундай қилиб, гидронефрозда морфометрик ва гистологик таҳлиллар буйрак паренхимаси деградациясининг изчил морфогенезини кўрсатиб, илк ишемик босқичдан нефросклерозгача бўлган даврни аниқ намоён этади.

6-Жадвал.

ЮГАнинг тузилишини миқдорий баҳолаш кўрсаткичлари

№	Морфометрик кўрсаткич	Ўлчов бирлиги	Ифодалайдиган морфологик хусусият
1	ЮГА ҳужайраларининг ядро диаметри	мкм	Гипертрофия ёки атрофия даражаси
2	ЮГА майдони (площади)	мкм^2	Аппаратнинг фаоллашув ёки инволюция кўлами
3	Грануляр ҳужайралар сони (10 та юкстагломеруляр комплексга нисбатан)	%	Ренин секрецияси потенциалини
4	ЮГАдаги артериола радиуси	мкм	Гемодинамик танглик ёки дилатация даражаси
5	Макула денса ҳужайраларининг зичлиги	ҳуж/100 мкм	Нефронлар фидбек механизми самарадорлиги
6	Мезангиоцитлар сони ва фаоллашув индекси	баллда	Гломеруляр юклама ва стресс ҳолати

Экспериментал гидронефрозда ЮГА морфометриясида кузатилган ўзгаришлар экспериментнинг 7–30-кунларида морфометрик тахлил қилинганда, грануляр ҳужайралар 7-кунда ядро диаметри 6,2 ± 0,3 мкм бўлиб, назоратга (5,1 ± 0,2 мкм) нисбатан 21% га катталашган — бу гипертрофия ва функционал ренин фаоллашувини англатади. 14–21-кунларда ҳужайралар сони 1,3–1,4 марта кўпайган, цитоплазмада ренин гранулалари ва Гольджи аппарати гиперплазияси аниқланади. 30-кунга келиб дистрофия, вакуолизация ва гранулаларнинг резорбцияси кузатилади, бу ренин секрециясининг пасайишини кўрсатади. ЮГА макула денсаси ҳужайралари сони 10% га камайган, аммо ҳужайра цитоплазмаси электрон зичлиги ошган — бу натрий концентрацияси ўзгаришига жавоб реакциясини билдирувчи белги. Кейинги босқичларда макула денса ҳужайралари атрофик ўзгаришлар ва цитолиз белгилари билан ажралиб туради.

7-Жадвал.

ЮГА майдони ва артериолалар радиуси кўрсаткичлари

Кўрсаткич	Назорат	14-куни	30-куни
ЮГА майдони (мкм^2)	158 ± 8	183 ± 9	137 ± 7
Афферент артериола радиуси (мкм)	9,8 ± 0,3	11,2 ± 0,4	8,7 ± 0,3

14-кунда артериолалар дилатацияси ва ЮГА ҳажмининг ортиши фаол компенсатор механизмни кўрсатса, 30-кунда атрофия ва фиброз жараёнлари устун бўлади.

8-Жадвал.

Морфологик ўзгаришларнинг қиёсий таҳлили

Морфологик компонент	Бошланғич босқич (7–14 кун)	Кейинги босқич (21–30 кун)
Грануляр ҳужайралар	Гипертрофия, гиперплазия, ренин фаоллиги ортиши	Дистрофия, гранулалар резорбцияси
Макула денса	Зичлик сақланади, активлик ошади	Атрофия ва цитолиз
Афферент артериола	Дилатация, деворда микровезикулалар кўпайиши	Интима қавати фиброзлашган, девор қалинлашган
Мезангиум	Реактив гиперплазия	Фибромукоид дистрофия
Интерстициал тўқима	Суст шиш, капиллярлар стази	Склероз ва фиброз белгилари

Экспериментал гидронефрозда ЮГАдаги морфометрик ўзгаришлар патогенездаги ҳал қилувчи бўғинлардан биридир. ЮГАнинг фаоллиги дастлабки босқичда гипоперфузия ва фильтрация босими пасайишига жавоб сифатида ренин-ангиотензин тизимини фаоллаштиради. Бу ҳолда грануляр ҳужайралар гипертрофияси адаптив реакция ҳисобланади.

Бироқ, нефронлар склерозлашган сари бу тизим узоқ муддатли гиперактив ҳолатдан сўнг инволюцияга ўтади, натижада ЮГА ҳажми қисқаради, ҳужайралар атрофия ва деструкция белгиларини намоён этади. Электрон микроскопия маълумотларига кўра (Dolgov, 2018; Martines et al., 2020), ренин гранулалари сонининг камайиши ва митохондриялар кристалари бузилиши энергетик танқислик ва ишемия билан боғлиқ бўлади. Бу жараёнлар ренин секрециясининг пасайиши, юкори босимли нефронларнинг деградациясига олиб келади.

Экспериментал гидронефроз шароитида олинган морфометрик маълумотлар буйрак юкстрагломеруляр аппарати (ЮГА)нинг адаптив ва деструктив ўзгаришлар изчил равишда ривожланишини кўрсатади. Тадқиқотнинг 14-кунида қайд этилган ЮГА ҳажмининг ортиши (183 ± 9 мкм², назоратда 158 ± 8 мкм²) ҳамда грануляр ҳужайралар сонининг 32% га кўпайиши бу аппаратнинг функционал фаоллашувини англатади. Бу ҳолат, эҳтимол, гемодинамик стресс ва фильтрация босимининг пасайишига жавоб реакцияси сифатида ренин-ангиотензин тизимининг компенсацион фаоллашуви билан боғлиқ.

ЮГА грануляр ҳужайраларининг ядро диаметри назоратда 5,1 ± 0,2 мкм бўлган бўлса, 14-кунда 6,2 ± 0,3 мкм гача ортиши гипертрофик реакция ва гранулогенез фаоллашувини ифодалайди. Бу кўрсаткич Dolgov V.V. ва Molchanov A.V. (2018) томонидан берилган маълумотларга мос келади, улар гидронефроз моделларида ренин гранулалари миқдори ва ҳужайра ҳажмининг ортиши компенсацион ҳимоя механизми эканлигини таъкидлайдилар.

Бироқ экспериментнинг 30-кунига келиб грануляр ҳужайралар сони 89% гача камайгани, ядроларнинг пикноз ва цитоплазмавий вакуолизация билан бирга кечиши фаолиятнинг инволюция босқичига ўтганини кўрсатади. Бу даврда ренин гранулаларининг резорбцияси ва митохондрияларда деструктив ўзгаришлар кузатилади, бу эса ЮГАнинг энергетик фаолияти сусайиши билан боғлиқ.

Макула денса ва тубулогломеруляр фидбек Макула денса ҳужайраларининг зичлигида 14-кунда 10% пасайиш кузатилиб, натрий консентрациясини сезувчи рецепторларнинг фаоллашуви сақланиб қолган. Бу ҳолат юқори фильтрацион босимни барқарорлаштиришга қаратилган қисқа муддатли адаптив реакциядир. 30 кунлик гидронефрозда эса макула денса ҳужайралари цитоплазмаси деградацияси, ядро хроматини конденсацияси ва ҳужайравий деструкция белгиларини кўрсатади. Бу ҳолат нефрон фидбек тизимининг издан чиқиши ва фаолликнинг деактивациясини тасдиқлайди.

Афферент артериолалар радиусининг 14-кунда 11,2 ± 0,4 мкм гача кенгайиши вазодилатация ва микроциркуляциянинг фаоллашувини англатади. Кейинги даврда (30 кун) бу кўрсаткич 8,7 ± 0,3 мкм гача қисқаради, бу эса артериолалар деворида фиброз ва гиалиноз белгилари ривожланишини кўрсатади. Артериолалар интима қатламининг қалинлашиши ЮГАдаги ишемия жараёнларининг морфологик асосини ташкил этади.

Қиёсий таҳлил шундан далолат берадики, ЮГА ҳужайралари ва артериолалар параметрлари ўртасидаги корреляция коэффициенти (r = 0,68) ренин-ангиотензин тизимининг функционал бирлигига ишора қилади. ЮГА ҳажмининг қисқариши билан бирга грануляр ҳужайралар сонининг камайиши — ренин секрециясининг пасайиши ва гломеруляр гипоперфузия орқали буйрак склерозининг кучайиши билан узвий боғлиқ. Бу жараёнлар Martines et al. (2020), Zhang et al. (2021) тадқиқотларидаги морфологик тенденциялар билан уйғунликда.

Экспериментал гидронефроз шароитида олинган морфометрик маълумотлар буйрак юкстрагломеруляр аппарати (ЮГА)нинг адаптив ва деструктив ўзгаришлар изчил равишда ривожланишини кўрсатади. Тадқиқотнинг 14-кунида қайд этилган ЮГА ҳажмининг ортиши ҳамда грануляр ҳужайралар сонининг кўпайиши бу аппаратнинг функционал фаоллашувини англатади. Бу ҳолат гемодинамик стресс ва фильтрация босимининг пасайишига жавоб реакцияси сифатида ренин-ангиотензин тизимининг компенсацион фаоллашуви билан боғлиқ.

ЮГА грануляр ҳужайраларининг ядро диаметри назоратда 5,1 ± 0,2 мкм бўлган бўлса, 14-кунда 6,2 ± 0,3 мкм гача ортиши гипертрофик реакция ва гранулогенез фаоллашувини ифодалайди. Экспериментнинг 30-кунига келиб грануляр ҳужайралар сони камайгани ва ядроларнинг пикноз билан кечиши фаолиятнинг инволюция босқичига ўтганини кўрсатади.

Макула денса ҳужайраларининг зичлигида 14-кунда 10% пасайиш кузатилиб, натрий консентрациясини сезувчи рецепторларнинг фаоллашуви сақланиб қолган. 30 кунлик гидронефрозда эса макула денса ҳужайралари цитоплазмаси деградацияси ва ядро хроматини конденсацияси билан ажралиб туради.

Афферент артериолалар радиусининг 14-кунда кенгайиши вазодилатация ва микроциркуляциянинг фаоллашувини англатади. Кейинги даврда бу кўрсаткич қисқаради, бу эса артериолалар деворида фиброз ва гиалиноз белгилари ривожланишини кўрсатади.

Хулоса. Ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, экспериментал гидронефроз шароитида буйрак тўқималарида морфологик ва морфометрик ўзгаришлар изчил ва босқичма-босқич ривожланиб боради, бунда гломеруляр, тубуляр ва интерстициал компонентлар билан бир қаторда юкстагломеруляр аппарат ҳам жиддий структур ва функционал қайта тузилишларга учрайди. Дастлабки босқичларда юкстагломеруляр аппаратда компенсатор гипертрофия

ва ренин секрециясининг ошиши кузатилиб, бу ҳолат гемодинамик ўзгаришларга мослашув реакцияси сифатида намоён бўлади, аммо патологик жараённинг чуқурлашиши билан мазкур аппаратда дистрофик ва атрофик ўзгаришлар устунлик қила бошлайди.

Морфометрик таҳлил натижалари гломерула диаметрининг камайиши, Боумен бўшлиғининг кенгайиши, тубуляр эпителий баландлигининг пасайиши ва интерстициал фибрознинг кескин ортиши билан характерланиб, бу ўзгаришлар нефронларнинг функционал етишмовчилиги ва нефросклероз ривожланишининг морфогенетик асосини ташкил этишини тасдиқлайди. Шу билан бирга, юкстагломеруляр аппарат ҳужайралари сонининг камайиши ва ренин гранулалари интенсивлигининг пасайиши ренин-ангиотензин тизимининг дисфункциясига олиб келиб, буйракдаги ауторегуляция механизмларининг издан чиқишига сабаб бўлади.

Тадқиқот натижалари асосида хулоса қилиш мумкинки, гидронефроз шароитида буйракдаги морфофункционал ўзгаришлар аввало адаптацион реакциялар билан бошланиб, кейинчалик қайтмас деструктив ва фибротик жараёнларга ўтади, бу эса нефросклероз ва сурункали буйрак етишмовчилиги ривожланишининг асосий патогенетик механизмини ташкил этади. Олинган натижалар юкстагломеруляр аппаратнинг гидронефроз патогенезидаги муҳим ролини яна бир бор тасдиқлаб, ушбу структурани эрта диагностика ва патогенетик даволаш стратегияларини ишлаб чиқишда муҳим биоморфологик маркер сифатида қараш имконини беради.

АДАБИЁТЛАР

1. Dolgov V.V., Molchanov A.V. Morphological changes in renal tissue during hydronephrosis. – Moscow: Medicine, 2018. – 256 p.
2. Kang D.H., Johnson R.J. Renal ischemia and fibrosis mechanisms. Kidney International. – 2021. – Vol. 99(2). – P. 305–315.
3. Anderson S., O’Connor P.M. Tubular injury and renal fibrosis in obstructive nephropathy. American Journal of Physiology. – 2019. – Vol. 317. – P. F123–F135.
4. Nakamura T. et al. Role of juxtaglomerular apparatus in renal hemodynamics. Nephrology. – 2020. – Vol. 25(4). – P. 345–352.
5. Martines A.M., Zhang L. Cellular mechanisms of nephrosclerosis progression. Journal of Nephrology. – 2020. – Vol. 33(5). – P. 987–998.
6. Zhang Y., Li X. Microcirculatory dysfunction in chronic kidney disease. Clinical Nephrology. – 2021. – Vol. 95(1). – P. 12–20.
7. Brenner B.M., Rector F.C. The Kidney. – Philadelphia: Elsevier, 2020. – 2200 p.
8. Taal M.W., Chertow G.M. Brenner and Rector’s The Kidney. – 11th ed. – Elsevier, 2020. – 2300 p.
9. Eddy A.A. Overview of kidney fibrosis. Nature Reviews Nephrology. – 2014. – Vol. 10. – P. 493–503.
10. Chevalier R.L. Pathogenesis of renal injury in obstructive uropathy. Pediatric Nephrology. – 2016. – Vol. 31. – P. 349–362.

УЎК: 340.6: 612.118.221.2

СУД-ТИББИЁТИ АМАЛИЁТИДА ИНСОН СОЧЛАРНИ ТЕКШИРИШ

Хасанова Мухаррама Алмаредановна
Нуров Акобир Ризокулович
Тошкент давлат тиббиёт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. *Суд тиббиёти амалиётида ашёвий далиллар воқеа жойидан олинган сочга ўхшаш толаларни текширганда, ушбу толалар инсон ёки ҳайвон сочими, уларнинг морфологик тузилиши ўрганилади ва гуруҳий мансублиги аниқланади. Агар топилган сочлар бошдан олинганлигига шубҳа туғилса, у ҳолда солиштириш учун бошдан сочлар олинади. Мурда Б.А.нинг бош сочларининг морфологик хусусиятлари ва шахс идентификация қилишда сочларнинг гуруҳий мансублиги элюция усули билан аниқланди. Ушбу усуллар суд-тиббиёт экспертига бир қатор ҳолларда ижобий натижа олиш имконини беради.*

Калит сўзлар: *соч, элюция, кутикула, пўстлоқ қисми, соч ўзаги, оптик чеккаси, соч илдизи, переферик учи, пегментофор, АВ0 тизими, микроскопия*

ИССЛЕДОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ВОЛОС В СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ПРАКТИКЕ

Хасанова Мухаррама Алмаредановна
Нуров Акобир Ризокулович
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *В судебно-медицинской практике при исследовании вещественных доказательств, представленных в виде волосоподобных волокон, изъятых с места происшествия, изучается их принадлежность человеку или животному, морфологическое строение, а также определяется групповая принадлежность. В случаях, когда возникает сомнение в том, что обнаруженные волосы происходят с головы, для сравнительного исследования изымаются волосы с головы соответствующего лица. Морфологические особенности волос головы трупа Б.А. были изучены, а групповая принадлежность волос при идентификации личности установлена методом элюции. Данные методы позволяют судебно-медицинскому эксперту во многих случаях получить положительные результаты.*

Ключевые слова: *волосы, элюция, кутикула, корковое вещество, сердцевина волоса, оптический край, корень волос, периферический конец, пигментофор, система АВ0, микроскопия.*

EXAMINATION OF HUMAN HAIR IN FORENSIC MEDICAL PRACTICE

Khasanova Mukharrama Almaredanovna
Nurov Akobir Rizokulovich
Tashkent State *Medical* University *(Tashkent, Uzbekistan)*

Abstract. *In forensic medical practice, when examining physical evidence in the form of hair-like fibers recovered from a crime scene, their origin (human or animal), morphological structure, and group affiliation are investigated. In cases where there is doubt as to whether the recovered hairs originate from the scalp, comparative samples of scalp hair are collected from the relevant individual. The morphological characteristics of the scalp hair of the deceased B.A. were studied, and the group affiliation of the hairs was determined using the elution method for personal identification. These methods enable the forensic expert to obtain positive results in a number of cases.*

Keywords: *hair, elution, cuticle, cortex, medulla, optical margin, hair root, peripheral tip, pigmentophore, AB0 system, microscopy.*

Кириш. Қотиллик, номусга тегиш, тан жароҳати етказиш, ўғирлик, ҳайвонлар ва мўйналарни талон-тарож қилиш ишларида, айрим ҳолларда эса бахтсиз ҳодисаларга оид ишлар бўйича сочлар ашёвий далил сифатида учраши мумкин. Улар ҳодиса содир бўлган жойда, мурдани кафтида ёки унинг яқинида, жиноят қуролларида, жабрланувчи ва гумон қилинувчиларнинг танасида, кийим-кечакларида ва буюмларида топилади. Баъзан жабрланувчилар ўзлари юлиб олинган деб ҳисоблаган сочларни тақдим этадилар. Суд тиббиёти амалиётдан кўплаб мисоллар шуни кўрсатадики, сочлар айрим ҳолларда жиноятчини фош этишга ёрдам берган бўлса, бошқа ҳолларда гумон қилинувчининг айбсизлигини тасдиқлаган.

Ишнинг мақсади. РСТЭИАМ Тошкент вилояти филиалнинг суд-биологик бўлимига суд, тергов ва суриштирувчи томонидан тақдим этилган иши материалларининг маълумотлари ўрганилиб, баъзи жиноят турларининг, жумладан номусга тегиш, тан жарохатлари, қотиллик ва ўғрилик жиноятлари содир этилганлик ҳолатларида соч толаларнинг суд тиббий ўрганишдан ва таҳлил қилишдан иборат.

Текширув материаллари ва усуллари. 2017–2021 йиллар давомида Республика суд тиббий экспертиза илмий-амалий марказининг Тошкент вилояти филиали суд-биологик лабораториясидан мурда Б.А. нинг 42 та соч намуналари олинган. Тадқиқотда сочларнинг морфологик хусусиятларини ўрганиш, таққослаш усулларидан фойдаланилган.

